ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ ВА КОММУНИКАЦИЯЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ВАЗИРЛИГИ

МУҲАММАД АЛ-ХОРАЗМИЙ НОМИДАГИ ТОШКЕНТ АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ УНИВЕРСИТЕТИ

“ҲОЗИРГИ ШАРОИТДА ЮҚОРИ МАЛАКАЛИ КАДРЛАРНИ ТАЙЁРЛАШДА ЎҚИТИШНИНГ ЗАМОНАВИЙ ТИЗИМЛАРИ ВА ТЕХНОЛОГИЯЛАРИНИ ҚЎЛЛАШ МАСАЛАЛАРИ”

Республика илмий-услубий конференцияси маърузалар ТЎПЛАМИ

СБОРНИК

докладов республиканской научно-методической конференции

ВОПРОСЫ ПРИМЕНЕНИЯ СОВРЕМЕННЫХ СИСТЕМ И ТЕХНОЛОГИЙ ОБУЧЕНИЯ ПРИ ПОДГОТОВКЕ ВЫСОКОКВАЛИФИЦИРОВАННЫХ КАДРОВ В НАСТОЯЩИХ УСЛОВИЯХ

The COLLECTION of reports

of the Republican Scientific and methodological conference of Tashkent University of Information Technologies named after Muhammad al-Khwarizmi

THE ISSUES OF APPLICATION OF MODERN SYSTEMS AND TECHNOLOGIES IN THE PREPARATION OF HIGHLY QUALIFIED PERSONNEL IN THE CURRENT CONDITIONS

Тошкент 2021

Конференция ташкилий қўмитасининг

Т А Р К И Б И :

Бабаходжаев С.Н.	ТАТУ ректори, раис.
Садуллаева Ш.А.	ТАТУ ўқув ишлари бўйича проректор в.б., раис ўринбосари;
	Аъзолар:
Камилов М.М.	Академик
Бекмуратов Т.Ф.	Академик
Эргашев А.К.	ТАТУ ўқув услубий бошқарма бошлиғи;
Абдужаппарова М.Б.	ТАТУ “Телекоммуникация инжинирингги” кафедраси мудири;
Исаев Р.И.	ТАТУ “Телекоммуникация инжинирингги” кафедраси профессори;
Хужаматов Х.Э.	ТАТУ “Маълумот узатиш тармоқлари ва тизимлари” кафедраси мудири;
Парсиев С.С.	ТАТУ “Телекоммуникацияда бошқарув тизимларининг аппарат ва дастурий таъминоти” кафедраси мудири;
Носиров Х.Х.	ТАТУ “Телерадиоэшиттириш тизимлари” кафедраси мудири;
Мадаминов Ҳ.Х.	ТАТУ “Мобиль алоқа технологиялари” кафедраси мудири;
Мухаммадиев А.Ш.	ТАТУ “Аудиовизуал технологиялар” кафедраси мудири;.
Базарбаев Б.Ж.	ТАТУ “Телестудиялар тизимлари ва иловалари” кафедраси мудири;
Муминов Б.Б.	ТАТУ-БГУИР қўшма ахборот технологиялари факультети “Информатика асослари”кафедраси мудири;
Джуманов Ж.Х.	ТАТУ “Компьютер тизимлари” кафедраси мудири;
Зайнидинов Х.Н	ТАТУ “Ахборот технологиялари” кафедраси мудири;
Назирова Э.Ш.	ТАТУ “Мультимедиа технологиялари” кафедраси мудири;
Исмоилова Г.Ф.	ТАТУ “Менежмент ва маркетинг” кафедраси мудири;
Иминова Н.А.	ТАТУ “АКТ соҳасида иқтисодиёт” кафедраси мудири;
Ганиев С.К.	ТАТУ “Ахборот хавфсизлигини таъминлаш” кафедраси профессори;
Ганиев А.А.	ТАТУ “Ахборот хавфсизлигини таъминлаш” кафедраси мудири, масъул котиб;
Нишанов А.Х.	ТАТУ “Ахборот технологиялари дастурий таъминоти” кафедраси профессори ;
Шарипова А.А.	ТАТУ “Чет тиллар” кафедраси мудири;
Туленова Г.Ж.	ТАТУ “Гуманитар фанлар” кафедраси профессори;
Делов Т.Э.	ТАТУ “Ахборот таълим технологиялари” кафедраси мудири;
Сапаев М.	ТАТУ “Энергия таъминлаш тизимлари” кафедраси доценти, мухаррир;
Туляганов А.А.	ТАТУ “Электроника ва радиотехника” кафедраси мудири;
Байджанов М.	ТАТУ Ургенч филиали директори;
Қаршиев З.А.	ТАТУ Самарқанд филиали директори в.б.;
Расулов А.	ТАТУ Фарғона филиали директори;
Қаипбергенов Б.	ТАТУ Нукус филиали директори;
Тургунов О.	ТАТУ Қарши филиали директори;
Абдуллаева Н.Т.	ТАТУ ўқув услубий бошқарма ходими, котиба.

МУҲАММАД АЛ-ХОРАЗМИЙ НОМИДАГИ ТОШКЕНТ АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ УНИВЕРСИТЕТИ РЕКТОРИ С.Н. БАБАХОДЖАЕВНИНГ КИРИШ СЎЗИ

Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга йўллаган мурожаатномасини барча ватандошларимиз қатори, таълим сохаси вакилари ҳам чукур ўрганиб мухокама килмокдалар.

Давлатимиз раҳбарининг ушбу мурожаатномасида таълим тарбия ва илм-фан соҳасини ривожлантириш, олий таълим тизимидаги ислоҳотларни фаол давом эттириш ҳамда ёшларни қўллаб-қувватлаш борасида билдирилган фикрлар бугунги кунда истиқболли, замонавий кадрлар тайёрлашдаги долзарб муаммоларни ҳал этишга хизмат қилади.

2021 йилдан олий таълимга ажратиладиган давлат грантлари сонини камида 25 фоизга етказилиши ва эҳтиёжманд оилалар қизлари учун давлат грантларини 2 баробарга кўпайтирилиши эртанги кун эгалари бўлмиш билимли ёшларни ҳар жиҳатдан рағбатлантириш, ижтимоий ҳимоя қилиш, жамиятда муносиб ўринларни эгаллашларига янада кенгроқ имкониятлар яратади.

Бундан ташқари, академик лицей ва техникумларни олий таълим муассасаларига бириктирилиши, техникумлар билан ишлаб чиқариш корхоналари ўртасида ҳамкорликни мустаҳкамланиши мақсадли кадрлар тайёрлаш тизимини ривожланишида ҳамда таълим сифатини ошишида алоҳида аҳамиятга эга. Юртбошимизнинг бу борадаги ташаббусига лаббай деб жавоб бериш ва ҳаётга тўлақонли тадбиқ этиш ҳар бир таълим муассасаси вакилининг шарафли бурчига, фаолият мазмунига айланиши лозим.

Келгуси йилдан илм-фан соҳасида олийгоҳлар ва илмий ташкилотлардаги докторантлар сонининг 4,5 мингга етказилиши ёки 2017 йилга нисбатан 3 баробарга оширилиши режалаштирилмоқда. Ушбу мақсадлар учун бюджетдан қўшимча 240 миллиард сўм ажратилиши кутилмоқда.

Доцент ва профессор илмий унвонлари ҳамда фалсафа ва фан доктори илмий даражаларини бериш ваколатининг етакчи олий таълим муассасалар илмий кенгашларига берилиши ҳар бир педагог ва тадқиқотчиларга янги имконият эшикларини очиб беради.

2021 йилдан юртимиздаги 30 та етакчи олийгоҳга ўқув дастурларини ишлаб чиқиш, қабул квотаси ва молиявий масалаларни ҳал қилишда мустақиллик берилиши кадрлар тайёрлаш жараёнини такомиллаштиришга, олий таълим муассасалари ўртасида эркин рақобат муҳитини ривожлантиришга ўзининг ижобий таъсирини кўрсатади.

“Эл-юрт умиди” жамғармаси орқали хорижий олий ўқув юртларига магистр ва докторантларни юбориш квотасини 5 баробарга оширилиши илм йўлини танлаган ёш тадқиқотчиларга муносиб шарт-шароитлар яратиб беради, уларни замонавий билимларни пухта ўзлаштириши ва илмий салоҳиятларини оширишда муносиб рағбат бўлади.

Бир сўз билан айтганда, мазкур Мурожаатнома жамиятимиз ҳаётидаги барча жабҳалар билан бирга, илм-фан ва таълим тизимини янги босқичга олиб чиқишга ўзига хос омил бўлиб хизмат қилади.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар Стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947-сон фармони ҳамда Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Муҳаммад ал-Хоразмий номидаги Тошкент ахборот технологиялари университетида кадрлар тайёрлаш тизимини тубдан такомиллаштириш ва самарадорлигини ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 569-сон қарори мамлакатимизни ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш ва университетда таълим тизимини такомиллаштириш борасидаги устувор вазифаларга мос ҳолда кадрлар тайёрлашнинг мазмун-мохиятини тубдан қайта кўриб чиқиш, халқаро стандартлар даражасида олий малакали мутахассислар тайёрлаш учун зарур шароитлар яратиш мақсадида қабул қилинган.

“Ҳозирги шароитда юқори малакали кадрларни тайёрлашда ўқитишнинг замонавий тизимлари ва технологияларини қўллаш масалалари” мавзусидаги Республика илмий-услубий конференцияси ушбу қарор талабларини бажариш мақсадида университетимиз профессор-ўқитувчилари томонидан амалга оширилаётган ва олдимизда турган долзарб масаларни муҳокама қилиш имконини беради деб ўйлайман.

Барчамизга яхши маълумки, Муҳаммад ал-Хоразмий номидаги Тошкент ахборот технологиялари университети ва унинг минтақавий филиаллари 2018-2019 ўқув йилидан бошлаб Республикада биринчилардан бўлиб таълимнинг кредит тизимига талабаларни қабул қилди ва ҳозирги кунда ушбу тизимни босқичма-босқич барча курсларга тўлиқ жорий этиш ва такомиллаштириш бўйича ишлар олиб бормоқда.

Кредит тизимига ўтилиши муносабати билан университетда ўқув жараёни тубдан ўзгарди, ўқув режалар хорижий етакчи олий таълим муассасаларининг ижобий тажрибалари асосида таҳлил қилинди ва янгидан ишлаб чиқилди. Унга кўра, университетда юқори малакали мутахассисларни тайёрлаш, уларнинг касбий-амалий кўникмаларини ошириш мақсадида янги ўқув режаларининг

фанлар сони 43 тадан 31 та туширилди, фанлар таркиби қайта кўриб чиқилди, ўқитишнинг янги тизими жорий этилди.

Халқаро стандартлар талабларидан келиб чиқиб бакалавриат таълим йўналишлари ва магистратура мутахассисликлари бўйича янги фанлар киритилди. Шунингдек, таълим йўналишлари ва мутахассисликлари бўйича ўқув режаларидаги 70-80 фоиз фанлари ҳамда магистратура мутахассисликлари ўқув режаларнинг 80-90 фоиз фанлари янгиланди ва такомиллаштирилди.

Маълумки, 2020 йилнинг апрел ойидан бошлаб пандемия сабабли, Республикамизнинг барча таълим муассасалари қатори Муҳаммад ал-Хоразмий номидаги Тошкент ахборот технологиялари университетида хам таълим масофавий (онлайн) шаклда ташкил этиб келинмоқда.

Барча фанлардан контентлар (видеодарслар, маъруза матнлари, тақдимотлар, амалий ва лаборатория машғулотлари учун қўлланмалар, виртуал лабораториялар, тест саволлари ва бошқа қўшимча материаллар) университет профессор-ўқтувчилари томонидан яратилган cms.tuit.uz масофавий таълим платформасига жойлаштирилди.

Профессор-ўқитувчилар томонидан машғулотлар тасдиқланган дарс жадваллари асосида ўқув аудиторияларда (ZOOM, WebEx ва б.) тизимларидан фойдаланган ҳолда ўтилмоқда.

Шунингдек, талабалар учун университет Ахборот-ресурс маркази фондида мавжуд 4 485 номдаги дарслик ва ўқув қўлланмалар, 25439 номдаги илмий адабиётларларнинг электрон нусҳаларидан (ARMAT++ дастури орқали) фойдаланиш йўлга қўйилган.

Жорий ўқув йилида янги ташкил қилинган 1 та бакалавриат таълим йўналиши ва 8 та магистратура мутахассисликларига қабул амалга оширилди, шунингдек, уларнинг давлат таълим стандартлари, малака талаблари, ўқув режалари ва фан дастурлари тайёрланди ва Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги томонидан ўрнатилган тартибда тасдиқланди.

2020 йилда университет профессор-ўқитувчилари томонидан тайёрланган 11 та дарслик, 40 та ўқув қўлланма ва 16 та монографиялар Ўзбекистон Республикаси Ахборот технологиялари ва коммуникацияларини ривожлантириш вазирлиги томонидан ажратилган маблағлар ҳисобидан чоп этилди. Хозирги кунда яна 5 та дарслик 24 та ўқув қўлланма ва 15 та монографияларни чоп этиш ишлари якунланмоқда ҳамда ўқув адабиётларни ишлаб чиққан университет ва унинг ҳудудий филиаллари профессор-ўқитувчиларига гонорарлар берилмоқда.

2021 йилда университет ҳудудида 500 ўринга мўлжалланган янги ўқув биносининг топширилиши кўзда тутилган.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг қатор чиқишлари ва қарорларида белгилаб берилган Олий таълим тизимини янада ривожлантиришга оид вазифалари ва талабларини бажариш мақсадида олиб борилаётган ишлар, жумладан, фанларни ўқитишнинг янги услубиёти, университетда мутахассисларни тайёрлашнинг узлуксиз таълим тизимини ривожлантириш, мамлакатимизнинг изчил ривожланиб бораётган иқтисодиётини юқори малакали кадрлар билан таъминлаш, соҳа тармоқларини стратегик жиҳатдан комплекс ривожлантириш масалаларини ҳал қилиш борасида олиб бораётган ишларимизнинг бир қисми бўлиб хизмат қилади деб умид қиламиз.

Ҳурматли анжуман иштирокчилари! Жахон соғлиқни сақлаш ташкилоти мутахассисларининг фикрига кўра пандемия хали узоқ вақт давом этиши кутилмоқда. Бу эса ўз навбатида, ҳозирги шароитда яшаш ва ишлашга мослашишни, айниқса ўқитишнинг янги самарали услубиятларини ўқув жараёнига жорий этишни ва таълим сифатини оширишни тақозо этади.

Юқоридигиларни инобатга олиб, Сизлардан **“Ҳозирги шароитда юқори малакали кадрларни тайёрлашда ўқитишнинг замонавий тизимлари ва технологияларини қўллаш масалалари”** мавзусидаги Республика илмий-услубий конференцияси ишига ижодий ёндашишни ва фаол қатнашишингиз тилаб қоламан.

КРЕДИТ-МОДУЛ ТИЗИМИДА ТАЛАБАЛАРНИНГ ИННОВАЦИОН ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИДАН ФОЙДАЛАШНИНГ АҲАМИЯТИ

Зарипова Д.А., ТАТУ

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8-октябрдаги ПФ-5847 сон фармони билан тасдиқланган Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясида олий таълим жараёнларига рақамли технологиялар ва замонавий ўқитиш усулларини жорий этиш, ёшларни ишмий фаолиятга кенг жалб этиш, коррупцияга қарши курашиш, мухандислик-техник таълим йўналишларида таълим олаётган талабалар улушини ошириш, кредит-модул тизимини жорий этиш, ўқув режаларда амалий кўникмаларни оширишга қаратилган мутахассислик фанлари

бўйича амалий машғулотлар улушини ошириш бўйича аниқ вазифалар белгилиб берилган.

Маълумки, таълим мазмуни инсонни ўқитиш жараёнида эгаллаши лозим бўлган компетенциялар ҳажми ҳамда характери билан белгиланади. Шу сабабли ҳам таълим мазмуни режалаштирилган мақсадга мувофиқ ҳолдаги йўналиш ва ҳажм бўйича шакллантирилади. У тегишли меъёрий ҳужжатлар: таълим стандартлари, ўқув режа, ўқув дастурлари шаклида расмийлаштирилиб, ўрнатилган тартибда тасдиқланади.

Таълим мазмунини тўғри белгиланиши ҳамда унга зарур ўзгартиришлар киритишда таълим мазмунининг янгиланиб бориш имкониятлари, яъни таълим мазмунини модернизация қилишни ҳам эътиборга олиш лозим. Белгиланган мазмун асосида ўқув фанлари, ўқув соатлари, машғулот турлари аниқланади ва бунда таълим мазмуни томойилларига асосланади.

Кредит тизими яна талабаларга йўналтирилган таълимга асосланада. Бу ўқув муҳитида талабаларни мустақил ўрганиш ва танқидий фикрлаш қобилиятни оширишга қаратилган сифатли ўзгариш жараёни бўлиб, натижаларга асосланган ёндашувдир. Талабаларга йўналтирилган таълим қуйидаги элементларга асосланади:

• талабанинг фаол ўрганиши

• танқидий ва таҳлилий ўрганиш ва тушунишга урғу бериш

• талабанинг маъсулиятини ва жавобгарлигини ошириш

• талабанинг мустақил ўрганиши ошириш

• талаба ҳамда профессор-ўқитувчилар ўқув жараёнида акс эттирувчи (reflective) ёндашувидан фойдаланиш. Кредит модуль тизимида янги дастурлар яратиш ушбу тамойилларни инобатга олиш мақсадга мувофиқ бўлади.

Ҳар бир талаба ўзининг мотивацияси ва индивидуал имкониятларига асосан ўзининг махсус компетенцияларига эга бўлади. Бу компетенциялар техник ва технологик, психологик-педагогик, фалсафий, физик-математик ҳамда бошқа кўринишдаги билимлар тўплами бўлиб, талаба қайси йўналишга мос билимлар эхтиёжи бўлса, шу мазмундаги билимларни банкдан ажратади. Бу билимларни махсус компетенциялар асосида чуқурлаштириб ўрганиш касбий компетенликни шакллантиришга асос бўлади.

Инновацион фаолиятга асосланган ўқув жараёнини инновацион янги илмий ғоялар ва концепциялар асосида таълим мазмунини янгилашга ва уни такомиллаштиришга хизмат қилади. Бунда ўқитувчиларнинг касбий компетентлик даражалари юқори бўлиши талаб этилади, у эса ўз навбатида, талабаларнинг ўқув фаолиятига таъсир қилади. Таълим-тарбияга инновацион

ёндашув доимий ва мустақил равишда олиб борилади. Талаба янада кўпроқ янги илмий ғояларнинг тадқиқотчиси ва амалга оширувчиси бўлиб етишади ҳамда унда ҳаётга, меҳнатга, ўз касбига нисбатан инновацион ёндашуви шаклланади. Демак, таълим жараёнида инновацион технологияларни киритиш, педагогик янгиликларни яратиш, баҳолаш ва ўзлаштириш жараёнларни бошқариш масалаларини ижобий ҳал қилишда инновацион фаолият муҳим аҳамият касб этади.

Таълимнинг ахборотлаштириш шароитида ташкил этишнинг муҳим омиллар сифатида қуйидаги электрон таълим шакллари, усул ва воситаларини келтириш мумкин:

Mobile Learning. Интернет тармоғига уланган ва хисоблаш имкониятларга эга мобил қурилмалар Mobile “SMART phones” воситаларнинг таълимда оммалашуви. Мобил ўқув материалларини таклиф қилиш - бу мобил таълимдан фойдаланишнинг энг кенг тарқалган усули ҳисобланади. Ўқитувчи интернетга жойлаштирган видеони иштирокчилар томоша қилгандан сўнг, иштирокчиларга топшириқлар берилиши мумкин. Мобил таълимнинг ушбу усулининг интерактивлиги камроқ ҳисобланади. Ўқитувчи ва талабалар ўртасида ҳеч қандай ўзаро боғлиқлик ё'қлиги сабабли, таълим олишни асинхрон усулига айлантиради.

МОДЕРНИЗАЦИЯ КРЕДИТНОЙ СИСТЕМЫ ОБУЧЕНИЯ НА ОСНОВЕ КОМПЕТЕТНОСТНОГО ПОДХОДА

Имамов А.Э., Академия МВД,
Имамов Э.З., Холмедов Х.М., ТУИТ

Система накопления и переноса кредитов.

Система накопления и переноса кредитов — относительно новая система оценки знаний в системе ВО (хотя система была впервые разработана в 1988 г.).

Из различных кредитных систем в рамках Болонского процесса на первое место вышла European Credit Transfer System (ECTS) или Европейская система перевода и накопления кредитов (кредитных единиц). Эта система появилась в Европе как часть Болонского процесса для оценки знаний студента, способствующей созданию единого европейского образовательного пространства, конкурентоспособного в условиях цивилизации начала XXI в. Однако, единство образовательного пространства не предполагает его

унификации. Каждая страна, а также каждое учебное заведение той или иной страны могут и должны сохранять свои традиции, приоритеты и достижения в области образования. Понятие «единое пространство» предполагает взаимную прозрачность (или понятность) образовательной практики разных стран и вузов по отношению друг к другу. (Понятность, например, означает, что для подготовки бакалавров по ИКТ нужна физика и поэтому она должна быть у всех ИКТ - вузах).

Каждая страна, каждое учебное заведение той или иной страны могут и должны сохранять свои традиции, приоритеты и достижения в области образования.

Одним из ключевых вопросов, связанных с прозрачностью образовательного процесса и мобильностью студентов, является вопрос трудоемкости учебной нагрузки в соответствии с возможностями и требованиями той или иной страны.

Понятие «единое пространство» предполагает взаимную прозрачность образовательной практики разных стран и вузов по отношению друг к другу.

Данная система основана на передаче учебной нагрузки в терминах времени, затраченного на прохождение курса или какой-либо единицы (части) курса и описывает учебную нагрузку курса или какой-либо единицы (части) курса, выполняемым студентом.

Объем учебной работы, выполненной студентом в течение учебного года, одинаковый для всех вузов и равен 60 кредитам. С целью обеспечения прозрачности кредиты распределяются по каждому **подлежащему оценке** виду учебной деятельности в пропорции, соответствующей доле данного вида в официально утвержденном учебном плане направления бакалавриата, то есть распределение кредитов производится относительно общей учебной нагрузки бакалавриата. (Из 9072/240=360/х следует 9,6АК=343часа общей учебной нагрузки по физике в вузах ИКТ)

Вопрос трудоемкости учебной нагрузки в соответствии с возможностями и требованиями ГОС той или иной страны является одним из ключевых вопросов

В принятой системе все учебные программы, необходимые для получения диплома и определенной профессиональной квалификации, описываются в единицах кредитов, основанием для распределения которых является официальная продолжительность программы обучения.

Студент может получить кредит в том случае, если он успешно завершил курс обучения (единицу или часть) курса и получил положительную оценку (завершает не только обучение курса, но и получает положительную оценку!!!). Важно знать, что в кредитах измеряется только количественный уровень учебной нагрузки предмета, а не качественный уровень успеваемости студента (или сложности материала): за уровень учебной нагрузки ответственна учебная часть, а за уровень успеваемости – кафедра и его ППС .

За уровень учебной нагрузки ответственна учебная часть, а за уровень успеваемости – кафедра и его профессура

Кредиты, как относительное понятие выдаются на основании расчета учебной нагрузки, а как абсолютное понятие - на основе принятых в ГОС критериев.

Введение в образование кредитной системы обусловлено несколькими факторами:

- без нее практически невозможно организовать модульное обучение, которое позволяет студенту выбрать индивидуальную образовательную траекторию;

- кредитная система позволяет обеспечить максимальную «прозрачность» контроля качества усвоения образовательной программы.

Проблемы, побудившие переходу к кредитной системе

Активный переход университетов к применению кредитной системы требует определить причины, побудившие их к этому. Какие проблемы появились у традиционно используемой до сих пор системы оценки знаний и контроля учебного процесса.

Проблемы в следующих моментах:

- оценивание на основе принципа «сам учу – сам проверяю» является питательной средой для коррупции;

- система позволяет неопытным преподавателям маскировать свою несостоятельность хорошими оценками;

- доминирует чаще всего ситуация, когда студент полностью зависит от позиции преподавателя – либо либерализм, либо определенный деспотизм педагога по отношению к студенту в зависимости от их отношений;

- рост числа «хвостов» и многочисленных пересдач экзаменов и зачетов;

- «вымогание» нерадивыми студентами положительных оценок;

- несправедливость в получении одинаковых дипломов и троечниками, и отлично успевающими выпускниками;

- возможность получения,наравне с отличником, степени бакалавра студенту, обучавшемуся по большинству предметов только на тройки.

С помощью кредитной системы решается задача открытости и прозрачности национальных образовательных систем, облегчается взаимное признание результатов обучения, полученных в различных странах и университетах.

Наличие кредита как инструмента, измеряющего трудозатраты обучения студента, дает возможность им учиться по своему профилю в различных университетах зарубежных стран, свободно переводиться из одного учебного заведения в другое, составлять учебные планы в соответствии с профессиональными интересами.

При получении второй профессии в зачет идут кредиты по общим дисциплинам, что сокращает и сроки обучения, и финансовые затраты.

Организация обучения на основе кредитной системы

Наличие четко отработанных стандартных инструкций у преподавателей и студентов в виде автоматизированной системы управления учебным процессом (LMS–Learning Management Systems) и строгое их соблюдение способствует повышению качества взаимодействия студентов и преподавателей, объективности взаимного контроля, предсказуемости оценок, получаемых студентом.

Организация контроля знаний обусловлена не только необходимостью обеспечения качества обучения, но и изменившимся соотношением аудиторной нагрузки и самостоятельной работы.

Перенос акцента на самостоятельную работу определяет необходимость разработки новой модели учебно-методического обеспечения процесса обучения и системы контроля знаний. Сложность задачи обусловлена отсутствием теоретико-методологической базы с использованием научно обоснованных **измерителей** качества обучения. От этого, прежде всего, страдают преподаватели, на которых ложится основное бремя контроля и оценивания многочисленных работ самообразования. Страдают, потому что для

администрации они контролируют не самообразование, а **якобы** самостоятельные работы, выполненные студентами **якобы** полностью без ведома преподавателя. Поэтому подобную ситуацию нужно срочно исправлять. Необходима разработка новой модели кредитной системы, полностью оптимизирующая учебную деятельность и студента, и преподавателя.

Одним из фактора эффективности современного ВО является активное и всестороннее деятельность руководства ВО по привлечению внимания производства к процессу подготовки кадров. Отрасли **должны нести** заинтересованную **ответственность** вместе с ППС вузов за определение необходимых знаний и их объемов, формулировку и выработку необходимых компетенций у будущего специалиста. А задача вуза - **определиться** с методикой выработки у выпускника требуемых знаний и соответствующих компетенций по применению их на практике.

Особенности нового подхода в кредитной системе

Необходимость выработки у выпускников вузов высокого уровня профессиональной компетенции можно реализовать путем определенных структурных изменений кредитной единицы. Предлагаем ввести два типа кредитов: аналитические кредиты с объемом в 36 часов (АК) и практические кредиты с объемом в 36 часов (ПК). Обоснование схемы такой модернизации дается в прилагаемой таблице.

Было: **9072 = 54 · 168** **6048 + 3024 = 9072**
Из 9072 часов общей нагрузки студента 1/3 часть = 3024 ч.– самостоятельная работа, а 6048ч. - в рамках и под полным управлением учебного заведения (учатся 168, а отдыхают 36 недель 17,65% за счет средств родителей). Так было и это оправдала себя о чем свидетельствует уровень научно-технического прогресса и состояния социально-экономического развития страны
Кредит с 2018года: **30 · 240 = 7200** **7200 = 3600 + 3600**
С 2018 года в ТУИТ началось внедрение кредитной системы оценки и контроля знаний студентов по образцу некоторых зарубежных стран (пока до сих пор неизвестных каких?). И что в итоге: студенты вместо 168 недель под полным управлением учебного заведения обучаются 120 недель. Из 7200 часов общей нагрузки студента, при этом, 1/2 часть – самостоятельная работа 3600 ч., а 3600ч. в рамках и под полным управлением учебного заведения (за 4 года учатся 120, а отдыхают 84

недель - 41,18% за счет средств родителей).

Большой вопрос приведет ли такая модернизация к каким-либо улучшениям процесса подготовки кадров в стране.

Исходя из такого сомнения, предлагается сохранить ранее оправданные параметры учебного процесса в объеме 9072 часа (каникулы в 36, а не 84 недель). Кроме того, сохранить кредитную системы оценки и контроля знаний студентов с некоторой её модернизацией, что могло бы приблизить систему к международно-признанной и апробированной форме.

Количественно и качественно аналитические (АК) и практические кредиты (ПК) отличаются друг от друга:

4752ч и **132** кредита по **36**ч – это АК; **4320**ч и **108** кредитов по **40** ч – это ПК
Надо: **240** кредитов дает: **9072 = 108 · 40 (4320** ПК) + **132 · 36 (4752**АК)

По видам обучения **132** АК распределяются по часам:	По видам обучения **108** ПК распределяются по часам:
СР-Самостоятельная работа для АК: **1584**	СР-Самостоятельная работа для ПК: **1440**
СО-самообразование для АК: **1056**	СО-самообразование для ПК: **2016**
Теор-занятия в аудитории для АК: **2112**	Теор-занятия в аудитории для ПК: **864**
4752ак = 1584ср + 1056со + 2112теор	**4320пк = 1440ср + 2016со + 864теор**
Для одного АК аналитического кредита	Для одного ПКпрактического кредита
По видам обучения один АК распределяются по часам:	По видам обучения один ПК распределяются по часам:
36 = 24 + 12 **= 16**теор + **8**со + **12**ср	**40 = 26,(6) + 13,(3)** **= 8**теор + **18,(6)**со + **13,(3)**ср

Вузовская работа для АК: **3168 = 24 · 132**	Вузовская работа для ПК: **2880 = 108 · 26,(6)**
3168 = 2112теор + **1056**со	**2880 = 864**теор + **2016** со
132 · 8со = **1056**	**108·(18,(6)со+8**теор**) = 108·**

16 · 132 = 2112теор **24 ·132=3168**	**26,(6)**ауд**2880 = 2016 + 864**
1584 · 2 = 3168 = 24 · 132	**1440 · 2 = 2880**ауд **= 108 · 26,(6)**
Итого все **240** кредитов распределяются на СР и АУД по следующей схеме:	
СР: **1584 + 1440 = 3024** АУД: **(1056 + 2016)**со + **(2112 + 864)**теор= **6048= 3072 + 2976**	

Распределение АК по семестрам:	1-**30**; 2-**17**; 3-**17**; 4-**17**; 5-**17** 6-**17**; 7-**17**; 8-**0**
Распределение АК по семестрам:	1-**0**; 2-**13**; 3-**13**; 4-**13**; 5-**13**; 6-**13** 7-**13**; 8-**30**
Итого по семестрам:	1-**30**; 2-**30**; 3-**30**; 4-**30**; 5-**30**; 6-**30**; 7-**30**; 8-**30**

Как определение, так и специфика реализации практических кредитов **предлагается вводить впервые**. Это отклик на требования по выработке профессиональной компетенции и высоких результатов обучения, предъявляемые со стороны потребителей кадров, как выпускнику, так и высшему образовательному учреждению. Поэтому работа студента над практическими кредитами **должна быть максимально приближена к реальному производству**, а высшее образовательное учреждение должно и обязано максимально **содействовать** такому взаимодействию.

OLIY TA’LIM YURTLARIDA MASOFAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYASINI AMALGA OSHIRISH MUAMMOLARI

Eshonqulov M.O’, Xaytbaev A.F., TATU

Masofaviy ta’lim - bu axborot inqilobi natijasida paydo bo'lgan va "ochiq ta'lim" g'oyasi asosida paydo bo'lgan yangi texnologik imkoniyatlar tufayli XX asrning so'nggi uchdan bir qismida paydo bo'lgan ta'limning sifat jihatidan yangi, progressiv turidir. Masofaviy ta'lim usulining eng muhim farqlash xususiyatlari quyidagilardir:

1. Ta'limni fundamentalizatsiya qilish, uning sifat darajasini oshirish.
2. Axborot va telekommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda masofaviy o'qitish usullaridan keng foydalanish hisobiga ta'limning ommaviy xarakterini oshirish.

3. Ijodkorlikni rivojlantirish va inson shaxsini shakllantirish.

Masofaviy ta'lim - bu o'quv jarayonini tashkil etishning yangi rivojlanayotgan shakli bo'lib u asosan qabul qilingan ta'lim shaklidan farq qiladi chunki u asosan talabaning mustaqil ishiga yo'naltirilgan. Ko'pgina mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, masofaviy o'qitish (MO') shakli juda jozibali va samarali (masalan, Shvetsiyada ta'limning 70% masofaviy o'qitishdir). Bu avvalambor ta'limning arzonligi (kunduzgi ta'limga qaraganda 5-10 baravar past) va istalgan mutaxassislik bo'yicha talaba uchun qulay vaqtda va qulay joyda ta'lim olish imkoniyati bilan bog'liq. Shu bilan birga ko'pgina davlatlar hududida mavjud bo'lgan oliy ta'lim tizimi bir qator sabablarga ko'ra ta'lim xizmatiga muhtoj har bir kishiga xizmat ko'rsatishga imkon bermaydi. An'anaviy kunduzgi shaklda oliy ma'lumot olishni istagan mamlakatlar aholisining 50% dan ortig'i hozirda bunday imkoniyatdan mahrum, chunki rivojlanayotgan davlatlarning o'rtacha byudjet joylari bo'lgan oliy o'quv yurtlariga kirish uchun tanlov har bir joyda 3-4 kishini tashkil etadi. Yirik shaharlarda yashash narxi ham oshdi, yotoqxonalar soni kamaydi, aviatsiya, temir yo'l va boshqa turdagi transport vositalari uchun tariflar nihoyatda ko'tarildi.

Masofaviy ta'limning keng tarmog'ini yaratish bu muammoni hal qiladi. O'zbekistonda masofaviy ta'limning qudratli tizimini yaratish va rivojlantirishning asosiy shartlari telekommunikatsiya liniyalarining, ta'limdagi yangi kompyuter texnologiyalarining va kompyuter texnologiyalarining jadal rivojlanishi hisoblanadi. Agar O'zbekiston ta'lim muassasalari bu masalaga e'tibor berishmasa , uzoq vaqtdan beri masofaviy o'qitish bilan shug'ullanib kelayotgan xorijiy davlatlarning ta'lim muassasalari ushbu ta'lim faoliyatini egallaydi. G'arbiy Evropada masofadan o'qitish 40 yillik rivojlanish tarixiga ega.

Shu vaqt ichida G'arbning masofaviy ta'lim muassasalari ushbu texnologiyani muvaffaqiyatli ishlab chiqdilar. Zamonaviy raqobatbardosh mutaxassisliklar bo'yicha o'qitish xizmatlari, ta'lim sifati va diplom kafolatlari, o'qish uchun joy va vaqtni tanlashda qulaylik, o'qitishning nisbatan arzonligi bo'yicha xizmatlarni taqdim etishda keng imkoniyatlar ko'plab Evropaning masofaviy ta'lim muassasalariga qo'shni respublikamiz bo'lmish Qozog'iston ta'lim bozorida tezda o'z o'rnini egallashga imkon berdi. Mamlakatimizning zamonaviy iqtisodiy rivojlanishi o'zini o'zi ta'minlash tamoyillari asosida yangi ta'lim shakllarini yaratishni o'z ichiga oladi. Shuning uchun masofaviy o'qitish ta'lim xizmatlarini taqdim etishning tijorat xususiyatini ta'minlaydi. Ushbu ta'lim shaklining muvaffaqiyatli rivojlanishi quyidagi omillar bilan belgilanadi:

1. Potentsial talabalarning keng ommasiga tegishli ta'lim olish imkoniyatini beradigan ta'lim xizmatlarining haqiqiy qiymati.

2. Mehnat bozorida raqobatdosh bo'lgan keng kasb va kasb turlari.
3. Davlat diplomi yoki xalqaro diplom bilan tasdiqlangan yuqori sifatli ta'lim.
4. O'quv jarayonini qurishning maksimal samaradorligi, talaba va o'qituvchi uchun qulay.
5. O'qishning mumkin bo'lgan shartlarining moslashuvchanligi.
6. O'qituvchi va tinglovchilar orasida masofadan o'qitishning mashhurligi.

Masofaviy ta'limning potentsial iste'molchilarining haqiqiy kontingenti quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Rasmiy lavozimi yoki kasbidan norozi bo'lgan ishlaydigan katta yoshdagi fuqarolar.
2. Raqobatdosh mutaxassislikni o'zlashtirishga qaror qilgan ishsizlar.
3. Oliy o'quv yurtiga kirmoqchi bo'lgan abituriyentlar.
4. Nafaqaga chiqishga tayyorgarlik ko'rayotgan va raqobatdosh fuqarolik ixtisosiga ega bo'lmagan harbiy xizmatchilar.
5. Harakatlanish imkoniyati cheklangan nogironlar.
6. Kunduzgi ta'lim olish imkoniyati bo'lmagan yoshla.
7. Ishlarining o'ziga xos xususiyatlariga ko'ra ichki ta'lim olish imkoniga ega bo'lmagan qishloq aholisi.

Masofaviy o'qitishning kengaytirilgan tizimi quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

1. Raqobatdosh mutaxassislik yoki kasb bo'yicha samarali o'quv kursini yaratishga imkon beradigan o'quv majmualari.
2. O'qituvchilar - masofadan o'qitish bo'yicha maslahatchilar.
3. Tegishli mutaxassisliklar bo'yicha o'qish niyatida bo'lgan o'quvchilar, o'quvchilar, talabalar.
4. Talabalarning o'qituvchilar va masofaviy ta'lim muassasalari bilan samarali aloqasini ta'minlaydigan aloqa liniyalari.
5. Masofaviy ta'lim muassasasi o'zini o'zi ta'minlash tamoyillari asosida ishlaydigan masofadan o'qitish shaklining tashkiliy tuzilishi sifatida.

Masofaviy ta'lim tizimi quyidagi muammolarga duch keladi: Maxsus elektron kurslar, darsliklar va dasturiy ta'minotni ishlab chiqish; MO’ tizimida ishlaydigan o'qituvchilarni tayyorlash; kadrlar tayyorlash sifatini boshqarish tizimini ishlab chiqish; ta'limning ushbu shakli uchun me'yoriy yordamni ishlab chiqish va boshqalar.

Mintaqada masofaviy ta'limni tashkiliy, huquqiy, uslubiy va moliyaviy qo'llab-quvvatlash uchun mintaqaviy markazni yaratish kerak, uning doirasida ta'lim xizmatlarini marketingini olib borish, masofaviy ta'limning tijorat shakllarini ishlab chiqish, mahalliy byudjetlar, ish bilan ta'minlash markazlari mablag'larini jalb qilish

bo'yicha birgalikda ishlash talab etiladi. Ushbu mintaqaviy markaz doirasida MO’ tizimi tajribasini umumlashtira oladigan va o'quv-uslubiy materiallar va o'qitish uslublarini loyihalashtirishning umumiy tamoyillari bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqa oladigan ilmiy-uslubiy kengash va doimiy faoliyat ko'rsatadigan ilmiy-uslubiy seminarni tashkil etish kerak. MO’ mintaqaviy markazi quyidagi vazifalarni hal qilishi kerak:

1. MO’ muammosi bo'yicha tadqiqot ishlarini olib borish.
2. O'qituvchilarning malakasini oshirish.
3. MO’ yo'naltirilgan kurslarni loyihalash.
4. O'quv-uslubiy ta'minotni yaratish.
5. Ta'lim sifatini nazorat qilishni tashkil etish.

Masofaviy o'qitishni tashkil qilish va ta'lim tizimiga joriy etishda an'anaviy ta'lim bilan taqqoslaganda masofaviy ta'lim samaradorligini baholash muammosi paydo bo'ladi. Ta'limning axborot texnologiyalarini rivojlantirish va ulardan foydalanishni kengaytirish bevosita mashg'ulotlar samaradorligini o'zgartirish muammosiga bog'liq. Har qanday uslubning samaradorligini aniqlash, o'qitish texnologiyasiga quyidagilar kiradi: erishilgan natijani, moddiy resurslar narxini va unga erishish uchun vaqtni o'lchash. Istiqbolli ta'lim tizimi XXI asrning asosiy muammolarini va ular bilan bog'liq zamonaviy va yangi shakllanayotgan axborot jamiyatidagi insoniyatning eng muhim muammolarini hisobga olishi kerak. XXI-asr sharoitlari uchun zarur bo'lgan istiqbolli ta'lim tizimining asosiga aylanadigan yangi ta'lim kontseptsiyasiga o'tishning eng muhim yo'nalishlari, xususan ta'limni barcha darajalarida fundamentalizatsiya qilishni o'z ichiga oladi, ilg'or ta'lim kontseptsiyasini amalga oshirish, istiqbolli axborot texnologiyalaridan foydalanishga asoslangan innovatsion va rivojlantiruvchi ta'lim usullaridan keng foydalanish, masofaviy ta'lim tizimi va o'quv jarayonini axborot ta'minoti vositalarini rivojlantirish orqali sifatli ta'lim olisga olib keladi.

MASOFAVIY TA’LIMNING DOLZARB MUAMMOLARI

Isayev R.I., Mirazimova G.X., Ibatova D.X., TATU

2020 yil 6 avgustda bo‘lib o‘tgan videoselektor yig‘ilishida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti koronavirus pandemiyasi sharoitida talabalar va professor-o‘qituvchilarning sog‘lig‘ini ta’minlash maqsadida oliy oquv yurtlarida o‘quv yilini masofaviy (onlayn) shaklda boshlash to‘g‘risidagi taklifni ma’qulladi va Oliy va o‘rta

maxsus ta’lim vazirligiga barcha fanlardan o‘quv dasturlarini ta’limning masofadan o‘qitish turiga moslashtirish bo‘yicha ko‘rsatma berdi.

Shu bilan birga, ta’kidlash kerakki, kredit-modulli o‘qitish tizimi sharoitida real vaqt rejimida turli masofali o‘qitish platformalari orqali materialni o‘qitish yoki etkazib berish masalasi nafaqat muhim, balki barcha mavzularda yuqori sifatli elektron ta’lim manbasini tayyorlash zarur. Shuning uchun har bir talaba mustaqil tayyorgarlik, ularning har tomonlama va ijodiy fikrlashlarini rivojlantirish maqsadida ularga to‘liq kirish imkoniyatiga ega bo‘lishi kerak.

Shu munosabat bilan TATU o‘quv yilini puxta rejalashtirish, muassasa veb-sayti va *cms.tuit.uz* masofaviy o‘quv dasturini ishlab chiqish va unga o‘quv materiallari bazasini joylashtirish bo‘yicha ishlarni tashkil etdi va olib bordi.

“Telekommunikatciya injiniringi” kafedrasida oqitiladigan fanlardan ham cms.tuit.uz tizimiga kerakli barcha o‘quv materiallari joylashtirildi. Taqdimot slaydlari boyitildi, video darslar olindi. Masofaviy o‘qishda ta’lim sifatini oshirish maqsadida o‘quv dasturlari, test, amaliy va laboratoriya ishlari, mustaqil ta’lim topshiriqlari, savollar, o‘quv adabiyotlari cms.tuit.uz tizimiga joylashtirildi hamda topshiriqlarning bajarilishi nazorat qilinmoqda. Magistrantlar mustaqil ish topshiriqlarini 10 minutlik taqdimot ko‘rinishida tayyorlab, ZOOM orqali himoya qilmoqdalar. Darslar Zoom orqali o‘tkazilmoqda, bu videokonferentsiyada ko‘plab o‘quvchilarni masofadan o‘qitishni ta’minlaydi. Ma’ruza darslarida talabalar bilan o‘zaro savol javoblar tarzida interaktiv metodlardan foydalanilmoqda. O‘tgan o‘quv materiallari sifatli va to‘liq o‘zlashtirilishi uchun amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlari video darslari bilan olib boriladi. Bularni barchasi talabalarni faollashtiradi, ularni mustaqil ishlashini kuchaytiradi va bilim olish sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Zoom platformasi mashg‘ulotlarda o‘qituvchilarga talaba mikrofonlarini o‘chirishda yordam beradi va faqat talaba savolga javob berishi kerak bo‘lganda ovozni yoqadi. Bundan tashqari, platformaning o‘z vositalaridan foydalangan holda, o‘qituvchilar talabalar bilan bo‘lishish uchun darslarni yozib olishi yoki ko‘rsatma berishi mumkin.

Biroq, Zoom platformasi mashhur bo‘lganligi sababli, ba’zi o‘quvchilar o‘zlari internetda bezorilarga translatsiya qilingan ID va parollarni berishni boshladilar. Ular videolarni yozib olishdi yoki Twitch-da translatsiya qilishdi, o‘qituvchilarga bezorilik qilishdi. Hatto YouTube-ning maxsus kanallari yaratildi, u erda kulgili, bolalarning so‘zlariga ko‘ra, videolar joylashtirilgan. O‘qituvchilar onlayn darslarda qatnashganlarni nazorat qilish uchun "Kutish xonasi" («Зал ожидания») funksiyasidan foydalanadilar.

Zoom platformasining kamchiliklari - translyatsiya cheklovi 40 minut. Endi o‘quv soatlari qisqartirildi. Ilgari biz o‘quvchilarga darsning 80 daqiqasida nimani o‘rgatgan bo‘lsak, endi ularni 40 daqiqada aytib berishimiz kerak. Ammo darsning besh daqiqasini nazorat qilish ushun olmoqda. Ammo iltimoslarga binoan, hozirda kompaniya, ta’lim tashkilotlari uchun texnik ko‘makka vaqtni olib tashlashga imkon beradi.

Zoom platformasining ijobiy tomonlari: platformaning soddaligi, guruh bilan o‘zaro munosabatda bo‘lish imkoniyati. *Kamchiliklari*: eshittirishlar uchun xavfsizlikni sozlash zarurati, translyatsiya uchun 40 daqiqalik cheklov.

Masofaviy o‘qitish muhiti o‘qituvchilarning zaif moslashuvchan mahoratini ochib berdi. O‘qituvchilar uchun jamoaviy ishni tashkil qilish, hissiy aqlni namoyon etish, tez qaror qabul qilish va o‘quvchilarni rag‘batlantirish qiyin. Ba’zi o‘qituvchilar ma’ruzalarni qo‘l bilan yozishni va ko‘rib chiqish uchun skanerini yuborishni so‘rashadi. Bugungi kunda insonlar raqamli texnologiyalar tufayli masofadan turib real vaqt rejimida muloqot qilishadi, o‘quvchilar bitta tugmachani bosib "qo‘llarini ko‘tarishlari" mumkin, ular taxtada bo‘lgani kabi barmoqlari bilan planshetga yozishlari mumkin va ularga: "Iltimos, qo‘lda yozilgan yozuvlarni yozing va skanerlang", deyilgan... Ba’zi o‘qituvchilar ma’ruzalarni veb-kameraga yozib, talabalarga yuborishadi. Bunday materiallarning sifati juda past va ularni idrok etish juda qiyin.

Mobil ta’limga talab boshlanganda, ko‘pchilik oddiygina multimedia kompyuterlariga ega emas, ammo barchada smartfon mavjud. Noutbukdan tashqari doimo materiallarni bosib chiqarish kerak.

Davomatni nazorat qilish bilan bog‘liq qiyinchiliklar paydo bo‘ladi. Ba’zi o‘qituvchilar chatga "+" qo‘yishni so‘rashadi, boshqalari veb-kameralarni yoqishni va o‘quvchilarning skrinshotlarini olishni talab qilishadi. Barcha tushunmovchiliklar va muammolar tufayli talabalar yuzma yuz ta’lim olish tajribasiga ega emaslar, ammo ular rasmiy bo‘lsa ham, baholarga ega bo‘lishadi.

Onlayn ta’lim bu kamchiliklarga ega emas, chunki u elektron axborot-ta’lim muhitida puxta ishlab chiqilgan o‘quv jarayoniga asoslangan. O‘qituvchilarda ko‘rsatmalar, qo‘llanmalar, eslatmalar, nazorat ro‘yxatlari, xatlar va bildirishnomalar uchun shablonlar va hattoki taqdimotlar mavjud, bu erda hamma narsa o‘ylab topilgan - dars boshlanishidan oldin ekrandan uy vazifali slaydgacha.

Onlayn ta’limning kaliti - bu onlayn kursni loyihalash vositasi sifatidagi pedagogik dizayndir. Onlayn kursni loyihalashda pedagogik dizayner materialni o‘zlashtirish tezligi, ma’lumotni taqdim etish shakli haqida o‘ylaydi va kelajakdagi kurs talabalarining sonini ham hisobga oladi. Agar kursga bir vaqtning o‘zida 35

kishi yozilgan bo‘lsa, bu bitta texnika, agar 1000 bo‘lsa - bu butunlay boshqacha: o‘qituvchining vaqtini tejash uchun nazorat va o‘lchov materiallari birlashtirilib, avtomatik tekshirishning ulushi maksimal darajaga etkazilishi kerak. Loyihalashda maqsadli auditoriya o‘rganiladi, o‘quv materialining tuzilishi shakllanadi, kontent turlari, talabalar bilan o‘zaro munosabatlar formatlari, topshiriq turlari aniqlanadi va imtihon topshirish va fikr-mulohazalarga qadar hamma narsa rejalashtiriladi.

Xaqiqiy onlayn kurslar mutaxassislar guruhi ishtirokida professional studiyalarda suratga olinadi. Bitta kursni ishlab chiqarish qiymati 100 million so‘mdan oshishi ham mumkin. Kurs muallifi grafikalar, modellar, rasmlar, animatsiya, misollar, formulalar va boshqa materiallarr bilan to‘ldiradi. Onlayn kurs yaratish juda katta ish.

Universitetlar konsultatsiya, laboratoriya ishi va yakuniy imtihonni *proktorlik* (masofaviy testlar, imtihonlar va boshqa testlardan o‘tishni nazorat qilish tizimi) bilan qanday tashkil qilishni rejalashtirishlari kerak. ***Proktorlik*** **- bu imtihon yoki onlayn test paytida halollikni kuzatishga imkon beruvchi tizim. Sinovdan o‘tgan o‘quvchi veb-kamera yordamida tekshiriladi. Kompyuter tizimi sinovdan o‘tgan kishining shubhali yoki "nojo‘ya" harakatlarini mustaqil ravishda taniydi.**

Onlayn ta’lim hali ham standartlarni o‘rnatish bosqichida ekanligini hisobga olsak, ishlab chiqilgan kurslar va metodikalarning samaradorligi hali vaqt sinovidan o‘tkazilmagan. Onlayn bitiruvchilarga ish beruvchilarning ishonchi past bo‘lishi mumkin, ayniqsa, bu bitiruvchining birinchi va yagona diplomi bo‘lsa. Keraksiz shubhalarni keltirib chiqarmaslik uchun, oliy o‘quv yurtining akkreditatsiyadan o‘tganligini oldindan tekshirish kerak. Bunday holda, onlayn talaba odatda davlat diplomini oladi, bu deyarli kunduzgi bo‘lim talabalariga berilgan diplom bilan bir xil. Talaba materialning bir qismini masofaviy formatda o‘zi o‘rganganligini ish beruvchi hatto bilmasligi ham mumkin.

Shubhasiz, onlayn ta’limning ommalashib borishi bilan ixtisoslashgan universitetlar soni ham ko‘payadi. Hozirda nufuzli ta’lim muassasalari tobora yangi masofaviy dasturlarni ochmoqdalar va mavjudlarining sifati doimiy ravishda yaxshilanmoqda. Oliy o‘quv yurtlarida ko‘rilayotgan chora-tadbirlar va umuman amalga oshirilgan tadbirlar o‘quv jarayonini o‘z darajasida tashkil etishga imkon beradi va professor-o‘qituvchilarining o‘z ustida faol ishlashiga, kasbiy mahoratini oshirishga va raqamli va elektron texnologiyalarni jamiyatning barcha jabhalarida istisnosiz faol rivojlantirish va joriy etish sharoitida zamonaviy o‘qituvchining mahoratini ma’lum darajada rivojlantirishga yordam beradi.

ЎҚУВ МАТЕРИАЛИНИ СИТУАЦИОН-ТЕМАТИК ТАШКИЛ ЭТИШ ОРҚАЛИ ТЕХНИК ФАНЛАРНИ ЎРГАНИШДА МОТИВАЦИЯНИ ОШИРИШ

Махмудов С.О., Давлетова Х.Р., ТАТУ

Таълим тизими замонавий жамиятни янгилаш учун рағбатлантирувчи кучдир. Таълимдаги интеграция - бу билим ва онгни уйғунлаштириш жараёни, бунда ўқувчи онгининг миқдорий ва юқори сифатли (шахсни ривожлантирувчи) ривожланиши мавжуд.

Таълимни модернизация қилиш нафақат технологиклаштириш ва ахборотлаштиришга, балки янги маданий стереотипни ёки янги маданий қадриятлар тизими ва фаолият технологиясига асосланган янги барқарор ҳаракат режимини шакллантиришга ҳам асосланган. Мутахассисларни тайёрлаш сифатининг ҳозирги ҳолати ва меҳнат бозори талаблари янги авлод мутахассисларини тайёрлашда тараққиётнинг муҳим манбаи бўлиши керак бўлган ўқув технологияларига илмий асосланган ва экспериментал равишда тасдиқланган инновацияларни жорий этишни тақозо этмоқда.

Олий таълим - Ўзбекистон Республикасининг индустриал ва инновацион ривожланишининг асосий устувор йўналиши. Сўнгги йилларда мамлакатимизда таълим тизимини изчил ривожлантириш борасида кенг кўламли ислоҳотлар амалга оширилмоқда. Бу борада Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 5 июндаги “Олий таълим муассасаларида таълим сифатини ошириш ва уларнинг мамлакатда амалга оширилаётган кенг қамровли ислоҳотларда фаол иштирокини таъминлаш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги қарори таълим тизимини янги босқичга олиб чиқди.

Замонавий мутахассисдан касбий компетентлилик ва ноодатий вазиятларда қарор қабул қилиш, жамоада ишлаш, ахборотни мустақил олиш, таҳлил қилиш, самарали фойдаланиш, ўзгарувчан вазиятларга мослашувчанлик талаб этилади. Бу сифатларга эга мутахассисни тайёрлаш эса олий таълим муассасалари олдида турган долзарб масалалардан. Ўқитишнинг кредит тизими санаб ўтилган жиҳатларга эга кадрларни тайёрлашга кенг имконият яратади. Қулай ва самарадор мазкур тизим меҳнат бозорининг ўзгарувчан эҳтиёжини қопловчи механизм сифатида намоён бўлади, яъни олий ўқув юртлари битирувчиларининг академик ҳаракатчанлигини таъминлайди. Кредит

тизимининг аҳамияти шундаки, академик дастурлар меҳнат бозори талабларига мос ҳолда тузилади. Ўқув режадаги фанларнинг 50 фоизи танлов фани бўлиб, ўқув жараёнига ахборий тизимлар жорий этилади. Шунингдек, талабаларни ўқитиш ва меҳнат бозорига тайёрлашга индивидуал ёндашилиб, улар мустақил таълим олишга йўналтирилади. Индивидуаллашган ва дифференциялашган ўқитиш тизими таълим муассасаларининг муқобиллиги, ўқув-дастурий ҳужжатларнинг ҳаракат-чанлиги, ўзгарувчан ижтимоий-иқтисодий шароитга мослашувчанлигига асосланган.

Кредит технологияси мураккаб тизим. Унинг муваффақиятли ишлаши кўплаб омилларга, жумладан, ўқув-моддий таъминот, халқаро стандартларга жавоб берадиган таянч дарслик, талабаларнинг мустақил ишлашини ташкил этиш учун муайян шарт-шароит(компьютер синфлари, видеозаллар)га ва талабаларда мотивацияни юқори босқичга олиб чиқиш билан ҳам боғлиқ. Ўқитишнинг кредит тизимида олий таълим муассасаси ўқув жараёнида барча зарур ахборот манбалари: ўқув ва услубий қўлланма, электрон дарслик, тарқатма материаллар, тармоқ таълим ресурсларига кира олиш имконияти мавжудлиги муҳим ҳисобланади.

Техник фанларни ўқитишда мотивацияни кучайтириш муаммоси Олий таълим муассасаларининг биринчи йилидаги энг долзарб муаммолардан биридир. Таълим фаолиятини рағбатлантиришнинг асосий манбаи талабаларнинг ички эҳтиёжлари. Бўлажак мутахассисларнинг билим фаолияти, ташаббускорлиги ва мустақиллиги ушбу эҳтиёжлар қандай қондирилишига боғлиқ. Ўқитувчининг вазифаси талабаларнинг ички фаоллигини ошириш учун қулай мотивацион муҳитни яратиш, унинг коммуникатив ва индивидуал компонентини ҳисобга олган ҳолда техник фанни ўқитиш жараёнини ташкил қилишни такомиллаштиришдир.

Ушбу мақоланинг мақсади ўқув материалини ситуацион-тематик ташкил этишнинг техника фанларини ўқитишда талабаларни рағбатлантиришини оширишга таъсирини кўриб чиқишдир, чунки ўқув жараёни самарадорлигининг муҳим шартларидан бири талабанинг мутахассислик фанларини ўзлаштириш жараёнига доимий қизиқиши, унинг самарадорлиги ҳисобланади. Шундай қилиб, ўқитувчи учун техника фанларини ўқитишнинг асосий вазифаларидан бири талабаларга касбий фаолияти учун техника фанлари яъни мутахассислик фанларини ўрганиш зарурлигини етказиш, талабаларни шахсий ва касбий ўсиши учун ушбу фанни ўрганишни давом эттириш зарурлигига ишонтиришдир.

Ушбу масаланинг тадқиқотчилари мотивацияни кучайтиришга таъсир қилувчи бир қатор омилларни аниқлайдилар:
1) талабаларнинг ички фаоллиги билан боғлиқ омиллар;
2) мактаб предмети сифатида техник ва аниқ фанларнинг ўзига хос хусусияти билан боғлиқ омиллар;
3) ўқув фаолиятини ташкил этиш жараёни боғлиқ бўлган омиллар;
4) ўқитувчининг шахсига боғлиқ омиллар.

Агар мотивация - бу шахсни ташқи ва ички таркибий қисмларни ўз ичига олган ҳар қандай ҳаракатларни амалга оширишга ундайдиган ички хатти-ҳаракатлар бўлса, унда таълим мотивацияси муайян фаолият турига киритилган мотивациянинг маълум бир тури сифатида белгиланади, бу ҳолда ўрганиш фаолияти, ўқув фаолияти.

Талабанинг асосий фаолияти ўрганиш эканлигига асосланиб, унинг мотивлари тузилишида доминант бўлиши керак бўлган когнитив эҳтиёж деб тахмин қилиш мумкин. Шахсий дунёқарашини кенгайтириш, янги билимларни эгаллаш, касбни пухта эгаллаш истаги ижодий фаолият, ўзини ўзи тасдиқлаш, жамиятда янги, юқори мавқега эга бўлиш учун имконият яратади. Ҳар қандай бошқа турдаги мотивация сингари, таълим мотивацияси ҳам бир қатор ўзига хос омиллар билан белгиланади. Таълим мотивацияси доимий равишда ўзгариб турадиган ва бир-бири билан янги муносабатларга киришадиган мотивлардан иборат (талабалар учун ўрганишнинг эҳтиёжлари ва маъноси, унинг мотивлари, мақсадлари, ҳиссиётлари, қизиқишлари).

Юқорида айтилганларга асосланиб, мотивацияни педагогик таъсир деб тушуниш керак, яъни талабани ўрганилаётган мавзуни яхшироқ ўзлаштиришга ундовчи техник фанларни ўқитиш усуллари ва техникалари. Мотивлар инсоннинг субъектив дунёси билан боғлиқ ички мотивлар экан, мотивацияни ташқаридан чақириш қийин. Бирор киши техник фанларни, агар унинг ўзига бўлган эҳтиёжини ҳис қилса, унинг ички мотивацияси шаклланган бўлса, ўрганиши мумкин.

Simulyatorlardan foydalanishning yana bir afzallik tomoni ularning xavfsiz ekanligidir. Ba’zi tadqiqotlarni amalga oshirish inson hayoti uchun xavf tugʻdiradi,

masalan, telekommunikatsiya qurilmlarining yuqori kuchlanishdagi toklarda ishlashi, etarlicha tajribaga ega boʻlmagan talabalrning qurilmalarni oʻrganish jarayonida hayotga xavf tugʻdirishi mumkin.

Simulyatorlardan foydalanish jarayonida talabalar ma'ruza vaqtida o'rgangan nazariy bilimlarini amaliy mashgʻulotlarda virtual holatda oʻrganishga yordam beradi. Masofaviy ta'lim olish jarayonida bilimlarini yanada mustahkamlash bilan bir qatorda nazariya hamda hayotiy ko'nikmalarning shakillantiradi. Bundan tashqari simulyatorlarning ham yanada rivojlanishiga, yanada haqiqiy hayotiy tadqiqotlarga yaqin natijalar beradigan darajaga chiqarishda oʻz xissalarini qoʻshishlari mumkin.

Albatta har qanday dasturiy mahsulotning kamchiligi boʻlgani kabi simulyatorlardan foydalanishga nisbatan ham qarshi fikrlar mavjud. Ulardan eng birinchisi simulyatorlarning haqiqiy ob'yekt va jarayonlarni toʻla-toʻkis ifoda eta olmasliklaridir. Bu simulyatorlar yordamida olingan natijalar bilan hayotiy natijalar oʻrtasida tafovutlar paydo boʻlishi.

Shunga qaramasdan yuqorida koʻrsatilgan simulyatorlardan foydalanishning salbiy tomonlari ijobiy tomonlariga nisbatan ancha kam hamda ularni bartaraf etish imkoniyatlari mavjud. Shuning uchun ular simulyatorlardan foydalanishning qandaydir ma'noda cheklanishiga asosiy sabab bo'la olmaydi.

Shunday qilib, pedagogik texnologiya, toʻgʻrirogʻi, ta'lim texnologiyalarida qoʻllaniladigan metodlarning barchasi ham ta'lim oluvchilarni chuqur bilim olishlari va talab darajasida koʻnikmaga ega boʻlishlariga qaratilgan. Hamma gap qoʻyilgan maqsadni qay darajada amalga oshirishdadir.

"Mulitimediya aloqa tarmoqlari" fani telekommunikatisya texnologiyalari ta'lim yo'nalishining toʻrtinchi bosqich talabalariga oʻtiladi. Amaliy mashgʻulotlar asosan tarmoq va tarmoq qurilmalarining asosiy parametrlarini hisoblash va tarmoq qurilmalarini sozlash, multimediya aloqa tarmoqlarini loyihalash va tarmoqni dtadqiq qilishda uni modellashtirish jarayonlarini organishga yoʻnaltirilgan. Shuning uchun amaliy mashgʻlulotlarni oʻqitishda virtual simulyatorlardan foydalanish eng qulay usullaardan biri hisoblanadi. Bu bizga qimmat turuvchi qurilmalar sozlamalarini oʻrganish, katta koʻlamdagi tarmoqlarni loyihalashtirish va ular ustida tadqiqotlarni amalga oshirish imkonini beradi.

Masalan "VoIP texnologiyasida avozli axborotarni paketli uztish jarayonini oʻrganish" mavzusini oʻqitishda quyidagi tarmoqni ikkita virtual simulyator yordamida oʻrganishni koʻrib chiqamiz (1-rasm).

1-a rasmda VoIP tarmog'i Cisco Packet Tracer dasturida tuzulgan. Kichik tarmoq elementlari sifatida marshrutizator, kommutator, kirish tarmogʻiga ulanuvchiq qurilma, VoIP telefon, shaxsiy komyuter, laptop, planshet va mobil qurilma olingan.

1-b rasmda ovozli ma’lumotlarni uzatish NetCracer dasturida tuzulgan. Taroq bir qancha murakkab tuzilishga ega.



a) b)

1-rasm. Ovozli ma’lumotlrni paketli uzatsh jarayonini oʻrganish uchun misol tariqasida tuzilgan tarmoqlar

Yuqorida sanab o’tilgan virtual dasturlarning o’ziga xos xususiyatlarini, ularning afzalliklari va kamshiliklarini e’tiborga olgan holda “Venn diagrammasi” grafik organayziri asosida qiyosiy tahlil qilishimiz mumkin.



2 – rasm. Telekommunikatsiya tarmoqlarining ishlash prinsipini o’rganishda foydalaniladigan Cisco Packet Tracer va NetCracer virtual dasturlarining qiyosiy tahlili

Xulosa sifatida shuni aytish mumkun multimediyali aloqa tarmoqlarini oʻrganishda Cisco Packet Tracer dasturi imkoniyatlarining kengligi, dsturdn foydalanishning soddaligi va qoʻshimcha talabalar mustaqil oʻrganish ushun oquv ma’nbalarining koʻpligi bilan qulay hisoblanadi. Shuningdek yuqoridagi koʻrsatib

oʻtilgan imkoniyatlar va talabalarning masofaviy ta’lim olishida simulyator dasturlarini qoʻllash ahamiyatliligi bilan ham ushbu dasturdan foydalnish samaralidir.

ПРИМЕНЕНИЕ ДИДАКТИЧЕСКИХ ПРИНЦИПОВ ДЛЯ ПРЕПОДАВАНИЯ ТЕМЫ «МОДЕЛИ ПОСТРОЕНИЯ БЕСПРОВОДНЫХ СЕНСОРНОЙ СЕТИ СВЯЗИ» В УСЛОВИЯХ ДИСТАНЦИОННОГО ОБУЧЕНИЯ

Артикова Д.О., Абдужаппарова М.Б., Садчикова С.А., ТУИТ

Работая с учениками дистанционно, педагог должен как-то с ними общаться, чтобы организовать учебный процесс. Многие используют социальные сети или видео-чаты, однако большинство всё же полагается на хорошо зарекомендовавшие себя программы электронной почты (Email). Трудности возникают при работе с любым из этих способов коммуникации – и чаты, и почта одинаково быстро засоряются, так что уже через несколько дней и даже часов становится трудно что-либо найти в потоке информации.

Дидактические принципы (принципы дидактики) – это основные положения, определяющие содержание, организационные формы и методы учебного процесса в соответствии с его общими целями и закономерностями. По мнению М.А.Данилова, «…в принципах обучения выражаются нормативные основы обучения, взятого в его конкретно-историческом виде». Выступая как категории дидактики, принципы обучения характеризуют способы использования законов и закономерностей в соответствии с намеченными целями. При отборе содержания, средств и методов преподавания курса на помощь преподавателю технического вуза должны прийти общие принципы дидактики.

Принцип научности требует, чтобы в содержании образования нашли отражение новейшие достижения соответствующей области знаний с адаптацией на познавательные возможности учащихся. Любое понятие из моделей построения беспроводных сенсорной сетей связи находит свои аналогии в учебном процессе.

Научность обучения подразумевает также современность методов обучения, что применительно к беспроводной сенсорной сети означает, прежде

всего, моделирование в широком смысле, а также исследовательскую деятельность учащегося.

Принцип доступности и наглядности содержания реализуется через выделение уровней обучения и работы за компьютером. Например, самый низкий уровень: простое использование готового программного обеспечения.

Принцип активности и самостоятельности учащегося при изучении структуры беспроводной сенсорной сети имеет следующую особенность. Если при изучении других дисциплин педагог работает в прямом контакте с обучаемыми, видит их реакцию, сам реагирует, то здесь возможна работа ученика один на один с компьютером. В данном случае активность учащегося является не только целью, но и необходимым условием успешности обучения.

Принципы индивидуализации и коллективности обучения дополняют друг друга. В этом отношении компьютер – дидактически двойственный инструмент. Эффективность предполагает оптимизацию усилий педагога и ученика для обеспечения наибольшего их КПД, отношение результат/усилие. Это требует, прежде всего, отсутствия постороннего содержания в их деятельности. Например, блок-схемы, наглядные и удобные для малых задач, могут превратить изучение схемы сети в черчение при более сложных алгоритмах. Путь от теории, от приобретения знаний до их применения, то есть до практики, в данном случае очень короткий. Студент может решить задачу, полезную учителю, группе или ТУИТ. Понятия теории и практики, в данном случае, обнаруживают полную параллельность с общенаучными категориями. Как и в «большой» науке, теория есть средство прогноза, предсказания или объяснения свойств, поведения компьютерного мира, а практика – средство проверки теории и, с другой стороны, источник гипотез для неё.

ОСОБЕННОСТИ ДИСТАНЦИОННОГО ОБУЧЕНИЯ В ПРОВЕДЕНИИ ЛАБОРАТОРНЫХ ЗАНЯТИЙ

Абдужаппарова М.Б., Давлетова Х.Р., ТУИТ

Дистанционное обучение при использовании средств IT, какой бы прием не был изобретен преподавателем при обучении, или слушателем, он всегда окажется составной частью одного или нескольких общедидактических методов обучения. Из известной совокупности приемов обучения,

используемых в традиционной дидактике, для дистанционного обучения могут быть рекомендованы: демонстрация, иллюстрация, объяснение, рассказ, беседа, упражнение, решение задач, заучивание учебного материала, письменные работы, повторение. Анализ деятельности образовательных учреждений в дистанционном обучении показал, что дистанционное обучение в настоящее время наиболее широко использует информационно- рецептивный и репродуктивный методы обучения в совокупности с проблемным. При дистанционном обучении, в руках преподавателя и обучающегося средства обучения выступают в роли представления содержания обучения, контроля и управления учебно познавательной деятельностью обучающихся. Один и тот же материал может быть представлен несколькими средствами обучения, каждое из которых обладает своими дидактическими возможностями. Преподаватель должен знать эти возможности, уметь распределять учебный материал по различным средствам, формировать из них комплект средств обучения (кейс), как систему носителей учебной информации, предназначенную для решения совокупности дидактических задач. Анализ многочисленных источников, а также собственные исследования показали, что в дистанционном обучении средства обучения могут представлять собой: учебные книги (твердые копии на бумажных носителях и электронный вариант учебников, учебно-методические пособия и т.д.), сетевые учебно-методические пособия, компьютерные обучающие системы в обычном и мультимедийном вариантах, аудио и видео учебно-информационные материалы, лабораторные дистанционные практикумы, тренажеры с удаленным доступом, базы данных и знаний с удаленным доступом, электронные библиотеки с удаленным доступом. В соответствии с принятыми взглядами в традиционном учебном процессе средства обучения реализуются через так называемые технические средства обучения. Они включают в себя аудио и видео, проекторы, компьютеры. В свою очередь технические средства обучения входят в состав учебного оборудования, включающего в себя лабораторное оборудование (контрольно-измерительные приборы и т.п.), а также учебную мебель и приспособления. Следует подчеркнуть, что в дистанционном обучении средства обучения реализуются через средства новых информационных технологий. Разработка обучающих программ по учебным дисциплинам в среде мультимедиа является длительным и дорогостоящим процессом.

Лабораторные дистанционные практикумы. Актуальность этого средства обучения особенно возрастает при подготовке специалистов для различных отраслей техники, поскольку подготовка таких специалистов

определяется не только изучением определенного теоретического материала, но и получением конкретных практических навыков лабораторных исследований. Анализ возможных направлений решения этой проблемы в дистанционном обучении показал, что оно решается двумя путями. Первый- это разработка и доставка специально разработанного мобильного комплекта к обучаемому. Второй путь заключается в обеспечении дистанционного доступа к лабораторным установкам. Последователи того и другого направления достигли определенных успехов, однако, по нашему мнению, координальным способом решения указанной проблемы является реализация концепции дистанционного лабораторного практикума, который решает одновременно проблемы практикумов для дистанционного обучения и традиционных форм получения образования. Для конкретного прикладного тематического направления создается единый универсальный научно-дидактический комплекс, предназначенный как для обучения студентов или переподготовки специалистов, так и для проведения научных исследований. Коллективное использование этого комплекса многими абонентами, распложенными на сколь угодно большом расстоянии до него, выполняется с применением телекоммуникаций. Измерительные приборы в научно-дидактический комплекс заменяются автоматизированной интеллектуальной сенсорной подсистемой. Оперативное управление экспериментом осуществляется автоматически с помощью многоканальной интеллектуальной подсистемы регулирования по программам, получаемым от удаленных компьютеров, которые являются рабочими местами пользователей и на которых создается виртуальное отображение научно-дидактического комплекса, позволяющее с максимально возможным приближением воспроизводить реальное оборудование стенда. Программное обеспечение рабочего места осуществляет комплексную компьютерную поддержку всего лабораторного практикума: обучение, контроль знаний, получение индивидуального задания, моделирование исследуемых процессов, задание условий эксперимента, инициирование его выполнения, получение и всесторонний анализ результатов. Успешные испытания научно-дидактического комплекса для исследования электротехнических устройств и систем при изучении соответствующего курса, позволяют надеется на разработку и внедрение в педагогическую практику дистанционного обучения аналогичных научно-дидактических комплексов по другим дисциплинам. В случае изучения естественнонаучных дисциплин в состав комплекта учебных пособий включаются задания и материалы для выполнения лабораторного практикума, а также «дистанционные» комплекты

лабораторных работ. Желательно включать в состав кейса рекомендации и практикумы по изучению и освоению основ практических навыков работы с компьютером и комьютерными сетями.

ОСОБЕННОСТИ ОНЛАЙН-ОБУЧЕНИЯ В ПЕРИОД ПАНДЕМИИ В ВУЗАХ

Мурадова А.А., Зилолов Ф.Х., Воҳидов Э.К., ТУИТ

В условиях угрозы распространения коронавирусной инфекции большинство университетов по рекомендации Министерства высшего и средне-специального образования Республики Узбекистан приняли решение о переходе на дистанционное обучение.

Экстренный перенос обучения в дистанционный формат в условиях пандемии имеет существенные отличия от правильно спланированного онлайн-обучения на основе массовых открытых онлайн-курсов (МООК). Образовательные организации, вынужденные работать со студентами дистанционно в целях снижения рисков распространения коронавируса, должны осознавать эту разницу при оценке эффективности так называемого "онлайн-обучения" с применением дистанционных образовательных технологий (ДОТ).

Все очные занятия, включая лекционные, практические и даже лабораторные при наличии виртуальных аналогов, были перенесены в онлайн-среду.

Преподаватели вынуждены организовывать учебный процесс посредством дистанционных технологий обучения на основе различных способов доставки электронного контента и доступных инструментов коммуникации обучающихся и преподавателей в электронной информационно-образовательной среде (ЭИОС).

Такой резкий переход на "дистант" – мера вынужденная и экстренная, не все университеты были готовы к этой кардинальной перестройке учебного процесса исходя из объективно разного уровня развитости информационной инфраструктуры, обеспеченности дисциплин электронными образовательными ресурсами и готовности преподавателей к использованию цифровых платформ и сервисов в образовательном процессе.

На протяжении более десяти лет с момента появления первого массового открытого онлайн-курса (МООК), разработанного Дейвидом Кормьером, преподавателем Университета Острова Принца Эдварда (Канада), ученые разных стран проводили исследования, связанные с применением данной технологии в образовании, уделяя особое внимание новому термину "онлайн-обучение".

Понимание отличий онлайн-обучения от других существующих образовательных технологий, таких как дистанционное обучение, смешанное обучение, мобильное обучение и др., позволяет проводить сравнительный анализ эффективности обучения в разных форматах и судить о преимуществах и недостатках той или иной технологии.

Многочисленные исследования в области образовательных технологий сходятся в том, что в основе онлайн-обучения лежит тщательно спроектированный и спланированный учебный процесс в ЭИОС, поддерживаемый методически обоснованной и целенаправленной последовательностью учебно-методических и контрольно-измерительных материалов, которые обеспечивают достижение результатов обучения в формате исключительно электронного обучения. Ключевым в этом определении является педагогический дизайн, как инструмент проектирования онлайн-курса, что отсутствует в большинстве случаев при резком переходе на "дистант".

Предложены девять основных параметров (характеристик), которые необходимо учитывать при проектировании курса, с альтернативными вариантами реализации онлайн-обучения: модель обучения (исключительно электронное обучение, смешанное обучение с различным соотношением очного и онлайн-форматов, электронное обучение с включением вебинаров); темп освоения (освоение в любом удобном темпе, заданный преподавателем темп освоения, заданный темп освоения с возможностью прохождения части курса в произвольном темпе); количество обучающихся (до 35 человек, от 36 до 99 человек, от 100 до 999 человек, более 1000 человек); педагогическая технология (объясняющий курс, практико-ориентированный курс, исследовательский курс, курс для организации совместной коллективной деятельности); цель оценивания в курсе (определение степени готовности обучающегося к новому материалу, организация адаптивного обучения, диагностика достигнутых результатов обучения, накопительная система оценок, выявление отстающих обучающихся); роль преподавателя (активное взаимодействие со студентами онлайн, незначительное онлайн-присутствие, отсутствие

преподавателя в онлайн-среде); роль студента (читает и слушает; решает задачи и отвечает на вопросы, активное экспериментирование через симуляторы и другие инструменты, взаимодействие с другими обучающимися); синхронизация взаимодействия (только асинхронное, только синхронное, смешанный формат взаимодействия); обратная связь (автоматизированная со стороны системы, от преподавателя, от других обучающихся).

Все эти параметры сильно влияют на дизайн онлайн-курса: на формы представления контента, на выбор контрольно-измерительных инструментов, на использование тех или иных сервисов коммуникации и проведения процедуры итоговой аттестации по курсу.

Правильно подобранные материалы курса, исходя из целей и задач обучения и характеристик учебного процесса в онлайн-среде, обеспечат обучающимся образовательный результат, а преподавателю - положительную обратную связь.

Такой подход подразумевает, что онлайн-обучение – это прежде всего когнитивный и социальный процесс, а не просто процесс передачи информации посредством Интернет. Так же, как и очное обучение онлайн-обучение требует социальной поддержки обучающихся. В очном обучении эту роль выполняют материальные ресурсы вуза и преподаватели, задействованные в учебном процессе.

МУЛЬТИМЕДИАЛИ ЎҚУВ КУРСЛАРИНИ ИШЛАБ ЧИҚИШ БОСҚИЧЛАРИ ВА УЛАРНИ ЎҚУВ ЖАРАЁНИДА ҚЎЛЛАШ

Мусахаджаева И.А., Сабурова Н.Р., ТАТУ

Мультимедиа воситалари асосида талабаларга таълим бериш ва кадрларни кайта тайёрлашни йўлга қўйиш ҳозирги куннинг долзарб масаласидир.

Мультимедиа бу информатиканинг дастурий ва техникавий воситалари асосида аудио, видео матн, графика ва анимация эффектлари асосида ўқув материалларини ўқувчиларга етказиб беришни мужассамланган холдаги кўринишидир. Бу ягона алоқа тизимнинг асосий тадбиқ йўналишлари қуйидагилардир: видеоконференция, видео ва аудио маълумотларни узатиш.

Талабаларни ахборот-коммуникация технологияларини қўллаш асосида ўқитиш янги таълим стандартига айланмоқда. Компьютерда ўқитиш тизимлари видеокассеталарда ахборотлар кетма-кет жойлашган курсларга нисбатан кенг

имкониятларга эга. Яъни, талаба ўзини қизиқтирган ва ҳоҳлаган мавзусига ўтиб билим олиши мумкин. Бундан ташқари, бундай тизимлар самарали бахолаш ва билим олиш жараёнини назорат қилиш воситалари билан жиҳозланган.

Мультимедиали ўқув курсларини ишлаб чиқиш биринчи навбатда замонавий компьютерда ўқитиш тизимлари мультимедиа технологиялари асосида лойихалаштирилади ва ишлаб чиқилади. Мультимедиа технологиялари ҳозирги кунда асосан қуйидаги соҳаларни қамраб олган: дам олиш учун (компьютер ўйинлари, виртуал борлик), реклама (презентация, реклама фильмлари), ахборот тизимлари, моделлаштириш ва таълим.

Мультимедиа технологияларига асосланган ўқув курсларини ишлаб чиқиш узоқ муддатли ва қимматли жараёндир. Шунинг учун ҳам, бундай курсларни ишлаб чиқишнинг барча босқичларини яхши тасаввур этиш керак.

Мультимедиали ўқув курсларини ишлаб чиқиш учта босқичдан иборат:

Дастлабки босқич. Дастлабки босқичда мультимедиа-технология асосида ишлаб чиқилиши керак бўлган курс танлаб олинади. Бу энг маъсулиятли босқичлардан бири саналади. Авваламбор, бу соҳадаги мавжуд курсларни тахлил қилиш керак. Ушбу курсни ишлаб чиқиш сарф-харажатлар миқдори ҳисоблаб чиқилиб, уни қанча кўпайтириш ва қандай аудиторияга мўлжалланганлиги белгилаб олинади. Мультимедиали ўқитиш курслари мактабгача бўлган ёшлар, мактаб ўқитувчилари, касб-хунар коллежлари ва олийгоҳлар талабалари, малака ошириш масканлари тингловчилари учун мўлжалланган бўлиши мумкин. Шулардан келиб чиққан ҳолда, компьютерда ўқитиш тизимларининг мураккаблик даражалари аниқланади.

Тайёрлаш босқичи. Ушбу босқичда курсни компьютерда ўқитиш тизимининг матни, унда қўлланиладиган расм, жадвал ва анимациялар танлаб олинади. Амалиёт шуни кўрсатмоқдаки, бундай тизимларни яратишда матнни олдин чоп этилган дарслик ёки ўқув қўлланмаларга асосланиб танлаш керак экан, чунки бунда имло хатолар йўқ, матннинг мазмуни ҳам анча юқори савияда бўлади.

Мультимедиали ўқув курсларини ишлаб чиқиш матнини шакллантиришда қуйидаги босқичларга риоя қилиш мақсадга мувофиқдир: мақсадни аниқлаш ва матнлар манбаларини танлаб олиш, матннинг таркибини аниқлаш, дастлабки манбаъларни компьютерда ўқитиш тизимининг мундарижасидан келиб чиқиб таркиблаштириш, таркибий тахрир қилиб чиқиш, назорат ва матнни экспертиза қилиш.

Асосий босқич. Мультимедиали ўқув курсини яратишнинг асосий босқичида тез-тез ишлатиладиган анимация элементлари, овоз кабилар ишлаб чиқилади. Буни қуйидагилар билан изоҳлаш мумкин:

- биринчидан, матннинг ёнида бирор бир иллюстрациянинг бўлиши уни қабул қилиш даражасини юксалтиради;

- иккинчидан, иллюстрация қилинаётган расм анимация ёки видеофрагментга нисбатан кўп хотирани эгалламайди.

Мультимедиали ўқитиш курсларини яратишда анимациялардан фойдаланиш катта ўрин тутади. Анимациядан ўқув материалининг мазмунини тўлиқ етказиш ва айрим объектларни ички холатларини кўрсатиб беришда самарали фойдаланиш мумкин. Анимацияларни ишлаб чиқишда компьютер графикаси воситаларидан кенг фойдаланилиб, унда икки (2D) ва уч ўлчамли (3D) фазода объектлар тақдим этилади.

Ўқув жараёнида мультимедиали ўқув курсларидан фойдаланишда видео элементлари ҳам кенг қўлланилади, чунки видео орқали телекоммуникация қурилмаларини тузилишини ва ишлашини тўлиқ акс эттириш мумкиндир. Бундан ташқари, ўқув курсларида маъруза, амалиёт, лаборатория дарсларига овоз ва анимация элементлар ҳам киритилмоқда. Бу ҳам ўқув материалларини талабанинг хотирасида узоқ муддатда сақланиб қолишида катта ўрин тутади.

Мультимедиали ўқув курсларини ишлаб чиқиш бўйича ҳар бир мавзудан кейин тест саволлари берилади ва фойдаланувчи ўз билим даражасини ушбу тестлар орқали текширса бўлади. Мультимедиа воситалари орқали фойдаланувчилар билан интерактив алоқа ўрнатилиши мумкин. Мультимедиали ўқув курслари ҳар хил дастурлаш тиллари орқали тузилади. Ҳар бир мультимедиали ўқув курслари ўзига хос бўлади. Ушбу мультимедиали ўқув курсларининг ҳам бир нечта қулайликлари мавжуд:

- ўрганилиши керак бўлган материалларни талабаларга қулай кўринишда тақдим этиш;

- мультимедиали ўқув курсларининг талаба билан интерактив усулда мулоқотда бўла олиши;

- талабалар ўқув материалларини мустақил равишда ўрганиши ва олган билимларини тест синовлари асосида синаб кўриш имконияти.

Ахборот-коммуникация технологияларининг таълим соҳасида кенг кўламда қўлланилиши, авваламбор таълим тизими сифати, илмий-техникавий ахборотларнинг тезкор олиниши, замонавий педагогик технологияларнинг жорий қилиниши ва масофавий ўқитиш тизимини шакллантиришни таъминлаб беради.

Мультимедиа воситалари асосида талабаларни ўқитиш қуйидаги афзалликларга эга:

- берилаётган материалларни чуқурроқ ва мукаммалроқ ўзлаштириш имконияти мавжуд;
- таълим олишнинг янги соҳалари билан яқиндан алоқа қилиш иштиёқи янада ортади;
- таълим олиш вактининг қисқариши натижасида, вактни тежаш имкониятига эришилади;
- олинган билимлар талабалар хотирасида узоқ сақланиб, керак бўлганда амалиётда қўллаш имкониятига эришилади.

Мультимедиа воситалари асосида билим олишда 30 % гача вақтни тежаш мумкин бўлиб, олинган билимлар эса хотирада узоқ муддат давомида сақланиб қолади. Агар талабалар берилаётган материалларни кўриш (видео) асосида қабул қилинса, ахборотни хотирада сақланиб қолиниши 25-30 % ошади. Бунга қўшимча сифатида ўқув материаллари аудио, видео ва графика кўринишда мужассамлашган ҳолда берилса, материлларни хотирада сақлаб қолиш 75 % ортади. Амалиёт шуни кўрсатмоқдаки, мультимедиа воситалари асосида мультимедиали ўқув курслари билан талабаларни ўқитиш икки баробар унумли бўлади ва вактдан ютиш мумкин.

МАСОФАВИЙ ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА ЎҚИТИШНИНГ ИННОВАЦИОН ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ ЗАРУРИЯТИ

Норматова Д.Т., ТАТУ

Олий таълим тизимига ахборот компьютер технологияларини жорий этиш жуда долзарб бўлган замонавий шароитда, анъанавий таълим шаклларини янги усул ва технологиялар билан тўлдирадиган таълим муассасаларининг сони ўсмоқда. Масофавий ўқитиш шакли энг оммавий ва қулай шакл бўлиб ҳисобланади. Масофавий ўқитишга хос бўлган янги ёндашувлар, методлар ва ўқитиш воситаларини ҳисобга олган ҳолда, ўқитувчилар ўзаро муносабатларнинг янги шаклларини ўзлаштиришда қийинчиликларга дуч келмоқдалар. Шу сабабли, олий ўқув юртларининг ушбу таълим шаклидан фойдаланишга тайёрлиги тўғрисида савол туғилади. Бу саволга жавоб нафақат олий ўқув юртлари техник жиҳозланишининг тайёрлиги, балки профессор-

ўқитувчилар таркибининг масофавий ўқитиш шаклида ўқитиш ва таълим беришга тайёрлиги ҳисобланади.

Масофавий ўқитиш деганда бугунги кунда таълим шакли эмас, балки технология сифатида тушунилади. Кўпгина олий ўқув юртларининг техник ташкил этувчиси бўлган мультимедиа ускуналари такомиллаштирилиши, энг сўнгги дастурий таъминот билан жиҳозланиши, алоқа тармоқлари ва каналлари ўтказилиши ва созланишини назарда тутади.

Масофавий ўқитиш шакли билан бевосита таниш бўлмаган кўпгина ўқитувчилар ушбу ўқитиш шаклини электрон ўқув материалларини Интернет тармоғи орқали узатиш жараёни деб ҳисоблашади. Бироқ, ўқитувчисиз ўқитиш мумкин эмас. Масофавий ўқитиш - бу турли хил мультимедиа технологиялари орқали ўқув жараёни иштирокчиларининг ўзаро ва таълим муҳити билан ўзаро таъсир биргаликда ишлаш жараёни ҳисобланади. Баъзи олий таълим муассасаларининг раҳбарлари масофавий ўқитиш шакли ўқитувчилар ишини енгиллаштиради деб ҳисоблашади. Аслида, масофавий ўқитиш шаклидаги таълим жараёни кўп вақтни, ҳамда ушбу жараён индивидуал ёндашувни талаб этади. Ўз-ўзидан, бу кўпроқ ўқув материалларини тузишда индивидуаллаштириш жараёнини назарда тутади ва ушбу жараёнга тайёрланиш кўп вақтни талаб этади. Бундан ташқари, масофавий ўқитишнинг турли хил моделлари мавжуд. Улар машғулотларни ўтказиш методикаси, ўзаро ҳамкорликда ишлаш шакллари бўйича бир-биридан фарқ қилади, шунингдек ўқув материалларини тузиш ва тақдим этишда ҳам фарқланди. Материалнинг моҳияти тушуниш учун қулай ва тушунарли бўлиши керак. Бундай материалларни ишлаб чиқиш учун мутахассисларни, методистларни, ахборот технологиялари бўйича мутахассисларни жалб қилиш керак. Ўқитувчини шундай тайёрлаш керакки, ушбу барча функцияларни ўзида бирлаштира олсин.

Ҳозирги кунда фанлар бўйича, ўқитишни ташкил этишнинг замонавий усуллари ва ахборот технологиялари соҳасида, шунингдек, педагогика ва психологияда билимларнинг ўсиш ва ривожланиш динамикаси кузатилмоқда. Ушбу тенденция яқин келажакда сақланиб туриши шубҳасиз. Ушбу шароитда рақобатли курашда умидсиз орқада қолмаслик учун, ўқитиш технологиясининг истиқболли воситалари ва усулларини жорий этишдан ташқари, ўқитувчиларнинг тайёргарлик даражасини бугунги куннинг эмас, балки эртанги куннинг талабларига мувофиқлаштириш зарурати юзага келади. Талабларнинг ўзгариш тезлигини ҳисобга олган ҳолда ўқитувчилар малакасини ошириш узлуксиз ва доимий жараён бўлиши керак. Ушбу жараён ахборот ўқитиш технологияларининг доимий янгиланиши билан боғлиқ. Билимларнинг барча

соҳаларида тезлаштирилган тараққиёти амалдаги ўқув материалларида келтирилган маълумотларнинг катта қисми ўз аҳамиятини тезда йўқотишига ва янгиланиши кераклигига олиб келади. Шу сабабли, ўқитувчиларнинг малакасини ошириш жараёнида психология ва педагогика соҳасисда эришилган сўнгги ютуқларга, шунингдек, таълим жараёнига ўқитишнинг янги шакллари ва воситаларини жорий этиш механизмларига эътибор қаратиш зарур. Кўриниб турибдики, ўқитувчиларнинг махсус тайёргарлигисиз масофавий ўқитиш шаклини амалга ошириш қийин жараёндир. Масофавий ўқитишга тааллуқли бўлган мавзуларнинг кўп қисмини қамраб оладиган дастур ишлаб чиқиш зарур бўлади. Ушбу дастур қонун ҳужжатларининг базаси, компьютер саводхонлиги, масофавий ўқитиш шаклида фойдаланиладиган ахборот тизимлари қўлланилиши, шунингдек масофавий ўқитиш шаклини амалга оширишнинг психологик-педагогик хусусиятларини ўз ичига олиши керак. Ўқитувчиларни тайёрлаш дастурини муваффақиятли ўрганиб чиқилгандан кейин, якуний назорат сифатида танлаган фан бўйича аттестациядан ўтиш керак бўлади.

Сўров натижалари асосида, ўқитувчиларнинг айрим қисми масофавий ўқитишнинг дастурий воситаларини қўллаш доирасида ўртача даржада компьютердан фойдалана олади. Шунга қарамай, баъзи ўқитувчилар ишлаш жараёнида бир қатор қиийнчиларга дуч келишмоқда. Ўтказилган тадқиқотлар асосида муаллиф томонидан масофавий ўқитиш тизимида ўқитувчилар дуч келадиган қийинчиликлар, шунингдек уларнинг оқибатлари аниқланган:

• компьютердан бошланғич даражада фойдаланувчиларининг субъектив қийинчиликлари (кўз, ақлий ва мушак чарчаши) ўз вақтида бартараф этилмаганда, янги дастурий воситаларни ва ўқитиш жараёнидаги ёндашувларни ўзлаштирмаслиги сабабли барча ўқув ва билиш фаолиятини назорат қилиш қобилияти йўқотилишига олиб келади.

• фаолиятни назорат қилиш қобилиятини йўқотишига олиб келадиган асабийлашиш.

• паст фаоллик ва ўз-ўзига баҳо беришга зиён келтириши мумкин бўлган вазиятларни четлашга интилишга асос бўлган ишончнинг мавжуд эмаслиги.

Инновацион таълим технологиялардан фойдаланиш зарурати ўқув жараёнининг сифатини оширишнинг самарали воситаси сифатида, малака ошириш тизимига қуйидаги вазифаларни қўяди:

• Ўқитувчиларни масофавий таълим идеологиясига ўқитиш, шунингдек ташкилий ва технологик муҳитни ажралмас йирик тизим сифатида ўрганиш;

• Ўқитувчилар томонидан таълимнинг истиқболли ахборот технологияларини ўқув жараёнида узлуксиз ўзлаштириш;

• Психология ва педагогиканинг сўнгги ютуқларини доимий ўрганиш;

• Талабалар билимларини назорат қилиш шаклларини ўргатиш.

Масофавий ўқитиш шароитида ўқитувчиларнинг катта қисми масофавий таълим шаклини ташкил этишда жиддий тўсиқ бўладиган муайян қийинчиликларга дуч келишмоқда. Бироқ, махсус тайёргарликдан ўтиш билан қийинчиларнинг аксарияти бартараф этилиши ёки камайтирилиши мумкин. Бунда талабалар ва ўқитувчиларни ўқитишни ташкил этишнинг янги шаклларига мослашишини сезиларли даражада тезлаштириш мумкин. Шу билан бирга, ўқитувчиларни масофавий ўқитиш шароитларига тайёрлашни ташкил этиш заруриятини тажриба-экспериментал тасдиғи олинган.

Масофавий ўқитиш шароитида ўқитувчилар бир қатор қийинчиликларга дуч келишади, асосий қийинчиликлар бўлиб қуйидагилар ҳисобланади:

1. Янги таълим технологиялари билан ишлашни билмаслик.
2. Баъзи ўқитувчилар ўртасида ахборот маданиятининг даражаси пастлиги.
3. Психологик қийинчиликлар.
4. Талабалар билан биргаликдаги билиш фаолиятини ташкил қилишни билмаслик.

Асосий қийинчиликларни пухта таҳлил қилгандан сўнг, масофавий ўқитиш шароитида ўқитадиган ўқитувчилар учун махсус комплексли мослашиш дастурини яратиш зарурати тўғрисида савол туради.

ТЕЛЕКОММУНИКАЦИЯ СОҲАСИДА КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШДА ЗАМОНАВИЙ ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИНИНГ АҲАМИЯТИ

Парсиев С. С., Қудратходжаев С. Ш., Кучкаров Ш. Х., ТАТУ

Республикамизда таълим-тарбия тизимини тубдан ислоҳ қилиш мустақилликнинг илк кунлариданоқ энг мухим вазифалардан бири бўлиб келмоқда. Мустақил фикрлайдиган, замонавий илм-фан ва касб-ҳунарларни пухта эгаллаган, ўз юрти, ўз халқига фидойи, ҳар томонлама соғлом авлодни тарбиялаш ҳар бир таълим берувчининг энг муҳим вазифаси, юртбошимиз таъбирлари билан айтганда балки бурчидир. Ушбу бурч ва вазифаларни бажариш ҳар бир педагогдан юксак билим, улкан маҳорат, замонавий илм-фаннинг ютуқларидан хабардор бўлиш, хорижий тилларни пухта эгаллаш, компьютер технологияларидан, интернетдан мақсадли фойдаланиш

кўникмаларига ҳамда юқори малакага эга бўлишни талаб этмоқда. Ҳозирги вақтда телекоммуникация технологиялари ҳаётимизнинг барча жабҳаарига кириб келди ва улардан самарали фойдаланиш, ўқув жараёнига тадбиқ этиш ва шу орқали таълим сифатини ошириш долзарб масалалардан бири бўлиб қолди. Шу сабабли ҳам олий таълим муассасасининг олдида турган энг муҳим ва энг долзарб вазифалардан бири - бу ўқитишда инновацион таълим технологияларидан кенг фойдаланиш, уларни ўқув жараёнига тадбиқ этиш ва натижада юқори малакали, билимли ва рақобатбардош мутахассис кадрлар тайёрлашдан иборатдир. Телекоммуникация соҳаси бўйича малакали кадрларни тайёрлашда замонавий таълим технологияларидан самарали фойдаланиш талабаларнинг ўқув материалларини мустақил ўзлаштиришлари учун зарур шарт-шароитларни яратишга хизмат қилади.

Замонавий таълим технологиялари таълим-тарбия жараёнининг бир тизимга солинган илмий-назарий ва методик асосланган янги шакл, усул ва воситаларининг мажмуидир.

Замонавий таълим технологиясининг марказий муаммоси — таълим олувчи шахсини ривожлантириш орқали таълим мақсадига эришишни таъминлашдан иборат. Ўқув-тарбия ишлари жараёнида талабаларни ижодий фикрлашга, ўзгарувчан вазиятларга ўргатиш, эркин рақобат асосида фаолиятни ташкил этиш ҳамда уларнинг амалий машғулотларда ахборот технологиялари, электрон дарсликлар ва мультимедиалардан фойдалана билиши муҳимдир. Бу эса талабаларда мустақиллик, эркин фикрлашни тарбиялашни, ўқув фаолиятини таҳлил қилишни талаб этади. Бунда янги мазмун, шакл, усул ва восита уйғунлигида мақсад, вазифа, фаолият ва педагогик натижа яхлитлиги таъминланади ҳамда ўқув мақсадларига эришишни кафолатлайдиган ўқув жараёни лойиҳалаштирилади ва амалга оширилади. Замонавий таълим технологиялари талабаларда ностандарт ёндашувни ва лойиҳалаштирилган натижаларни амалга ошириш имконини берувчи амалий кщникмаларни шакллантириш имконини беради. Ҳозирги кунда таълим жараёнида интерфаол услублар (инновацион педогогик ва ахборот технологиялари)дан фойдаланиб таълим сифатини ошириш ҳар бир педагог ўқитувчидан талаб этилмоқда ва шу услубларга эътибор кундан-кунга ортиб бормоқда. Замонавий технологиялар қўлланилган машғулотлар талабалар эгаллаётган билимларни ўзлари қидириб топишларига, мустақил ўрганиб таҳлил қилишларига,ҳатто хулосаларни ҳам ўзлари келтириб чиқаришларига қаратилган бўлиши керак. Ўқитувчи бу жараёнда шахс ва жамоанинг ривожланиши, шаклланиши, билим олиши ва тарбияланишига шароит яратади, шу билан бирга, бошқарувчилик,

йўналтирувчилик вазифасини бажаради. Ўқув - тарбия жараёнида педогогик технологияларнинг тўғри жорий этилиши талабаларнинг бу жараёнда асосий ташкилотчи ёки маслаҳатчи сифатида фаолият юритишига олиб келади ва бу холат улардан кўпроқ мустақилликни, ижодни ва иродавий сифатларни талаб этади. Педогогик технология асосида ўтказилган машғулотлар талабаларнинг муҳим ҳаётий ютуқ ва муаммоларига ўз муносабатларини билдиришларига интилишини қондириб, уларни фикрлашга, ўз нуқтаи назарларини асослаб фикр билдиришларига имкон яратади. Бугунги кунда ўқитиш жараёнини самарали ва натижали бўлишини таъминлашга йўналтирилган интерфаол услубларнинг ва замонавий таълим технологияларининг барчаси мамлакатимизнинг олий таълим муассасаларида кенг миқёсда қўлланилиб келинмоқда хамда ижобий натижалар бермоқда. Бунда таълимнинг янги методлардан фойдаланишда таҳсил олувчиларнинг интеллектуал, эркин фиклашни ривожлантириш, ўз фикрини асослаб беришга интилиши, ўзгалар фикрини тинглай олиши, муаммолар ечимини топишга ҳаракат қилиши, ижодий ва ахлоқий тараққиёти жараёнларига самарали таъсир этади. Ҳозирги вақтда олий таълим муассасаларида интерфаол таълимни ташкил этишда қуйидаги замонавий таълим технологиялари қўлланилмоқда:

***Интерфаол методлар**: «Кейс-стади» (ёки «Ўқув кейслари»), «Блиц-сўров», «Моделлаштириш», «Ижодий иш», «Муносабат», «Режа», «Суҳбат».*

***Стратегиялар:** «Ақлий ҳужум», «Бумеранг», «Галерея», «Зиг-заг», «Зинама-зина», «Музёрар», «Ротация», «Т-жадвал», «Юмалоқланган қор».*

***График органайзерлар**: «Балиқ скелети», «ББББ», «Концептуал жадвал», «Венн диаграммаси», «Инсерт», «Кластер», «Нима учун?», «Қандай?».*

Хулоса сифатида шуни таъкидлаш жоизки, олий таълим муассасаларининг ўқув-тарбиявий жараёнини ташкилллаштиришда замонавий ўқитиш услублари ва таълим технологияларининг ўрни беқиёсдир ва улардан самарали фойдаланиш юқори малакали кадрлар тайёрлаш имконини яратади.

ТЕЛЕКОММУНИКАЦИЯ СОҲАСИДА МАЛАКАЛИ КАДРЛАРНИ ТАЙЁРЛАШ АСОСЛАРИ

Парсиев С.С., Қудратова С. М., Эркинов Ф. К., ТАТУ

Ёшларни ўқитиш, уларга таълим бериш, келажак учун муносиб кадрлар қилиб тарбиялаш доимо ҳар бир давлатнинг биринчи навбатдаги вазифаларидан бири бўлиб келган.

Республикамиз Президенти Ш. М. Мирзиёевнинг бевосита ташаббуси ва раҳбарлигида қабул қилинган ҳамда изчил равишда амалга оширилаётган Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси Республикамизда ривожланиш тараққиётнинг янги босқичини бошлаб берди. 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳараакатлар стратегиясининг “IV. Ижтимоий соҳани ривожлантиришнинг устувор йўналишлари” бўлимида таълим ва фан соҳасини ривожлантириш бўйича вазифалар белгиланди. Маълумки, Ўзбекистон Республикасининг «Таълим тўғрисида» ги қонунда ҳам мамлакатимизда жаҳон андозалари талабларига жавоб бера оладиган юксак малакали мутахассис кадрлар тайёрлаш вазифалари белгиланган. Жумладан, мазкур қонуннинг асосий мақасади - таълим соҳасини тубдан ислоҳ қилиш, юксак маънавий ва ахлоқий талабларга жавоб берувчи малакали кадрлар тайёрлашнинг миллий тизимини яратишдан иборатдир. Телекоммуникация соҳасининг шиддат билан ривожланиб бориши, интернет тармоғининг кундалик ҳаётимизга кириб келиши ушбу соҳа мутахассисларидан юқори билимга ва тажрибага эга бўлиш талаб этилмоқда.

Бунинг исботи сифатида 2020 йилнинг 16 март кунидан бошлаб Республикамизнинг барча олий таълим муассасаларида талабаларга масофадан туриб ZOOM платформасида on-line равишда дарс машғулотларининг олиб борилишини келтириш мумкин. Бу жараён ҳозирги вақтга қадар давом этмоқда ва ҳар биримиздан фақат дарс машғулотларини олиб бориш эмас, балки Интернет тармоқлари орқали дарс машғулотларига мос бўлган маълумотларни жойлаштириш, топшириқларни сифатли тайёрлаш ва талабаларга етказиш ва назоратга олиш, масофадан туриб давоматни таъминлаш каби ўта масъулиятли ишларни бажариш талаб этилмоқда. Бу жараённи ташкил этишда масофавий таълимнинг ўзига хос ижобий ва салбий томонлари кўриниб қолди. Ҳар биримиздан ижобий томонларини янада такомиллаштириш, салбий томонларини эса бартараф этиш кундалик иш фаолиятимизга айланиши талаб

этилади. Бу шароитда дарс машғулотларини юқори савияда олиб бориш, талабалар билан доимий равишда мулоқатда бўлиш, талабалар томонидан топшириқларни ўз вақтида сифатли бажариш ва доимий мониторинг олиб бориш ҳам талабадан ва профеор-ўқитувчилардан катта масъулият талаб этади. Биз масофавий таълим деганда ўқув режалари ва ўқув дастурларига мувофиқ таълим олувчилар томонидан зарур билим, малака ва кўникмаларни ахборот-коммуникация технологияларидан ҳамда Интернет жаҳон ахборот тармоғидан фойдаланган ҳолда масофадан туриб олишга қаратил жараённи тушунишимиз керак бўлади.

Жаҳонда, жумладан юртимизда глобаллашув, бозор иқтисодиёти, эгалланган билимларнинг қисқа даврда эскириши ва тезкор ахборот алмашинуви даврида телекоммуникация соҳасида юқори малакали рақобатбардош кадрлар тайёрлаш самарадорлигини оширишда янги билимларнинг яратилиши, сақланиши ва уларни ўз вақтида оқилона узатилишининг зарурати кечиктириб бўлмайдиган вазифага айланиб бормоқда.

Юқорида келтирилган фикр ва мулоҳазаларни умумлаштирган холда телекоммуникация соҳаси бўйича билимли, иқтидорли, масъулиятли, ватанпарвар, кенг дунёқарашли, маънавиятли ва юқори малакали рақобатбардош кадрлар тайёрлашнинг асослари сифатида қуйидагиларни келтириш мумкин:

- олий таълим муассасаларида фаолият олиб бораётган педагог ходимларнинг илмий-педагогик салоҳиятини ошириш, уларни моддий ва маънавий рағбатлантириш;

- илмий даражали ўқитувчиларнинг олий таълим муассаларидаги салоҳият даражасидаги нормативларини қайта кўриб чиқиш, олий таълим сифатини юксалтириш мақсадида маъруза ўқишга аксарият ҳолларда фақат илмий даражаси ва унвони бор ўқитувчиларни жалб этиш;

- олий таълим муассасаларида юқори малакали бакалаврлар ва магистрлар тайёрлаш самарадорлигини баҳолаш ва ошириш механизмларини ишлаб чиқиш ва амалда тадбиқ этиш;

- телекоммуникация соҳасидаги муаммоларни инновацион лойиҳалар сифатида шакллантириш ва олий таълим муассасасининг мутахассислик кафедраларига олиб келиш ва профессор-ўқитувчилар билан биргаликда илмий изланишлар олиб бориш;

- бакалавриат таълим йўналишларини имтиёзли диплом билан тугатган бакалаврларни ўз хоҳишларига кўра мос магистратура мутахассисликларига имтиёзли шартларда ўқишга кириш имкониятларини кенгайтириш.

Ушбу вазифаларнинг муваффақиятли ҳал этилиши телекоммуникация соҳаси бўйича юқори малакали мутахассисларни тайёрлаш жараёнида пайдо бўлаётган муаммоларни самарали ечиш имконини беради ва таълим сифатини ошириш ва самарадорлигини оширишда асосий омил бўлиб хизмат қилади.

ПАНДЕМИЯ ШАРОИТИДА ТАЛАБАЛАРНИ МУТАХАССИСЛИК ФАНЛАРИ БЎЙИЧА МАСОФАДАН ЎҚИТИШ ИМКОНИЯТЛАРИ ВА МУАММОЛАРИ

Раджапова. Р.Н., ТАТУ

XXI асрда жаҳон миқёсида таълим, барқарор тараққиётни таъминловчи асосий омил сифатида эътироф этилди. 2030 йилгача белгиланган халқаро таълим концепциясида “бутун ҳаёт давомида сифатли таълим олишга имконият яратиш” долзарб вазифа сифатида белгиланди. Бу узлуксиз таълим тизимида ҳар бир шахснинг ижодий тафаккурини ривожлантиришга йўналтирилган замонавий ахборот-коммуникация ва масофадан ўқитиш технологияларидан фойдаланиш имкониятини кенгайтирди. Бундай ҳолда хар бир инсон қаерда бўлишидан қатъий назар масофадан туриб таълим олиш имконига эга бўлади. Шунинг учун айнан пандемия пайтида масофадан ўқитиш долзарб масалалардан ҳисобланади. Шундан кўриниб турибдики ахборот-коммуникация технологияларини жорий этишнинг муҳимлигини бугунги пандемия шароити ҳам яна бир бор исботлади.

Ҳозирги кунда масофавий таълим технологияларининг кенг жорий этилиши, янги авлоднинг кўпчилигини шахсий компьютердан эркин фойдалана олиш имконига эгалиги ва ҳозирги кунда ҳар бир таълим муассасаси, ҳар бир шахс Интернет тармоғи ва ундаги маълумотлардан моҳирлик билан фойдаланиши билан боғлиқ.

Масофавий ўқитиш жараёнини амалга оширишда, интерфаолликни таъминлаш мақсадида асосан ахборот-коммуникация технологиялари воситалари, интернет технологияларидан кенг фойдаланган ҳолда ўқитишнинг барча компонентлари: мақсад, мазмун, усули, шакл воситаларини амалда қўллаш назарда тутилади. Бунда, албатта, ўқитиш технологияларини ва ўқитиш усулларини аниқлаштириб олиш мақсадга мувофиқдир. Таълим бериш жараёнида бундай усуллардан фойдаланиш, биргаликда ўқитишнинг бошқа самарали йўлларидан фойдаланишни ҳам назарда тутади. Жумладан,

талабаларни қизиқтириш, уларни материалларни ўзлаштириши бўйича билимини текшира бориш, ўқитишни дефференциаллаш ва алоҳида (индивидуал) каби усуллардан ҳам фойдаланиш мумкин.

Юқорида таъкидлаб ўтилганларни инобатга олган ҳолда масофадан ўқитиш жараёнида яратиладиган ўқув-услубий материалларга қуйидаги талаблар қўйилади:

– фан мазмуни давлат таълим стандартлари ва ўқув мақсадларига мос келиши;
– мустақил таълим олишни таъминлаши;
– фан бўйича етарли миқдорда маълумотларни ўзида жамлаши;
– фан бўйича машқ ва масалалар билан таъминлаши;
– бошқа фанлар билан ўзаро боғланиши;
– ўз-ўзини баҳолаш ва назорат қилиш ва бошқалар.

Ҳозирги пандемия шароитида масофавий таълимнинг имкониятлари қуйидагилардан иборат:

– Интернет тармоғи орқали онлайн режимида масофавий ўқитишни ташкил этиш ва ривожлантириш, ахборот технологияларидан фойдаланган ҳолда такомиллаштириш;
– олий таълим муассасаларида ўқув жараёнини илғор хорижий тажрибалар асосида ташкил этиш ва таълимга инновацион ёндашиш;
– муаммоларни ечиш ва мустақил қарорлар қабул қилиш кўникмаларининг шаклланиши;
– ОТМдан узоқда яшовчи талабалар ёки етарлича вақти бўлмаган инсонлар учун амалий топшириқлар, лаборатория ишлари, курс лойихалари каби турли вазифаларни масофавий бажариш, шунингдек оралиқ ва якуний назоратларни топшириш;
– битирув малакавий ишлари ёки магистрлик диссертацияларини ЗУМ орқали масофадан ҳимоя қилиш;
– компьютердан фойдаланган ҳолда талабаларни ўз-ўзини доимо назорат қилиб бориши;
– узлуксиз таълим имкониятларини яратиш ҳамда таълим сифатини сақлаган ҳолда янги принципал таълим даражасини таъминлаш.

Бу эса талабаларда ўқишга қизиқиш уйғотади, талабаларни ишларида ижодийлик даражасини кучайтиради ва замонавий воситалар, анъанавий ўқитиш шакллари камчиликларини бартараф этиш имконини беради.

Юқорида таъкидлаб ўтиганлардан қатъий назар масофаввий ўқитиш жараёнида яна бир қанча муаммоларга дуч келамиз. Масалан анъанавий таълим

жараёнида талабалар бемалол реал ҳолда лаборатория ишларини бажариш икониятига эга, масофавий ўқитишда эса бунинг имкони йўқ, бунинг учун виртуал лаборатория ишларини яратиш лозим; шунингдек дарс ўтиш жараёнида, оралиқ ва якуний назоратларни ёзиш жараёнида талабаларни назорат қилиш имконининг йўқлиги; амалий ишларни, лаборатория ишларини, курс ишларини ҳимоя қилишнинг мураккаблиги; узоқда яшайдиган талабаларнинг кўпчилигини дарсларга тўлиқ қатнашиш имконининг йўқлиги, чунки чекка қишлоқ жойларида интернет билан боғлиқ муаммолар мавжуд. Бундай ҳолда талабаларнинг кўпчилиги шаҳарга тушиб интернетдан фойдаланишга мажбур.

Хулоса қилиб шуни айтиш мумкинки, келгусида ўқитишнинг масофавий шаклидан фойдаланиш кундан-кунга долзарблашиб боради ва у ўзининг афзаллик жиҳатлари билан анъанавий ўқитишдан сезиларли даражада фарқланади. Бу асосан ўқитиш жараёнида қўлланиладиган усулларга ҳам боғлиқ. Тўғри қўлланган ўқитиш усули юқорида келтирилган
натижаларга эришиш, дарс самарадорлигини сезиларли оширишга олиб келади. Шуни алоҳида таъкидлаш керакки, талабаларни мустақил ва фаол ишлашга ўргата олсаккина, биз ташаббускор инсонларни тарбиялай оламиз.
Зеро, ҳар бир дарс янги санъат асари сингари бетакрор, ўзига хос жиҳатлари билан талабани “ром этадиган” бўлиши керак. Бу ўқитувчидан меҳнат ва тадбиркорликни талаб этади.

ОЦЕНКА ЭФФЕКТИВНОСТИ ПРЕПОДАВАНИЯ ДИСЦИПЛИН В ДИСТАНЦИОННОМ РЕЖИМЕ РЕАЛЬНОГО ВРЕМЕНИ

Садатов У.У., Садчикова С.А., ТУИТ

При оценке эффективности новой образовательной технологии или модели обучения часто сравнивают результаты обучения, полученные обучающимися при применении данной технологии, с результатами обучения в традиционной модели очного обучения. Однако такой сравнительный анализ, как правило, не дает обоснованных статистически значимых выводов ввиду того, что требует:

- строгого экспериментального дизайна;
- идентичного по содержанию и разного по формату контента;

– одинаковых контрольно-измерительных материалов и условий проведения итоговой аттестации;
– достаточно большой выборки, сформированной случайным образом для каждой модели (технологии) обучения;
– исключения влияния на результаты эксперимента внешних факторов, снижающих валидность эксперимента.

Данный анализ определяет эффективность как успеваемость студентов и не учитывает другие факторы успеха. Успех при этом может быть измерен исходя из интересов разных участников процесса обучения.

Для преподавателей – это действительно результаты обучения студентов, а для студентов, кроме успеваемости, большую роль играет мотивация и вовлеченность в процесс обучения, которые напрямую влияют на достижения студентов. Для администрации вуза на первый план выходят такие показатели, как процент студентов, завершивших курс, сокращение нагрузки преподавателей и повышение производительности их труда, охват рынка и объем привлеченных внебюджетных средств.

Для учредителей ТУИТ – Министерства высшего и средне-специального образования и Министерства по развитию информационных технологий и коммуникаций акцент смещается в сторону качества образования, обеспеченности человеческими ресурсами и надежности IT – инфраструктуры, глобальной конкурентоспособности образования Республики Узбекистан и выполнения показателей национальных и федеральных проектов.

Оценка эффективности онлайн-обучения или использования дистанционных образовательных технологий может осуществляться через эти целевые показатели, но такая оценка должна применяться в условиях планомерного перехода на новые модели образовательного процесса.

В условиях резкого переформатирования учебного процесса при ограниченности внутренних и внешних ресурсов на передний план выходят совсем другие критерии оценки. Их можно разбить на 4 области: оценка контекста (предпосылок) изменений, оценка целесообразности и экономической эффективности изменений, оценка процессов осуществления изменений и результатов (продуктов), прямых и побочных.

В связи с этим для оценки происходящего в настоящее время вынужденного перехода на дистанционное обучение ТУИТ придется ответить на следующие вопросы:

– Какие факторы (социальные, институциональные, административные) определили готовность вузов к переходу, отношение участников к изменениям и повлияли на эффективность этих изменений?
“Выключить звук/Mute”–бу тугма орқали микрофонни ёқиб/ўчиришингиз мумкун. Ички қоида бўйича, агар кимдир эфирда гапирса, қолган иштирокчилар микрофонни ўчирадилар. Сизда бўлган шовқинни барча иштирокчилар эшитади. Иштирокчилар сони қанча кўп бўлса, шунчалик орқа фонда шовқин бўлиши мумкин. Микрофонингизни конференция ташкилотчиси ёқиш ва ўчириш ҳуқуқига эга.

Zoom дастурининг бази имкониятлари ва ундан фойдаланиш:



1- расм. Zoom дастурининг умумий кўриниши



2- расм. Zoom дастурининг панели

“Остановить видео/Stop Video”– Бу тугма ёрдамида сиз фойдаланаётган қурилма камерасини ўчириб/ёқа оласиз. Ташкилотчи камерангизни ўчириб қўйиши мумкин, лекин уни ёқиб қўйиши мумкин эмас.

“Демонстрация экрана/Share Screen” - бу тугмани ташкилотчи рухсати билангина ёқишингиз мумкин. У ўзингизнинг экранингизни барча конференсия

иштирокчиларига намаён этиш имконини беради.

“Чат/Chat”–Ушбу тугма сизга суҳбат ойнасини очиш ва сеанс пайтида ёзиш имкониятини беради. Бундан ташқари бу ерда керакли фойдаланувчига ёки барча фойдаланувчига хабар ёзиш имконияти мавжуд. Агар сиз ҳали ҳам фаол мунозарада бўлмасангиз ва видеонгиз намойиш этилмаса, фойдалидир.



3- расм. Zoom дастурида дарс жараёни

“Участники/Participants” – Бу тугма ёрдамида сиз конференция иштирокчиларни кўришингиз мумкин.



4- расм. Zoom дастурида маъруза ўқиш жараёни

Ушбу дастурнинг юқорида санаб ўтилган бир қатор имкониятлари ва авфзалликларига қуйидагиларни келтириш мумкин:

Дарс жараёнини сифатли тасвирда узатиш ва ёзиб олиш имкониятининг мавжудлиги;

Видео ва аудио алоқани ҳар бир иштирокчи билан ўрнатиш мумкинлиги;

Видеомулоқот ташкилотчиси(яъни ўқитувчи) иштирокчилар микрафонини ёқиш ва ўчирибқўйиш имкони мавжудлиги, хамда барча иштирокчилардан видеотасвирни ёқиб қўйиш ва ўчириб қўйишни сўраш

имконияти;

Экранга керакли (аввалдан тайёрлаб қўйилган слайдларни овози билан чиқариш мумкин;

Платформада интерактив доска ўрнатилган бўлиб, экран намойишини тўхтатиб, тезгина доскага ўтиш мумкин.

Бу дастур яккатартибда ва гурухли машғулотлар учун жуда қулай, талабалар масофавий машғулотларга телефон, планшет ва компютер орқали ҳам киришлари мумкин. Видеомашғулотларга, конференция идентификатори ёки хаволаси мавжуд талабақатнашиши мумкин.

Ўтқазиладиган дарс ва машғулотларни аввалдан режалаштириш ҳам мумкин. Доимий дарслар учун такрорланадиган битта ҳавола ташкил қилиш имконияти хам мавжуд.

Видеомулоқот 40 дақиқа давомида, 100 тагача фойдаланувчи иштирокида бепул ташкил этилади. Бундан ташқари, zoom дастури фойдаланишга жуда қулай бўлиб, у турли хилдаги операцион тизим(Windows, macOS, Linux, Android, iOS)ларда ишлашга мўлжалланган.

Хулоса ўрнида шуни айтиш мумкинки, Zoom дастури масофавий таълим жараёнини ташкил этишда таълим соҳаси вакилларига катта қулайликларни тақдим этди. Ушбу дастур нафақат таълим соҳасида, балки бошқа соҳаларда ҳам видеомулоқотни ташкил этишда фойдаланувчиларга жуда қулайлиги билан пандемия даврида энг кўп фойдаланилган дастурга айланди.

МАСОФАВИЙ ТАЪЛИМДА “ЭЛЕКТРОНИКА ВА СХЕМАЛАР I” ФАНИДАН ЛАБОРАТОРИЯ МАШҒУЛОТЛАРИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ

Туляганов А.А., Абдуллаев А.Х., Тешабоев Х.Н., ТАТУ

Ҳозирги кунда таълим жараёнини масофавий ташкил этишда сифатли электрон матнли, аудио ва кўргазмали видео маълумотларни шакллантириш муҳим ҳисобланади. Ушбу мақолада “*Электроника ва схемалар I*” фанидан лаборатория машғулотларини масофавий таълимга мослаштириш ва ташкил этиш жараёнлари тахлил қилинади.

Мамлакатимизда олий таълимни ислоҳ қилиш, замонавий таълимни ташкил этиш борасида жуда катта ишлар амалга оширилмоқда. Хусусан, масофавий таълим бўйича Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 2 мартдаги “2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини

ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясини “Илм, маърифат ва рақамли иқтисодиётни ривожлантириш йили”да амалга оширишга оид давлат дастури тўғрисида” ги 5953– сон фармони қаъбул қилинган. Фармонда “Ўзбекистон Республикаси Ахборот технологиялари ва коммуникацияларини ривожлантириш вазирлиги, Адлия вазирлиги, Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги 2020 йил 1 августга қадар масофавий ўқитиш шаклини амалга ошириш тартибини белгилаш, дастурий-аппарат комплексини яратиш, тегишли олий таълим муассасаларининг ўқув жараёнига масофавий ўқитиш платформасини жорий этиш ва ўрнатилган тартибда зарур бўлган ускуналар билан жиҳозлашни таъминласин” деб белгиланган.

Айни вақтда, мазкур йўналиш бўйича XXI аср талабларига мос келувчи концептуал қарашлар мавжуд бўлмаганлиги сабабли олий таълим муассасаларининг айрим фаолиятларидагина ахборот тизимларини жорий этилганини кўришимиз мумкин. Ушбу йўналишда Жанубий Корея, Буюк Британия, Дания, ва Россия каби давлатларнинг тажрибаси ўрганилганда, ахборотлаштиришнинг асосий мақсади биринчи навбатда таълим сифатини оширишга қаратилган бўлса, кейинги ўринда жараёнларни автоматлаштириш орқали олий таълим муассасаси ходимлари ва профессор-ўқитувчилари фаолиятида кўп такрорланадиган вазифалар учун кетадиган вақтни тежашга қаратилган. Таълим сифатини оширишда асосий эътибор таълим контентларини яратиш ва улардан очиқ фойдаланишни ташкил этишга қаратилган.

Масофавий таълимда ўқитувчи ва талаба муносабати бевосита алоқа воситалари, Интернет орқали (online шаклда) амалга оширилади. Шу боисдан ҳам масофавий таълим жараёнини ташкил этишнинг асосий қисмини талаба керакли таълим дастурини ўзлаштиришда мустақил амалга оширади ва бунда ўқитувчи зарур ўқув материаллари билан таминлайди ҳамда йўналиш беради. Масофавий таълимда техник йўналишлар учун амалий ва лаборатория машғулотларини ташкил этишда баъзи муаммолар мавжуд, масалан: *ўлчов қурилмалари, лаборатория жихозлари орқали таълим жараёни ташкил этилади*, бу эса масофавий таълимда машғулотларни ташкил этишда катта қийинчиликлар келтириб чиқаради.

“Электроника ва схемалар I” курсининг ўқув дастуридаЭлектр занжирлар назарияси, Электроника ва яримўтказгичларга тегишли барча мавзулар бўйича талабаларга Давлат таълим стандартлари асосида етказилиши шарт бўлган минимум билимлар ва кўникмалар қамраб олинган.

Талабаларнинг *“Электроника ва схемалар I”* фанини ўзлаштиришлари учун ўқитишнинг замонавий усулларидан фойдаланиш, янги ахборот-технологиялари (мултимедиа, LabVIEW дастури асосида тузилган интерактив ўлчаш асбоблари, Multism дастурий таъминотида виртуал схемаларни тузиш ва макетлаш ҳамда тадқиқ этиш, NI ELVIS ишчи станцияси, Интернет) ва педагогик технологияларни татбиқ қилиш муҳим аҳамиятга эгадир. Фанни ўзлаштиришда дарслик, ўқув ва услубий қўлланмалар, маъруза матнлари, ўқув-услубий мажмуаси, электрон материаллар, виртуал стендлар ва макетлардан фойдаланилади. Маъруза, лаборатория дарсларида мос равишдаги педагогик ва ахборот технологияларидан кенг фойдаланилади.

Масофавий таълимда “*Электроника ва схемалар I*” фанидан лаборатория машғулотларини ташкил этишда бир қанча муоммолар мавжуд. Улар қуйидагилар:

– Лаборатория ишлари махсус лаборатория қурилмалари ва жиҳозлари талаб этади.

– Лаборатория машғулотлари бўйича ўқув–услубий қўлланмаларнинг бевосита лаборатория шароитига мослаб тузилганлиги.

– Масовавий таълим учун ўқув материаллари камлиги.

Ушбу муоммоларни ҳал этиш учун вертуал лабораториялардан кенг фойдаланиш ҳамда аудио ва видеодарслар яратиш лозим.

“*Электроника ва схемаларI*” фанидан лаборатория машғулотларини масофавий таълимда амалга ошириш учун бевосита дастурий таъминотдан фойдаланилади. Ҳозирги кунда схемотехника ва электроника бўйича жуда кўплаб дастурий муҳитлар: Electronics Workbench, Multisim, EveryCircuit, DCAClab, Circuit Simulator v1.6i, Circuit Wizard ва бошқалар мавжуддир.

Муҳаммад ал–Хоразмий номидаги Тошкент ахборот технологиялари университети “Электроника ва радиотехника” кафедраси National Instruments коорпорацияси билан 2014 йил ҳамкорликни йўлга қуйди ва бунинг натижасида “NI Multisim” дастурий таъминотини махсус келишув асосида университет таълим жараёнига қўлланила бошланди.

“NI Multisim” дастурий таъминоти бошқа шу турдаги дастурий таъминот турларидан бир қанча авфзалликларга эга ҳисобланади. “NI Multisim” дастурий таъминотининг асосий авфзалликлари сифатида қуйидагиларни келтириш мумкин:

– Фойдаланувчи ишчи муҳитининг соддалиги.

– Электр занжири пассив ва актив элементлари моделларининг тури кўплиги.

– Ўлчов қурилмаларининг ўлчаш аниқлиги.

Масофавий таълимда электрон маълумотлар, аудио ва видеодарсларнинг ташкил этиш муҳим аҳамиятга эга ҳисобланади. Дунёда масофавий таълим бўйича кўплаб маълумотлар базалари, сайтлари мавжуд. Масалан, Khan Academy, Academia.edu ва бошқалар. Уларда билим олувчи учун қулай ва замонавий базаларни ўзида мужассамлаштирган китоблар, журналлар, аудио ва видео маълумотлар мавжуд.

“*Электроника ва схемалар I*” фанидан лаборатория машғулотларини масофавий таълимга мослаштириш, лаборатория машғулотларини “NI Multisim” дастурий таъминотидан фойдаланган ҳолда моделлаштириш, талабаларда фан юзасидан олган назарий билимларини мустаҳкамлашда муҳимдир. “NI Multisim” дастурий таъминоти ёрдамида дарсларни ташкил этиш учун талабаларга сифатли видеодарсларни тайёрлаш лозим.

Масофавий таълимда “*Электроника ва схемалар I*” фанидан лаборатория машғулотларини ташкил этиш, моделлаштириш, аудио ва видеодарслар тайёрлаш, талабалар билимини баҳолаш таҳлил қилиниб, лаборатория машғулотларини моделлаштириш ва лабораторияларни бажаришда талабалар учун яратилган видеодарслар қулайлиги, қайта кўриш ва бир неча марта бажариш имкони борлиги талабалар билимини мустаҳкамлашда юқори натижа беради.

Масофавий таълим жараёнини ташкил этишда қуйидаги таклифларни келтириш мумкин:

1. Фаннинг ўқув дастури асосида фаннинг ишчи ўқув дастурини ишлаб чиқишда масофавий таълим жараёнларини ҳам ҳисобга олиниши мақсадга мувофиқ бўлади.

2. Масофавий таълимда “Электроника ва схемалар I” фанидан лаборатория машғулотларини ташкил этишда янги ўқув адабиётлари, ўқув-услубий кўрсатмалар ва аудио-видеодарслар яратиш орқали талабаларни фан юзасидан керакли материаллар билан таъминлаш лозим.

ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИДА ВИРТУАЛ ЎҚУВ ЛАБОРАТОРИЯЛАРИНИ ТАШКИЛЛАШТИРИШНИНГ АЙРИМ МАСАЛАЛАРИ

Наркулов Х.Ю., Эгамбердиев М.П., ТАТУ

Кейинги пайтда масофавий таълимни талаб даражасида ташкил қилишнинг долзарблиги кундан кунга ортиб бормоқда. Бу ҳозирги кунда содир бўлган пандемия билан боғлиқшароитдан ташқари ишлаб чиқариш қатнашчилариучун масофавий ўқитиш орқали олий таълим олиш имкониятини яратиш, ҳамда ҳаёт давомида таълим олиш заруриятларининг ошиши билан ҳам боғлиқ.

Техник ОТМларида маърузада олган назарий билимларни амалиёт дарсларида мустаҳкамлаш ва талабаларда амалий кўникмаларни шакллантириш бошқа йўналишларга нисбатан муҳимроқ ҳисобланади ва бунда лаборатория машғулотларининг ўрни каттадир.

Лаборатория машғулотларини масофадан ташкиллаштириш компьютерлашган лабораториялар асосида амалга оширилади. Компьютерлаштирилган лабораторияларини ташкил қилишнинг икки варианти мавжуд. Булар компьютерда моделлаштирилган виртуал лабораториялар ва реал лаборатория ишларини масофадан ташкил қилиш имкониятини берувчи масофавий лабораториялар. Виртуал лаборатория ишларида реал жиҳозлардаги тажриба жараёнлари компьютерда ўрнатилган симуляция қурилмалари ва ўлчаш асбоблари билан алмаштирилади. Компьютер дастурлари ёрдамида моделлаштириш нафақат реал экспериментдаги тажриба жараёнларинимоделлаштиради, балки уларда олиб борилган ўлчов натижаларини таҳлил қилиш ҳамдабоғланиш графикларини тузиш имкониятларини ҳам беради.

Виртуал лаборатория – дастурий-аппарат комлекси бўлиб, у реал ускуна билан тўғридан-тўғри контактда бўлмай туриб тажрибаларни ўтказиш имконини беради. Бунда ҳамма жараёнлар компьютер ёрдамида моделлаштирилади.

Ишни бошлашдан аввал талаба назарий материални ўрганиб олиши керак ва бунда у бажарилаётган лаборатория ишига талуқли дастурий муҳитни ҳам билиши керак албатта.

Виртуал лабораториялар реал лабораторияларга қараганда қуйидаги афзалликларга эгадирлар:

1. *Қиммат ускунани сотиб олишга талабнинг йўқлиги*. Бунга мисол

қилиб кимё фанини кўрсатиш мумкин, фан учун қиммат бўлган реактивларни сотиб олиш муаммоси ечилади.

2. *Жараёнларни моделлаштириш имконияти*. Бунга мисол қилиб физика фанидан реал ускуна кўра олмайдиган заррачалар ва атомларнинг ҳаракати, ташқи ва ички таркиби, уларда содир бўлаётган физик жараёнларни 3D ўлчамида аннимациялар ёрдамида кузатиш ва кўриш имкониятини айтиш мумкин.

3. *Хавфсизлик*. Бу омил юқори кучланишга эга бўлган ва заҳарди кимёвий реактивлар билан ишлаганда намоён бўлади.

4. *Вақтни тежаш*. Айрим ишлар олинган натижаларни компьютерга киритилишини талаб этади. Виртуал лабораторияда эса маълумотлар электрон жадвалга тажрибани бажариш вақтида автоматик равишда киритилади.

5. Энг муҳими – *виртуал лабораторияни масофавий ўқишда қўлланиши*.

Бундан ташқари талабаларни сони жиҳатидан қамраб олувчи масофавий лаборатория машғулотларини бажаришда айрим муаммолар мавжуд, улар қуйидагилардир:

талабаларнинг глобал Интернет тармоғига уланиш имконинг йўқлиги ва тармоқнинг хизмат кўрсатиш сифатининг пастлиги;

компьютерли ўқитиш воситаларининг мавжуд эмаслиги;

содир бўлиб турадиган табиий офатлар, ер силкинишлари, цунами, техногенва бошқа ҳодисалар.

Хулоса сифатида шуни таъкидлаш мумкинки, масофавий лаборатория тизими талабалар фаолиятида, тадқиқот ишларини бажаришда асосий омиллардан бири бўлиб хизмат қилади ва у молиявий жиҳатдан қиммат жиҳозларни талаб этади. Бундай тизимлар масофадан туриб нафақат талабалар, балки бир неча тадқиқот гуруҳлари, жисмоний шахслар томонидан ҳам тажрибалар ўтказиш заминини яратади.

Бундан ташқари, масофавий лаборатория ишларини ташкиллаштириш ўқув жараёнидоирасидаги масовафий тармоқнинг мавжудлиги, хамда тажрибаларни ўтказиш маданиятини талаб этади ва бу ўз навбатида масофавий лабораториялар, корхоналар ва университетларнинг ўзаро ҳамкорлигини ривожланишига олиб келади. ОТМ талабаларининг ўз билимларини инновацион ўқитиш ва илмий лойиҳаларни яратишда қўллаши муҳим аҳамиятга эгадир. Бунда эса стратегик мақсадларни тадбиқ этишда ва дастурий-техник асосни берувчи ахборот-технологияларнинг ўрни ҳам муҳимдир.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ПРИ ИЗУЧЕНИИ РАДИОЭЛЕКТРОННОЙ ТЕХНИКИ

Байжонова Л.Э., Туляганов А.А., Нуштаева О.Х., ТУИТ

Обострение проблемы подготовки в ВУЗах страны кадров высокой квалификации, наряду с ростом «наукоемкости» производства, обусловил как совершенствование «классических» форм обучения студентов, так и развитие дистанционных образовательных технологий. Предпочесть ту или иную форму обучения нельзя, так как каждая из них имеет не только свои достоинства, но и свои недостатки.

С одной стороны, в «классических» формах обучения при увеличении количества обучаемых затруднительно обеспечить сохранение уровня (качества) проводимых исследований, особенно в случае использования студентами уникальных и дорогостоящих установок натурного моделирования. С другой стороны, хотя внедрение ДО и позволяет получить студентам возможность выбора содержания, времени, места и темпа обучения, но обладает таким недостатком как отсутствие непосредственного «живого» общения «преподаватель-студент» в ходе изучения последним учебного материала.

Частично, проблему можно решить путем использования смешанного обучения, сочетанием методов электронного обучения и традиционного преподавания в аудитории в очном режиме. Так как «чисто электронное» обучение снижает объем и качество выполняемых студентами лабораторных исследований, то есть снижает долю «практической составляющей» их обучения, что, обязательно, сказывается на глубине знаний и твердости получаемых навыков. При этом возможно использование виртуальных или дистанционных лабораторий.

Виртуальные лаборатории (ВЛ) широко используются для автоматизации и управления различными техническими процессами в промышленности и в научных исследованиях. ВЛ выглядит как виртуальный прибор, имеющий лицевую панель с кнопками, переключателями и индикаторами. Изменяя положение тех или иных органов управления, обучаемый получает на индикаторах «реакцию» данной установки, которая соответствует действительности в той мере, в которой алгоритмы и модели, использованные в программе, точно описывают моделируемую установку.

Обеспечивается возможность использования фронтальных методов проведения лабораторных исследований студентами даже при наличии всего

лишь одной дорогостоящей лабораторной установки, отслеживания в учебном процессе частой смены и постоянного развития аппаратных средств (исследуемых объектов), появления новых моделей и т.д.

Однако возможности ВЛ ограничены проведением дистанционных экспериментов с программными симуляторами, что, конечно же, достаточно для ознакомления с принципами работы исследуемых приборов и некоторыми их особенностями, но в полной мере не обеспечивает приобретение практических комплексных навыков проектирования сложных приборов и систем в реальном масштабе времени.

Использование в учебном процессе дистанционной лаборатории (ДЛ) позволяет расширить перечень, объем и глубину проводимых исследований. ДЛ может представлять собой малоразмерную индустриальную систему, с помощью которой обучаемые могут изучать и близко знакомиться с реальными промышленными компонентами. При этом схема позволяет работать с ней как локально, так и дистанционно.

Проблема расширения возможностей лабораторного практикума в рамках развития технологий ДО является одной из важнейших в связи с необходимостью получения обучаемыми не только качественных знаний в той или иной области, но и достаточных навыков применения этих знаний на практике в будущей профессиональной деятельности.

Посредством использования в обучении виртуальных и дистанционных лабораторий достигается круглосуточная автоматическая их работа, индивидуализация обучения и доступность лаборатории из любой географической точки.

Следует также отметить, что необходимо не только разделять «применимость» виртуальных и дистанционных лабораторий в зависимости от категории обучаемых, но и рассматривать эти лаборатории ДО как сложные высокотехнологичные комплексы, включающие в себя как средства проведения экспериментальных исследований (виртуальные или дистанционно управляемые), так и соответствующее «обслуживающее» программное обеспечение, средства телекоммуникации и т.д.

ПРОБЛЕМЫ ОНЛАЙН – ОБУЧЕНИЯ

Нуштаева О.Х., Байжонова Л.Э., ТУИТ

Данный тезис предназначен для рассмотрения актуальных проблем в дистанционном обучении сегодня.

В образовании интерес к дистанционным формам возник намного раньше, чем в любой другой сфере деятельности, еще в начале 1980-х гг. Интернет к началу нового столетия распространился настолько, что дал возможность создавать онлайн-курсы. На рыноке стали появляться различные курсы и тренинги. Впрочем, через несколько лет все вернулись к традиционному классическому варианту. Прошло еще несколько лет, и в 2019 г. дискуссия вспыхнула с новой силой, поскольку современные телекоммуникации дали возможность существенно улучшить онлайн-коммуникацию между обучающимся и преподавателем.

Однако, стрессовый переход на режим дистанционного обучения стал серьезным испытанием и для студентов, и для большинства даже самых квалифицированных преподавателей. Кому-то пришлось срочно регистрироваться в приложениях для видеоконференций, таких как Zoom, кому-то – срочно перекраивать формат курсов. Но, в принципе, если преподаватель вуза регулярно готовил презентации к лекциям, выйти в онлайн ему было довольно легко. В лучшем положении оказались те преподаватели, которые уже давно начали размещать свои видеолекции в интернете.

Преподавателям ташкентского университета информационных технологий оказалось немного проще, так как они уже имели опыт работы с электронными системами управления образовательным процессом. Однако такие системы, несмотря на то, что на их платформах можно размещать различного рода документы и ссылки, выдавать, проверять и оценивать задания, проводить опросы и тестирование, не рассчитаны на полноценную онлайн-работу с подключением преподавателей и обучающихся в режиме реального времени.

Дистанционное обучение поменяло всю систему взаимоотношений обучающего и обучающегося. Первая реакция для многих преподавателей – шок. Преподаватель, привыкший видеть студентов в аудитории, управлять ими голосом и взглядом, мгновенно реагировать на все изменения обстановки в аудитории, оказался полностью обезоружен новой системой.

Преподаватель, проводящий занятие должен был говорить в полной

тишине, не имея возможности получить обратную связь. Фактически занятие превращалось в монолог преподавателя, который не мог выяснить, слушает его аудитория или многие просто подсоединились к занятию, но занимаются своими личными делами. И если в малых группах можно успеть за время занятия хотя бы послушать студентов, то для аудитории в 25–30 студентов это физически невозможно.

Особенные трудности возникли при проведении практических и лабораторных занятий, поскольку писать текст на экране компьютера без использования дополнительных программ невозможно. Для решения этой проблемы при выполнение лабораторных и индивидуальных заданий студентам было предложено воспользоваться программным пакетом NI «Multisim».

Но если задача выдачи информации оказалась решаемой, то задача выполнения вариативных практических и лабораторных заданий, которые досконально прорабатывались на каждом занятии, превратилась в самостоятельное домашнее задание. Проверить насколько самостоятельно выполнялось задание невозможно. А проверка правильности выполнения заданий превратилась в дополнительную нагрузку на преподавателя, поскольку вместо аккуратных файлов студенты присылали плохо сделанные фотографии, в которых еще нужно было разобраться.

Естественно, что ситуация осложняется из–за того, что , например, в группе из 25-30 обучающихся со средней статистикой по успеваемости, лишь ограниченное число мотивированных студентов. Обычно это не более 5–6 человек в группе. В сильных группах, где студенты самостоятельно занимаются дополнительной работой, например, готовятся к олимпиадам, или конкурсам, складывается более благополучная ситуация. Для студента привыкшего к аудиторным занятиям по 3–4 пары в день, уроки, перед, намного сложнее и эмоционально, и физически то же самое время слушать преподавателя через экран компьютера.

Хотя, для студентов появилась возможность не отвлекаться на общение с однокурсниками и сосредоточиться на работе с преподавателем, однако, с другой стороны – домашняя атмосфера действует расслабляюще.

Еще один пласт проблем – техническое обеспечение. Если подавляющее большинство вузовских преподавателей имеют дома компьютеры, то совсем сложной становится ситуация в многодетных семьях, где каждому ребенку теперь обязательно нужен компьютер.

Поскольку рисовать и писать текст на экране компьютера без навыка и соответствующих приспособлений оказалось не так уж просто. В идеале для

этого необходимы планшет и специальное перо – стилус.

Труднее оказалось любителям использовать доски. Камеру приходилось направлять на доску, транслируя картинку через интернет. Качество картинки зависело и от разрешения камеры, и от освещения доски, и от пропускной способности канала.

Есть еще одна проблема, которая встает при онлайн-обучении. Наряду со школой, вузы - один из институтов социализации интеллигентного человека, подготовки их к жизни и работе в коллективе.

Подведем итоги. В вузовском образовании элементы онлайн-обучения вполне логичны и могут быть успешно использованы в дополнение к офлайновым формам.

Онлайн-обучение будет успешным только для высокомотивированных обучаемых с хорошо выстроенной системой контроля и самоконтроля. Его эффективность тем выше, чем лучше выстроена обратная связь между преподавателем и студентом. Стрессовое внедрение дистанционного раскрыло ряд недостатков онлайн-обучения, а, именно, технические и психологические.

ҲОЗИРГИ ШАРОИТДА ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАСИДА ТАЪЛИМ СОҲАСИДА АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИНИ ҚЎЛЛАШНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ

Туляганова В.А., Газиева В.А., ТАТУ

Биринчи Президентимиз И.А. Каримов таъкидлаганидек, “Ахборот – коммуникация ва телекоммуникация технологиялари соҳасидаги чора-тадбирлар ва лойиҳаларни жадал амалга ошириш тобора муҳим аҳамият касб этмоқда. Биз ўзимизга шуни аниқ тасаввур этишимиз керакки, иқтисодиётнинг барча соҳаларида, кундалик ҳаётимизда замонавий АКТни кенг жорий этиш бўйича туб ва ижобий маънодаги портлаш эффектни берадиган ўзгартиришларни амалга оширмасдан туриб истиқболдаги мақсадларимизга эришиш қийин бўлади. Биз қисқа вақт мобайнида нафақат ахборот хизматлари кўрсатишнинг кўплаб турлари бўйича мавжуд камчиликларни бартараф этишимиз, балки ахборот-коммуникацион технологияларини жорий этиш борасида юксак даражага эришган илғор мамлакатлар сафига қўшилишимиз зарур” .

Охирги йигирма йилликда таълим тизими фаолиятида юзага келган вазиятда, замонавий ахборот ва коммуникация технологияларини

такомиллаштириш ва замонавийлаштириш масаласи долзарб бўлиб қолмоқда. Лекин, ўқув жараёнининг амалиётига арзонлиги учун хаммабоп, локал тармоққа уланган ва шунинг учун дунё миқиёсидаги (глобал) Internet тармоғига кириш имкони бўлган шахсий компьютерларнинг жорий қилиниши, бу ишларни янада жадаллаштирди. Ўрта маълумотни кўпинча “компьютер”лаштиришга ва “интернет”лаштиришга асосланган, замонавийлаштириш дастурини муваффаққиятли амалга ошириш учун, нафақат ўқув масканлари замонавий техника воситалари билан таъминланмоғи, балки таълим тизимининг ташкилотчилари ва педагоглари ҳам бу соҳада етарли билимга эга бўлишлари керак. Аслини олганда бунда ҳеч қандай янгилик йўқдай, фақат эришилган билим доирасини кенгайтириш керак: педагогика олий ўқув юртларида ушбу мутахассисликка ихтисослашган ўқитувчиларни тайёрлаш ишлари йўлга қўйилган, компьютерлар билан таъминланган мактабларда ахборотлаштириш дарси ўтказилмоқда, таълим масканларининг нафақат раҳбарлари, балки маъмурияти ҳам ўз столлари устида шахсий компьютерлар туриши ва ундан фойдаланишни табиий ва жуда зарур хол деб ҳисоблашади. Лекин буларнинг ҳаммаси ҳам жуда оддий эмас, бу нарсаларни диққат билан кўриб чиқсак, унда қарама қаршиликни кўрамиз, яъни хаммабоп таълим бериш ва унинг сифати ўртасидаги зиддиятни. Хар бир педагог, у ҳох мактаб ёки олий ўқув юрти ўқитувчиси бўлсин, уларнинг асосий мақсади, таълим бериш сифатини юксалтиришдир, бу ишда уларга ахборот ва коммуникация технологияларда фойдаланиш жуда яхши ёрдам беради. Шунингдек раҳбар учун сифатдан ташқари, амалдаги техник жиҳозлар ва бошқа ўқув ресурсларидан имкони борича кўпчилик фойдалана олишини ташкил этиш зарур. Шунинг учун кўпинча хаммабоп ва сифатли таълим беришда улардан бирига кўпроқ эътибор берилади. Юзага келган муаммоларни хал қилиш учун, педагогика ходимларини тайёрлаш босқичида, бу масалага алоҳида эътибор берилиши керак. Бунда масофавий таълим элементларини қўллаш маҳим аҳамият касб этади.

Масофавий таълим – аҳолини кенг қатлами учун махсус информацион таълимга қаратилган бўлиб, масофадан туриб ўқув ахборотларини алмашиш воситалари (йўлдош алоқа, телевидение, радио, компьютер ва бошқалар) асосида ишловчи таълимга қаратилган хизматлар комплекси хисобланади.

Масофавий таълимнинг афзалликлари

Шубҳасиз, масофавий таълим таълимнинг барча муаммоларини хал қила олмайди, лекин янги информацион технологияларни қўллаш, олий таълимнинг бир қатор муаммоларини ечиш имконини беради.

- Ўқиш учун кетадиган маблағни тежаш;
- Ўқиш хусусиятини ўзи танлаш имконияти;
- Ўқиш учун ҳудудий чекловнинг йўқлиги;
- Ўқиш тури ва воситаларининг хилма-хиллиги;
- Янги информацион технологиялар бўйича қўшимча билим олиш;
- Яқин ўқув муассасаларида мавжуд бўлмаган фанларни ўрганиш;
- Нуфузли университетларнинг таълимга қаратилган дастур ва курсларидан фойдаланиш.

Масофавий таълим воситалари. Масофавий таълим жараёнида компьютер техникаси ва телекоммуникациявоситалари хамда бошқа янги ахборот технологияларни қўллашга асосланган анъанавий ва инновацион таълим воситаларидан фойдаланилади. Бу замонавий таълим тили билан “таълимнинг дастурий-техник воситалари” деб юритилади.

Масофавий таълимни ўтказиш учун жорий қилинадиган дастурий-техник воситалар қуйидаги педагогик вазифаларни ҳал этиши зарур:

- Мустақил ўқиш ва компьютер тестларидан ўтиш имконияти;
- Ўқув материалини етказишни қулай шарт-шароитларни таъминлаш;
- Ўқувчилар билан ишлаш ва ўзаро муносабатни жамоавий мулоқот асосида олиб бориш.

Масофавий таълим комплекси анча қулайликларга эга экан. Лекин, нима учун масофавий таълим керак бўлиб қолди? – деган савол туғилиши табиий. Бу саволга жавоб тариқасида қуйидагиларни санаб ўтиш мумкин:

- Таълим олишда янги имкониятлар (таълим олишнинг арзонлиги, вақт ва жойга боғлиқмаслиги ва бошқалар);
- Таълим масканларига талаба қабул қилиш сонининг чекланганлиги;
-Таълим олишни хоҳловчилар сонининг ошиши;
-Сифатли ахборот технологияларининг пайдо бўлиши ва ривожланиши;
-Халқаро интеграциянинг кучайиши.

Юқорида санаб ўтилган шароит ва имкониятлар масофавий ўқитишга эҳтиёж борлигини кўрсатади.

Масофавий таълимни ташкил этишда ўқув жараёнини бошқарувчи тизимлар асосий ўрин тутади. Хорижий адабиётларда келтирилган ўқув жараёни бошқарув тизимларининг қўйидаги аббревиатураларидан фойдаланамиз:

LMS – Learning Management System (таълимни бошқариш тизими);

CMS – Course Management System (ўқув курсини бошқариш тизими);

LCMS – Learning Content Management System (ўқув контентини

бошқариш тизими);

MLE – Managed Learning Environment (бошқарувчан таълим муҳити);

LSS – Learning Support System (ўқув жараёнини қўллаб-қувватлаш тизими);

LP – Learning Platform (ўқув жараёни платформаси);

VLE – Virtual Learning Environments (виртуал ўқув жараёни муҳити).

Юқорида келтирилган ўқув жараёни бошқарув тизимларининг жаҳондаги энг кенг тарқалган LMS ва LCMS тизимлари ҳисобланади.

LMS ҳар бир талабага материални бирмунча самарали ўрганиш учун махсус (персонал) имкониятини, ўқув жараёни менежерига эса ушбу жараённи маъмурий жиҳатдан бошқариши учун зарур воситаларни тақдим этади.

Хусусан олий таълим муассасасида фундаментал фанларни ўқитишда LMS ва Moodle тизимларидан фойдаланиш талабаларга масофадан таълим олишларида муҳим аҳамиятга эга. Яъни маъруза материаллари лаборатория ишлари бўйича қўлланмалар, амалий машғулотлар бўйича материалларни тизим жойлаш имкони мавжуд. Бу эса ўз навбатида талабаларга қўшимча мустақил тайёрланиш имконини беради.

Техник носозликлар республикамизнинг чекка худудларида Интернет ишининг барқарор эмаслиги холатлари бугунги пандемия шароитида талабаларнинг таълим олиш сифатига бирмунча таъсир кўрсатади. Бу муаммони бартараф қилиш мақсадида кафедра профессор ўқитувчилари томонидан маъруза, лаборатория ва амалий машғулот материалларини мавзу бўйича ўқув ва услубий қўлланмаларни тизимга тўлиқ жойлаш таклиф этилади.

PECULIARITIES OF LABORATORY WORKING IN THE EDUCATIONAL PROCESS

Alimjonov B.A., Ulashov S.R., TUIT

The laboratory class (lat labor-labor) is a form of a training session at which students, under the guidance of a scientific and pedagogical worker, personally conduct in-situ or imitation experiments to check and confirm certain theoretical positions of the academic discipline, acquire practical skills in working with laboratory equipment, computer technology, master the methodology of experimental research in a specific subject area. Laboratory classes are conducted in specially equipped laboratories, with the use of technology and measuring equipment.

Educational disciplines and interdisciplinary courses on which laboratory work

and practical classes are planned, and their volumes are determined by curricula, work programs of educational disciplines and professional modules.

When planning the composition and content of laboratory works and practical exercises, one should precede from the fact that laboratory work and practical exercises have different leading didactic goals.

The main didactic goal of laboratory works is:

• Experimental confirmation and verification of significant theoretical positions, laws, dependencies;

• Formation of practical skills and habits of handling various devices, installations, laboratory equipment, equipment, which can constitute a part of professional practical training;

• Formation of research skills (observes, compare, analyze, establish dependencies, draw conclusions and generalizations, independently conduct research, formalize results).

When preparing for a laboratory lesson, it is necessary to study the theoretical material that will be used in the course of performing laboratory work. It is necessary to carefully read the methodological instruction (description) for laboratory work, to plan the work plan, to prepare the necessary forms and tables for observation records.

The students perform laboratory work in order to:

• the formation of skills, practical experience in accordance with the requirements for the results of the development of discipline, the professional module and based on the list of competencies formed, the established work program of the discipline or professional module;

• generalization, systematization, deepening, consolidation of received theoretical knowledge;

• improving the skills to apply the knowledge gained in practice, realizing the unity of intellectual and practical activities;

• development of intellectual skills in future specialists: analytical, design, constructive, etc.;

• development of such professionally significant qualities as independence, responsibility, accuracy, creative initiative when solving the tasks set.

Laboratory classes are conducted in specially equipped laboratories, with the use of technology and measuring equipment.

When preparing for a laboratory lesson, it is necessary to study the theoretical material that will be used in the course of performing laboratory work. It is necessary to carefully read the methodological instruction (description) for laboratory work, to plan the work plan, to prepare the necessary forms and tables for observation records.

Directly performing laboratory work is sometimes preceded by a short survey of students by the teacher to determine their readiness for employment. When performing laboratory work, as a rule, the following operations are necessary:

- preparation of equipment and devices, assembly of the circuit;
- reproduction of the phenomenon (process) under study;
- measurement of physical quantities, determination of parameters and characteristics;
- analysis, data processing and generalization of results.

A student who has a good theoretical background usually makes a report on the work directly during the lesson. In the report, when analyzing the results of the work, it is indicated which patterns are confirmed or revealed, what errors occur, what caused the errors.

When defending the report, the teacher talks with the student, revealing the depth of his understanding of the results. Laboratory work contributes to better assimilation of program material, because in the course of their implementation many calculation formulas that seemed abstract, become quite specific; reveals a lot of details that contribute to an in-depth understanding of the discipline under study.

It is possible to get an excellent assessment only if the laboratory work is done in full, is made according to all the requirements, and the student can answer all additional questions.

But the main thing is that the teacher sees that the student understands the given topic and has a full understanding of the actions taken earlier.

Students' Reflections on the Automated Laboratory

- ✓ "The purpose of the lab is to teach us for future "real world". Therefore, equipment should be more modern and it seems like we'll use the devices in the future."
- ✓ "Automation devices cut down the labor process, helped to the research…"
- ✓ "Use of automated instruments has contributed to understanding the experimental material"
- ✓ "There is no problem with them and can be used"
- ✓ "Using automated instruments helped in many implementations, shortened the time and increased the efficiency of the process of experiment"
- ✓ "Needs to improve, sometimes not working well"
- ✓ "It was hard to understand, only after a detailed "It was hard to understand, only after a detailed
- ✓ "Automation makes the experiment more difficult to perform "
- ✓ "Only facilitated the implementation of designs"

- ✓ "Contributed to the accurate results for all test and add to ease processes."
- ✓ "Helped a lot, sometimes got stuck and made problems."

CONCLUSION

Our experience of creating simple affordable automated devices, their integration with a data logging system and teaching automated laboratories indicates the considerable potential of this technology for improving experiential chemistry education in high schools. Application of the developed devices enables to save time spent for performing manual operations and focus the laboratory on inquiry activities. It also enables to raise the accuracy and safety of the experiments by eliminating errors and incidents related to manual operations.

MASOFAVIY TA’LIMNING TALABALAR UCHUN AHAMIYATI VA AFZALLIKLARI

Akbaraliev Sh.Sh., TATU

Koronavirus pandemiyasi butun dunyoda ta’lim olish tarzini o‘zgartirib yubordi. Minglab talabalar o‘qishga bormay, uyidan turib o‘qishni davom ettirmoqdalar. Oliy ta’lim muassasalaridagi professor-o‘qituvchilarning, umumiy o‘rta ta’lim maktablaridagi ustoz-murabbiylarning faol ishtirokini his qilish mumkin. Kechagina auditoriyada o‘tilgan darslarning to‘satdan onlayn platformaga ko‘chgani ta’lim beruvchi ustozlar uchun ham katta tajriba-sinov maktabi bo‘ldi desak mubolag’a bo‘lmaydi.

Onlayn ta’lim nima? Onlayn ta’lim - bu real vaqt rejimida Internetdan foydalangan holda yangi bilimlarni olish usullarini beradi. Hozirgi vaqtda elektron ta’lim sohasi dunyodagi eng tez rivojlanayotgan ta’lim texnologiyalaridan biridir. Masofaviy ta’lim o‘zining qulayligi tufayli tobora ommalashib borayotgan ta’lim shakliga aylanib bormoqda. Onlayn ta’lim chekka hududlarda yashovchilar uchun, shuningdek ba’zi sabablarga ko‘ra kunduzgi ta’limga qatnasha olmaydiganlar uchun yuqori natijalarni berdi. Xorijiy davlatlar olimlarining adabiyotlarini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, hozirgi kunda “masofaviy o‘qitish”, “elektron o‘qitish”,“kompyuter texnologiyalarini qo‘llab o‘qitish”, “masofaviy ta’lim texnologiyalari”, “tarmoq ichida o‘qitish” ta’lim dasturlarini amalga oshirish katta natijalarga olib keladi. Yurtimizdagi oliy o‘quv yurtlari ustozlari tomonidan ZOOM platformasi orqali onlayn darslar tashkil qilinib, universitetning har bir professor-o‘qituvchisi bu platformaga video ma’ruza, ma’ruzalar matni, mavzular bo‘yicha

taqdimot materiallari, mustaqil ish, ochiq va yopiq testlarni kiritib, o‘z vaqtida talabalarning bilimlarini baholab boryaptilar. Onlayn dars yangicha uslub va an’anaviy darsdan tubdan farq qiladi. Demak, har bir o‘qituvchi-pedagog endi auditoriyadagi yondashuvlarni qisman unutib, virtual auditoriyalarga moslashishi zarur, chunki bu darslarning ham o‘ziga yarasha jiddiy talab va shartlari bor. Mazkur tajribalarda “masofaviy o‘qitish” — inglizcha “distance learning” atamasidan “distance education”, ya’ni “masofaviy ta’lim” atamasining kengroq tushuncha ekanligini ta’kidlashgan. “Masofaviy ta’lim” atamasi esa ta’lim jarayonining barcha jihatlarini o‘z ichiga qamrab oladi. Bu tushunchalar bir tomondan o‘xshash bo‘lib, ular bitta hodisa — axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta’lim jarayoniga joriy qilishni bildiradi. Onlayn darslar vositasida talaba-yoshlarimiz ko‘proq mustaqil ishlash, ilmiy ijod bilan shug‘ullanish, kitoblarni mutolaa qilish imkoniyatlariga ega bo‘lsalar, pedagog-o‘qituvchilarimiz xorij olimlari ishtirokida tashkil qilinayotgan onlayn videokonferensiyalarda qatnashib, kasbiy mahoratlarini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘ldilar.

Zamonaviy globallashuv sharoitida oliy ta’lim sohasidagi onlayn o‘qitish usullari zamonaviy axborot vositalari bilan boyitilishi natijasida ta’lim sifatining yanada ortishi kutilmoqda. Bu borada masofaviy o‘qitish usuli o‘qituvchi-pedagog va talabalar uchun ham qator qulayliklarga egaligi bilan alohida ahamiyatga egadir. Endigi vaziyat talabalar uchun zarur bo‘lgan o‘quv-uslubiy materiallar, o‘quv qo‘llanmalar asosida kompyuter dasturlari ishlab chiqish vazifasini qo‘ymoqda. Zero, masofaviy o‘qitish har qanday sohada ham jahon ta’lim markazlarining uslubiy adabiyotlari, zamonaviy hamda so‘nggi axborotlarni olish, jamlab foydalanish imkoniyatlarini beradi. Mamlakatimizda texnologiyalarning keng miqyosda joriy etilishi bilan onlayn tarzda o‘qitishni bir qator ijtimoiy ahamiyatga molik masalalarni yechishda ham joriy etish mumkin. Ta’lim sohasiga bo‘lgan talabalarning ehtiyojlarini qondirishda qulayliklar yaratish bilan respublikamizning malakali raqobatbardosh mutaxassislarga bo‘lgan ehtiyoji ham qondiriladi. Shuningdek, talabalarning ijtimoiy va kasbiy faolliklarini oshirishga erishish mumkin. Sirtqi bo‘limlarda tahsil olayotgan talabalarning, xususan, ishlab chiqarishdan ajralmagan holda ta’lim olayotgan yoshlar uchun qulay shart-sharoitlarni yaratib beradi. Bunday uslub asosida o‘qitish bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlashda muhim o‘rin tutadi hamda mehnat bilan mashg‘ul shaxslarning jamiyat hayotidagi faolligini mustahkamlab, ularning dunyoqarashini boyitishga xizmat qiladi.

ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАСИ ТАЪЛИМ СОҲАСИДА ВИРТУАЛ ЛАБОРАТОРИЯЛАРНИ ҚЎЛЛАШНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ

Холмонов Ш.К., Нурмухамедова Т.У., Абдуллаев А.Х., ТАТУ

Ўқитишнинг традицион усулларида фан бўйича олинган назарий билимларни мустахкамлаш ва амалий кўникмаларни ҳосил қилиш учун хизмат қилувчи лаборатория ва амалий машғулотларга катта аҳамият берилади. Лекин улар кўпчилик ҳолларда кутилган натижани бермайди. Бунинг сабаблари қуйидагилар:

- лаборатория стендларининг етарли эмаслиги;

-мавжуд лаборатория стендлари замонавий асбоблар, қурилмалар ва аппаратлар билан таъминланмаганлиги;

- кўпчилик лаборатория стендларининг замонавий талабларга жавоб бермаслиги ва маънавий эскирганлиги;

- лаборатория ишлари ва стендларини мукаммаллаштириб туриш зарурлиги;

- айрим лаборатория схемаларини йиғиш учун кўп вақт талаб қилиниши сабабли талабаларнинг ажратилган вақтда нунумли фойдалана олмаслиги.

Юқорида келтирилган камчиликларнинг кўпчилигини ўқув жараёнига виртуал лабораторияларни киритиш йўли билан бартараф қилиш мумкин. Виртуал лаборатория (ВЛ) дастурий комплекс бўлиб, фойдаланувчига ҳар хил турдаги қурилмалар ва тизимлар билан ишлаш кўникмаларини ҳосил қилиш ва уларни ҳар томонлама тадқиқ қилиш имкониятини беради.

Виртуал лаборатория–тажрибалар ўтказиш ва фанларни қизиқарли тарзда ўрганиш учун идеал муҳит бўлиб ҳисобланади. Интерактив виртуал реаллик оддий экспериментлар билан бир қаторда қуйида сана бўтилган мураккаб экспериментларни ҳам ўтказиш имкониятини беради:

• қиммат ва мураккаб жихозларни талаб қилувчи экспериментлар;

• реал шароитларда ўтказиш қийин ёки амалда мумкин бўлмаган экспериментлар;

• реал шароитларда катта маблағларни талаб қилувчи экспериментлар;

• қисқа вақт давомида ўтказилиши зарур бўлган экспериментлар ва ҳ.к.

Виртуал лаборатория ишларини маъруза материалларига қўшимча равишда маъруза вақтида ҳам намойиш қилиш мумкин. Бунда маъруза ва

лаборатория машғулотлари ўртасидаги вақт барери олиб ташланади, натижада ўқитиш эффективлиги ва сифати ортади.

Виртуал лабораторияларни эффектив тарзда қўллаш ўқитиш сифатини орттириш билан бир қаторда катта маблағларни тежаш имкониятини ҳам беради. Виртуал лабораторияларния ратиш масофавий таълим тизимини ривожлантиришда ва янги ахборот технологиялари воситаларини ўқув жараёнига киритишда ҳам долзарб масалалардан биридир.

Виртуал лабораторияларни тайёрлашда лойиҳалаш ва моделлаш муҳити сифатида Matlab, MathCAD, Maple, NIMultisim сингари дастурлардан фойдаланиш мумкин. Мисол тариқасида NIMultisim дастурий таъминотидаҳисоблагични ишлаш принципини кўриб чиқамиз:

MultiSim дастурий таъминотидан фойдаланиб “Рақамли қурилмаларни лойиҳалашга кириш” фанига тегишли “Ҳисоблагич”мавзусидагилаборатория машғулотини виртуал бажариш имконияти йўлга қўйилган.Рақамли қурилма киришларига берилаётган имплуслар сонини қайд этувчи қурилма ҳисоблагич деб аталади. Ҳисоб натижалари ҳисоблагич чиқишида иккилик сон кўринишда берилган код ва талаб этилаётган вақт давомида сақланиши мумкин. Ҳисоблагичлар рақамли автоматик бошқариш ҳамда алоқа ва назорат-ўлчов қурилмаларда кенг қўлланилади. Ҳисоблагичлар T, D, JK-триггерлар асосида тузилади.Тўртта JK-триггердан ташкил топилган ҳисоблагич тадқиқ этиш схемаси 1-расмда кўрсатилган. Ҳар бир триггер чиқишларидаги индикаторлар иккилик кодга асосланган. Бундан ташқари ҳисоблагич чиқишларига дешифратор орқали етти сегментли рақамли индикатор ўрнатилган бўлиб, у иккилик кодни ўнлик рақами кўринишида ифодалайди.



1-расм. JK-триггер асосида ҳисоблагич

Мазкур дастурий таъминот ёрдамидаталаб этилган ҳисоблагичларнинг турли хил саноқ коэффициентли схемаларини ишлаб чиқиш ҳамда тадқиқ этиш имконияти мавжуд.

Сўнгги йилларда ИКТни қўллаш соҳасида янги термин "Виртуал ўқув лаборатория" (ВЎЛ) пайдо бўлди. Техник таълим йўналишида ВЎЛ юқорида

келтирилган мутахассисларни тайёрлашни компютерлаштириш бўйича талабларни амалга оширишга йўналтирилган, очиқ ва масофавий таълим ғояларига мос келади, ўқув жараёнини моддий-техник таъминоти бўйича кескин муаммоларни қисман бўлсада ҳал қилишга ёрдам беради.

Виртуал лабораториялардан фойдаланиш ўқув жараёнидан реал лабораторияларни бутунлай сиқиб чиқармайди, балки улар бир-бирини тўлдиради.

Ўқув жараёнида виртуал лабораториялардан фойдаланиш қуйидаги афзалликларга эга:

- машғулотларда студентларнинг активлиги ва мустақиллигини орттириш;
- ўқув материалларининг ўзлаштирилиш даражасини кўтариш;
- ҳар бир студентнинг ўқув материалларини ўзлаштиришини тўлиқ назорат қилиш;
- қайтариш ва тренинг йўли билан олинган билимларни мустахкамлаш жараёнини енгиллаштириш;
- ўқув жараёнига мустақил таълимни киритиш эффективлигини орттириш.

Лаборатория амалиёти катта ўқув-услубий аҳамиятга эга. Лекин ҳозирги пайтда кўплаб лаборатория асбоб ускуналари ва мосламалари, ўнлаб йиллар аввал ишлаб чиқарилганлиги сабабли, замон талабларига жавоб бермайди. Лаборатория ишлари асосан физик макетларда бажарилади. Улар жараёнларни ҳар тамонлама текшириш учун этарли даражада универсал эмас. Лаборатория мосламаларининг сони чекланганлиги сабабли битта мосламада бир вақтнинг ўзида бир неча студент ишлашига тўғри келади.

Хулоса ўрнида шуни айтиш мумкинки, виртуал лабораториялардан фойдаланиш натижасида талабалар лаборатория ишларини бажариш билан бир қаторда уларни яҳши тушиниш ва чуқур ўзлаштириш имкониятларига эга бўладилар, чунки виртуал лаборатория дастурлари кенг, турли хилдаги ўлчов имкониятлариг аэга. Виртуал лабораториядан фойдаланиш масофавий таълим олишда ҳам жуда фойдалидир.

O‘QITISHDA O‘YINLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI

Gaziyev X.G., Mutalova Sh.A., TATU

Mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor va zifalaridan kelib chiqqan holda, kadrlar tayyorlash mazmunini takomillashtirish, xalqaro standartlar darajasiga mosoliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash ta’limga texnologik yondashuvni talab etadi.

Zero, zamonaviy axborot texnologiyalarini samarali qo‘llash talabalarga bilim berish sifatini oshirish, uning mazmun-mohiyatini takomillashtirish, ta’limni zamonaviy talablar darajasida tashkil etish, ta’lim muassasalarida ta’lim samaradorligini oshirish maqsadida ta’lim-tarbiya jarayoniga yangi pedagogik, axborot texnologiyalarini joriy etish, ularda interfaol usul va vositalardan foydalanish ko‘zda tutilgan.

Ta’limning bugungi vazifasi o‘quvchilarni kun sayin ortib borayotgan axborot — ta’lim muhiti sharoitida mustaqil faoliyat ko‘rsata olish, turli sohalarda zamonaviy axborot texnologiyalarini samarali qo‘llash va axborot oqimidan oqilona foydalanishga o‘rgatishdan iborat.

Ta’lim jarayoniga innovatsiyalarni qo‘llash bugungi kunda quyidagi vazifalarni amalga oshirishni talab etadi:

- o‘quv fanining aniq maqsadini aniqlash;
- fanning hajmiva mazmunini aniqlash;
- zarur bo‘lgan ta’lim texnologiyalarini ishlab chiqish va tavsiya etish;
- fanning moddiy va texnik ta’minotini yaratish;
- ta’lim oluvchilarning xususiyatlarini o‘rganish;
- o‘qituvchining tayyorgarligi va dars mashg‘ulotini loyihalash.

Mutaxassislarning fikricha, insonning asosiy faoliyat tur iuch ko‘rinish: mehnat faoliyati, o‘yin faoliyati, o‘quv faoliyatida shakllanadi.

O‘yinli texnologiyalardan foydalanishning asosini talabalarning faollashtiruvchi va jadallashtiruvchi faoliyati tashkil etadi. O‘yin olimlar tadqiqotlariga ko‘ra mehnat va o‘qish bilan birgalikda faoliyatning asosiy turlaridan biri hisoblanadi. Psixologlarning ta’kidlashlaricha, o‘yinli faoliyatning psixologik mexanizmlari shaxsning o‘zini namoyon qilish, hayotda o‘z o‘rnini barqaror qilish, o‘zini o‘zi boshqarish, o‘z imkoniyatlarini amalga oshirishning fundamental ehtiyojlariga tayanadi. O‘yin bilish va uning bir qismi (kirish, mustahkamlash,

mashq, nazorat) tarzida tashkil etiladi.

5-қисмда Космик муҳитни ўрганиш ва улардан фойдаланиш бўйича халқаро ҳукуматлараро ташкилотларнинг шарҳи таҳлил қилинган.

“Космик технологиялар” фанининг афзаллиги бўлиб, унда дарсларни on-line тарзда ўқитишнинг ўзига хос хусусиятларини эътиборга олган ҳолда магистратура талабаларининг билимини баҳолашда семестр давомида ва якуний назорат давомида фанни ўзлаштиришда ёрдам берувчи қўшимча манбалар ҳамда ўқув материаллари (тестлар, топшириқлар, ёзма ишлар, мустақил ишлар) мавжудлиги ҳисобланади.

Ушбу фанни ўзлаштиришдан асосий мақсад космик технологиялар ҳақида умумий тушунчаларни шакллантириш, космик аппаратлар ёрдамида бошқаришнинг борт тизимларини қуришнинг асосий усуллари билан боғлиқ билимларни ўзлаштириш, магистратура талабаларида космик аппаратлар ва уларнинг таркибини бошқаришнинг ердаги мажмуаси ҳақида тасаввурларни шакллантириш, уларда сунъий йўлдошли тизимларни зондлашда, метеорологияда ва навигацияда фойдаланишда қўлланиладиган замонавий воситалар ҳамда усуллар соҳасидаги малакаларини шакллантириш ҳамда геоахборот тизимларининг замонавий дастурий таъминотини ва математик аппаратни қўллаган ҳолда геоинформатика бўйича масалаларни ечиш, таҳлил қилиш қобилияти ҳамда кўникмаларини, ҳаёлий тафаккурини ривожлантиришга ёрдам беради.

Магистратура талабаларининг ушбу фанни муваффақиятли ўзлаштириш ва якунлаши, уларда маълум бир қатор масалаларни ечишда зарур бўлган космик технологияларни танлаш бўйича билимларини шакллантиришга имкон беради.

“Космик технологиялар” фани маърузалар, семинарлар, видео маърузалар, тақдимотлар, шунингдек таълимнинг кредит тизимига асосланган ҳолда тематик топшириқлар ва мустақил ишларни ўз ичига олади. Ушбу фан ўқув материалларида келтирилган мавзулар бўйича назарий ва амалий маълумот берилган, амалий ишларни олиб бориш ва натижаларини ҳисоблаш тартиби тушунтирилган. Фаннинг назарий материаллари магистратура талабалари томонидан мустақил ўрганилади, назорат ва амалий вазифалар алоҳида ёки кичик гуруҳларда амалга оширилади.

Магистратура талабаларига назарий машғулотлар вақтида видео маъруза орқали мавзу бўйича зарурий тушунчалар бериб борилади. Мавзу материалларини мустаҳкамлаш учун тақдимотлар, дарсликлар, кўрсатмалар ва бошқа ўқув қўлланмалардан фойдаланиш бўйича тавсиялар мунтазам берилади.

Мустақил ишни баҳолашда фаннинг назарий материалларининг мавзулари бўйича мустақил ишни расмийлаштирилганлигиги, мустақил иш режасини тўғри танланганлигига, танланган мавзуда графиклар ва расмларнинг мавжудлигига, фойдаланилган адабиётлар руйхатини келтирилганлигига, танланган мавзуда таҳлилий хулосалар мавжудлигига катта эътибор берилади ҳамда маълум миқдорда белгиланган баллар билан баҳоланади.

Юқорида келтирилган топшириқ ҳамда мустақил ўрганиладиган вазифалар магистратура талабаларига “Космик технологиялар” фанини ўзлаштиргандан сўнг ўзининг билимларини тўғри баҳолашга имкон беради.

Кўриб чиқилган фаннинг тузилиши ҳамда мазмуни магистратура талабаларига космик техника ва технологиялар йўналишида on-line шаклда таълим олишида етарли даражада чуқур билим ва амалий кўникмаларга эга бўлишида ёрдам беради.

ОРГАНИЗАЦИЯ УЧЕБНОГО ПРОЦЕССА В СОВРЕМЕННЫХ В ЭКСТРЕМАЛЬНЫХ УСЛОВИЯХ

Пулатов Ш.У., Ни Э.В. ТУИТ

В 2020 году системы образования в мире не просто столкнулись с трудностями. Буквально за несколько недель по всей планете были вынуждены перейти в дистанционный или смешанный формат обучения. Вузы по-настоящему оказались в чрезвычайной ситуации. Возникли барьеры для реализации той модели, по которой университеты работали традиционно.

Такой резкий переход на "дистанционный" – мера вынужденная и экстренная, не все университеты были готовы к этой кардинальной перестройке учебного процесса исходя из объективно разного уровня развитости информационной инфраструктуры, обеспеченности дисциплин электронными образовательными ресурсами и готовности преподавателей к использованию цифровых платформ и сервисов в образовательном процессе.

В сложившейся ситуации, единственно возможным и адекватным ответом вузов на внешний вызов был временный полный переход на дистанционное

обучение. И в этих условиях использовались все возможные ресурсы университетов, для реализации учебного процесса посредством Интернет.

Среди всего спектра системы дитанционного обучения можно особо выделить систему MOODLE. MOODLE (Modular Object-Oriented Dynamic Learning Environment) — это модульная объектно-ориентированная динамическая обучающая среда. В системе MOODLE создаются курсы и web-сайты, базирующиеся в Internet. Этот программный продукт поддерживает обмен файлами любых форматов и может использоваться для управления обучением. Система MOODLE ориентирована на организацию взаимодействия между преподавателем и студентами, подходит для поддержки очного и заочного обучения. Система предоставляет широкий набор функций для создания дистанционного курса, в который входят: глоссарий, ресурс, задание, форум, wiki, урок, тест и др. При организации учебного материала в среде MOODLE реализуется модульный подход. Информация разбивается на определенные блоки или дидактические единицы, включающие теоретический материал, практические задания, задания для самостоятельной подготовки, материалы для подготовки к лабораторным работам, пояснения и дополнительные сведения по дисциплине.

Но, как и любая система обучения, к сожалению, Moodle также имеет свои недостатки, как для преподавателей, так и для студентов.

Одним из наиболее значимых, отсутствие «человеческих» ресурсов в значительной степени рассматривается пользователями как отрицательная черта. Программа предназначена для доставки контента, но было бы неплохо, если бы система предоставляла больше возможностей для человеческого взаимодействия, чтобы помочь студентам и преподавателям эффективно общаться.

Решением этих проблем требуют привлечение дополнительных технологий. В частности, для организации видеоконференций используются различные облачные платформы. Наиболее востребованным являются сервисы Zoom. Zoom — это облачная платформа для проведения видеоконференций**,** онлайн-встреч и дистанционного обучения в режиме реального времени.

Преимущества платформы Zoom являются видео и аудио связь с каждым участником. У организатора есть возможность выключать и включать микрофон, а также выключать видео и запрашивать включение видео у всех участников, можно войти в конференцию как участник с правами только для просмотра. Можно делиться экраном (screensharing) уже со звуком, демонстрацию экрана можно поставить на паузу. В настройках можно дать

всем участникам возможность делиться экранам, либо включить ограничения, чтобы делать это мог только организатор. В платформу встроена интерактивная доска, можно легко и быстро переключаться с демонстрации экрана на доску. Есть чат, в котором можно писать сообщения, передавать файлы всем или выбрать одного студента. Чат можно настроить на автоматическое сохранение или сохранять вручную при каждой конференции. Можно производить запись урока как на компьютер, так и на облако, для удобства имеется автовключение и пауза записи. Во время конференции можно назначить со-организатора, у которого будут такие же возможности, как и у организатора: включать и выключать микрофон у отдельных студентов, переименовывать и делить на комнаты.

Системе присущи недостатки — это сбои работы, связанные с качеством предоставляемых провайдером Интернет услуг, а также загруженности самой платформы при проведении крупных видеоконференций**.**

С использованием данной программы педагоги проводят онлайн-занятия, индивидуальные и групповые консультации по курсовому и дипломному проектированию, используют такие инструменты, как демонстрация экрана и интерактивная доска. Они очень помогают при работе со схемами и многое др.

Работа в условиях дистанционного обучения позволила и студентам, и педагогам актуализировать имеющиеся и сформировать новые IT-компетенции. Обучающиеся приобрели опыт применения различных информационно-коммуникационных технологий в профессиональной деятельности. Преподаватели сформировали навык организации учебного процесса на базе современных IT-технологий, освоили ранее не применявшиеся инструменты электронного обучения и дистанционные образовательные технологии.

В случае преподавания технических дисциплин можно отметить недостаток, присущий вообще дистанционному обучению: отсутствие возможности практического использования реальных технических средств (приборов, макетов, учебного оборудования и т. п.) при проведении практических и лабораторных занятий, а также учебных практик. Для таких занятий возможно применение только имитационных программных средств, что формирует у обучаемых поверхностное представление о работе технических устройств, затрудняет выработку практических навыков обращения с приборами и оборудованием.

Опыт работы университетов «на удалённом формате» показал не только возможности цифровых технологий, но и их ограничения. Во-первых, стало понятно, что эффективное использование этих технологий требует особых

компетенций преподавателей, управленцев, студентов, а также эффективных и удобных технологических решений, особой организации образовательного процесса. Без этого нельзя говорить о полноценном образовании в дистанционном формате. Во-вторых, ситуация подтвердила, что ряд важнейших процессов университетской жизни слабо поддается цифровизации, переносу в виртуальное пространство. На практике было показано, что полная реализация программ высшего образования в дистанционном формате невозможна.

Таким образом, будущее за широким использованием цифровых технологий и дистанционного формата в сочетании с совместной деятельностью преподавателей и студентов в общем физическом пространстве.

В итоге, важно извлечь выводы из этого "глобального эксперимента" и организовать планомерную работу. Полученные результаты деятельности за короткий период позволяют разработать корректирующие мероприятия, которые повысят эффективность занятий, разумно сочетая различные формы образовательных технологий.

МУТАХАССИСЛИК ФАНЛАРИНИ ЎҚИТИШДА МАСОФАВИЙ ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ

Файзуллаева Б.Б., Ахмедов Б.И., ТАТУ

Ҳаммага маълумки ҳозирги вазиятда, яъни глобал пандемия пайтида дунё миқёсида университетлари масофавий таълим, онлайн платформаларга қизиқиши ортиб бормоқда, шу сабабли ўқув жараёнининг сифатини ошириш, ўқув муҳитининг имкониятларини кенгайтириш ва талабаларни ўрганиш самарадорлигини ошириш муаммолари пайдо бўлмоқда. Онлайн платформалардан фойдаланиш бизларга бир тарафдан миллий масофавий таълимни ривожлантиришга, бошқа тарафдан эса хорижий университетлар ва ўзимизнинг етакчи университетларимизнинг тажриба ва имкониятларини таълим тизимига интеграллашувига олиб келмоқда. Impact of Distance Education on Adult Learning 2019 йил бўйича берган маълумотга кўра Европа университетларида 2019 йил учун масофавий таълимда ўқув машғулотлаирини ўтказишга тайёрмаслиги, катталарни ўқитишга таъсири бўйича 20% дан кам университетлар масофадан туриб ўқиш имкониятини бермайдилар, 9% фақат онлайн таълимда фаолият олиб боришади 50% дан кўпроғи аралаш таълимдан фойдаланиб эгилувчан дарс графигига эга ва шу билан катта ёшдаги

аудиторияларни ҳам жалб қилади. Замонавий тадқиқотчилар масофавий ўқитиш масаласига катта эътибор беришади. Электрон таълим ва масофадан ўқитиш технологияларига талаб тобора ортиб бораяпти. Шу муносабат билан, электрон таълим технологиялари платформаларини танлаш, илмий асослаш ва муваффақиятли амалий татбиқ этиш долзарб бўлиб қолади, бу бир томондан, ўқув жараёнининг анъанавий дидактик процедураларини самарали ўзгартириш имкониятини беради, бошқа томондан мустақил ва танқидий фикрлайдиган, ҳаракатчан, ижодий фаол шахсларни ривожлантиришга имкон беради, бошқа томондан мустақил ва танқидий фикрлайдиган, ҳаракатчан, ижодий фаол шахсларни ривожлантиришга имкон беради. Юқорида айтиб ўтилган кўникмаларни ривожлантириш учун техник йўналиш бўйича энг самарали, онлайн платформаларнинг қуйидаги имкониятларини келтириш мумкин:

- умумий дарс учун катта аудитория, гуруҳларга, жуфтларга бўлиниш қобилияти;

- изоҳ бериш ва саволлар бериш қобилияти;

-анъанавий усуллардан ташқари ўқитишнинг интерактив усулларидан фойдаланиш;

- электрон ўқув материалларидан, интерактив доскалардан фойдаланиш қобилияти;

- ўқувчиларнинг ривожланишини назорат қилиш функцияси ва тўғридан-тўғри баҳолаш қобилиятидир.

Хозирги кунда масофадан ўқитиш доирасида коммуникатив компетенсияни ривожлантириш учун Zoom платформасидан фаол фойдаланилмоқда, бу орқали сиз ҳам видеоконференциялар, ҳам веб-семинарлар ўтказишингиз мумкин. Zoom платформасининг имкониятлари ва афзалликларини санаб чиқишимиз мумкин:

1. Онлайн машғулотларни ўтказишда видеоконференциялар яратиш ва хабарлар алмашиш, шунингдек дарсда бўлмаган талабалар учун сақлаш ва кейинчалик кўриш имконияти билан дарсни онлайн ўтказиш.

2. Брэакоут фунцияси, жуфтлик ёки гуруҳда ишлаш учун хоналар ёки сессия хоналари. Ушбу фунциянинг моҳияти шундан иборатки, жуфтликлар ёки гуруҳлар алоҳида сессия залида бўлиб, бошқаларни эшитмайди. Ўқитувчи учун бу функция ўқувчиларни синфларга тарқатиш, у ёки бу синфга ташриф буюриш, синфни ёпиш ва талабаларни умумий синф хонасига қайтариш имкониятини беради .

1. Ўқув материалларига ҳаволалар юбориш, чатдаги вариантлар бўйича тестлар бажариш.

2. Демонстрация функцияси ўқитувчи экранидаги тақдимотлар, видео ва бошқа элементларни талабалар экранида кўрсатишда хизмат қилади.

3. Шарҳлаш функцияси ўқувчилар эътиборини маълум бир машққа жалб қилиш учун матн, диаграмма, расм қисмларини ажратиб кўрсатишга имкон беради, масалан, “Расм ва уни аниқлайган атамани белгиланг”.

4. Сичқонча бошқарувини талабага ўтказиш "шу ерда ва ҳозир" режимида талабанинг мавзуни, сўз бойлигини, вазифасини қандай тушунганлигини кўриш ва хатоларни ўз вақтида тузатиш имконини беради.

5. Интерактив доска-мавзу бўйича барча керакли бўлган маълумотларни кўрсатишга ёрдам беради.

Ўз навбатида, дарсларида вебинар форматидан фойдаланиш талабаларнинг реал вақт режимида коммуникатив компетенциясини ривожлантириш ва такомиллаштиришда:

- ёзма, аудио ва видео контентни алмашиш;
- меҳмонларни таклиф қилиш (экспертлар, хорижий мутахассислар ва бошқалар);
- талабаларнинг мутахасислик фанларини ўрганиш жараёнида иштирок этиш статистикасини олиш ва таҳлил қилиш имконияти;
- вебинар ёзувларини сақлаш;
- сўровномалар, интервюлар ўтказиш ва уларни онлайн трансляция қилиш орқали мулоқот қилиш учун ҳақиқий онлайн муҳитни яратади.

Амалиётда мутахасисслик фанларини ўқитиш жараёнида бир неча турдаги вебинарларни ташкил қилиш мумкин. Оддий вебинар маъруза асосида ўтказиладиган дарслар учун хизмат қилади: ўқитувчи тингловчиларни маъруза мавзуси, керакли маълумотлар билан фақат наушник ва тақдимот слайдларидан фойдаланган ҳолда таништиради. Маъруза охирида талабалар чат орқали мавзу бўйича саволлар беришлари мумкин. Панел мунозараси вебинари битта модератор ва бир нечта мутахассисларнинг (таклиф қилинган меҳмонларнинг) иштирокини назарда тутади. Вебинар давомида модератор вебинарнинг ўтишини кузатиб бориб мутахасисслар ҳамда талабалар гуруҳига савол ва мунозаралар ташкил қилинади. Бу эса сизга маълум бир масала бўйича мавзу ва бир нечта қарашлар билан танишиш имконини беради. Масофавий меҳмон иштирокидаги вебинарларга лаборатория хонаси бўйлаб виртуал саёҳатни амалга ошириш мумкин. Масалан, ZOOM онлайн-платформасининг мобил қурилмалар билан мослиги лаборатория машғулотларини телефонларда осонгина кузатиш имкониятини беради . Талабалар, ўз навбатида, уйдан чиқмасдан ҳар қандай лаборатория макетларида машғулотлар бажариш

жараёнини кузатиш, саволлар бериш, мавзуни муҳокама қилиш ва бошқа имкониятларга эга бўлишади. Худди шу тарзда, ўқув дастурига қўшимча сифатида дунёнинг исталган нуқтасидан келган мутахассислар билан маърузалар ўқиш мумкин. Яъни, гуруҳга раҳбарлик қилаётган ўқитувчи бошқа мамлакатдаги ОТМ, мактаб, коллеж ўқитувчиси билан боғланиб, уни таҳлилчи ўқитувчи сифатида чиқишга ёки меҳмонлар учун маъруза ўқишга таклиф қилиши мумкин.

Шундай қилиб, университетда мутахасиссислик фанини масофадан ўқитиш мақсадида онлайн платформалардан фойдаланиш қуйидаги вазифаларни ҳал қилишга имкон беради:

- индивидуал режа ва ўқув жадвалини шакллантириш; - имконияти чекланган ва ногирон талабалар учун ўқиш имконияти;

- лойиҳа ва ғоялар бўйича жамоавий ишни ташкил этиш;

- таълимнинг коммуникатив усулларидан фойдаланиш (суҳбатлар, конференциялар, баҳс-мунозаралар, давра суҳбатлари);

- географик форматни кенгайтириш (бир хил ёшдаги чет эллик талабалар, турли хил бизнес йўналишлар ва ташкилотлар вакиллари билан видеоалоқа қилиш имконияти, сиёсатчилар, иқтисодчилар, санъаткорларнинг матбуот анжуманларида қатнашиш имконияти);

- ахборотни доимий равишда янгилаб туриш, турли манбалардан ўз вақтида олиш, уни визуаллаштириш;

- амалиётга йўналтирилган ўқитиш усулларидан фойдаланиш (мунозаралар, лойиҳалар, биргаликдаги таълим, тадқиқот фаолияти);

- кундузги, сиртқи ва масофавий ўқитиш имкониятларини бирлаштирган ягона ўқув жараёни ташкил этишдир.

МАСОФАВИЙ ТАЪЛИМДА ОММАВИЙ ОЧИҚ ОНЛАЙН КУРСЛАРНИНГ ҚЎЛЛАНИЛИШИНИ АСОСИЙ ХУСУСИЯТЛАРИ

Худойберганов Ш.К. ,ТДТУ, Сабирова У.Ш.. ТАТУ

Коронавирус пандемияси бутун дунёда таълим олиш тарзини ўзгартириб юборди. Минглаб талабалар ўқишга бормай, уйидан туриб ўқишни давом эттиряптилар. Коронавирус пандемиясининг олд чизиғида биринчи навбатда, тиббиёт ходимлари тасаввур қилинса, кейинги қисмида эса, унинг оқибатларини бартараф қилиш жараёнида кўп минг сонли олий таълим муассасалари профессор-ўқитувчилари, умумий ўрта таълим мактабларининг устоз-мураббийлари фаол иштирокини ҳис қилиш мумкин. Кечагина аудиторияда ўтилган дарсларнинг тўсатдан онлайн платформага кўчгани таълим берувчи устозлар учун ҳам катта тажриба-синов мактаби бўлди.

Мамлакатимиздаги эпидемилогик вазият ва синовли кунларда юртимизнинг барча таълим муассасаларида жуда қисқа фурсат ичида онлайн дарслар йўлга қўйилди. Дастлаб, мазкур ўзгаришлар шубҳасиз, муайян ноқулайликларни келтириб чиқарди, аммо пандемия сабабли кузатилаётган ўзгаришлар ва таълимдаги янги ечимлар, ҳозирги давр учун зарур бўлган инновацияларни таълим соҳасига киритилишига сабаб бўлди. Ҳозирда ZOOM платформаси орқали онлайн дарслар ташкил қилиниб, университетнинг ҳар бир профессор-ўқитувчиси бу платформага видеомаъруза, маърузалар матни, мавзулар бўйича тақдимот материаллари, мустақил иш, очиқ ва ёпиқ тестларни киритиб, ўз вақтида талабаларнинг билимларини баҳолаб боряптилар. Онлайн дарс — бу янгича услуб ва анъанавий дарсдан тубдан фарқ қилади. Демак, ҳар бир ўқитувчи-педагог энди аудиториядаги ёндашувларни қисман унутиб, виртуал аудиторияларга мослашиши зарур, чунки бу дарсларнинг ҳам ўзига яраша жиддий талаб ва шартлари бор.

Онлайн дарслар воситасида талаба-ёшларимиз кўпроқ мустақил ишлашга, илмий ижод билан шуғулланишларига, китобларни мутолаа қилишларига имконияига эга бўлдилар, педагог-ўқитувчиларимиз эса хориж олимлари иштирокида ташкил қилинаётган онлайн видеоконференцияларда қатнашиб, касбий маҳоратларини ривожлантириш учун мунтазам ишлашга интиляптилар.

Президентимиз Шавкат Мирзиёев халқимизга мурожаатида ўқувчи ва талаба ёшларга қарата шундай деди:-Азиз фарзандларим, уйда вақтингизни бекор ўтказманг! Онлайн дарсларни қунт билан ўзлаштиринг. Китоб ўқинг,

билимингизни оширинг, бадантарбия ва жисмоний машқларни бир кун ҳам қолдирманг!

Айни сўзлар олий таълим муассасалари профессор-ўқитувчилари зиммасига ҳам катта масъулият юклайди. Бу, амалга оширилаётган ишларда ўз аксини топмоқда.

Ўзбекистон Республикаси олий ва ўрта махсус таълим вазирлигининг 2020 йил 27 мартдаги “Олий таълим муассасаларида масофавий таълимни жорий этиш тўғрисида”ги 233-сонли буйруғи ижросини таъминлаш, таътил вақтида ўқув жараёнини узлуксизлигини таъминлаш ҳамда талабаларнинг билим олиш даражасини масофадан туриб қўллаб-қувватлаш мақсадида вилоятимиздаги олий ўқув юртлари профессор-ўқитувчилари томонидан фанлар бўйича тайёрланган видеодарслар тайёрланди. Улар таълим муассасаларининг Youtube.com ижтимоий тармоғидаги расмий саҳифаларига жойлаштирилган.

Ҳозирги вақтда ўқитиш ва тарбиялашнинг янги технологияларига сифат жиҳатдан тез ўтиш учун объектив асос юзага келди, чунки иқтисодий ва ижтимоий ҳаётдаги инновацион жараёнлар ўз-ўзидан таълимда ҳам тубдан ўзгартиришларни тақозо этмоқда. Ҳеч бир ўқитувчи-педагог эртами-кечми бу жараёнга қўшилмасдан четда қолиши мумкин эмас. Масофавий ўқитиш ҳар қандай соҳада ҳам жаҳон таълим марказларининг услубий адабиётлари, замонавий ҳамда сўнгги ахборотларни олиш, жамлаб фойдаланиш имкониятларини беради.

Мамлакатимизда технологияларнинг кенг миқёсда жорий этилиши билан онлайн тарзда ўқитишни бир қатор ижтимоий аҳамиятга молик масалаларни ечишда ҳам жорий этиш мумкин. Таълим соҳасига бўлган талабаларнинг эҳтиёжларини қондиришда қулайликлар яратиш билан республикамизнинг малакали рақобатбардош мутахассисларга бўлган эҳтиёжи ҳам қондирилади. Олий таълим муассасаларида йиғилган илмий ютуқлар, мутахассис ходимлар ва уларнинг иштирокида юртимизнинг иқтисодий салоҳиятини мустаҳкамлашдек устувор режаларни амалга ошириш вазифасини қўймоқда.

Масофавий ўқитишни ҳар тамонлама такомиллаштириш борасида оммавий очиқ онлайн курсларни ташкил этиш катта аҳамиятга эга.

Оммавий очиқ онлайн курслар (MOOC) масофавий таълим моделининг бошқа кўриниши бўлиб, уларни MOOC — Massive open online courses деб ҳам номланади. Бу жаҳон таълим тизимидаги оммалашган тенденциялардан бири хисобланади. Агар электрон ўқитишда таълим олувчи мустақил равишда (амалда педагогнинг иштирокисиз) материални ўзлаштиришга қодир бўладиган

электрон ахборот-таълим муҳити мавжуд бўлиши жиддий шарт ҳисобланишидан келиб чиқадиган бўлсак, шундай таълим айнан оммавий очиқ он-лайн курсларни ўзлаштиришга мисол бўлади. МООСнинг дастлабки мақсади таълимни очиқ қилиш, турли мамлакатлардан бўлган кўп сонли таълим олувчиларнинг бепул олий таълим олишлари учун имконият яратишдан иборат. МООСни университетларнинг анъанавий он-лайн курсларидан қуйидаги иккита асосий белгилари ажратиб туради: 1) очиқлик — исталган киши он-лайн курснинг иштирокчиси бўлиши мумкин; 2) масштаб — курсда чекланмаган сондаги одамлар иштирок этиши мумкин. МООС исталган фанни ва соҳани қулай вақтда ва таълим олувчи учун мос жадалликда ўрганиш имконини беради. Бу моделда муайян таълим олувчи амалда тьютор билан контактда бўлмайди, аммо бу камчиликни таълим олувчилар жамоаси билан электрон ахборот-таълим муҳитидаги мулоқот тўлдиради. Шунинг учун бу моделдан малака ошириш, мустақил таълим олиш учун фойдаланиш қулай. Ушбу моделни қўллаш тьютор томонидан таълим олувчиларнинг мустақил ўрганишлари учун материалларни жиддий тайёрлаш, назорат тизимини батафсил ўйлаб чиқиш, аудиториядаги ва тармоқдаги ўзаро фаолиятни самарали қўшиб олиб бориш ва бошқаларни назарда тутади. Шунингдек, масофавий ўқитишнинг ўзига хос хусусиятлари анъанавий таълимга нисбатан афзалликларига тўхталиб ўтиш мақсадга мувофиқдир.

Хусусиятлари бўйича соҳа мутахассислари фикрлари турлича бўлишига қарамасдан, деярли барча муаллифлар масофавий ўқитишнинг қуйидаги асосий хусусиятлари мослашувчанлик, модуллилик, қулайлик, иқтисодий самарадорлик, алоқанинг тезкорлиги, қамровнинг кенглиги, технологиклик, ижтимоий тенглик, тьюторнинг янгича роли, сифатнинг ўзига хос назорати ҳақида қуйидаги фикрларни билдиради.

КРЕДИТ ТИЗИМИДА «МОБИЛ АЛОҚА ТИЗИМЛАРИДА УЗАТИШ ВА ҚАБУЛ ҚИЛИШ ҚУРИЛМАЛАРИ » ФАНИНИ ЎҚИТИШИНИНГ УСЛУБИЙ ХУСУСИЯТЛАРИ

Алиев У.Т., Султонова М.О., ТАТУ

Муҳаммад ал-Хоразмий номидаги Тошкент ахборот технологиялари университети мана учинчи ўқув йилидирки таълимнинг кредит тизимида фаолият олиб бормоқда. Шуни айтиш керакки, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 19 февралда қабул қилинган ПФ-5349 сонли “Ахборот технологиялари ва коммуникатсияларини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармони қабул қилинди. Унга мувофиқ таълим сифатини яхшилаш, халқаро тавсияларни қўллаш асосида халқаро таълим стандартларини жорий этиш, ТАТУга хорижий университетлар билан талабалар, профессор-ўқитувчилар ва педагог кадрларни алмашиш имконини бериш, рақобат муҳитини яратган ҳолда ўқитувчига янги педагогик технологиялар ва ўқув жараёнининг оқилона шаклларини ривожлантириш орқали ўзининг илмий-педагогик даражасини ошириш имконини бериш, асосийси тизим талабаларга ўзининг мустақил таълим дастурини шакллантириш ва билимларни баҳолашнинг шаффофлигини таъминлаш имконини беришдир. Шунингдек, Болон жараёни доирасида олий таълим соҳасидаги Европа-Ўзбекистон муносабатларини ривожлантиришда муҳим таркибий қисм ҳисобланади. Болон жараёни олий таълим кредит тизими учун умумлаштирилган асос бўлиб келмоқда, у талабаларнинг мобиллигига, халқаро ўқув дастурларини ишлаб чиқишга кўмаклашишда исботланган тажрибага эга бўлиб, кредит-транспорт тизими ва кредитларни тўплаш асносида ривожланмоқда.

Кредит — талабага қўйиладиган ўқув юки ҳажмини аниқлашнинг шартли бирлиги. У талаба томонидан ўқув ишларининг бажарилишига ажратилган соатлардан иборат. Бунда талабалар айрим фанларни танлаш имкониятига эга бўлади. Шунингдек, 18 ҳафталик ярим йилликдан 15-ҳафталигига ўтиш режалаштирилмоқда.Талабалар ўқув жадвалини мустақил шакллантириш имконига эга бўлади, билимларни баҳолаш тизимининг шаффофлиги таъминланади.

Айнан бу тизим учун тақдим қилинаётган фанлардан бири “Мобил алоқа тизимларида узатиш ва қабул қилиш қурилмалари” фанидир. “Мобил алоқа тизимларида узатиш ва қабул қилиш қурилмалари” фанини ўзлаштиришнинг мақсадлари қуйидагилар ҳисобланади:

1) талабаларда кучайтирш, узатиш ва қабул қилиш қурилмалари техникаси ва назариясини ривожлантириш муаммоларини радиоалоқа тизимларида радиосигналларни кучайтириш назарий масалаларини ўргатиш ҳамда уларни амалда татбиқ этиш кўникмасини шакллантириш;

2) Кучайтириш қурилмаларининг элементлар базаси ва улардаги бузилишларни ўрганишга боғлиқ билимларни ўзлаштириш;

3) Талабаларда узатиш ва қабул қилиш қурилмалари ҳақидаги умумий маълумотлар ҳақида тушунчаларни шакллантириш;

4) Талабаларда аналог қурилмаларнинг таъминот манбаси ва замонавий аналог қурилмаларнинг схемотехникаси борасида кўниқмаларни шакллантириш;

Бу фанни муваффақиятли ўзлаштириш талабаларда узатиш ва қабул қилиш қурилмаларининг ўзига хос хусусиятлари ҳисобга олиниши бўйича кўникмаларни шакллантиришга ёрдам беради.

Фанни ўрганишни тугатиш бўйича талаба:

- узатиш ва қабул қилиш қурилмаларнинг қуриш тамойиллари ва қўлланиш соҳалари
- узатиш ва қабул қилиш қурилмаларнинг техник кўрсаткичлари ва тафсифлари
- узатиш ва қабул қилиш қурилмалардаги чизиқли ва ночизиқли бузилишлар
- узатиш ва қабул қилиш қурилмаларининг уланиш схемалари ва уларнинг нисбий тафсифлари билан танишади;
- ҳар хил турдаги узатиш ва қабул қилиш қурилмаларнинг схемотехникасининг ўзига хос хусусиятларини ўрганади;
- амалиёт дарсларида олинган назарий ва амалий билимларини узатиш ва қабул қилиш қурилмаларига тадқиқ қилишда қўллай олиш кўникмасига эга бўлади.

«Мобил алоқа тизимларида узатиш ва қабул қилиш қурилмалари» фани доирасида кучайтириш қурилмаларининг асосий характеристиклари, радиоузатиш қурилмаларининг умумий характеристиклари, радиоқабул қилиш қурилмаларининг асосий характеристикалари, Software Defined radio дастурий радиосининг ўзига хос хусусиятлари ва тузилмаси, SDR қабул қилиш-узатиш қурилмалари, адаптив кўп режимли радиочастота занжирлари, рақамли радиоузаткичлар амплитуда, фаза/частота модуляторлари, чиплардаги тизимларнинг пассив радиочастотавий занжирларда қўлланиши, SDR аналог-

рақамли ва рақамли-аналог ўзгартириш, мультистандарт алоқа учун OFDM қабул қилгичлари ҳақида асосий маълумотлар баён этилади.

Лаборатория ва амалий машғулотлар қуйидаги мавзуларни ўз ичига олган: тескари алоқали кучайтиргични тадқиқ қилиш, кенг полосали кучайтиргичнинг тадқиқ қилиш, супергетеродинли қабуллагични тадқиқ қилиш, амплитуда детекторини тадқиқ қилиш, кучайтириш каскадларнинг асосий кўрсаткичлари, кучайтириш каскадларда чизиқли бузилишларни баҳолаш, операцион кучайтиргич асосида инверсловчи кучайтириш каскадни ҳисоблаш, радиоқабу қилгичнинг асосий техник характеристикаларини ўрганиш.

Мустақил иш тури қуйидагиларни кўзда тутади:

- назарий материални мустақил ўрганиш. Маърузалар матни ва тавсия этиладиган адабиётлардан фойдаланилади. Фикрлаш маданиятини ўзлаштириш, маълумотларни умумлаштириш ва таҳлил қилишни билиш, мақсадни қўйиш ва унга эришиш йўлларини танлашга ёрдам беради;

- маърузалар матни, амалий ишларга услубий кўрсатмалар ва тавсия этиладиган адабиётлардан фойдаланилади. Бу мустақил иш тури бажарилган ишнинг натижаларини расмийлаштириш, тақдим этиш ва маъруза қилишга, меъёрлар ва қоидаларга амал қилиш, касбий фаолият соҳасида миллий ва халқаро стандартлар талабларини бажаришни билишга ёрдам беради;

- билимларни жорий ва оралиқ назорат қилишга (синовга) тайёргарлик. Маърузалар матни ва тавсия этиладиган адабиётлардан, ҳисобланган уй топшириқлари ва бошқалардан фойдаланилади. Бажарилган ишнинг натижаларини расмийлаштириш, тақдим этиш ва маъруза қилишни билишгага, фикрлаш маданиятини ўзлаштириш, маълумотларни умумлаштириш ва таҳлил қилишни билиш, мақсадни қўйиш ва унга эришиш йўлларини танлашга ёрдам беради.

СУНЪИЙ ЙЎЛДОШЛИ АЛОҚА ТИЗИМЛАРИ МУТАХАССИСЛИГИДА “СУНЪИЙ ЙЎЛДОШЛИ АЛОҚА” ФАНИНИНГ ЎҚИТИЛИШИ

Мадаминов Ҳ.Х., Файзуллаева Б.Б., ТАТУ

Сунъий йўлдошли алоқа тизимларининг телекоммуникация хусусиятларига қуйидагиларни киритишимиз мумкин: хизматларни қамраб олишнинг глобаллиги; деярли ҳар қандай жойдан каналларни ташкил этиш самарадорлиги; замонавий технологияларни жорий этишга мойиллик; муҳим маълумот оқимларини юқори даражадаги сифат кўрсаткичлари билан узатиш имконияти; "сўнги миллар" муаммосининг тезкор ечимини таъминлаш; рухсатсиз аралашувларга қаршилик кўрсатиш шулар жумласидандир. Ер усти алоқа тизимлари билан солиштирганда ҳам ахборот узатиш муаммоларини ҳал қилишда Сунъий йўлдошли алоқа тизимлари устунликка эга.

Телекоммуникация йўналиши бўйича етишиб чиқаётган мутахассислар Сунъий йўлдошли алоқа тизимларини режалаштириш, уларнинг ишлаш принципларини яхши билишлари керак. Шу сабабли “Сунъий йўлдошли алоқа тизимлари” фанини ўрганиш жуда долзарб аҳамият касб этади. Фан дастурининг мазмуни қуйдагилардан иборатдир:

Фан дастурини ўзлаштиришга доир талаблар:

Фанни ўзлаштириш жараёни қуйидаги малакаларни шакллантирилишига қаратилган:

- Касбий фаолиятга доир маҳаллий ва хорижий тажрибаларга асосланиб, илмий-техник маълумотлар базасини тўплаш, қайта ишлаш, таҳлил қилиш ва олинган маълумотлар асосида соҳага жорий қилишини тизимлаштириш;
- тадқиқот усулларини ишлаб чиқиш ва илмий тадқиқот натижаларини қайта ишлаш;
- олиб борилаётган тадқиқотлар натижалари бўйича изоҳ ва ҳисоботларни тайёрлаш;
- сунъий йўлдошли алоқа тизимларини қуришда олинган назарий билимлардан самарали фойдалана олиш.

Фанни ўзлаштириш натижасида талабалар:

- замонавий аналог ва рақамли сунъий йўлдошли алоқа тизимларини қуриш тамойиллари, уларнинг хусусиятлари ва асосий техник характеристикаларини билишлари;
- турли кўринишдаги сунъий йўлдошли алоқа линияларини лойиҳалаштириш тамойиллари бўйича маълумотларга эга бўлишлари ;

- сунъий йўлдошли алоқа линияларининг асосий параметрлари ва сифат кўрсаткичларини ҳисоблашни амалга ошириш;

- инфокоммуникация технологияларини ривожлантиришнинг замонавий тенденцияларини ҳисобга ола билиш;

- сунъий йўлдошли алоқа тизимларининг эксплутация қилишни режалаштириш ва ташкил этишни билиш;

- экспериментал маълумотларни қайта ишлаш ва тақдим этишнинг асосий усулларини ўзлаштириш;

- сунъий йўлдошли алоқа тизимларининг восита ва комплекслари прототипларини синаш методикаси бўйича кўникмаларга эга бўлишлари шарт.

ҲОЗИРГИ ШАРОИТДА МАСОФАДАН ЎҚИТИШ ЖАРАЁНИДА МОБИЛ ҚУРИЛМАЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ АҲАМИЯТИ

Мирзаев Д.А., Темирова Д.Х., ТАТУ

“Мобил таълим” атамаси 15 йилдан бери мавжуд. Ушбу атама нафақат масофадан ўқитишни, балки “ҳар қандай жойда ва ҳар доим” ўрганишни белгилайди.

“m-леарнинг”ни амалга ошириш учун дастлаб ноутбуклардан фойдаланилган, аммо ҳозирда талабаларнинг мобил қурилмалари (телефонлари ва планшетлари) ва уларга тегишли дастурий таъминотдан (ДТ) фойдаланиш анча қулай бўлиб, уларни тарихий нуқтаи назардан уч турга бўлиш мумкин: веб-сайтлар; мобил қурилмалар учун дастурлар; мессенжерлар учун дастурлар (ботлар).

Веб-сайтдан фойдаланиш (мобил қурилмалар учун мослаштирилган) дастурни ўрнатмасдан ўқувчи учун керакли таркибни олиш, ўқувчи билан реал вақтда ўзаро алоқада бўлиш, дарс материалларини осонгина янгилаш ва турли хил мосламалар учун мос интерфейсни тақдим этиш имконини беради. Веб-сайтлардан фойдаланувчига авторизация қилиш учун талабалар телефонининг IMEY SIM-карта маълумотлари ва биометрик сенсорлардан фойдаланиши мумкин. Албатта, бу фойдаланувчини телефонни бошқа шахсга ўтказиш орқали қалбакилаштиришни истисно этмайди, лекин фойдаланувчи номи ва паролни узатишга қараганда анча қулайроқ, айниқса талабаларнинг турли жойларида.

Мобил иловалардан фойдаланишнинг камчиликларига қуйидагилар киради:

-дастурни олдиндан ўрнатиш зарурати;

-ўқув курси материалларини ўзгартирганда телефонда дастурий таъминотни ўз вақтида янгилаш зарурлиги;

- веб-сайт билан таққослаганда яратилишнинг катта мураккаблиги (нафақат Андроид ва IOS учун версиялар яратиш, балки қурилмалар экранларининг ҳар-хил ҳусусиятларини ва мобил операцион тизимларнинг турли хил версияларининг ҳусусиятларини ҳам ҳисобга олиш керак).

Ҳам веб-сайтнинг, ҳам мобил илованинг умумий камчилиги бу ўқитувчининг (ҳатто виртуал) ҳам ўқув жараёнидан бутунлай четлаштирилишидир. Талаба материални ўзи кўриб чиқади ва жавоб шаклларини тўлдиради. Шу билан бирга, талабанинг ҳам ўз имкониятларини юқори баҳолаши (ўқув материалининг осон бўлимларини тезда кўриб чиқиш, мураккабларини нотўғри тушуниши), шунингдек нотўғри ҳаракатларни ўз вақтида тузатмаган ҳолда ёлғон билимларни шакллантириш мумкин. Шунингдек, мулоқот қобилиятлари йўқолади, жамоада мулоқот қилиш. Экранда анимацион ўқитувчи характерининг киритилиши дастурий таъминот билан ўзаро алоқа жараёнини секинлаштиради ва ҳатто безовта қилади.

Мобил дастур билан таққослаганда мессенжер учун дастурлардан фойдаланиш фойдаланувчи учун анча осонроқ ва олдиндан ўрнатиш ва созлаш босқичларини талаб қилмайди. Ишлатилган дастурлар сонининг кўпайиши фойдаланувчига ҳеч қандай таъсир қилмайди, дастур белгилари телефон экранида жой эгалламайди. Шу билан бирга, мессенжер дастури аллақачон фойдаланувчини идентификациялаш, маълумотларни хавфсиз узатишни таъминлаш, хабарномаларни юбориш учун етарли даражада ривожланган функцияларга эга; ишлаб чиқувчидан доимий ёрдам ва янгиланишлар таъминланади.

Бундан ташқари, фойдаланувчи ва бот ўртасидаги алоқа жараёни диалог форматига эга, бу ўқитувчи билан жонли мулоқот қилиш жараёнига жуда ўхшайди. Бот тўлиқ инсон номига, ёқимли фотосуратга эга бўлиши, алоқа жараёнини диверсификация қилиш, ҳазил элементларидан фойдаланиш имконини берадиган сунъий интеллектга эга бўлиши мумкин.

Мессенжер дастури - бу талабанинг телефони ёки планшетининг ўрнатилган аппарат имкониятларидан осонгина фойдаланиш имконини берадиган Андроид ёки IOS учун дастур.

Ботлардан фойдаланишнинг камчиликлари, худди веб-сайтдаги каби, тармоқ уланишига бўлган эҳтиёждир, аммо бу ҳолда фойдаланувчи ва бот ўртасидаги алоқа жараёни тўлиқ тўхтамайди, чунки барча хабарлар мессенжер дастурининг серверида сақланади. Ушбу афзалликлар савдо-сотиқ, реклама,

фойдаланувчини об-ҳаво, валюта курслари ва бошқа кўплаб соҳалар тўғрисида хабардор қилишда ботлардан кенг фойдаланишга олиб келди.

Афсуски, ботлардан фойдаланиш ҳанузгача тегишли дастурий таъминотнинг етишмаслиги билан чекланган таълим соҳасида кенг қўлланишни топмаган. Ушбу вазиятни яхшилаш учун муаллифлар талабаларни синовдан ўтказиш учун дастурий таъминот ишлаб чиқдилар. Бот ёзиш учун мессенжер дастурини танлашда қуйидагиларни ҳисобга олиш керак:

-мессенжернинг талаба ва ўқув муҳитида тарқалиши;

-хабарчи функционаллиги; ботларни ёзиш учун API мавжудлиги ва ривожланиши.

Изланишларга кўра мессенжерлар орасида етакчилар WhatsApp, Viber ва Telegram, Telegramдан эса асосан 34 ёшгача бўлган ёшлар фойдаланадилар.

WhatsApp ҳозирда дастурчилар учун расмий API тақдим этмаслигини ҳисобга олиб, муаллифлар томонидан телеграм ишчи вариант сифатида танланган.

Рўйхатдан ўтган фойдаланувчига ўқитувчи томонидан белгилаб қўйилган жорий тестни топшириш ёки олдинги тест натижаларини кўриш имконияти берилади.

Ўқитувчи ўтиш учун битта тестни ҳам, бир гуруҳ тестларни ҳам белгилаши мумкин, талаба эса уларнинг ўтиш тартибини танлаш имкониятига эга. Ҳар бир тест саволида ҳам матн, ҳам график маълумотлар бўлиши мумкин.

Ҳар бир жавоб ўқитувчи томонидан белгиланадиган ўзига хос муҳимлик коэффицентига эга бўлиши мумкин, нотўғри жавоблар учун “жарима” салбий коэффицентларига йўл қўйилади. Бизнинг фикримизча, “жарима” коеффицентларининг мавжудлиги жавобларни таҳмин қилиш қобилиятини сезиларли даражада ёмонлаштиради.

Мобил қурилмалар учун дастурий таъминот мослашувчан веб-сайт, мобил дастур, мессенжер иловаси технологияларига асосланган бўлиши мумкин.

Тезкор хабарчилар учун дастурлардан фойдаланиш фойдаланувчи ишини юқори функционаллик ва ишлаб чиқилган дастурий таъминотнинг хавфсизлиги билан соддалаштиришга, ўқувчиларга қизиқишни оширишга имкон беради, бу телеграм мессенжерида талабаларни синовдан ўтказиш учун муаллифлар томонидан ишлаб чиқилган бот ёрдамида ва университет билан талаба ўртасида доимий алоқани сақлашга имкон беради.

ЭЛЕКТРОНИКА ВА РАДИОТЕХНИКА КАФЕДРАСИДА “ТИЗИМЛАР ВА СИГНАЛЛАРНИ ҚАЙТА ИШЛАШ” ФАНИНИ ЎҚИТИШДА МАСОФАВИЙ ТАЪЛИМ ЖАРАЁНЛАРИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ

Шоюсупова Х.Х., Сабирова У.Ш. ТАТУ

Талаба бугунги глобаллашув жараёнида янги информация олишнинг тезкор усулларидан фойдаланади. Унинг вақт тақсимоти, кундалик режаси бузилмайди. У ўзига қулай вақтда кириб, мавзуларни ўзлаштириши, вазифа ва топшириқларни олиши, уларни бажариши ва баҳоланиш имкониятлари кенгаяди. Энг муҳими, бу таълим ёшларни фикрлашга, мустақил ишлаш, изланишга ўргатади.

Масофавий ўқитишда турли хил ахборот ва коммуникация технологияларидан фойдаланилади. Масалан, анъанавий босма усулига асосланган ўқитиш воситалари (ўқув қўлланма, дарсликлар) талабаларни янги материал билан таништиришга асосланса, интерактив аудио ва видео конференциялар маълум вақт орасида ўзаро мулоқотда бўлишга, электрон почта тўғри ва тескари алоқа ўрнатишга, яъни хабарларни жўнатиш ва қабул қилишга мўлжалланган. Олдиндан тасмага муҳрланган видеомаърузалар таълим олувчиларга маърузаларни тинглаш ва кўриш имконини берса, факсимал алоқа, хабарлар, топшириқларни тармоқ орқали тезкор алмашиниш таълим олувчиларга ўзаро тескари алоқа орқали ўқитиш имконини беради.

Масофавий таълимда ўқитувчи ва ўқувчи муносабати бевосита алоқа воситалари, Интернет орқали (онлайн шаклда) амалга оширилади. Шу боисдан ҳам масофавий таълим жараёнини ташкил этишнинг асосий қисмини талаба керакли таълим дастурини ўзлаштиришда мустақил амалга оширади ва бунда ўқитувчи зарур ўқув материаллари билан таъминлайди ҳамда йўналиш беради. Масофавий таълимда техник йўналишлар учун амалий ва лаборатория машғулотларини ташкил этишда баъзи муаммолар мавжуд, масалан: ўлчов қурилмалари, лаборатория жиҳозлари орқали таълим жараёни ташкил этилади, бу эса масофавий таълимда машғулотларни ташкил этишда катта қийинчиликлар келтириб чиқаради.

Электроника ва радиотехника кафедрасида “Тизимлар ва сигналларни қайта ишлаш” фани Телекоммуникация технологиялари (Телекоммуникациялар, Телерадиоэшиттириш, Мобил тизимлар) йўналишларида таҳсил олаётган талабаларга 5 семестерда ўқитиладиган фан

ҳисобланади. Ушбу фаннинг назарий консепциялари асосан ўрганиладиган барча консепцияларга эришиш учун секин-аста мураккаблашиб борадиган машқ ва лаборатория ишларини бажариш орқали ўрганилади.

“Тизимлар ва сигналларни қайта ишлаш” фани асосий мавзуларидан иборат бўлиб, телекоммуникация ва алоқа тизимлари соҳасидаги билимларни олиш учун илмий асосланган бўлиб, буюк келажакни қурувчи баркамол авлодни тарбиялашга қаратилган.

Талабаларнинг “Тизимлар ва сигналларни қайта ишлаш” фанини ўзлаштиришлари учун ўқитишнинг замонавий усулларидан фойдаланиш, янги ахборот-технологиялари мултимедиа, виртуал лаборатория ишлари асосида тузилган интерактив ўлчаш асбоблари, ва педагогик технологияларни тадбиқ қилиш муҳим аҳамиятга эгадир. Фанни ўзлаштиришда дарслик, ўқув ва услубий қўлланмалар, маъруза матнлари, ўқув-услубий мажмуаси, электрон материаллар, виртуал стендлар ва макетлардан фойдаланилади.

“Тизимлар ва сигналларни қайта ишлаш” фанидан семестрда бир марта оралиқ назорати ўтказиш тавсия этилади. Бундан ташқари, семестр охирида якуний назорат ўтказилади. Оралиқ назорат ўтказиш шакли кафедра томонидан, якуний назорат ўтказиш шарти университет раҳбарияти томонидан қабул қилинади.

Масофавий таълим жараёнини ташкил этишда қуйидаги таклифларни келтириш мумкин:

1. Фаннинг ўқув дастури меъёрий ҳужжат сифатида Олий таълим муассасаларида таълим фаолиятининг асоси бўлиб ҳисобланади, унда ўқув фанлари бўйича талабалар томонидан ўзлаштириладиган асосий билим, зарурий кўникма ва малакалар назарда тутилади. Фаннинг ўқув дастурини ишлаб чиқишда масофавий таълим жараёнларини ҳам ҳисобга олиниши мақсадга мувофиқ бўлади.

2. Масофавий таълимда “Тизимлар ва сигналларни қайта ишлаш” фанидан лаборатория машғулотларини ташкил этишда янги ўқув адабиётлари, ўқув-услубий кўрсатмалар ва аудио-видео дарслар яратиш орқали талабаларни фан юзасидан керакли материаллар билан таъминлаш лозим.

3. Масофавий таълим тизимини яратишда дунёда масофавий таълим бўйича фаолият олиб бораётган етакчи олий таълим муассасалари фаолиятини таҳлил қилиш орқали сифатли ва қулай тизимни яратиш лозим.

4. Олий таълим муассасаларида “Тизимлар ва сигналларни қайта ишлаш” фанини масофавий таълим жараёнида инновацион таълим технологияларини кенг жорий этиш учун таълим муассасаларида фаолият олиб бораётган

профессор-ўқитувчиларга инновацион таълим технологияларини оптимал қўллаш масалалари бўйича ўз соҳасини етук мутахассисларини жалб этган ҳолда махсус семинар тренинглар ташкил этиш лозим.

ОСОБЕННОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МОБИЛЬНЫХ СРЕДСТВ В СОВРЕМЕННЫХ УСЛОВИЯХ ОБУЧЕНИЯ

Ни Э.В., Алимджанов Х.Ф. ТУИТ

Высшее образование испытывает те же сложности и проблемы в сфере образования в целом из-за пандемии. Во всем мире стараются минимизировать потери в сфере образования, принимается ряд шагов, которые направлены на стабилизацию ситуации, с использованием альтернативных форм обучения главным из которых является дистанционное обучение школьников и студентов. На сегодняшний день, как показывает обзор литературных источников, используются как гибридное, так и смешанное обучение и чисто онлайн-обучение считаются онлайн-обучением. Чисто онлайн-курсы - это курсы, которые проводятся полностью через Интернет, а гибридное или смешанное обучение сочетает в себе традиционные персональные занятия, обучение через Интернет и обучение, поддерживаемое другими технологиями (Bliuc, Goodyear и Ellis, 2007; Hoic-Bozic, Mornar, & Boticki, 2009; Osguthorpe & Graham, 2003).

Центральное значение для этой конкретной выгоды - по сути, к большинству предполагаемых преимуществ онлайн-обучения - это эффективность онлайн-формата в обучении студентов. Онлайн-обучение обычно менее эффективно, чем обычный формат «лицом к лицу». В этом и заключается суть проблемы, фундаментальная проблема онлайн-обучения: эффективность онлайн-формата в обучении студентов по сравнению с традиционным форматом. Для решения этой проблемы будут рассмотрены положительные, отрицательные и смешанные и нулевые результаты эффективности онлайн-обучения по сравнению с традиционным форматом.

Одним из недавних и значительных изменений в среде обучения стала потребность в мобильности. Мобильное обучение - это та точка, в которой пересекаются мобильные компьютерные среды и электронное обучение, образуя в результате практику обучения в любое время, в любом месте. Ниже приводится предлагаемая структура для мобильного обучения. Мобильные

учащиеся могут работать совместно с преподавателями и другими учащимися, с тем, чтобы учиться лучше. При мобильном обучении учебные материалы могут предоставляться быстрым и экономичным способом в мультимедийном формате.

Результаты многих исследований показывают, что по большей части обучающихся знакомы только с игровой стороной компьютерной жизни. При этом факты использования мобильных приложений, смартфона и других мобильных устройств для получения дополнительных знаний в сфере образовательной мотивации отсутствуют.

Стоит отметить, что во внедрении в образовательный процесс мобильных средств обучения есть как преимущества, так и недостатки (Таб. 1-2).

Таблица 1.

Преимущества мобильных средств обучения

Мобильность	Современные гаджеты дают возможность организовать и оптимизировать учебный процесс вне зависимости от места и времени.
Персонализация обучения.	Мобильные приложения предоставляют обучающему самостоятельно выбирать содержимое определенных курсов, уровень сложности и прочий контент.
Улучшение качеств коммуникации.	Мобильные устройства допускают легкость в выстраивании быстрого и качественного общения между преподавателем и обучающимся.

Несмотря на плюсы, также имеются определенные недостатки:

Таблица 2

Недостатки мобильных средств обучения

Ухудшение коммуникабельности	с ростом использования мобильных приложений идет спад развития коммуникабельности, так как контакт между учащимся и преподавателем будет минимизирован.
Трудности со входом в интернет	трудности со свободным доступом в интернет в некоторых регионах, необходимым для использования удобной работы приложений на гаджетах.
Финансовые затраты	капитальные финансовые затраты на запуск качественного мобильного приложения.
Требуются навыки	при неумении работать с техническим устройством могут возникать прочие трудности в изучении материала, а также в его усвоении.
Потеря концентрации	потеря концентрации при чтении объемных текстовых отрывков, которые отсутствуют в ряде мобильных приложений.

В заключении можно отметить, что для подготовки специалистов разных направлений отсутствует унифицированная модель обучения, что говорит о необходимости рассмотрения вопросов использования дистанционных и смешанных форм обучения применительно к каждой специальности в контексте учебной программы студента профильного ВУЗа. Вместе с тем использование мобильных средств доступа к информации в настоящее время является преимущественным применительно к различным формам обучения.

ОБЕСПЕЧЕНИЕ ГАРАНТИИ КАЧЕСТВА ЭЛЕКТРОННЫХ ОЦЕНОК НА ПЛАТФОРМАХ ДИСТАНЦИОННОГО ОБУЧЕНИЯ

Самаров Х.К., Давлатов М-У.В. ТУИТ

Электронное оценивание является неотъемлемой частью платформ дистанционного обучения, и их следует контролировать, чтобы гарантировать качество обучения.

Электронное оценивание - это итоговое и формирующее электронное оценивание, которое заменяет письменный тест, и проводится в контролируемой среде соответствующим образом удостоверенным студентом. Контролируемая среда гарантирует, что все кандидаты на оценку имеют равные возможности при сдачи экзамена, это означает, что ни один студент не имеет преимущества перед другим.

Электронная оценка имеет две категории безопасности:

• Интернет-безопасность

• Безопасность электронного оценивания

Веб-безопасность - это область, которая подверглась обширным исследованиям и включает в себя защиту безопасности серверов, на которых выполняются веб-приложения, и самих приложений. К сожалению, этого недостаточно, чтобы гарантировать безопасность электронной оценки. При электронном оценивании необходимо обеспечить, чтобы меры, изложенные ниже, применялись к системе электронного обучения, чтобы гарантировать, что оценка теста является справедливым, для этого необходимо обеспечить:

• Подлинность человека, проходящего тест;

• объективность электронной оценки (для предотвращения электронной коррупции);

• Электронная оценка проводится в правильном / контролируемой среде;

• Проверка видимости, предотвращающая копирование (как первый шаг в электронном мошенничестве);

• Конфиденциальность;

• Безопасность клиентского и серверного программного обеспечения;

• Недопустимость отказа в подаче электронных оценок.

Как лучшее решение, наиболее подходящий метод - очистить все документы на клиентском компьютере и изолировать Интернет-соединение от сервера электронного экзамена.

Важно убедиться, что тест проводится в правильном месте. Системы электронного обучения полагаются на среду связи, которая соединяет все компьютеры, чтобы они могли получить доступ к Интранету и Интернету. К сожалению, это означает, что веб-клиенты могут также получить доступ к другим службам, а не только к серверу электронного обучения, показанному на рисунке 1.



Рисунок 1. Контролируемая и неконтролируемая среда с рандомизацией вопросов.

Замонавий ахборот ва коммуникация технологиялари воситаларини таълим жараёнига кириб келиши анъанавий ўқитиш усулларига қўшимча равишда янги ўқитиш шакли - масофавий ўқитиш яратилишига омил бўлди.

Масофавий таълимда таълим олувчи ва ўқитувчи фазовий бир-биридан ажралган ҳолда ўзаро махсус яратилган ўқув курслари, назорат шакллари, электрон алоқа ва интернетнинг бошқа технологиялари ёрдамида доимий мулоқотда бўладилар. Интернет технологиясини қўллашга асосланган масофавий ўқитиш жаҳон ахборот таълим тармоғига кириш имконини беради.

Масофавий ўқитиш барча таълим олиш истаги бўлганларга ўз малакасини узлуксиз ошириш имконини яратади. Бундай ўқитиш жараёнида таълим олувчи интерактив режмда қўшимча ахборот хавфсизлигига оид замонавий дастурий таъминотлар билан мустақил ишлаш ва уларга оид ўқув-услубий материалларни ўқитувчининг бевосита раҳбарлигида ўзлаштиради, назорат қилинади ва гуруҳдаги бошқа «вертуал ўқув гуруҳи» таълим олувчилари билан муҳокама қилиш имконини беради.

Масофавий ўқитишда турли хил ахборот ва коммуникация технологияларидан фойдаланиш давомида замонавий ахборот хавфсизлигини таъминлашдаги стандартлар, дастурий ва аппарат воситалар ҳақида назарий ва амалий(вертуал) ўрганиш амалиётига эга бўлади. Масалан, анъанавий босма усулига асосланган ўқитиш воситалари (ўқув қўлланма, дарсликлар) талабаларни янги материал билан таништиришга асосланса, интерактив аудио ва видео конференциялар маълум вақт орасида ўзаро мулоқотда бўлишга,

электрон почта тўғри ва тескари алоқа ўрнатишга, яъни хабарларни жўнатиш ва қабул қилишга мўлжалланган. Олдиндан тасмага муҳрланган видео маърузалар таълим олувчиларга маърузаларни тинглаш ва кўриш имконини берса, факсимал алоқа, хабарлар, топшириқларни тармоқ орқали тезкор алмашиниш таълим олувчиларга ўзаро тескари алоқа орқали ўқитиш имконини беради.
Юқоридагиларга асосланиб, таълим жараёнига оид айрим терминлар тавсифи ва таърифларни келтириб ўтамиз.
Масофавий таълим - масофавий ўқитишга асосланган таълим.

Масофавий ўқитиш - ўзаро маълум бир масофада Интернет технология ёки бошқа интерактив усуллар ва барча ўқув жараёнлари компонентлари - мақсад, мазмун, метод, ташкилий шакллар ва ўқитиш усулларига асосланган таълим олувчи ва ўқитувчи ўртасидаги муносабат.

Масофавий ўқитиш тизими - масофавий ўқитиш шартлари асосида ташкил этиладиган ўқитиш тизими. Барча таълим тизимлари сингари масофавий ўқитиш тизими ўзининг таркибий мақсади, мазмуни, усуллари, воситалари ва ташкилий шаклларига эга.

Масофавий ўқитишнинг педагогик технологиялари - танланган ўқитиш концепциясига асосланган масофавий таълимнинг ўқув-тарбиявий жараёнини таъминловчи ўқитиш методи ва услублар мажмуаси.

Бугунги кунга келиб айнан пандемия шароитида Ўзбекистонда ҳам кўплаб ташкилот ва муассасалар шу жумладан олий ўқув юртлари ҳам бевосита масофавий таълим тизимига ўтди. Шу вақтгача бир қанча масофавий дарс платформалари мавжуд эди, булар – Моодле, смс, ва ҳоказоларни келтириш мумкин. Юқоридаги платформалардан фойдаланиш давомида ҳозирги кунда ахборот махфийлигини, бутунлигини, фойдаланувчанлигини таъминлашда қўлланиладиган энг сўнги дастурий ва аппарат воситаларда (вертуал) ишлаш кўникмаларини шакллантиради.

Дарс жараёнлари онлине тарзда онлине вебинарлар, зоом платформаси орқали амалга оширилиб келинмоқда.

Умуман олганда масофавий таълим тизими ҳақида шуни айтиш мумкин ҳозирги пандемия даврида таълим беришда ахборот коммуникация технологияларидан фойдаланиш ҳар тамонлама фойдали ҳисобланади. Айнан киберхавфсизлик асосларини фанини ўрганишда юқорида келтириб ўтилган масофавий ўқитиш платформаларидан фойдаланган ҳолда ўрганиш уларнинг базаларида жойлаштирилган манбалар содда ва тўлиқ қилиб бойитилиб борилади ва фанни ўзлаштиришда яхши самара беради.

АХБОРОТ ХАВФСИЗЛИГИ СОҲАСИДА ЁШ МУТАХАССИСЛАРНИ ТАЙЁРЛАШ МУАММОЛАРИ

Усманбаев Д.Ш., ТАТУ

Ахборот технологиялари соҳаси доимий равишда малакали кадрлар - ишлаб чиқувчилар, синовчилар, ахборот хавфсизлиги бўйича мутахассисларнинг етишмовчилигини бошдан кечирмоқда. Тадқиқотларга кўра, компанияларнинг тахминан 45 фоизида киберхавфсизлик бўйича мутахассислар етишмаслиги аниқланмоқда. Бу замонавий ташкилотлар, ҳам ҳукумат, ҳам тижоратга қарши киберҳужумларнинг жабҳасини кенгайтириш шароитида юзага келган тизимли муаммо ҳисобланади. Ушбу мақолада биз ахборот хавфсизлиги соҳасида кадрлар етишмаслиги сабабларини ва ушбу муаммони ҳал қилишнинг имкониятларини кўриб чиқамиз.

Кадрлар етишмаслиги масаласи ҳам бизнес учун, ҳам давлат идоралари учун долзарбдир. Тижорат компанияларига келсак, сўров натижаларига кўра 27% кичик ва ўрта ташкилотларнинг штатида ушбу соҳанинг мутахассислари йўқ. 500 нафар ходимга эга бўлган компанияларнинг ярмидан кўпида ахборот хавфсизлиги хизматчиси беш кишидан ошмайди. Шу билан бирга, сўровда қатнашган компанияларнинг атиги 20% аутсорсингдан фойдаланади, 67% эса мустақил ахборот хавфсизлиги мутахассисларидан фойдаланмайди. Сўров ўтказилган компанияларнинг 81% ахборот хавфсизлиги бўйича ходимлар етишмовчилигининг кўпайишини тахмин қилмоқдалар. Фақат 16% компаниялар ушбу талаб бир неча йил ичида қондирилади, деб ишонишади.
Таълим муассасасида ўқитишнинг мураккаблиги ахборот хавфсизлиги бўйича мутахассислар етишмаслигининг асосий сабабларидан биридир. Ахборот хавфсизлиги мутахассислиги бўйича ўқиётган талаба компания ёки давлат ташкилотини ҳимоя қилиш учун ишлатиладиган кўплаб турли хил технологияларни ўзлаштириши керак ва бу жуда қийин, чунки ўқув муассасаси ҳар доим ҳам керакли асбоб-ускуналар ва дастурий таъминотни сотиб олиш имконига эга эмас, чунки уларнинг кўпчилигининг буджети чекланган.

Бундан ташқари, нашр этилган ахборот хавфсизлиги бўйича яхши ўқув техник адабиётлари кам. Таълим, аввало, ўқитувчи ва талаба ўртасидаги ўзаро муносабатларнинг икки томонлама жараёнидир. Улар қандайдир маълумот базасига таяниши керак. Аммо китоблар ва қўлланмаларда материал тақдимоти аста-секин соддалаштирилади, улар энг оддий саволлар ва мавзулар билан

шуғулланади. Амалиётга жуда кам аҳамият берилади: кўп ҳолларда назарий машғулотлар жараёнида амалий мисоллар мавжуд эмас.

Бундан ташқари яна бир муаммо пайдо бўлади. Ҳақиқат шундаки, яхши ахборот хавфсизлиги ўқитувчиси ўз соҳасининг мутахассиси бўлиши керак, бу аксиома. Аммо нима учун бундай мутахассис ўқитувчи бўлиши керак, чунки корхонада у кўпгина университетлар ёки коллежларга қараганда анча кўп нарсаларни олиши мумкин. Маълум бўлишича, жуда кам сонли ахборот хавфсизлиги бўйича мутахассислар таълим муассасаларига ишлаш учун боришади. Натижада талабаларни тайёрлаш сифати ёмонлашади.

Таълим муассасаларида ўқитиш даражаси ўқитувчиларга муносиб меҳнат шароитлари (иш ҳақи, моддий-техника базаси ва бошқа манбалар) билан таъминланган коллеж ва университетларда мутахассисларни тайёрлаш сифати юқори деб аташ мумкин. Аммо бундай таълим муассасалари жуда кам, шунинг учун ҳам ахборот хавфсизлиги мутахассислиги битирувчиларининг ҳаммаси ҳам ишлаш учун зарур бўлган маълумотларга эга эмаслар.

Яна бир муаммо шундаки, киберхавфсизлик ҳар доим мавжуд асосга кўра ўзига хос «устқурилиш» дир ва бу таълим муассасаси учун ҳам амал қилади. Масалан, «Тармоқ хавфсизлиги» йўналиши.

Ушбу соҳадаги муаммоларни профессионал даражада ҳал қилиш учун сиз тармоқ технологиялари ҳақида аниқ маълумотга эга бўлишингиз керак: тармоқ қандай ишлайди, қандай маълумотларни узатиш протоколлари мавжуд, тажовузкор қандай заифликлардан фойдаланиши мумкин ва ҳоказо. Киберхавфсизликка кириш чегараси кўп жиҳатдан маълум технологияларнинг ишлаши ва уларни бошқариш тамойиллари ҳақидаги мавжуд билимларга боғлиқ.

Агар коллеж ёки университетда ахборот хавфсизлиги бўйича мутахассисларни тайёрлаш тизимини яратишга имкон берадиган техник база мавжуд бўлса, унда ҳеч қандай муаммо бўлмайди. Масалан, ахборот хавфсизлигида Линух операцион тизими ёрдамида жуда кўп ишлар амалга оширилади, шунинг учун таълим муассасасида ушбу соҳада жиддий мутахассис бўлиши керак. Агар бундай мутахассис бўлмаса, унда кадрлар тайёрлаш сифати юқори бўлишини кутишнинг ҳожати йўқ.

Энг талабгор мутахассисликлар Дунё бозорида энг кам хавфсизлик муҳандислари - киберхавфсизлик воситаларини лойиҳалаш, амалга ошириш ва созлаш бўйича мутахассислардир.

Иккинчи ўринда кибержиноятчиларнинг воситалари, потенциали ва мавжуд ҳужумларини ўрганадиган таҳлилчилар жойлашган.

Учинчи позицияни виртуал майдонда давлат ташкилотлари ва тижорат компаниялари чегараларини ҳимоя қиладиган техник маъмурлар эгаллайди.

Мутахассисларининг талабини қондириш муаммосининг ечим ва усуллари ушбу соҳада кадрлар етишмаслигини камайтириш билан бирга, киберхавфсизлик соҳасида мутахассисларни тайёрлаш даражасини яхшилашнинг бир неча йўли мавжуд:

1. Давлат томонидан кўриладиган чоралар.

Турли таълим муассасаларида киберхавфсизлик бўйича мутахассисларни тайёрлаш устидан назоратни кучайтириш лозим. Масалан, жорий қилинадиган ёки аллақачон киритилган моддий-техник базани ва янги дастурларни баҳолаш. Агар таълим муассасаси юқори технологиялар билан заиф боғланган бўлса, ушбу таълим муассасасини жуда яхши ўқитилган мутахассислар битирмайди. Университетлар ва коллежларнинг ўзида ҳам жуда юқори моддий-техник база бўлмаса, ўқув жараёнининг сифатини оширишга имкони етмайди.

2. Бизнес ва таълим муассасалари томонидан олиб бориладиган чора-тадбирлар.

Университетлар ахборот хавфсизлиги муаммолари ва шу билан боғлиқ муаммоларни ҳал қиладиган юқори технологияли компаниялар билан ҳамкорлик қилишлари керак. Ҳозирги даврда Гоогле, Маил.ру Гроуп, Яндех, Оранге ва бошқа компаниялар турли университетлардан талабаларни амалиёт ўташга таклиф қилмоқда. Бу ахборот хавфсизлиги билан боғлиқ бўлган бизнесга оид вазифаларини бажаришдан иборат бўлиб, талабалар нафақат назарий, балки амалий машғулотлар ҳам олишади.

3. Таълим муассасалари ва онлайн курслар томонидан олиб бориладиган чора-тадбирлар.

Фақатгина давлат, ўқув муассасалари, бизнес ва онлайн университетларнинг биргаликдаги саъй-ҳаракатлари ахборот хавфсизлиги соҳасида таълим сифатини яхшилайди ва бозор эҳтиёжлари ва мавжуд мутахассислар ўртасидаги фарқни камайтиради. Чунки мутахассисларнинг фикрига кўра, агар вазият ҳозирда тузатилмаса, унда 2024 йилга келиб жаҳон бозорида ИТ-мутахассисларнинг умумий етишмаслиги 200 миллион кишига этади.

Офлайн таълим ва онлайн таълим бир-бирига яқинлашмоқда ва онлайн форматда янада мослашувчанлик имконияти мавжуд. Бунинг учун коллеж ёки университет кўпроқ вақт талаб қилади. Олий таълим ва амалий ҳолатлар билан бирлаштирилганда талабалар учун энг мақбул замонавий ўқув режими - аралаш режимдир.

Ушбу йўналишда ижобий тенденция мавжуд. Ҳар бир инсон жуда яхши тушунади, агар сиз илғор тажрибани таълим жараёнига киритмасангиз, у ҳолда кадрлар тайёрлаш сифати ўсмайди ва фақат амалиётчи ўқитувчи илғор тажрибани амалга ошириши мумкин, шунинг учун мутахассисларни тайёрлаш сифати охир-оқибат унинг билимлари, кўникмалари ва қобилиятлари даражасига боғлиқ бўлади.

ПРОБЛЕМЫ ПОДГОТОВКИ СПЕЦИАЛИСТОВ В СФЕРЕ ИНФОРМАЦИОННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ

Зайналов Н.Р., Самаркандский филиал ТУИТ,
Мавлонов О.Н., Тухтамуродов Н., СамГУ

Вопрос обеспечения информационной безопасности очень сложный, требует больших затрат времени, сил, финансов. При этом, не существует какого-то одного универсального решения, которое обеспечит полную защиту от всех информационных бед. Но, тем не менее, используя комплексный подход можно достичь высоких положительных результатов в информационной безопасности (ИБ). И здесь возникает проблема подготовки кадров в этой сфере.

В сфере ИБ проблема профессионального становления в процессе обучения становится все более актуальной. Однако большинство выпускников этого направления образования зачастую не готово к практической работе в постоянно меняющихся условиях. Методика обучения в области ИБ характеризуется устойчивым сохранением сложившихся традиционных подходов к обучению. Такой подход ориентирован на информационном построение образовательного процесса и передачу теоретических знаний и умений, что не может обеспечить у обучающего целостных представлений о сфере его профессиональной самореализации. Возникает необходимость формирование профессиональной мотивации будущих специалистов с целью выработки у них способности преобразовывать свои знания и опыт таким образом, чтобы решить более успешно любые профессиональные задачи.

Важнее место в интенсификации процесса обучения специалиста в вузе должно занять использование методов активной подготовки, хорошо зарекомендовавщих себя при обучении специалистов во многих вузах.

Подготовка специалиста в области ИБ является планомерно организованной деятельностью преподавателей и студентов, направленной на овладение обучаемыми знаниями, умениями самостоятельно анализировать инциденты ИБ и находить решения.

Вопрос информационной безопасности сегодня весьма остро стоит во всем мире. Нельзя сказать, что какие-то компании не подвержены атакам, а другие подвержены. Как показывает практика и статистика, на сегодняшний день все компании, особенно крупные, финансовый сектор и госучреждения, к сожалению, подвержены риску быть атакованными. Атаки могут происходить абсолютно из любой страны, из любой точки мира. Цели могут преследоваться самые разные: финансовые, идеологические, политические, репутационные, которые в итоге приводят к потере информации, финансов, имиджа. Всё это требует в наши дни особого подхода к обеспечению информационной безопасности и подготовки соответствующих кадров по ИБ.

Стремительное развитие информационно-коммуникационных технологий (ИКТ) в нашей стране обусловлено государственной поддержкой, что позволяет уверенно входит в мировое информационное сообщество. В прошедшем 2018-2019 годах в области ИКТ проделан огромный объем работ, которые обусловлены Указом Президента Республики Узбекистан от 19 февраля 2018 года УП 5349 « О мерах по дальнейшему совершенствованию сферы информационных технологий и коммуникаций», где определены основные задачи и приоритетные задачи деятельности в сфере ИКТ.

В последние годы в стране ведется системная работа по повышению качества и эффективности системы образования и воспитания, формированию современных знаний и навыков у студентов, обеспечению взаимного тесного сотрудничества и интеграции систем образования и сферы науки, преемственности и непрерывности образования.

Наряду с этим современное состояние национальной системы образования и воспитания требует реализации последовательных мер для ее модернизации на основе современных требований, воспитания молодежи в качестве духовно богатых и физически развитых личностей, обладающих высокими знаниями и духовностью, повышения авторитета руководителей и преподавателей образовательных учреждений, создания условий, необходимых для осуществления ими эффективной деятельности. Так, Указ Президента Республики Узбекистан № УП-6108 «О мерах по развитию сфер образования и воспитания, и науки в новый период развития Узбекистана» от 6 ноября 2020 года предусматривает в целях совершенствования сфер образования,

воспитания и науки страны, дальнейшего повышения уважения к учителям и педагогическим работникам, научной и творческой интеллигенции в обществе, развития профессионального мастерства студентов, а также расширения участия в системе образования частного сектора. И основным направлением считается подготовку кадров нового поколения, обладающих высоким интеллектуальным и духовным потенциалом, способных выйти на арену, реализовать свои новые инициативы и идеи ради прогресса страны, а также формирование навыков и знаний, необходимых для овладения современными профессиями выпускниками образовательных учреждений. И в тандеме с этим Постановление Президента Республики Узбекистан «О мерах по развитию сфер образования и воспитания, и науки в новый период развития Узбекистана» от 6 ноября 2020 года № УП-6108 была разработана и принята Постановление Президента Республики Узбекистан № ПП-4884 от 6 ноября 2020 года «О дополнительных мерах по дальнейшему совершенствованию системы образования и воспитания», которая направлена, в том числе, на разработку и внедрения в практику модулей педагогической подготовки для студентов непедагогических направлений образования бакалавриата высших образовательных учреждений.

Имеющиеся проблемы по содержанию этого направления должны быть немедленно решены таким образом, чтобы учебный процесс стал наиболее оптимальным. Какие эти проблемы:

- Отсутствие необходимого оборудования.
- Отсутствие необходимого программного обеспечения.
- Отсутствие методических пособий для проведения занятий.
- Отсутствие культуры проведения занятий по ИБ.
- Закрытость данной тематики.
- Насколько необходимо обучение программированию?
- Насколько стыкуется школьная и вузовская информатика?
- Совершенствование учебных программ.

Рассмотрим эти проблемы.

Надо учитывать, что обязанностью педагога является не только учить, но и научить, и что последнее всегда возможно по отношению к информатике. Изучение технического и программного обеспечения не требует больших умственных напряжений. Изучение этих разделов ИБ является не самоцелью, а неизбежной необходимостью, обусловленный тем, что техническое и программное обеспечение играют большую роль в освоении своей будущей специальности. Студенты хотят за короткий промежуток времени получить

довольно высокий уровень квалификации. Но этого нельзя сделать в области информационной безопасности. Так как в этой области необходимы знания многих прикладных наук. Поэтому необходимо постоянное обновление технического и программного обеспечения. При этом нужно учитывать, что лекция должна быть направлена на то, чтобы изложенный материал помогал студентам ориентироваться в современных тенденциях развития информационной безопасности. А методические пособия необходимы для освоения конкретной методики защиты информационной системы.

Таким образом, происходящие изменения в развитии программного обеспечения и увеличения уязвимостей ставят новые требования, предъявляемые в настоящее время к выпускникам высших учебных заведений, которые сводятся к необходимости усиления целенаправленного обучения в области ИБ.

“ФРАКТАЛЛАР НАЗАРИЯСИ ВА ФРАКТАЛ ГРАФИКА” ФАНИНИ ЎҚИТИШДА КЕЙС-СТАДИ УСУЛЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ

Анарова Ш.А., Қаюмова Г.А., Миргазиев Ж.У., ТАТУ

Кейс усули мавжуд назарий билимлар ва амалий тажрибаларни таҳлил қилиш, таққослаш орқали муаммони ҳал этиш йўлларини топишга, билимларни мустаҳкамлаш, такрорлаш, баҳолашга, мустақил, танқидий фикрлашни, ностандарт тафаккурни шакллантиришга хизмат қилади. *RFM (Рвачев функцияси) конструктив усули ёрдамида фракталларнинг тенгламаларини қуриш* номли мавзуни талабаларга ўргатишда усулни қўллаш.

Кейснинг мақсади.

1. Кейснинг таълимий мақсади. RFM (Рвачев функцияси) конструктив усули ёрдамида фракталларнинг тенгламаларини қуриш.

Режалаштирилган ўқув натижалари: Талабалар *RFM* (Рвачев функцияси) конструктив усули ёрдамида фракталларнинг тенгламаларини қуриш ва шу каби масалаларга фракталлар назарияси бўйича масалаларини қўллашни ўрганадилар.

2. Талабалар кейсни муваффақиятли ечишлари учун қуйидаги таянч билим ва кўникмаларга эга бўлишлари лозим: информатика, олий математика,

математик дастурлаш, математик моделлаштириш эга бўлишлари керак, объектни математик таълил қилиш ва математик моделни ишлаб чиқиш, компьютер, амалий дастурларнинг функционал имкониятларини билиши лозим, чизиқли программалаштириш масаласини билишилари керак, оддий масаладан мураккаб масалага ўтишни, *RFM* (Рвачев функцияси) масаланинг қўйилишини ва уни турлай олишни билишлари керак.

3. Кейснинг типологик белгилари: Кейс обоекти: математик формула ёки компьютер графикаси. Кейс қисқа, структуралашган. Ўқув топшириқ кейс-топшириқ ёрдамида тасвирланади. Кейснинг дидактик мақсади талабаларга *RFM* (Рвачев функцияси) тўърисида умумий тушунча бериш, Унинг имкониятларидан фракталлар яратишда фойдаланишни ўргатишдан иборат.

4. Кейс учун ахборот йиғиш усуллари: мулоқат, адабиётларни ўрганиш.

5. Ахборот йиғиш воситалари: маорузалар, услубий кўрсатмалар, маолумотномалар, меёрий хуқуқий хужжатлар.

Вазиатли топшириқ. Вазият: Конструктив усул ёрдамида фракталларнинг тенгламаларини қуриш учун мавжуд ресурслардан самарали фойдаланиш яъни RFM (Рвачев функцияси) усулдан фойдаланилади. Муаммо шундан иборатка мавжуд ресурслардан фойдаланиб, *RFM* (Рвачев функцияси)дан фойдаланган ҳолда фракталларнинг тенгламаларини қуриш лозим.

Топшириқ: Берилган масала асосида масалани *RFM* (Рвачев функцияси)дан самарали фойдаланган ҳолда фракталларнинг тенгламаларини қуришни оптимал варианти танлансин.

Муҳокама учун саволлар:

1.R-функция усули ҳақиқий ўзгарувчили сонли функция бўлиб, унинг ишоралари тўлиқлигича сонлар ўқи қайси бўлакларида аргументлар ишоралари билан аниқланади.
2.R-функция усули деб нимага айтилади?
3.Фракталларни яратишда R –функция усулининг қандай ахамияти бор.
4.R -функцияда фракталларни яратишга изоҳ келтиринг.
5.Фракталлар халқ хўжалигининг қандай тармоқларида ишлатилади?
6.Фракталлар қандай мақсадларда яратилади?

Талабага услубий кўрсатма ва топшириқ: RFM усули асосида Кох эгри чизиғининг тенгламасини қуришни қараймиз.

Қуришни $-3a \le x \le 3a$ интервалда бажарамиз. У ҳолда:

$$\omega_0 = -y \ge 0; \quad \omega_{00} = \omega_0 \wedge_0 (f_1 \wedge_0 f_2) \ge 0;$$

$$f_1 = \frac{1}{2}\left(x\sqrt{3} - y + a\sqrt{3}\right) \ge 0; \quad f_2 = \frac{1}{2}\left(-x\sqrt{3} - y + a\sqrt{3}\right) \ge 0.$$

бўлади.

Бу ҳолатда ω_{00} тенг ёнли учбурчакнинг тенгламасидир. Агар ω_{00}нинг ўрнига тенгламанинг кўринишини

$$\omega_1 = \omega_0 \vee_0 (f_1 \wedge_0 f_2) \ge 0,$$

деб ёзсак, қуйидаги тенгламани оламиз. Шундай қилиб,

$$\omega_1 = \omega_0 \vee_0 (f_1 \wedge_0 f_2) \ge 0; \quad \omega_{21} = \omega_1\left(3(x+2a), 3y\right) \ge 0;$$

$$\omega_{22} = \omega_1\left(3\left(\frac{x + a/2}{2} + \left(y - \frac{a\sqrt{3}}{2}\right)\frac{\sqrt{3}}{2}\right), \quad 3\left(-(x+a-2)\frac{\sqrt{3}}{2} + \left(y - \frac{a\sqrt{3}}{2}\right)\frac{1}{2}\right) \ge 0;\right.$$

$$\omega_2 = (\omega_{21}(x,y) \vee_0 \omega_{22}(x,y)) \wedge_0 (-x,y) \vee_0 \omega_{22}(-x,y)) \ge 0;$$

$$\omega_{k1} = \omega_{k-1}(3(x+2a), 3y) \ge 0;$$

$$\omega_{k2} = \omega_{k-1}\left(3\left(\frac{x + \alpha/2}{2} + \left(y - \frac{a\sqrt{3}}{2}\right)\frac{\sqrt{3}}{2}\right), 3\left(-(x + a/2)\frac{\sqrt{3}}{2} + \left(y - \frac{a\sqrt{3}}{2}\right)\frac{1}{2}\right)\right) \ge 0;$$

$$\omega_k = \left(\omega_{k1}(x,y) \vee_0 \omega_{k2}(x,y)\right) \wedge_0 \left(\omega_{k1}(-x,y) \vee_0 \omega_{k2}(-x,y)\right) \ge 0 \left(k = 3,4,\ldots\right)$$

ҳосил бўлади.

“Кейс усули” ни амалга ошириш босқичлари ва топшириқлари

Иш босқичлари	*Фаолият шакли ва мазмуни*
1-босқич: Кейс ва унинг ахборот таъминоти билан таништириш	Якка тартибдаги аудио визуал иш; кейс билан танишиш; ахборотни умумлаштириш; ахборот таҳлили; муаммоларни аниқлаш
2-босқич: Кейсни аниқлаштириш ва ўқув топшириғини белгилаш	Индивидуал ва гуруҳларда ишлаш; муаммоларнинг долзарблигини аниқлаш; асосий муаммоли вазиятни белгилаб олиш;

3-босқич: Кейсдаги асосий муаммони таҳлил этиш орқали ўқув топшириғининг ечимини излаш, ҳал этиш йўлларини ишлаб чиқиш.	Индивидуал ва гуруҳларда ишлаш; муқобил ечимларни ишлаб чиқиш; ҳар бир ечимнинг имкониятлари ва тўсиқларини таҳлил қилиш; муқобил ечимларни танлаш;
4-босқич: Кейс ечимини шакллантириш ва асослаш, тақдимот.	Якка ва гуруҳларда ишлаш; муқобил вариантларни амалда қўллаш имкониятларини асослаш; ижодий лойиҳа тақдимотини тайёрлаш; якуний хулоса ва вазият ечимининг амалий аспектларини ёритиш.

Намуна: Фракталларни қуриш усулларини ўрганишда қайси усулдан фойдаланган маъқул.

Фракталларни қуриш усулларини мавзусини ўқитишда интерактив интерактив маъруза ва тестлар яратиш бўйича педогогик технологияларни қўллаш.

SWOT таҳлил методи

S	Фракталларни қуриш усулларидан фойдаланишнинг кучли томонлари	Фракталларни қуриш усулларининг ҳавфсизлиги юқори даражадалиги...
W	Фракталларни қуриш усулларидан фойдаланишнинг кучсиз томонлари	Фракталларни қуриш усуллари-дан амалий пакет воситалари учун мўлжалланмаганлиги...
O	Фракталларни қуриш усулларидан файдаланишнинг имкониятлари (ички) Ахборот тизимидан фойдаланишнинг имкониятлари (ички)	Фракталларни қуриш усуллари-дан компьютер графикасини қуллаб қувватлайди
T	Тўсиқлар (ташқи)	Ишчи компьютерлар учун мўлжалланмаганлиги...

ИНДИВИДУАЛ ЛОЙИҲА ТАЪЛИМИНИ ТАШКИЛ ҚИЛИШДА ЛОЙИҲАВИЙ ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИЯСИДАН ФОЙДАЛАНИШ

Мухамадиев А.Ш., Қаршиева С.Б., Ғоибназарова З.М., ТАТУ

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрдаги ПФ-5847-сонли Фармони билан тасдиқланган “Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш КОНЦЕПЦИЯСИ”даги асосий вазифалар орасида олий маълумотли мутахассислар тайёрлаш сифатини оширишда мустақил таълимни ташкил қилишни такомиллаштириш масаласи ҳам ўрин олган. Унда мустақил таълим соатлари улушини ошириш, талабаларда мустақил таълим олиш, танқидий ва ижодий фикрлаш, тизимли таҳлил қилиш, тадбиркорлик кўникмаларини шакллантириш, ўқув жараёнида компетенцияларни кучайтиришга қаратилган методика ва технологияларни жорий этиш, ўқув жараёнини амалий кўникмаларни шакллантиришга йўналтириш, бу борада ўқув жараёнига халқаро таълим стандартларига асосланган илғор педагогик технологиялар, ўқув дастурлари ва ўқув-услубий материалларни кенг жорий этиш вазифалари белгиланган.

Бугунги кунда университет таълим йўналишлари ўқув режаларида мутахассислик фанлари блогида фанлардан олган билимларини мустақил равишда бирор бир муаммони ҳал қилишда фойдаланиш кўникмаларини ҳосил қилиш учун индивидуал лойиҳа киритилиб, унга маълум юклама соатлари ажратилган. Бу индивидуал лойиҳа педагоглар раҳбарлигида талаба томонидан фанлардан олинган назарий ва амалий билимлари асосида маълум бир муаммони мустақил равишда амалга ошириш. Демак бу мутақил таълимнинг бир тури деб қараш мумкин. Индивидуал лойиҳани ташкил қилишда мустақил таълимни ташкил қилиш усул ва воситаларидан ҳам фойдаланиш мумкинлигини кўрсатади.

Мустақил таълим кўплаб замонавий таълим технологиялари (фаол, интерфаол, муаммоли таълим ва бошқалар) билан таълим жараёнининг ўзвий элементи сифатида ажралиб туради, чунки мустақил таълим фаолияти ўқув маълумотларини қабул қилишдаги бўшлиқларни бартараф этишга имкон беради; мустақил таълим тингловчиларнинг қобилиятларини очиб беради, ўқув мотивациясини рағбатлантиради; ҳаракатлардаги мустақиллик "репродукция" даражасидан билим мезонлари сифатида "кўникмалар" ва "ижодкорлик" даражаларига ўтишга имкон беради.

Талабанинг мустақил таълимини тўғри ташкил этишнинг асосий шартлари қуйидагилардан иборат:

- мустақил таълимни мажбурий режалаштириш;
- ўқув материаллари устида жиддий шуғулланиш;
- таълимнинг тизимлилиги;
- ўз-ўзини назорат.

Мустақил таълимнинги самарадорлигини оширишда педагогик шароитларни яратиш ҳам кам бўлмаган аҳамиятга эга:

1) таълим олувчида ижобий мотивациянинг мавжудлиги;

2) когнитив вазифаларни аниқ баён қилиш ва уларни бажариш йўлларини тушунтириш;

3) ўқитувчи томонидан ҳисобот шаклини, иш ҳажмини, уни топшириш вақтининг муддатини аниқ белгиланиши;

4) баҳолаш мезонлари ва консултатив ёрдам кўринишларининг белгиланиши;

5) талабаларнинг олинган янги билимлари шахсий қадрияти сифатида эканлигини ҳис қилиши.

Мустақил таълим ҳар доим ўқитувчининг моҳирона раҳбарлиги остида бўлган ўқув фаолиятининг самарали туридир. Талабанинг ижодий қобилиятини шакллантириш ўқитувчининг ижодий фаолияти билан яқин алоқада амалга оширилади. Шу муносабат билан талабаларнинг ўрганилаётган мавзуга ижодий муносабатини шакллантириш, билимларни ўзлаштиришга ижодий муносабатни рағбатлантириш ва мустақил равишда ишлаш орқали ушбу билимларни мунтазам равишда тўлдириш жуда муҳимдир.

Ўқитувчининг вазифаси талабанинг ижодий фикрлашига зарур йўналиш бериш, тегишли вазият ва шароитларни яратиш, ижодий изланишни рағбатлантириш, изчил изланишлар, таҳлиллар ва маълум бир муаммони ҳал қилишнинг янги, ўзига хос усулларини излашга туртки беришдир. Тўғри шаклланган мақсад ва вазифалар ижодий фикрлашни ривожлантиришга ёрдам беради.

Шу муносабат билан, лойиҳа усули тобора кўпроқ эътиборни жалб қилмоқда.

Ўрганган нарсаларимнинг барчаси нимага кераклигини ва бу билимларни қаерда ва қандай қўллашим мумкинлигини биламан - бу замонавий билимларни академик билимлар ва прагматик кўникмалар ўртасида оқилона мувозанат топишга интилаётган лойиҳавий таълим технологияларининг тезисидир

Лойиҳа усули талабаларнинг билим қобилиятини ривожлантириш, ўз билимларини мустақил равишда ривожлантириш қобилияти, ахборот маконида ҳаракат қилиш қобилияти, танқидий фикрлашни ривожлантиришга асосланган.

Лойиҳа усулидан фойдаланиш қобилияти ўқитувчининг юқори малакасининг кўрсаткичи, унинг илғор ўқитиш ва ривожлантириш методикаси. Ушбу технологияларни биринчи навбатда постиндустриал жамиятда инсоннинг тез ўзгарувчан ҳаёт шароитларига мослашиш қобилиятини таъминловчи XXI аср технологияларига ишора қилишлари бежиз эмас.

Умуман олганда лойиҳалар устида ишланган қуйидаги олти босқичга эътибор қаратилади:

- тайёрлов босқичи;
- режалаштириш босқичи;
- тадқиқот босқичи;
- хулосалар босқичи;
- тақдимот ёки ҳисоботлар босқичи;
- натижа ва жараёнларни баҳолаш босқичи.

Педагог бу жараёнларда маслаҳатчига айланади ва у қуйидагиларни амалга ошириб боради:

- таълим манбаларини топишда талабага ёрдамлашади;
- ўзи ҳам ахборот манбаъи сифатида гавдаланади;
- талабани қўллаб қувватлайди ва рағбатлантиради;
- бутун жараённи бошқаради ва йўналтиради;
- доимий тескари алоқани таъминлайди.

Бу технологиянинг самарадорлиги қуйидагиларда намаён бўлади:

1) ижодий фикрлаш ривожланади;

2) Ўқитувчининг роли сифат жиҳатидан ўзгариб бормоқда: билим ва тажрибани эгаллаш жараёнида унинг устунлиги четга сурилиб, у нафақат талабани ўргатиши, балки билим олишига ёрдам бериши керак.

3) Тадқиқот фаолияти элементлари киритилади;

4) Таълим олувчининг шахсий фазилатлари шаклланади (гуруҳлилойиҳаларда унинг шахсий ҳиссаси пайдо бўлади, шундан жамоада ишлаш кўникмаси, ечимларни қабул қилишда масъулиятни ўзига олиш хусусияти шаклланади).

МУТАХАССИСЛИК ФАНЛАРДАН ТАЪЛИМНИНГ ЭЛЕКТРОН РЕСУРСЛАРИНИ ЯРАТИШДА ДАСТУРИЙ ВОСИТАЛАРНИ ТАНЛАШ

Мухамадиев А.Ш., Абдуллаев Ю.Ю., ТАТУ

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрдаги ПФ-5847 сонли Фармони билан тасдиқланган “Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш КОНЦЕПЦИЯСИ” Ўзбекистон Республикасида олий таълимни ривожлантиришнинг стратегик мақсадлари, устувор йўналишлари, вазифалари, ўрта ва узоқ муддатли истиқболдаги босқичларини белгилаб берган. Концепциядаги асосий вазифалар орасида олий маълумотли мутахассислар тайёрлаш сифатини ошириш вазифаси долзарб вазифалардан қилиб белгиланган. Бу келтирилган вазифани амалга оширишда индивидуал таълим, мустақил таълим ва ўқув адабиётлари сифатини ошириш ва замонавий таълим ресурслари яратиш масалаларига алоҳида урғу берилган. Шу нуқтаи назардан ушбу мақолада бу уч масалани ҳал қилишга асос бўладиган таълимнинг электрон ресурсларини яратиш ва унда қўлланиладиган дастурий воситаларнинг имкониятлари ҳақида тавсиявий фикрлар келтирилади.

Таълимни ривожлантиришнинг замонавий шарт-шароитлари ўқитиш усулларини ахборот технологияларининг янги имкониятларига мослаштиришни тақозо этмоқда. Хусусан, масофавий ўқитиш ёндашуви, шунингдек, классик кундузги таўлимда электрон ўқитиш воситаларидан фойдаланиш кенг тарқалган. Шунинг учун дастурий таъминот ишлаб чиқувчилари муаллиф-методистга мустақил равишда, дастурчиларнинг ёрдамисиз электрон маъруза ёзувларини, ўқув ва назорат топшириқларини, тестларни, электрон ўқув-услубий мажмуаларни ва бошқаларни яратиш ва тузиш имкониятини берадиган дастурий воситаларни яратишга катта эътибор беришади.

Таълимнинг ахборот ресурсларини яратишда мутахассислик фани педагогидан ўз соҳасидаги маълумотларни педагогик технологиялар асосида ахборот коммуникация технологиялари имкониятларидан фойдаланиб таълим олувчига қулай ва тушинарли ҳолда етказиб бериш вазифаси қўйилади. Бунинг учун эса, электрон таълим ресурслари яратишга мўлжалланган дастурий воситалардан мақсадга мувофиғини танлаб олиш талаб этилади.

Дастурий маҳсулотлар ишлаб чиқариш бозорининг ривожланиши шароитида электрон ресурслар яратиш учун кўплаб дастурий воситалар ишлаб чиқилган. Уларни шартли равишда учта тоифага бўлиш мумкин. Биринчиси,

электрон муҳаррирларни ўз ичига олади. Улар матнни ва бошқа объектларни таҳрирлаш учун жуда кучли. Графика, навигация элементлари ва бошқалар жиҳатидан электрон ресурсни самарали лойиҳалаштиришга имкон берадиган кўплаб андозалар (шаблонлар) мавжудлиги уларни ижобий томони ҳисобланса, электрон муҳаррирларнинг нархлари анча қимматлиги, уларни ўзлаштириш учун кўп вақт кетишлиг ва биринчи навбатда улар компьютерда етарлича кўникмага эга фойдаланувчилар учун мўлжалланганлиги оддий фойдаланувчига муаммолар келтириб чиқаради. Ушбу туркум муҳаррирларга CourseLab, NeoBook Professional Multimedia, DeskTop Author, eBooks Writer, SunRav BookOffice ва бошқаларни киритиш мумкин.

Иккинчи тоифага HTML компиляторлари киради, улар олдиндан тақдим этилган HTML файлларини умумий таркибга бирлаштиришга имкон беради. Ушбу дастурлар функционал имкониятлари жиҳатидан таҳрирловчилардан кам, аммо улар арзонроқ ва ўзлаштириш учун фойдаланувчилардан кўп вақт талаб этилмайди. Ушбу гуруҳга LCDS (Learning Content Development System), eBook Maestro, eBookGold, HTML Help Workshopларни киритишимиз мумкин.

Уларнинг учинчи тоифасига электрон китобларни яратиш учун мўлжалланган дастурларни киритиш мумкин. Аксарият ҳолларда ушбу дастурлар юқори даражада ихтисослашган форматдаги примитив электрон китобларни ишлаб чиқишга мўлжалланган. Бунга Microsoft Reader, Mobipocket, Hiebook кабиларни киради.

Кўриниб турибдики, электрон таълим ресурслари яратишда биринчи тоифага кирувчи дастурий воситаларнинг имкониятлари давр талабидаги ресурсларни тайёрлашга имкон беради.

Бугунги кунда электрон ўқув материалларини ишлаб чиқиш учун биринчи тоифага кирувчи дастурий таъминот бозори тобора кенгайиб бормоқда. Энг машҳур дастурларга iSpring Suite, Moodle, Adobe Captivate, REDCLASS Course, Document Suite, Easygenerator, CourseLab ва бошқалар киради.

Электрон ўқув материалини яратишга мўлжалланган дастурий маҳсулотларнинг хилма-хиллигига қарамасдан, дунёдаги энг машҳури бўлиб, SCORM (Sharable Content Object Reference Model, бўлинувчи контент объектлари эталон модели) стандартини қўллаб-қувватловчилари ҳисобланади.

Бундай дастурий маҳсулотлар қаторига WebSoft фирмаси томонидан ишлаб чиқилган CourseLab муҳаррири киради. Ушбу дастур ишлаб чиқилган интерфаол ўқув материалларини(электрон курслар) ишлаб чиқиш учун тўлиқ восита бўлиб ҳисобланади, ҳамда яратилган электрон курсларини Интернет

тармоғида, масофадан ўқитиш тизимларида, ихчам дискларда ёки бошқа ҳоҳлаган маълумот ташувчисида фойдаланиш учун мўлжалланган.

CourseLab таҳрирловчисида турли фанлардан ўқув қўлланмалар, ўқув методик кўрсатмалар, дарсликлар яратиш мумкин. Электрон курс мустақил таълим олиш учун керак бўлган ва олинган билимларни назорат қилиш учун асосий фанга қўшимчаларни ўз ичига олиши мумкин. Курсни яратишга киришишдан олдин, таълим беришни мақсади ва стратегиясини, шунингдек, ахборотни етказиб бериш усулини аниқлаб олиш керак.

ISpring компанияси томонидан ишлаб чиқилган ва ўзининг кенг фойдаланувчиларини тезда топа олган ISpring Suite дастури ҳам юқоридаги стандарт талабларига жавоб беради. ISpring Suite дастури – бу тестлар, сўровномалар, интерактив элементлар ҳамда аудио-видеони қўллаб қувватловчи интерактив электрон ресурслар ва курслар яратиш учун зарурий воситалар мажмуасидир. Дастур PowerPoint тақдимотларини SCORM / AICC га мос масофавий ўқитиш тизимига қўшиладиган яхлит ўқув курсига ўзгартиради.

ISpring Suite дастури учта модулни ўз ичига олади, улар биргаликда тўлиқ ишлайдиган электрон курсларни яратишга имкон беради:

- iSpring Pro модули PowerPoint-да масофавий ўқитиш учун Flash-презентатсиялар ва курсларни яратишга имкон беради; дастур тақдимотларни слайдлар ва анимациялар билан аудио ва видео ҳамкорлигида тезкор ва содда ёзиш ва синхронлаштиришга имкон беради;
- iSpring QuizMaker модули (Flash форматидаги интерактив тестлар, сўровномалар ва анкеталарни яратиш дастури), бу фойдаланувчининг тест саволларига берган жавобларига қараб тармоқланувчи курслар яратишга имкон беради.
- iSpring Kinetics модули, бу электрон китоб, интерактив каталог, хронология ва тез-тез сўраладиган маълумотлар базасини ўз ичига олган интерактив элементлар учун андозалар тўпламидир.

Электрон таълим муҳити яратишга мўлжалланган ва юқоридаги стандарт талабларига мос дастурий маҳсулотлардан яна бири Moodle дастури. Moodle дастури - бу таълимни бошқариш тизими ёки виртуал таълим муҳити. Бу бепул (GNU GPL лицензия бўйича тарқатилувчи) web-дастур бўлиб, onlayn ўқиш учун сайтлар яратишга имкон беради.

Бу келтирилган дастурий маҳсулотлардан ISpring Suite дастури имкониятларини мутахассислик фанларидан электрон ресурслар тайёрлаш учун мос ва қулай эканлиги кўринади. Бу дастурни индивидуал сотиб олиш учун фойдаланувчига оғирлик қилмаслигини таъкидлаш лозим.

3D ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИНГ КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШДАГИ ЎРНИ ВА АҲАМИЯТИ

Баҳромов А.А., Ибодуллаев С.Н., ТАТУ

Телевизион технологиялари соҳасида малакали кадрларни тайёрлаш бугунги “Ахборот асри” нинг табиий ва муҳим талабидир. Шу нуқтаи назардан мамлакатимизда, қолаверса, бутун дунё таълим тизимида ахборот технологиялари ёрдамида электрон дарсликлар, электрон ўқув қўлланмалар, педагогик дастурий воситалар, турли таълим ресурслари, ўқитишнинг электрон воситалари, мултимедиали дарсликлар яратиш ва улардан фойдаланиш ривожланиб бормоқда. Булар ўз навбатида илм-фан тараққиётига, таълим сифати ва самарадорлигининг ошишига катта ҳисса қўшмоқда. Бундай дарсликлардан кенг қўлланиладиганларидан бири видео дарсликлар ҳисобланади. Бу видео дарсликларнинг самаралилиги шундаки, ўқувчилар масофадан туриб, мустақил таълим олиши ва исталган вақтда видеодарсликлардан фойдаланишлари мумкин. Бу эса билимларни доимо мустаҳкамлаб бориш имконини беради.

Телевидение яратилгандан буён турли босқичларда ривожланиб келмоқда. Янги технологиялар телевидениянга жорий этилиб, рангли телевидение, рақамли телевидение, IP-телевидение ва бошқалар пайдо бўлмоқда. Ҳозирги даврда, телевидение соҳаси 3D технологияларининг қўлланилиши билан ривожланишнинг янада янги босқичига чиқди.

Бугунги кунда жамиятдаги хабарлар, воқеа-ҳодисалар тўғрисида маълумотларга эга бўлишда телевидениенинг хизмати беқиёс. Телеканаллардаги кўрсатувлар инсонларни ўзига жалб этиши учун муҳим муаммоларни муҳокама марказига олиб чиқиши, машҳур қиёфаларни акс эттириши зарур. Бунинг учун телевидение ҳам янада ривожланишини давр тақозо этади. Кино санъатида уч ўлчамли фильмлар ишлаб чиқариш йўлга қўйилгандан сўнг, бу телевидениега ҳам таъсир этмай қолмади.

Уч ўлчамли (3D) телевидение – бу катта ҳажмдаги маълумотларни ўзида жамлаган, томошабинларга уч ўлчовли эффектни узатиб бера оладиган телевидениедир. Ҳозирги вақтда телевизорларда ҳеч қандай кўзойнакларсиз уч ўлчамли видеоларни кўриш имкониятлари ишлаб чиқилмоқда. Келажакда бутунлай барча телеканаллар, барча хонадонларда уч ўлчамда кўрсатилиши оддий ҳолга айланиши кўзда тутилмоқда. Ҳозирдагилари эса реклама сифатида фойдаланилмоқда.

3D телевидение бу жуда катта маълумотлар ҳажмига эга бўлади. Тасаввур қилиш учун, 4:4:4 форматда телесигнални узатишда қанча тезлик кераклигини ҳисоблаб чиқишимиз мумкин.

Ушбу ҳолда:

1. YUV ни узатиш учун жами 540 Мбит/с керак бўлади;

2. Бунда пикселлар сони 720x576;

3. Юқори тиниқлик – 8К да эса 7680x4320 ўлчамли пикселлар мавжуд;

4. Жуда ҳам юқори тезлик, катта ҳажм ҳамда шу форматни қўллаб-қувватлайдиган ускуналар керак бўлади;

5. 3D телевидение эса бу узатишлардан ҳам кўра кўпроқ ҳажмда, кўпроқ аппаратуралар талаб қилади.

Ҳозирда 3D кўрсатиш имкониятига эга қуйидагича мониторлар мавжуд:

- стереоскопик 3D-мониторлар;
- автостереоскопик 3D-мониторлар (бунда ҳеч қандай аксессуарларсиз 3D кўриш имконияти мавжуд бўлади);
- катта ҳажмли дисплейлар (вокселлардан таркиб топган).

МДҲ давлатлари орасида республикамиз биринчилардан бўлиб, рақамли телеканалларга ўтганини ҳисобга олсак, уч ўлчовли телевидение техникаси тўлалигича яратилгандан сўнг, дастлаб республикамизда ушбу технологияга ўтилиши ҳақиқатга анча яқин. Уч ўлчовли телевидениянинг имкониятлари жуда катта бўлиб, у орқали томошабинларга уч ўлчовли предметларни кўрсатиш осон. Воқеа-ҳодисаларни тўла акс эттиришда, маълумотларни сифатли беришда ва барча соҳаларда ушбу технологиянинг қулайликларини сезиш мумкин.

Ҳозирги кунда жаҳон тажрибасидан кўриниб турибдики, таълим жараёнига ўқитишнинг янги, замонавий усул ва воситалари кириб келмоқда ва улардан самарали фойдаланилмоқда. Жумладан, республикамиздаги умумтаълим мактабларида ҳам инновацион ва замонавий педагогик ғояларни дарс жараёнида қўллаш ва уларни яратиш бўйича бир қатор ишлар амалга оширилмоқда. Шундай экан ўқитувчи билим олишнинг ягона манбаи бўлиб қолиши керак эмас, балки, ўқувчилар мустақил ишлаш жараёнининг ташкилотчиси, маслаҳатчиси, ўқув жараёнининг менежери бўлиши лозим.

Янги педагогик лойиҳалар ва технологияларни ишлаб чиқиш асосида айнан шу ғоялар ётади. Юқоридаги лойиҳалар дарс жараёнида қўлланилганда ўқитувчи биринчи навбатда вақтдан ютади, иккинчидан дарснинг самарадорлиги янада ортади. Чунки, мавзуни моҳиятини очиб берувчи инновацион лойиҳада таълим сифатини оширишга қаратилган вазифалар

ўқувчилар кўз ўнгида мисоллар тариқасида ўз ечимини топади. Учинчидан эса ўқувчиларда фанга нисбатан қизиқиш янада ортади. Ўқувчиларнинг ўзида ҳам ана шундай лойиҳалар устида ишлаш турли график ишларини яратишга бўлган интилиши кучаяди.

NEED AND IMPORTANCE OF INFORMATION TECHNOLOGY IN TEACHING AUDIOVISIUAL TECHNOLOGIES

Beknazarova S. S., Kurbanov S. K., TUIT

The information society challenges the education system. In recent years, the speedy, effective and global communication of knowledge has created a new foundation for co-operation and teamwork, both nationally and internationally. The increasing role played by information technology in the development of society calls for an active reaction to the challenges of the information society.

Already, new and greater demands are being made as to the core qualifications of individuals, as well as to their understanding and knowledge of the consequences of the introduction of information technology for the work and organization of a company. Companies are no longer forced to gather all their functions in one place. The knowledge-intensive functions such as development and marketing can be sited in countries where the labor market can supply highly educated employees, whilst production itself can be moved to low wage countries. The result is the efficient handling, processing, co-ordination and administration of company resources, which is decisive for the competitiveness of the company. In a society which is becoming increasingly dependent on information and the processing of knowledge, great demands are therefore made that the individual should have a solid and broad educational foundation on which to build.

Need

- Education is a life long process therefore anytime anywhere access to it is the need;
- Information explosion is an ever increasing phenomena therefore there is need to get access to this information;
- Education should meet the needs of variety of learners and therefore IT is important in meeting this need;
- It is a requirement of the society that the individuals should posses technological literacy;

- We need to increase access and bring down the cost of education to meet the challenges of illiteracy and poverty-IT is the answer.

Importance

- access to variety of learning resources;
- immediacy to information;
- anytime learning;
- anywhere learning;
- collaborative learning;
- multimedia approach to education;
- authentic and up to date information;
- access to online libraries;
- teaching of different subjects made interesting;
- educational data storage;
- distance education;
- access to the source of information;
- multiple communication channels-e-mail, chat, forum, blogs, etc.;
- access to open courseware;
- better accesses to children with disabilities;
- reduces time on many routine tasks;

Conclusion

Information Technology in Education, effects of the continuing developments in information technology (IT) on education.

The pace of change brought about by new technologies has had a significant effect on the way people live, work, and play worldwide. New and emerging technologies challenge the traditional process of teaching and learning, and the way education is managed. Information technology, while an important area of study in its own right, is having a major impact across all curriculum areas. Easy worldwide communication provides instant access to a vast array of data, challenging assimilation and assessment skills. Rapid communication, plus increased access to IT in the home, at work, and in educational establishments, could mean that learning becomes a truly lifelong activity—an activity in which the pace of technological change forces constant evaluation of the learning process itself.

SIGNIFICANCE OF IT IN EDUCATING AUDIOVISUAL TECHNOLOGIES

Beknazarova S. S., Kurbanov S. K., TUIT

Access to variety of learning resources

In the era of technology. IT aids plenty of resources to enhance the teaching skills and learning ability. With the help of IT now it is easy to provide audio visual education. The learning resources are being widens and widen. Now with this vivid and vast technique as part of the IT curriculum, learners are encouraged to regard computers as tools to be used in all aspects of their studies. In particular, they need to make use of the new multimedia technologies to communicate ideas, describe projects, and order information in their work.

Immediacy to information

IT has provided immediacy to education. Now in the year of computers and web networks the pace of imparting knowledge is very very fast and one can be educated anywhere at any time. New IT has often been introduced into well-established patterns of working and living without radically altering them. For example, the traditional office, with secretaries working at keyboards and notes being written on paper and manually exchanged, has remained remarkably stable, even if personal computers have replaced typewriters.

Any time learning

Now in the year of computers and web networks the pace of imparting knowledge is very very fast and one can be educated .One can study whenever he wills irrespective of whether it is day or night and irrespective of being in India or in US because of the boom in IT.

Collaborative learning

Now IT has made it easy to study as well as teach in groups or in clusters. With online we can be unite together to do the desired task. Efficient postal systems, the telephone (fixed and mobile), and various recording and playback systems based on computer technology all have a part to play in educational broadcasting in the new millennium. The Internet and its Web sites are now familiar to many children in developed countries and among educational elites elsewhere, but it remains of little significance to very many more, who lack the most basic means for subsistence.

Multimedia approach to education

Audio-Visual Education, planning, preparation, and use of devices and materials that involve sight, sound, or both, for educational purposes. Among the devices used are still and motion pictures, filmstrips, television, transparencies,

audiotapes, records, teaching machines, computers, and videodiscs. The growth of audio-visual education has reflected developments in both technology and learning theory.

Studies in the psychology of learning suggest that the use of audio-visuals in education has several advantages. All learning is based on perception, the process by which the senses gain information from the environment. The higher processes of memory and concept formation cannot occur without prior perception. People can attend to only a limited amount of information at a time; their selection and perception of information is influenced by past experiences. Researchers have found that, other conditions being equal, more information is taken in if it is received simultaneously in two modalities (vision and hearing, for example) rather than in a single modality. Furthermore, learning is enhanced when material is organized and that organization is evident to the student.

These findings suggest the value of audio-visuals in the educational process. They can facilitate perception of the most important features, can be carefully organized, and can require the student to use more than one modality.

Authentic and up to date information

The information and data which are available on the net is purely correct and up to date. Internet, a collection of computer networks that operate to common standards and enable the computers and the programs they run to communicate directly provides true and correct information.

Online library

Internets support thousands of different kinds of operational and experimental services one of which is online library. We can get plenty of data on this online library.

As part of the IT curriculum, learners are encouraged to regard computers as tools to be used in all aspects of their studies. In particular, they need to make use of the new multimedia technologies to communicate ideas, describe projects, and order information in their work. This requires them to select the medium best suited to conveying their message, to structure information in a hierarchical manner, and to link together information to produce a multidimensional document.

Distance learning

Distance Learning, method of learning at a distance rather than in a classroom. Late 20th-century communications technologies, in their most recent phases multimedia and interactive, open up new possibilities, both individual and institutional, for an unprecedented expansion of home-based learning, much of it part-time. The term distance learning was coined within the context of a continuing

communications revolution, largely replacing a hitherto confusing mixed nomenclature—home study, independent study, external study, and, most common, though restricted in pedagogic means, correspondence study. The convergence of increased demand for access to educational facilities and innovative communications technology has been increasingly exploited in face of criticisms that distance learning is an inadequate substitute for learning alongside others in formal institutions. A powerful incentive has been reduced costs per student. At the same time, students studying at home themselves save on travel time and other costs.

Whatever the reasoning, distance learning widens access for students unable for whatever reason (course availability, geographical remoteness, family circumstances, individual disability) to study alongside others. At the same time, it appeals to students who prefer learning at home. In addition, it appeals to organizers of professional and business education, providing an incentive to rethink the most effective way of communicating vital information.

Better accesses to children with disabilities

Information technology has brought drastic changes in the life of disabled children. IT provides various software and technique to educate these poor peoples. Unless provided early with special training, people profoundly deaf from birth are incapable of learning to speak. Deafness from birth causes severe sensory deprivation, which can seriously affect a person's intellectual capacity or ability to learn. A child who sustains a hearing loss early in life may lack the language stimulation experienced by children who can hear. The critical period for neurological plasticity is up to age seven. Failure of acoustic sensory input during this period results in failure of formation of synaptic connections and, possibly, an irremediable situation for the child.

The integration of information technology in teaching is a central matter in ensuring quality in the educational system. There are two equally important reasons for integrating information technology in teaching. Pupils must become familiar with the use of information technology, since all jobs in the society of the future will be dependent on it, and information technology must be used in teaching in order to improve its quality and make it more effective.

АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ СОҲАСИГА ОИД ФАНЛАРНИ ЎҚИТИШДА ХОРИЖИЙ ТИЛЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ

Мамадалиев Х.А., Ортиқова Ф.С., ТАТУ

Маълумки, ўқув жараёнидаги асосий восита – бу тил ҳисобланади. Таълим тизимининг исталган даражасидаги талабаларнинг нимани англаши кутилса, барчаси эшитилади ёки ўқилади. Таълим олиш чоғида барча нарса устозларга боғлиқ бўлмай, билим даражасини ошириш учун қўшимча ўқув дарсликларидан фойдаланиш ҳар бир талаба учун жуда муҳим ҳисобланади. Ўқув адабиётларининг технологияга асосланган тури ўзбек тилида кам учраши ҳеч кимга сир эмас.

Компьютер технологияси давлатимизда энди ривожланиб келаётган соҳалардан бири бўлганлиги сабабли ҳам давлат тилидаги адабиётларни топиш муаммо келтириб чиқаради. Айнан мана шу ҳолатда талабаларнинг билим олиши учун уларнинг хорижий тилни билишлари анчагина ёрдам беради десак муболаға бўлмайди. Талабалар таълим олиш учун хорижий тилларни билишлари муаммосининг долзарблиги ҳам ана шунда. Ҳозирги кунда бутун дунёда энг кўп фойдаланиладиган тилларнинг сон жиҳатдан кўлами қуйида жадвал орқали келтирилган (1-жадвал).

1-жадвал. Дунё бўйлаб энг кўп фойдаланиладига тиллар

	Давлат номи	**Фойдаланувчиларнинг сони**
	Инглиз тили	1,132 миллиард
	Мандарин хитой тили	1,117 миллиард
	Ҳинд тили	615 миллион
	Испан тили	534 миллион
	Француз тили	280 миллион

Компьютер технологияси ривожланган мамлакатлар ҳам юқорида келтирилган 1-жадвалда берилган тиллардан фойдаланишади. Айнан шу сабаб хорижий тиллардан бир ёки бир нечтасини билиш мақсадга мувофиқ.

Ижтимоий тармоқ орқали керакли ўқув дарслигини топиш учун ҳам ҳеч бўлмаганда хорижий битта тил билишингиз зарур. География жойлашувимиздан келиб чиққан ҳолатда биз рус ёки инглиз тилини билсак адабиётларни топиш ва улардан фойдаланиш анча қулай бўлади.

Ижтимоий тармоқларда турли хил таржимон дастурлар ёрдамида ўқув адабиётлардан фойдаланиш ҳам мумкин бироқ, маълумотни тўлалигича мазмунини англашга бу етарли бўла олмайди. Интернет тармоқларида учрайдиган илмий ҳамда бадиий адабиётларининг қайси тилда учраши миқдорий жиҳатдан қуйидаги жадвалда келтирилган (2-жадвал).

2-жадвал.Ижтимоий тармоқларда энг кўп тарқалган китоблар сони ва фоизи

	Давлат номи	**Китоблар сони**	**Дунё бўйича фоиз кўрсаткичи**
	Инглиз тили	200,698	21,84%
	Мандарин(Хитой)тили	100,951	10,99%
	Немис тили	89,986	9,78%
	Испан тили	81,649	8,88%

Мазкур 2-жадвалда фақатгина китоблар сони келтирилган бўлиб сайтлардаги турли хил дарслар, *www.youtube.com* сайтидаги ўқув видео дарсликлар, турли ўқув қўлланмалар ва бошқаларни ҳисоблаганда бугунги кунда глобаллашув жараёнида тилни билиш қай даражада муҳим эканлигини англаш қийин емас. Келажакда етук кадр бўлиш учун ҳар бир талаба нафақат ўз юртининг ўқув дарсликларидан балки дунё стандартларига жавоб берувчи хориж дарсликларидан ҳам фойдаланиши зарур. Хориж тажрибаси ва миллий таълимни бирлаштириш орқали катта натижаларга эришиш мумкин бўлиб ҳисобланади. Ахборот технологиялари йўналиши бўйича таҳсил оладиган ҳар бир талаба камида 2 та хориж тилини яъни рус ҳамда инглиз тилини билишлари талаб этилади. Бунга сабаб дастурлаш (C++, Python, JavaScript, Delphi), мантаж (Adobe Premiere Pro, Adobe After Effects, Camtasia Studio), 2D (Adobe Flash) ва 3D (3D Max Studio, Maya) моделлаштириш, овозлар билан ишлаш (Adobe Audition), web иловалар яратувчи (CSS, HTML) дастурлар айнан рус ва инглиз тилларида кўп учрайди. Бу дастурлардан тўлақонли фойдаланиш учун ҳам хорижий тилни билиш лозим. Шундагина талаба қийинчиликсиз билим олиши

мумкин бўлади. Компьютер саводхонлиги учун ҳам хорижий тил асосий ҳисобланади. Хорижий тилни билиш компьютер ва компьютер дастурларининг интерфейсини осонликча тушунишга ҳамда ундан фойдаланишга асос бўла олади. Осонлик билан маълумотларни қабул қилиш иш самарадоригини ошишига асос бўлади. Бу эса вақтни тежаш ва таълим сифатини ўз ўрнида сезиларли даражада яхшилашга олиб келади.

Турли компьютер дастурлари ҳақидаги тўлиқ маълумотни албатта шу дастурларининг расмий сайтидан олишимиз мумкин. Расмий сайт интерфейси эса инглиз тилида ёки мандарин (хитой) тилида бўлади. Дастурни тўлиқ маълумотлари келтирилган китоб ҳам айнан хориж тилида келтирилган бўлиб бу керакли, муҳим ва тўлиқ маълумотлардан фойдаланиш учун ҳам хориж тилидан хабардор бўлиш талаб этилади.

Ҳар бир талабанинг юқори даражада билим олиши ҳамда юқори марраларни эгаллаши учун ҳам хорижий тилнинг аҳамияти беқиёсдир. Шу билан биргаликда, Республикамиз Ўзбекистон ҳозирги кунга келиб хориж давлатлар университетлари билан биргаликда кўплаб шартномаларни имзолаган ва нуфузли олийгоҳларнинг юртимизда филиаллари очилмоқда. Бу албатта ўз ўрнида Ўзбекистон талабалари учун катта имконият эшикларини очади. Эълон қилинган грандларни ютиш учун талабалардан ўз соҳаси бўйича билим кўникмалари билан бирга хорижий тил саводхонлиги талаб этилади. Келажакда етук кадр бўламан деган ҳар бир талаба билим даражасидан ташқари хориж тилини билиш даражасини ҳам ошириб бориши зарурлиги бугунги кунга келиб одатий талаб тусига кирди. Бунинг сабабларидан бири ахборот технологиялари тўғрисидаги адабиётларнинг Ўзбек тилида учратиш қийин эканлиги бўлса, иккинчиси глобаллашув жараёнидир.

Хулоса ўрнида айтиш мумкинки, ахборот технологияларини ўқитишда хорижий тилларнинг долзарблиги кун сайин ошиб бораётган ҳозирги даврда таълим жараёнларини дунё стандартларига жавоб бериши учун, Ўзбек талабаларининг хориж талабалари билан баробар даражада рақобат қилишлари, Ўзбек миллатидан ҳам буюк ахборот технологиялари соҳаси бўйича иш фаолиятини олиб борувчи кадрларни шакллантириш учун хорижий тилни ҳар бир мураббийлар қаторида талабаларнинг ҳам билиши муҳим саналади.

“РАҚАМЛИ МЕДИА ВА ТВ ТЕХНОЛОГИЯЛАР” ФАНИНИ ЎҚИТИШДА ПЕДАГОГИК ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ САМАРАДОРЛИГИ

Қаюмова Г.А., Боймуродов Б.Э., ТАТУ

Кун сайин ривожланган демократик давлат даражасига эришаётган мустақил мамлакатимизда олий таълим тизимини ислоҳ қилиш ва такомиллаштириш, таълим соҳасини янги сифат босқичига кўтаришда замонавий педагогик ва ахборот технологияларини жорий қилиш ва фаол фойдаланиш орқали таълим самарадорлигини ошириш бугунги кундаги ўзининг ижобий ечимини топаётган муҳим масалалардан биридир. Таълим жараёнининг самадорлиги ундаги “педагог-моддий муҳит-талаба” фаолиятининг фаол ташкил этилишига боғлиқдир. Бу эса ўз навбатида таълим жараёнида замонавий педагогик ва ахборот технологияларидан изчил ва самарали фойдаланиш орқали амалга оширилади.

Таълим соҳасига таълим жараёнига олиб кириш ва жорий этиш, ўз устида ишлаш педагогик фаолиятини янгилаб туриш ҳар бир педагогнинг асосий вазифасидир. Педагогик технология тушунчасини изоҳлашда технология жараёнини асос қилиб олиш мумкин. Педагогик фаолият Замонавий педагогик технологиялар орқали муттасил тарзда ривожланиб боради, чунки у таълим соҳасида мақсадга эришиш ва шахсни ҳар томонлама ривожлантиришга қаратилган мақсадли фаолиятдир.

Замонавий педагогик технологияларни икки турга ажратиш мумкин:

1. Таълим технологиялари: “Ақлий ҳужум”, “Тармоқлаш”, “Лабиринт”, “Чархпалак”, “Мулоқот”, “Лойиҳа”, “Баҳс-мунозара ва мусобақа”, “Думалоқ стол” каби технологиялар киради.

2. Тарбия технологиялари: “КБИ”-кузатиш, бахслашиш, ишонтириш, “И.М”-ишонтириш мактаби, “Ж.И.И”- жамоавий ижодий ишлар, “Танқид қилишни ўргатинг”, “Куратор ва жамоа” каби технологиялар киради.

Олий таълим тизимида ҳам машғулот жараёнларида бу каби педагогик технологиялардан фаол фойдаланилади. Олий таълим муассасаларида фаолият юритадиган педагоглар таълим жараёнида педагогик технологиялардан фойдаланишда бир қанча талабларни эътиборга олишлари зарур:

- талабалардаги билим даражаси ва имкониятларини инобатга олган ҳолда индивидуал шахсга йўналтирилган таълим технологиясидан фойдаланиши якка ёндашувни ташкил эта олиши;

- таълим методларини танлашда ўқув машғулотларининг дидактик вазифасини, таҳсил олувчиларнинг ёши ва сонини инобатга олиши;

- талабаларни дарсларга тайёргарлик даражаси ва натижани ҳамда жамоадаги ўзаро муҳитни олдиндан кўра олиши;

- таълим жараёнини техник воситалар билан бойитиши бу каби воситалар талабаларнинг руҳиятига салбий таъсир кўрсатмаслиги учун эҳтиёт чораларини олдиндан кўриб қўйиши;

- касбий маҳорати ёрдамида талабаларнинг шахсий сифатларини кашф қила олиши.

Педагог томонидан танланган барча дидактик воситалар талабанинг билим олишига ижобий таъсир кўрсатиши жуда муҳимдир. Дарс жараёнида педагогик технологиялардан фойдаланиш талабаларнинг шахс хусусиятларини ривожлантиришга ёрдам беради:

- талабалар ўртасида ўзаро ҳурмат ва дўстона муҳаббат туйғулари уйғонади, фанга бўлган қизиқиш ва қобилиятларини фаоллаштиради;

- жамоа билан ишлаш малакасини эгаллайдилар яъни жамоадошлардан ёрдамни қабул қилиш ҳамда керакли вазиятда уларга ҳам ёрдам кўрсатишни ўрганишади;

- талабалар “тўғри” ва “нотўғри” каби тушунчаларга нисбатан танқидий мушоҳада қилишни, жараённинг оддийдан мураккабга томон боришига кўра турли топшириқларни мустақил бажаришга ўрганадилар;

- фикр билдириш жараёнида уларда фаол экспрессив нутқ ривожланади ҳамда ўзгалар нутқини тинглаш жараёнида эшитув диққати ва фонематик идрок шаклланади.

Етарли даражада дидактик воситалар билан қуролланган ва улардан самарали, ўз ўрнида маҳорат билан фойдалана олган педагог ҳар доим малакали, илғор педагог ҳисобланади. Янги педагогик технологиялар ўқитувчи ва талабаларни эркин фикрлашга, билим бойлигини оширишга, дунёқарашини шакллантиришга, тафаккурини ривожлантиришга, хотирани кучайтиришга, фанга бўлган қизиқишларини орттиришга, мустақил ишлаш қобилиятини ўстиришга, изланишга ва энг муҳими ўз устида ишлашга даъват этади. Чунки педагогик технология таълим жараёнига янгича ёндашув билан қарашни, ўқитувчи ва талабаларнинг сифат белгиларини оширишни мақсад қилади. Бу жараёнлар шубҳасиз келажакда ҳам давом этади, чунки педагогик технологиялар замон талабига ҳамоҳанг тарзда яратилаверади.

Рақамли медиа ва ТВ технологоялар фанини ўқитишда ҳам шундай педагогик технологиялардан фойдаланинш самарали ҳисобланади. Масалан

Лойиҳа технологияси. Лойиҳа технологияси талабаларни индивидуал ва гуруҳ бўлиб ишлашларида ўз самарасини беради.

Лойиҳа технологияси:

Якка тартибдаги иш, олинган маълумотларни таҳлил қилиш, тақдимотга тайёрланиш, тақдим этиш, муаммо, гуруҳда муҳокама қилиш, тадқиқот ишини танлаш, гуруҳ иши.

Лойиҳа услубида - талабаларнинг индивидуал ёки гуруҳларда режалаштирилган вақт давомида, белгиланган мавзу бўйича ахборот йиғиш, тадқиқот ўтказиш ва амалга ошириш ишларини олиб боришидир. Бу услубда талабалар режалаштириш, қарор қабул қилиш, амалга ошириш, текшириш ва хулоса чиқариш ва натижаларни баҳолаш жараёнларида иштирок этадилар.

Лойиҳа ишлаб чиқиш якка тартибда ёки гуруҳий бўлиши мумкин, лекин ҳар бир лойиҳа ўқув гуруҳининг биргаликдаги фаолиятининг мувофиқлаштирилган натижасидир. Бу жараёнда талабанинг вазифаси белгиланган вақт ичида янги маҳсулотни ишлаб чиқиш ёки бошқа бир топшириқнинг ечимини топишдан иборат.

Талабалар нуқтаи-назаридан топшириқ мураккаб бўлиши ва у талабалардан мавжуд билимларини бошқа вазиятларда қўллай олишни талаб қиладиган топшириқ бўлиши керак. Лойиҳа ўрганишга хизмат қилиши, назарий билимларни амалиётга тадбиқ этиши, талабалар томонидан мустақил режалаштириш, ташкиллаштириш ва амалга ошириш имкониятини ярата оладиган бўлиши керак.

“Рақамли медиа ва ТВ технологиялар” фанини ўқитишда педагогик технолигиялардан фойдаланиш талабаларни фанга нисбатан билим, кўникма ва малакаларини оширишда имкон беради.

КОМПЬЮТЕР ГРАФИКАСИ ФАНИНИ ЎҚИТИШДА ИНТЕРАКТИВ ТРЕНАЖЁРЛАРНИНГ ЎРНИ

Қаюмова Г.А., Чўллиев Ш.И., ТАТУ

Таълим тизимида ўтказилаётган ислоҳотлар натижасида таълим сифати ўқитишнинг методик омиллари ва воситаларидан қандай фойдаланишга боғлиқ бўлиб қолмоқда. Мамлакатимиз кадрлар тайёрлаш тизимининг устувор вазифалари қаторига таълим тизимини моддий – техникавий базасини шакллантириш ва таълим воситаларидан самарали фойдаланиш ҳамда таълимни модернизациялаш кабилар киритилмоқда. Ўқитишда педагогик технологиялар ва техник воситалардан фойдаланиб ўқитиш самарадорлигини ошириш орқали малакали кадрлар тайёрлаш билан бирга уларни ижтимоий – иқтисодий соҳа тармоқлари, ишлаб чиқариш самарадорлигига ижобий таъсир этишига ҳам эришиш мумкин. Шу сабали техник фанларни ўқитишда педагогик технология интерактив тренажёрларни ўрни долзарб аҳамиятни касб этади.

Ҳозирги вақтда олий таълим тизимида техник фанларни ўқитиш сезиларли ўзгаришларга таъсир кўрсатмоқда. Хусусан, ўқув жараёнига янги ахборот технологиялари жадал жорий этилмоқда: рақамли таълим ресурсларидан, интернет-ресурслардан фойдаланиш ва бошқалар.

Компьютер графикаси - бу ўзига хослиги сабабли турли хил техник ўқув воситаларидан кенг фойдаланишни ўз ичига олган фан ҳисобланади, шунинг учун компьютер технологиялари компьютер графикасини ўқитишда янги имкониятларни очиб беради. Компьютер таълимда тобора кўпроқ роль ўйнамоқда, чунки ундан ўқув ва синфдан ташқари ишларда фойдаланиш бир қатор муаммоларни ҳал қилишга имкон беради. Булар таълимни индивидуализация қилиш ва фарқлаш, ўрганиш мотивацияси, босма материаллар билан ишлашда қийинчиликларга йўл қўймаслик, вақт етишмаслиги муаммоларини ҳал қилишда асосий ролни мультимедиа ўқитиш воситалари (масалан, мультимедиа дарсликлари, тармоқдаги таълим манбалари, мультимедиа универсал энциклопедиялари ва бошқалар) эгаллайди. Улардан фойдаланиш осон, уларнинг дарсни кучайтиришда ва ўқувчиларга ҳиссий таъсирини оширишда уларнинг роли катта. Улар бизнинг замонамизнинг объектив ҳақиқатига айландилар ва ўқитувчилар ўз машғулотларида коммуникатив компетентсияларни шакллантириш учун ишлатмасдан иложсиз. Электрон ўқув қўлланмалар ўқув жараёнининг тузилишига энг яхши тарзда

“мос келади”, дидактик талабларни тўлиқ қондиради ва компьютер графикасини ўқитиш жараёнини реал шароитларга имкон қадар яқинлаштиради.

Тренажёр (инглизча траин – таълим бериш, ўқитиш, машқ қилиш) - бу турли хил юкларни ёки ҳолатларни (вазиятларни) сунъий равишда симуляция қиладиган (инглизча механик, дастурий таъминот, электрон ўқув воситаси. Тренажёрлар ўқитиш (тақлид) ёки спорт машғулотлари ҳам бўлиши мумкин.

Тренажёр - бу тингловчиларни реал объектни бошқаришга хос бўлган ҳаракатларни такрорий бажариш орқали моддий объектни бошқариш учун зарур бўлган касбий маҳорат ва кўникмаларни шакллантириш ва такомиллаштириш учун мўлжалланган, тингловчининг касбий тайёргарлигининг техник воситасидир. Тренажёр учта зарур қисмдан иборат бўлиши керак: конструктив (оператор иш жойининг аниқ нусхаси); дастурий таъминот (ускуналар ва жараёнларнинг етарли модели); дидактик (ўқитувчининг иш жойи операторларнинг ҳаракатларини баҳолаш ва назорат қилиш дастури билан, бошқа бир хил муҳим хизмат дастурлари билан).

Интерастиве Э-Траинер шунингдек мултимедиа ўқитиш воситасидир. Тренажёр - бу ўқувчиларнинг билим, кўникма, малакаларини ва такрорий топшириқлар жараёнида уларни мақсадли тайёрлашни баҳолашнинг ўзига хос усули.

Ҳозирда турли хил жисмоний машқлар билан жиҳозланган дисклар ўқитувчи томонидан ўз талабаларининг индивидуал хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда турли мавзуларда интерактив тренажёрларни яратиш долзарб бўлиб қолади.

Тренажёрларни яратиш учун PowerPoint дастурининг имкониятларидан фойдаланилади: триггерлар (танланган элемент учун ҳаракат ёки вақт шартини белгилашга имкон берадиган анимация воситалари; бу ҳолда анимация бошланади), кўприклар (бошқа элементга (буйруқ, матн, сарлавҳа) мурожаат қиладиган гиперматнли ҳужжатнинг бир қисми) ҳужжатнинг ўзида, дискда ёки компьютер тармоғида жойлашган бошқа объектга (файл, каталог, дастур) ёки ушбу объект элементларига ва «жонлантирилган сорбон» техникаси. “Анимацион сорбонок” техникаси таърифлар, атамалар, саналар, теоремалар ва бошқаларни ёдлашга мўлжалланган. Илгари, сорбон техникасидан фойдаланган ҳолда ўқитувчилар картанинг бир томонига тушунча, сўз, сана, иккинчисига жавоб ёзишган. Талаба карточкаларни кўриб чиқиб, жавоб беришга уринади ва дарҳол ўзини текширади. Сорбонканинг анимацион версияси хотирани мустаҳкамлаш учун янада жозибали ва хилма-хил бўлишига ёрдам беради.

Компьютер графикаси фанини объектларнинг чизмаларини ва тасвирларни ҳосил қилишда, ва 3 томонлама кўринишини тасвирлаш усулларини ўргатиш учун интерактив тренажёрлардан фойдаланиш мумкин.

Уларни компьютер графикаси фанида геометрик объектлар ва тасвирларни 2 ва 3 ўлчовли моделларини ҳосил қилишни, уларни текисликда ёки фазода алмаштиришларни, сплайн-функциялар ёрдамида мураккаб объектларни ҳосил қилишни, уларни бўяшни ва динамика беришни текисликдаги ёки фазодаги проекциялари орқали ўрганиш ўзлаштиришнинг асосий вазифасидир. Ушбу кўникмаларни шакллантиришда тренажёрлардан фойдаланиш ушбу жараён самарадорлигини сезиларли даражада оширади. Компьютер графикасига боғлиқ ишларни бажариш учун сиз машқларни таклиф қилишингиз мумкин: “текисликда обектларни ҳосил қилиш”, “фазода обектларни ҳосил қилиш” “текисликда ва фазода алмаштириш”, “тасвирларни тасвир текислигида ҳосил қилишда геометрик проекциялардан фойдаланиш”, “сплайн функциялардан фойдаланиб тасвирлар ҳосил қилиш”, “талабаларни фазовий тасаввурини кенгайтириш”, “тасвирларни ҳосил қилиш билан график саводхонликни ошириш” ва ҳ.к. Ўқув машғулотлари ва самарали фаолият учун математик терминлардан фойдаланиш босқичида баён мазмунига асосланган сўзларни боғлаш операциялари ҳал қилувчи аҳамиятга эга бўлади. Тасвирланадиган фазовий шакллар кўникмаларни шакллантириш учун сиз талабаларни тасаввурларини бирлаштириш учун ҳаракатларга ўргатиш учун тренажёрлардан фойдаланишингиз мумкин. Масалан, “Фазовий шаклни тўғри танлаш” вазифаси. Компьютер графикаси бошқа фанлардан ўзининг асосий усули тасвирлаш усули билан фарқ қилади, компьютер графикаси умумкасбий фанлардан бири ҳисобланиб, ўзининг тасвирлаш услублари ёрдамида талабаларнинг фазовий тасаввурларини кенгайтириш, тасвирларни ясаш ва уларни ўқий билишга ҳамда муҳандислик масалаларини график усулда баён этишга ёрдам бериш кўникмаларни шакллантириш учун баёндаги бўшлиқни тўлдириш машқлари бажарилади. Масалан, сиз талабалардан тасвирларни ясашда муҳандислик масалаларини график усулда баён этишни сўрашингиз мумкин. Ёки саволга жавоб бериш учун фазовий объектни танлаш учун топшириқ беришингиз мумкин. Бундай машқларни тезда бажариш, тежалган вақт ҳисобига ўрганилаётган тасвирларни ҳосил қилишда компьютер графикаси масалаларини кўпайтиришга имкон беради.

Интерактив тренажёрлар жуда кўп афзалликларга эга:

- Улар дарснинг турли босқичларида, талабаларнинг фронтал ёки индивидуал ишларида, дарсдан ташқари мустақил ишлашда, бўшлиқларни

бартараф этишда, бошланғич вазифаларни ечишда тажриба тўплашда фойдаланишлари мумкин.

- Бундай қўлланмаларда иллюстрациялардан фойдаланиш талабаларга тасвирларни ҳосил қилиш учун қўшимча имконият яратади.
- Тренажёрдан дарсдан ташқарида индивидуал ишлаш учун ҳам фойдаланиш мумкин: масалан, имтиҳонга тайёргарлик кўриш ёки талаба касал бўлганда ёки уйда масофадан ўқитиш учун.
- Тренажёрлардан интерактив доска билан ишлашда ёки проектор ва экран билан ишлашда фойдаланиш мумкин.

Компьютер графикасини ўқитишда интерактив тренажёрлардан фойдаланиш самарали натижаларни беради. Бундан ташқари, ўқув жараёнида интерактив электрон тренажёрлардан фойдаланган ҳолда, ўқитувчидан буни эпизодик, тартибсиз бажармасликни талаб этади, акс ҳолда улар ўқув натижаларига таъсир қилмайди. Шу сабабдан ўқитувчидан ҳам педагогик маҳоратни талаб қилади.

ЭКОЛОГИЯ ФАНИНИ ЎРГАНИШДАГИ ИННОВАЦИОН ТЕХНОЛОГИЯЛАР

Қодиров Ф.М., Саидова Г.Э., Агзамова М.Р., ТАТУ

2017 - 2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясида белгиланган вазифаларни сўзсиз амалга ошириш, республика ҳудудларидаги экологик муаммолар ечимига таълим тизимини жорий қилиш билан ҳисса қўшиш, ўсиб келаётган ёш авлоднинг экологик саводхонлигини ошириш, экологик онги ва экологик маданиятини шакллантириш ва ривожлантириш, экологик таълим ва тарбия жараёнини самарали ташкил этиш долзарб масалалардан бири ҳисобланади.

Экологик муаммоларнинг тобора глобал аҳамият касб этиб бораётганлиги инобатга олиниб, сўнгги йилларда муҳим устувор вазифалар билан бир қаторда атроф муҳит муҳофазаси, экологик маданият, экологик таълим-тарбия, экологик маърифат масалаларига алоҳида эътибор берилмоқда.

Экологик таълимнинг долзарблиги мамлакатимиз табиати, экотизимлари, атроф муҳитни беқарорлик ва издан чиқишдан асраш, аҳолининг экологик

маданиятини ошириш, ушбу ўта жиддий, ҳаётий масалаларга аҳолининг барча қатламлари, айниқса, ёшлар ҳисса қўшиши зарурлиги билан белгиланади.

Бироқ, экологик таълимни амалга ошириш жараёнининг тизимли таҳлили экологик таълимни ташкил этишда бу борадаги ислоҳотларни тўлиқ рўёбга чиқаришга тўсқинлик қилувчи жиддий муаммо ва камчиликлар сақланиб қолаётганлигини кўрсатмоқда.

Глобал ўзгаришлар даврида таълим-тарбияга эхтиёж ортиб боради. Чунки ҳаёт ўзгариш суръатлари тезлашади. Бу бир томондан, турли халқлар ҳаёт сохаларида имконият доирасида умумий жиҳатларни, қулайликларни яратиб берса, иккинчи томондан ахборот макони кенгаяди. Турли мақсад ва манфаатларга йўналтирилган ҳар хил ғоя, қарашлар, уни тарғибот қилиш технологиялари ижтимоий онг ва тафаккурига таъсир кўрсатиш мақсадида “жозибадор”лигини оширган холда самарадорликка эришиш учун ҳаракат қилади.

Таълим муассасаларида ўқитиш жараёнида ўқувчилар онгини ҳозирги экологик муаммолар моҳиятини очиб берувчи билимлар билан бойитиш ва шу билимларни уларнинг амалий фаолияти, ижтимоий меҳнати билан мустаҳкамлаб бориш мақсадга мувофиқ. Бундай масъулиятли вазифани ҳал қилиш учун ўқитувчидан шу соҳа бўйича билимга, педагогик маҳоратга, юксак экологик маданиятга эга бўлиш, шунингдек, тинимсиз изланиш, ўрганиш талаб қилинади.

Замонавий мутахассис экологик тафаккурга эга бўлиши ва уларнинг экологик оқибатларини ҳисобга олган ҳолда тўғри қарор қабул қила олиши керак. “Экология” фанини ўрганиш экологик саводхонликни оширишга ёрдам беради. Замонавий таълимни ривожлантиришнинг истиқболли йўналишларидан бири илғор ахборот технологиялари ва педагогик ғоя ва ёндашувларни ўзаро боғлашдир.

Интерфаол таълим – билиш фаолиятини ташкил этишнинг махсус шакли. Бу жуда аниқ ва олдиндан мақсадларни назарда тутади. Мақсад – ўқувчи ёки тингловчи ўз муваффақиятини, ўқув жараёнини ўзи унумли қиладиган ақлий компетентлигини ҳис этадиган қулай ўқув муҳитини яратиш, билим ва кўникмалар бериш ҳамда машғулот тугагандан сўнг муаммоларни ҳал қилиш устида ишлаш учун база яратишдир.

Ўзбекистон Республикасида рўй бераётган сиёсий, иқтисодий ва ижтимоий ўзгаришлар жамиятнинг турли соҳаларига, жумладан, таълимга нисбатан янгича ёндашувларни тубдан белгилаб бермоқда.

Ҳозирги вақтда кимё саноатининг ривожланиши инсоният учун кўплаб қулайликлар яратмоқда, қолаверса атроф - муҳит билан боғлиқ айрим муаммолар мавжуд. Бу муаммоларни ҳал етиш учун ихтисослашган кадрлар тайёрлашда муҳим рол ўйнайдиган кам чиқинди технологиялар яратилмоқда.

Замонавий мутахассис экологик тафаккурга эга бўлиши ва уларнинг экологик оқибатларини ҳисобга олган ҳолда тўғри қарор қабул қила олиши керак.

“Экология” фанини ўрганиш экологик саводхонликни оширишга ёрдам беради. Мазкур фаннинг дарсларида қўйидагиларга алоҳида эътибор берилади:

– ҳозирги даврда мавжуд экологик муаммолар ва уларни ҳал этиш йўллари;

– атроф-муҳитни муҳофаза қилишни бошқаришни ташкил етиш;

– табиатдан оқилона фойдаланишни бошқаришнинг экологик механизми ва тамойилларини таърифлайди;

– атроф-муҳит муаммоларини ҳал қилишнинг муқобил ечимлари, саноат корхоналарининг атроф-муҳитга таъсири, экологик таълим ривожланашида инновацион технологияларнинг роли, нефт ва газ саноатидаги экологик муаммолар ва уларнинг ечимлари, кимё ва кимёвий технологияларда атроф-муҳит муҳофазаси;

– экологик барқарорликни таъминлаш орқали инсонлар саломатлигини асраш, соҳада экологик тоза, ресурс ва энергия тежовчи технологияларни қўллаш.

Замонавий педагогик тушунчаларда ўрганиш фақат ўқитувчидан ўқувчига билимларни узатиш жараёни сифатида қаралмайди. Замонавий ахборот технологиялари талабаларга турли замонавий ўқув воситаларини тақдим этади. Анъанавий дарслик ва қўлланмалардан ташқари, талабаларга қўйидагилар таклиф қилиниши мумкин:

– компьютер ўқув дастурлари;

– электрон ўқув қўлланмалар;

– билимларни синаш ва назорат қилишнинг компьютер тизимлари;

– электрон маълумотномалар ва энциклопедиялар;

– ўқув аудио ва видео материаллар;

– интернетга жойлаштирилган ахборот материаллари.

POPS формуласи - бу усул мунозарали масалаларни, муайян позитсияни эгаллаш керак бўлган машқларни муҳокама қилишда, шунингдек, ижтимоий муаммолар билан боғлиқ бошқа дарсларни ўтказишда фойдалидир.

Мақсад: Дарс давомида талабалар аргументлар ёки фикрларни ишлаб чиқиш ва уни ривожлантириш учун масалани оддий форматда тақдим этиш.

Бу уларга ўз фикрларини ойдинлаштиришга, шунингдек, фикрларини аниқ ва лўнда шаклда шакллантириш ва тақдим этишга ёрдам беради.

Амалга ошириш тартиби: PAMN усулининг 4 та босқичини ўз ичига олган материаллар тарқатилади.

P – позиция - фикрингизни билдиринг.

A – асослаш - фикрингизни сабабини келтиринг.

M – мисол - сабабини тушунтириш учун мисол келтиринг.

N – натижалар - фикрингизни умумлаштиринг.

Мисол учун,

P – мен бино ичида чекаётган одамларга қаршиман.

A – чекиш хонадаги ҳамма учун зарарли.

M - тадқиқотлар шуни кўрсатадики, тамаки чекиш ўпка саратонига олиб келади, деб кўрсатди.

N - шу сабабли бино ичида чекишга қаршиман.

“Ақлий хужум” нинг эвристик диалоги бир қатор психологик-педагогик қонуниятларга асосланган, лекин улар шакллантирилишидан олдин бу методни педагог сифатида муҳокама қилиш керак. Ушбу методни ихтирочиларининг таъкидлашича, ғояларни якка тартибда емас балки биргаликда ишлаб чиқариш самаралироқдир. “Ақлий хужум” жараёнида ижодий муаммони ҳал қилишда иштирокчиларнинг фаоллигини ошириш воситаси сифатида ишлайди.

Таълим тизимида таълим муассасаларининг ахборот ресурслар, кадрлар ва ахборот базаси янада мустаҳкамланиб, таълим жараёни энг янги ўқув-услубий мажмуалар ва илғор педагогик технологиялар билан тўла қондирилмоқда.

Экологик билим ва тушунчалар, табиатни муҳофаза қилиш, экологик хавфсизлик масалалари жаҳон ҳамжамиятининг умумий глобал муаммоси ҳисобланади. Ҳар бир халққа хос бўлган экологик таълим ва тарбия миллий характер, урф-одат ва анъаналар ва миллий ўз-ўзини англаш ва уларнинг намоён бўлиши, ўзгариши ва ривожланиши каби масалалар ҳам эколгик тарбия доирасида тадқиқ қилинади.

ПРОБЛЕМЫ ПОДГОТОВКИ СПЕЦИАЛИСТОВ ПО ЗВУКУ И ВИДЕО ТЕХНОЛОГИЯМ ДЛЯ ТЕЛЕВИДЕНИЯ

Абдурахимова С.В., ТУИТ

Процесс обучения в ВУЗах не представляется сегодня без аудиовизуального представления любой темы. И все это можно добыть с помощью интернета. Поэтому обучение просто требует наличие интернета на занятиях. Студенты уже не желают заучивать материал, они надеются на интернет. Но интернет тоже штука хитрая, и, если студент не в теме, то и пользование им может только навредить.

Подготавливая специалистов по телевизионным технологиям, то есть специалистов, работающих со звуком и видео, мы столкнулись с тем, что сейчас вся обработка аудио и видео материала идет с применением компьютерных технологий, поэтому знание компьютера и информационных технологий для наших специалистов имеет сейчас приоритетное значение.

В нашей республике именно в университете информационных технологий открыли факультет телевизионных технологий, что отвечает требованиям времени. В Ташкентском университете информационных технологий есть факультеты, изучающие мобильную связь, программирование, что очень полезно для обучения наших специалистов, поскольку, судя по тенденциям развития кино и теле технологий, именно в этом направлении будут идти изменения.

Всем новым технологиям компьютерной обработки изображения мы обучаем на кафедре Аудиовизуальных технологий. Озвучивание начинается с записи сигналов звука, которая осуществляется в студиях и в студийных условиях. Часть звуковых сигналов записывается на диск одновременно с записью сигналов изображения в процессе видеозаписи. Другие сигналы звука могут быть записаны на отдельный носитель записи с помощью специализированных средств звукозаписи (цифровых магнитофонов, многоканальных накопителей звука, звуковых станций). Возможны случаи записи звука «под видеограмму», когда актер озвучивает видеограмму в процессе ее воспроизведения, наблюдая изображение.

Наконец, могут осуществлять несинхронную запись звука, когда этот звук не связан непосредственно с данным изображением. Управляет записью звука звукорежиссер, который с помощью пульта звукорежиссера формирует звуковую картину, объединяя сигналы от различных источников сначала в

группы, а затем объединяя групповые сигналы с определенной обработкой в стереофонические сигналы двухканальной или многоканальной стереофонии Наиболее продуктивной для создания ТВ передач является многоканальная запись звука, которая позволяет не только гибко использовать записанный на отдельных «дорожках» звуковой материал, но и значительно экономить средства за счет резкого снижения потребности в повторной записи групп исполнителей. Полученные сведенные фонограммы хранят в фонотеках (видеофонотеках) и в дальнейшем используют как исходный материал для озвучивания и сведения видеофонограмм. Звуковую часть программы (звукоряд) записывают на том же носителе записи, на котором записана видеочасть программы (видеоряд), с соблюдением всех необходимых временных соотношений.

Весь этот технологический процесс создания телевизионной передачи, оставаясь постоянным, меняется непрерывно с изменением устройства аппаратуры для съемки видео и звукозаписи. Меняются задачи: создание объемного теле-изображения, стереозвучание телевизионного вещания, меняются телевизионные телеприемники, выставляя новые требования к качеству изображения и звука.

Вычисления на базе графических ускорителей - перспективное и постоянно прогрессирующее направление в области визуализации. Подобные высокоэффективные технологические решения заметно увеличивают производительность, что особенно важно в работе над дорогостоящим видеорядом фильма. 2020 год поставил новые задачи в обучении и подготовке специалистов для телевидения. Обучение стало более самостоятельным для студентов и принесло новые задачи для преподавателей, которым пришлось быстрее осваивать технологии видеоконференций, придумывать новые технологии обучения и контроля знаний на дистанционном обучении с применением новых информационных технологий. Заинтересовать студентов разрабатывать новые устройства или программы для работы со звуком и видео, самое главное автоматизировать процессы обработки и выдачи аудиовизуального материала в эфир без изучения программирования невозможно, поэтому уделять внимание именно этим направлениям - наша ближайшая задача.

“ФРАКТАЛЛАР НАЗАРИЯСИ ВА ФРАКТАЛ ГРАФИКА” ФАНИНИ ЎҚИТИШДА ЗАМОНАВИЙ ПЕДАГОГИК ТЕХНОЛОГИЯЛАР

Анарова Ш.А., Қаюмова Г.А., Самидов М.Н., ТАТУ

Таълим муассасаларида инновацион педагогик технологиялар ва ўқитишнинг замонавий техник воситаларини қўлланилиши кадрлар сифатига салмоқли таъсир кўрсатади. Инновацион педагогик технологияларни ривожланиши эса бевосита ахборот технологиялари ривожига, улардан таълим берувчилар ва олувчиларнинг фойдалана билиш даражасига боғлиқдир. Демак, педагогик технологияларни ривожи кадрлар тайёрлаш сифатига, кадрлар сифати эса ишлаб чиқариш технологияларини такомиллашувига таъсир кўрсатади. Шу сабабли, педагогик ва ишлаб чиқариш технологиялари бир - бири билан узвий боғлиқ ҳолда, ахборот технологиялари ривожи асосида такомиллашиб бориши, шунингдек ахборотлар макони таълим ва ишлаб чиқариш маълумотлари билан бойитилиб борилиши зарурдир.

“Кластер” методи. Бу усул олдиндан мавжуд билимлар, мавзу бўйича тушунчалар заҳирасига асосланади. Ўқитувчи асосий (таянч) сўзни доскага ёзади, талабалар асосий сўзни тўлдирувчи ёки ушбу сўз ечимига боғлиқ сўзларни айтишади. Ўқитувчи талабалар томонидан айтилган сўзларни “Кластер” атрофига тўплаб, мантиқий занжир ҳосил қилади. Мазкур фаннинг асосий тушунчаларидан бири ҳисобланган “Фрактал” тушунчасининг кластер усули орқали ўрганиш схемаси 1 - расмда келтирилган.

Балиқ скелети методи. Ушбу технология катта муаммоларнинг ечимини топишга қаратилган. Юқори қисмида муаммолар тури ёзилса, пастки қисмида эса муаммолар ечимига қаратиган тадбирлар ёки ушбу муаммолар бўйича мисоллар ёзилади (2-расм). Бу метод талабаларда мавзу юзасидан муайян масала моҳиятини тасвирлаш ва ечиш қобилиятини шакллантиради. Уни қўллашда талабаларда мантиқий фикрлаш, мавзу моҳиятини ёритувчи таянч тушунча, маълумотларни муайян тизимга келтириш, уларни таҳлил қилиш кўникмалари ривожланади.



1 - расм. “Фрактал” тушунчасининг кластер методи орқали ўрганиш схемаси

Ундан фойдаланиш қуйидагича амалга оширилади:

1) ўқитувчи талабаларни методни қўллаш шарти билан таништиради;
2) талабалар кичик гуруҳларга бириктирилади;
3) гуруҳлар топшириқларни бажаради;
4) гуруҳлар ўз ечимларини жамоага тақдим этади;
5) жамоа гуруҳларнинг ечимлари юзасидан муҳокама уюштиради.

Талабалар топшириқларни қуйидаги тасвир асосида бажаради:



2 - расм. Газлама ва гиламларга замонавий дизайндаги нақшларнинг мураккаб фрактал кўринишдаги тузилишларни геометрик моделлаштириш технологиясини ишлаб чиқариш мавзуси бўйича балиқ скелети

Маъруза машғулотларини шу тарзда педагогик технологияларидан фойдаланиб олиб бориш юқори самарадорликка эришиш имкониятини беради деб ҳисоблаймиз.

ИННОВАЦИИ И ИНФОРМАЦИОННО-ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ СИСТЕМЫ В ПЕДАГОГИКЕ

Атаджанов Ш.Ш., Рахманова Г.С., Турсунова А.А., ТУИТ

Педагогическая инновация – это нововведения в педагогической деятельности, изменения в содержании и технологии обучения. Педагогические инновации направлены на повышение эффективности воспитания и образования: введение в цели, содержание, организацию совместной деятельности учителя и учащегося.

Главным показателем инновации является прогрессивное начало в развитии вуза по сравнению со сложившимися традициями и массовой

практикой. Поэтому инновации в системе образования связаны с внесением изменений:

- в цели, содержание, методы и технологии, формы организации;
- в стили педагогической деятельности и организацию учебно-познавательного процесса;
- в систему контроля и оценки уровня образования;
- в систему финансирования;
- в учебно-методическое обеспечение;
- в систему воспитательной работы;
- в учебный план и учебные программы;
- в деятельность учителя и студента.

В историческом плане масштаб (объем) нового всегда относителен. Новизна носит конкретно-исторический характер, то есть она может возникать раньше «своего времени», со временем стать нормой или устареть. В процессе развития вуза, а возможно, и образовательной системы в целом, учитывают:

- абсолютную новизну (отсутствие аналогов и прототипов);
- относительную новизну;
- псевдоновизну (оригинальничанье), изобретательские мелочи.

Типы нововведений в вузе группируются по разным основаниям. Первая классификация нововведений основана на соотнесенности нового к педагогическому процессу, протекающему в школе или вузе.

Интенсивно развивается международное образовательное пространство. Поэтому мировое сообщество стремится к созданию глобальной стратегии образования человека независимо от места его проживания и образовательного уровня.

Все страны объединяет понимание, что современное образование должно стать международным. То есть университетское образование приобретает черты поликультурного образования. Оно развивает способность оценивать явления с позиции другого человека, разных культур, иной социально-экономической формации. При этом в университете не только сохраняется дух свободы научного творчества, но и содержательно обогащаются все учебные курсы. В мире проявляется стремление к интеграции разных типов высших учебных заведений (под эгидой классического университета) в научно-образовательные мегаполисы континентального, межрегионального и государственного значения. В разных странах наблюдается объединение университетов с промышленными комплексами. Так формируется база для

научных изысканий и подготовки уникальных специалистов для современных фирм и предприятий.

На сегодняшний день система образования в Республики Узбекистан перешел в этап развития. При данном виде образования усвоение знаний, умений, навыков из цели образования становится средством развития способностей. Меняется критерий ценности преподавателя, его ценят не зато, что он много знает, а за то, что умеет организовать процесс саморазвития обучаемого и самого себя. Базовый уровень знаний превращается из цели обучения в средство развития познавательных, творческих, личностных возможностей.

ИКТ – мощное средство обучения и познания. Средства информационных технологий в образовании должны формировать определенную систему, которая предполагает: понимание сущности учения и обучения; роли преподавателя и учащегося в педагогическом процессе; взаимоотношений преподавателя и учащегося; оснащения рабочих мест преподавателя и учащегося.

Накопленный опыт применения ИКТ в различных сферах образования позволяет:

- организовывать различные исследовательские работы;
- обеспечивать оперативно консультационную помощь из научно-методических центров вузов всем обучающимся;
- создавать сеть дистанционного обучения и повышения квалификации кадров;
- формировать коммуникативные навыки, культуру общения, а также навыки исследовательской работы, моделируя работу научной лаборатории, творческой мастерской;
- развивать умения и навыки «добывать» информацию из разнообразных источников, обрабатывать ее с помощью современных компьютерных технологий, хранить ее и передавать на дальние расстояния своим партнерам.

Средства компьютерной телекоммуникации позволяют обеспечить учебный процесс учебно-методическим материалом, обратной связью между преподавателем и учащимся, доступам к отечественным и зарубежным информационным системам, доступом к электронным библиотекам.

Дистанционное образование, основанное на использовании современных информационных и коммуникационных технологий, позволит осуществить многоцелевые, в том числе трансдисциплинарные, образовательно-профессиональные программы, доступные различным социальным группам и

слоям населения. Особое значение дистанционное образование имеет для развития образовательных учреждений в сельской местности, в отдельных районах, а также для сферы повышения квалификации и переподготовки специалистов.

По мнению специалистов, дистанционное обучение обходится на 50% дешевле традиционных методов образования, при этом затраты на подготовку специалиста составляют около 60% затрат на подготовку специалиста при традиционной форме обучения. Относительно низкая себестоимость обучения обеспечивается за счет использования концентрированного представления и унификации учебного материала, ориентированности технологий на большое число обучающихся, а также за счет эффективного использования технических средств.

Перспективность системы образования заключается в том, что она (система) должна быть способна вооружать не только знаниями, но и формировать потребность в самостоятельном овладении ими, в умениях и навыках самообразования, а также обучить творческому (креативному) подходу к знаниям в течение всей активной жизни человека. В итоге образование должно предоставить человеку разнообразие образовательных услуг, позволяющих учиться непрерывно, обеспечивая возможность получения послевузовского обучения. Для этого каждому необходимо построить ту образовательную траекторию, которая наиболее полно соответствует образовательным и профессиональным способностям индивида. В XXI веке нужно обеспечить переход от принципа «образование на всю жизнь» к принципу «образование через всю жизнь».

ИМКОНИЯТИ ЧЕКЛАНГАН БОЛАЛАРНИ ЎҚИТИШДА ЗАМОНАВИЙ АУДИО МАҲСУЛОТЛАР (АУДИО КИТОБЛАР)ДАН ФОЙДАЛАНИШ ИМКОНИЯТЛАРИ

Боймуродов Б.Э., Қурбонов С.К., Чўллиев Ш.И., ТАТУ

Республикамизда таълим соҳасида олиб борилаётган ислоҳотларнинг бош мақсади давлатимиз келажагига мустаҳкам пойдевор қуришдан иборат. Бу ислоҳотларнинг яққол далили сифатида Республикамизда 2020 йилни “Илм-маърифат ва рақамли иқтисодиётни ривожланитриш” йили деб эълон

қилинганини мисол қилсак бўлади. Бундан ташқари Ўзбекистонда охирги йилларда қабул қилинаётган қарор ва фармонларнинг аксарияти таълимни ривожлантириш ва таълимда тенгликни таъминлашга қаратилмоқда. Бугунги кунда махсус эхтиёжманд болалар таълим тарбияси долзарб масалага айланиб қолмоқда. Республикамизда алоҳида ёрдамга муҳтож болаларни ривожланиш даражаси, имконияти ва нуқсон хусусиятлари ҳамда қобилиятларига кўра махсус ёки умумтаълим тизимда билим олишини амалга ошириш мақсадида инклюзив таълим сиёсати амалга оширилиб борилмоқда.

Инклюзив таълим - барча болаларнинг эҳтиёжларини ҳисобга олган, ҳуқуқ ва қобилиятларини ҳурмат қиладиган, ижтимоий адолат ҳамда тенгликка эришишни мақсад қилиб олган таълим тизимидир.

Инклюзив таълимни имконияти чекланган болаларнинг таълим жараёнига интеграция қилиш ҳамда ижтимоий адолат ва тенгликни бош мақсад қилиб олган жараёндир. Инклюзив таълим таълим олувчиларни, шу жумладан, ногирон болаларни ҳам ўзлари хоҳлаган мактабда ўқиши мумкин, деб хулоса чиқаради. Боланинг ногирон бўлиб қолишига жамият, ундаги муҳит, тушунмовчиликлар, йўл қўйилган хатолар сабабчи бўлган. Демак, унинг ўқиши учун ҳам шу жамиятнинг ўзи жон куйдириши шарт.

Бола ҳуқуқлари халқаро Конвенсиядан келиб чиқиб, яхши мактаб таълимини уч хил ибора билан таърифлаш мумкин, яъни:

- мос келувчи;
- ривожлантирувчи;
- инклюзив;

Махсус эҳтиёжли болалар, бошқа болалар, ўқитувчи ва тарбиячилар фаолияти инклюзив таълимда ўзига хос ўрин тутади.

Демак; *инклюзив таълим махсус эҳтиёжли, ногирон, кўзи ожиз болалар ҳам фақат махсус мактабларда эмас, балки соғлом болалар ўқийдиган умумтаълим мактабларида ҳам таълим-тарбия олишлари мумкин эканлигини эътироф этади.* Бунинг учун эса мактаб ҳам, ўқитувчи-тарбиячилар ҳам инклюзив таълим тизимига тайёр бўлиши, мактаб даражаси, жисмоний шароит ва ўқишга имкон омиллари шу таълим талабларига тўла жавоб бериши керак.

Ўзбекистон Республикиасида ногирон болалар билан боғлиқ таҳлил ва дастлабки баҳолаш ишлари 1966 йилда бошланган. Ҳозирги кунда Ўзбекистонда 250000 га яқин турли кўринишдаги ногирон болалар (16 ёшгача) таълим олиш эҳтиёжига эга. Ногирон болалар учун таълим билан биргаликда махсус хизматлар ташкил этиш лозим.

Имконияти чекланган ва эшитиш нуқсонига эга бўлган болалар, полиемиелит билан касалланганлар, ақли заиф болалар, нутқида нуқсони бор ва соқов болаларга мўлжалланган 86 та махсус таълим ва аралаш махсус муассасалар, 982 та махсус болалар боғчалари мавжуд.

Ўзбскистонда махсус таълим соҳасида қуйидаги тадбирлар амалга оширилмоқда:

- ёрдамга муҳтож болалар учун мослашувчан ва кўп қиррали таълим тизимини яратиш;
- миллий таълим стандартлари асосида ёрдамга муҳтож болаларга мўлжалланган ўқув қўлланмалар сифатини яхшилаш;

таълим муассасаларининг моддий-техника базасини мустаҳкамлаш;

- ногирон болалар билан ишлашга ихтисослашган халқаро ташкилотлар билан ҳамкорлик алоқаларини кенгайтириш;
- кўзи ожиз болалар учун мўлжалланган турли китоблар, методологик адабиётларни чоп этиш;- махсус талим соҳасида кадрлар тайёрлаш.

Ота-оналар қишлоқ шароитида ёрдамга муҳтож болаларига талаб даражасида ёрдам кўрсатиш имкониятига эга эмас. Биринчидан, моддий томондан имконият чекланганлиги, иккинчи томондан эса, ёрдамга муҳтож болаларнинг гўдаклигидан улорнинг нуқсонларини аниқлаш учун ўқитувчи ва психологларнинг малакаси талаб даражасида эмас.

Шу сабабли амалга оширишимиз зарур бўлган вазифаларимизнинг асосий мақсади ҳам айнан имконияти чекланган, ногирон, кўзи ожизлар учун енгиллик яратишдан иборат. Амалга ошириладиган ишлар имконияти чекланган, кўзи ожизлар учун билим олишда енгилликлар яратади. Уларниг ҳаёлот дунёсида овозлар орқали янги бир олам пайдо бўлади, янгича таассуротларга эга бўлишади. Энг асосийси имконияти чекланганларга ўқув дарсликларни, ўзбек ва жаҳон адабиётини ўзлаштиришда бир қанча қулайликлар яратади. Қўйилган мақсадга эришиш учун энг аввало миллий аудио контентни ишлаб чиқиш зарур. Бунинг учун қуйидагидарни амалга ошириш зарур:

- аудио китоб учун матнларни танлаш ва тайёрлаш. Китоб учун танланган жанр ва китоб ўқилиши учун мўлжалланган аудитория қизиқишларидан келиб чиқиб, аудиокитоб учун матн танлаш ёки сценарий тайёрлаш лозим. Агар биз аудиокитобларимизни ўзбек, рус ва инглиз тилларида ҳам ёзишни инобатга оладиган бўлсак матн танлашда тилшуноснинг роли жуда муҳим ҳисобланади.
- ижрочи танлаш (суҳандон). Ҳар бир аудиокитоб учун ижрочи танланади.
- аудиокитоб матнлари билан ишлаш. Аудиокитобнинг ҳар бир ўқувчилари ҳам “саҳифа” билан ишлайвермайди. Буни яхши ёки ёмон деб айтиш қийин. Бунда

жуда эътиборли ёндашиш лозим. Матн билан ишлашда ижрочи қийин жойларини ажратиб кўрсатиши, қийин сўзларга урғуни тўғри қўйиш, четдан кириб келган сўзларни ажратиб кўрсатиш, уларнинг тўғри талаффузини таъминлайди.

Texnika fanlarining asosi bo‘lgan Fizikani o‘qitishni takomillashtirish zamonaviy muxandislik ta’limining dolzarb muammosi bo‘lib hisoblanadi. Muxandislik ta’limining rivojlanish bosqichidan boshlab, fizika laboratoriya darslari muxandis-texniklarni tayyorlashda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Laboratoriya darslarining nazariy ta’limga nisbatan ahamiyati ma’lum bir davrda oshishi va kamayishga qaramasdan, hech bir davrda laboratoriya darslaridan voz kechilmagan. Ba’zi davrlarda laboratoriya darslari fanni o‘zlashtirishda asosiy bosqich sifatida qaralgan. Hozirgi vaqtda elektronning solishtima zaryadini aniqlashning turli xil usullari ma’lum: magnitli fokuslash usuli, magnetron usuli, Child-Langmuir usuli, optik usullar va boshqa usullar. Eng oddiylaridan biri bu magnetron usuli bo‘lib, unda zaryadlangan zarralar oqimi bir vaqtning o‘zida o‘zaro perpendikulyar yo‘naltirilgan elektr va magnit maydonlari orqali boshqariladi.

Magnetron sifatida silindrsimon anodli va anod o‘qida joylashgan to‘g‘ri chiziqli katodli elektron naychadan foydalanish mumkin. Anod va katod o‘rtasida doimiy kuchlanish qo‘llaniladi, bu esa radiusli elektr maydonini hosil qiladi. Chiroqqa solenoid qo‘yiladi, u orqali to‘g‘ridan-to‘g‘ri oqim oqadi va anod o‘qi bo‘ylab yo‘naltirilgan doimiy magnit maydon hosil qiladi (1-rasm).



1-rasm – Magnetron

1 - katod;
2 - anod;
3 - elektromagnit.

Qizdirilgan katod chiqaradigan elektronlar, magnit maydon bo‘lmaganda, ularning traektoriyasining YOX tekisligiga proyeksiyasi to‘g‘ri chiziq segmentlari bo‘lishi uchun anodga siljiydi (2-rasm).

A - anodt;
K - katod.

Solenoiddagi oqimni yo‘naltirsangiz, uning magnit maydoni Lorens kuchi bilan harakatlanuvchi elektronga ta'sir qiladi:

$$F_L = e[\vartheta, B], \tag{1.1}$$

bu erda ***e*** - elektron zaryadi;

υ - elektronning tezligi;

B - magnit maydon induksiya

B magnit maydoni induksiya vektorining yo‘nalishi parma qoidasi bilan belgilanadi. Lorens kuchining yo‘nalishi zaryad belgisini hisobga olgan holda vektor qoidasi bilan aniqlanadi. Kuch vektori har doim elektronlar tezligi vektoriga perpendikulyar. Bu shuni anglatadiki, Lorens kuchi markazlashtiruvchi kuch bo‘lib, u elektron XOY tekisligida harakat qilganda quyidagiga tengdir.

$$evB = \frac{m\vartheta^2}{r} \quad \text{yoki} \quad \frac{e}{m} = \frac{\vartheta}{Br} \tag{1.2}$$

Xulosa

Elektronning solishtirma zaryadini aniqlash uchun magnetron usuli yordamida, zaryadlangan zarralar oqimi bir vaqtning o‘zida o‘zaro perpendikulyar yo‘naltirilgan elektr va magnit maydonlari orqali boshqariladi. Solenoiddagi oqimni

yo‘naltirsangiz, uning magnit maydoni Lorens kuchi bilan harakatlanuvchi elektronga ta’sir qilishiga doir laboratoriya ishlarini bajarish talabalarda amaliy ko‘nikma va malakalarni shakllantirish bilan birga talabalarga elektr va magnetizim bo‘limlarining o‘zaro uzviy bog‘liqligini tushunib olishlariga yordam beradi.

FIZIKADAN KO‘P MODULLI LABORATORIYA QURILMASIDA BOLSMAN TAQSIMOTINI O‘RGANISH

Abduraxmonov K.P., Haydarov K.B., TATU

Tabiatdagi fizik jarayonlardan biri, metall temperaturasi xona temperaturasiga teng bo’lsa, chiqish ishini engish uchun etarli bo'lgan kinetik energiyaga ega elektronlar soni nihoyatda kam bo’ladi. Temperatura oshishi bilan bunday elektronlar soni sezilarli darajada ortadi.

Ushbu ishning maqsadi Bolsman taqsimotini termoelektronlar tokining temperaturaga bog'liqligini o'rganish, shuningdek elektronlarning metalldan vakuumga chiqish ishini aniqlashda. Boltsman taqsimotini o'rganishning mantiqiy tajribaviy usuli, bu potentsial maydonning turli nuqtalarida izotermik gaz zarralari kontsentratsiyasini o'lchashdir. Shu bilan birga, zarrachalarning potentsial energiyasi doimiy ravishda o'zgarib turadigan yoki hech bo'lmaganda bir qator diskret qiymatlarni qabul qiladigan maydonni tajriba orqali amalga oshirish juda qiyin vazifadir. Zarrachalarning potentsial energiyasi faqat ikkita qiymatga ega bo'lishi mumkin bo'lgan holat juda sodda bo’lib ko'rinadi. Ushbu holat, agar o'rganilayotgan gaz sifatida elektron gaz tanlangan bo'lsa, u holda, ikki fazali tizimlarda, masalan, metall - vakuumda amalga oshiriladi.

Metall va vakuumdagi elektronlarning potentsial energiyalari chiqish ishi bilan farq qiladi. Chiqish ishi deganda,elektronlarni metalldan vakuumga chiqishida engib o’tishi kerak bo’lgan potensial to’siq tushuniladi.

Vakuumdagi elektronlar kontsentratsiyasining (termoemissiya elektronlari yoki termoelektronlar) metall temperaturasiga bog'liqligini o'lchash orqali, munosabat bajarilishi haqida fikr yuritish mumkin, hamda elektronlarning metalldan chiqish ishini aniqlash mumkin.

Termoelektronlar kontsentratsiyasini to‘g'ridan-to‘g'ri o'lchash qiyin masala, shuning uchun, odatda termoelektronlar toki konsentrasiyaga bog‘liq bo’lgan munosabatdan aniqlanadi

$$I = \frac{1}{4} en\upsilon S \tag{1.2}$$

bu yerda, e - elektron zaryadi ; υ - yo'nalishli harakatning o'rtacha tezligi; S - metall sirti yuzasi. $\frac{1}{4}$ qiymat elektronlarning barcha harakat yo'nalishlarida teng ehtimolli ekanligini ko’rsatadi. (1.2) ifodaga asosan nafaqat kontsentratsiya, balki o'rtacha tezlik ham temperaturaga bog'liq. Molekulyar-kinetik nazariyaga ko'ra, bu bog'liqlik $\upsilon = \sqrt{\frac{8kT}{\pi m}}$ ifoda bilan beriladi, bu yerda m zarrachaning massasi.

EKSPERIMENTAL QURILMA TA’VSIFI

Tajribalarni o’tkazish uchun qurilma stol ustida joylashtirilgan blokdan iborat bo’lib, uning sxematik ko’rinishimetall - vakuum tizimi ikki elektrodli elektron lampada amalga oshiriladi (2.1-rasm). Lampa elektrodlaridan biri - katod 1 spiral 2 yordamida qizdiriladi, u orqali cho’g’lanish toki deb nomlangan I_H tok o'tkaziladi. Katod chiqaradigan emittirlangan elektronlarni lampaning ikkinchi elektrodi - anod 3 yig'adi. Tajriba qurilmasi sxemasi 2.2-rasmda keltirilgan.Transformator T ning birlamchi o’rami 220 V li o'zgaruvchan tok manbaiga ulanadi.



1 - katod; 2 –cho’g’lanish tolasi; 3 - anod.

2.1 - rasm. Ikki elektrodli elektron lampa (vakuumli diod)

Ikkinchi o’ram diodli ko'prik (мост) VD ga ulangan, to’g’rilangan kuchlanish o'zgaruvchan rezistor R va ampermetr A orqali L lampani cho’g’langan spiralga beriladi. R rezistor cho’g’lanish tokini boshqarish imkonini beradi va shuningdek katod temperaturasni hamboshqarish imkonini beradi. Anod zanjiriga to’g’ri yo'nalishda manba ulanadi, bu esa to’yinish tokini aniqlashga imkon beradi, yani bu katoddan emitterlangan barcha elektronlar tokidir.

FIZIKADAN KO‘P MODULLI LABORATORIYA QURILMASIDA HAVONING ISSIQLIK O‘TKAZUVCHANLIGINI O‘RGANISH

Abduraxmonov K.P., Tohirov U.X., TATU

Havoning issiqlik o‘tkazuvchanligini o‘rganishdan maqsad issiqlik o‘tkazuvchanlik hodisasini o‘rganish, ushbu hodisaning asosiy qonunlarini o‘rnatish va havoning issiqlik o‘tkazuvchanlik koeffitsiyentini aniqlashdir.

T_1 va T_2 temperaturali ikkita sirt orasidagi gazni ko‘rib chiqadigan bo‘lsak (1-rasm), temperaturalar o‘zgarmas bo‘lsa, u holda gaz orqali statsionar issiqlik oqimi o‘rnatiladi. Soddalashtirish maqsadida, bir o‘lchovli masalani ko‘rib chiqish uchun gazni ikkita parallel tekislik orasiga joylashtiramiz va X o‘qini shu tekisliklarga perpendikulyar yo‘naltiramiz. Shunda X o‘qi bo‘ylab temperatura gradyenti $\frac{dT}{dx}$ bo‘ladi.



1-rasm. Issiqlik o‘tkazuvchanligi hodisasining ko‘rinish chizmasi.

Gaz bilan chegaralangan sirtlarga parallel bo‘lgan Y va Z o‘qlari bo‘ylab temperatura o‘zgarmaydi. dS = dy dz maydoni orqali issiqlik oqimi Fur’ye qonuni-ga

binoan, dt vaqt ichida dS maydoni orqali o‘tadigan δQ issiqlik miqdori quyidagiga teng bo‘ladi:

$$\delta Q = -\chi \frac{dT}{dx} dSdt. \tag{1}$$

Bu yerda χ - issiqlik o‘tkazuvchanlik koeffitsiyenti bo‘lib, u gaz turi, bosim, temperatura shartlari orqali aniqlanadi.

Agar yassi silindrsimon havo o’tkazgichning konfiguratsiyasini hisobga olsak, **δQ** uchun ifoda biroz o‘zgaradi. Issiqlik manbai radiusi R_1 va uzunligi l radiusdan ancha kattaroq bo‘lgan silindr bo‘lsin (2-rasm).



2-rasm. Silindrsimon konfiguratsiyadagi issiqlik o‘tkazuvchanlikning ko‘rinishi.

Bunday holatda birlik uzunlikdagi va radiusi r $(R_1 < r < R_2)$ bo‘lgan silindr yuzasi orqali o‘tuvchi issiqlik oqimi quyidagiga teng:

$$\frac{\delta Q}{dt} = -\chi \frac{dT}{dr} 2\pi rl \tag{2}$$

$P = \frac{\delta Q}{dt}$ belgilash kiritib, (2) ni qayta yozamiz:

$$P = -\chi \frac{dT}{dr} 2\pi rl \tag{3}$$

Endi issiqlik qabul qiluvchisi R_2 radiusli silindrsimon sirt bo‘lib, ichki va tashqi silindrlarning temperaturasi mos ravishda T_1 va T_2 ga teng deb hisoblasak, (3) ni R_1 dan R_2 oralig'ida r bo‘yicha integratsiyalash mumkin. Integratsiyalash natijasida quyidagini olamiz:

$$\ln \frac{R_2}{R_1} = \chi \frac{2\pi l}{P} (T_1 - T_2) \tag{4}$$

Bundan quyidagi ifodani olish mumkin:

$$(T_1 - T_2) = \frac{1}{\chi}\frac{P}{2\pi l}\ln\frac{R_2}{R_1}. \qquad (5)$$

(5) ifoda haqiqiy laboratoriya ishlarini bajarish uchun ishchi formula sifatida qaralishi kerak.

Eksperiment o‘tkazish uchun mo‘ljallangan tugunning elektr sxemasi 3-rasmda ko‘rsatilgan.



3-rasmdagi chizmaning asosiy elementlari quyidagi ko‘rinishda o‘zaro ta’sir qiladi. ***T*** transformator ***D*** diodli ko‘prikda **1 V** gacha kuchlanish beradi. Qabul qiluvchi ***Ц*** silindrning o‘qi bo‘ylab joylashgan qizigan cholg’amga to‘g’ri kuchlanish kiradi. Cho‘lg’amdagi tok kuchi va kuchlanish mos ravishda ***A*** ampermetr va ***V*** voltmetrlar bilan o‘lchanadi. Qurilmada voltmetr va ampermetrning vazifalari ***PA2*** tomonidan, kalit yordamida 1 holatda kuchlanishni, 2 holatda tok kuchini o‘lchaydigan bitta asbobda amalga oshiriladi. Cho‘lg’am va silindrning temperaturalari ***mV*** millivoltmetrga ulangan ***ТП*** (mis-constantan) termoparalar bilan o‘lchanadi. Millivoltmetrlarning vazifalari kalit yordamida 1 holatda ТП2 (silindir) termoparaga va 2 holatda ТП1 (cho‘lg’am) termoparaga ulangan ***PA1*** raqamli asbobda amalga oshiriladi. **«Нагрев нити»** tarmog’i tomonidan boshqariladigan o‘zgaruvchan ***R*** qarshiligi qizigan cho‘lg’amning tokini sozlash uchun xizmat qiladi.

OBERBEK MAYATNIGI YORDAMIDA TEKIS TEZLANUVCHAN AYLANMA HARAKAT KINEMATIKASI QONUNIYATLARINI O‘RGANISH

Abduraxmanov K.P., Xolmedov X.M., TATU

Fizika fanidan ma’ruza mashg‘ulotlarida talabalarga fizikaviy qonuniyatlar asosan nazariy ma’lumotlar orqali tushuntiriladi. Nazariyaning to‘g‘riligi pirovardida uning xulosalarining tajribava amaliyot natijalariga muvofiqligi bilan belgilanadi. Har qanday fizik hodisani o‘rganishda tajriba va nazariya bir xil darajada zarurdir. Fizikani o‘qitishda laboratoriya ishlari alohida o‘rin egallaydi, bu talabalarga nafaqat fizikaviy hodisalar va qonuniyatlarni tushunishga, balki ularni amalda qo‘llashga imkon beradi. Fizika fani bo‘yicha laboratoriya ishlarini o‘tkazishda bir necha maqsad qo‘yiladi. Birinchidan, talabalarga o‘lchov asbob-uskunalari bilan ishlashni o‘rgatib, ularda tajriba o‘tkazish ko‘nikmasini yuzaga keltirish. Ikkinchidan, tajribalarn ibiror reja asosida olib borib, natijalar ko‘zlangan maqsadga mos kelishini va vujudga kelishi mumkin bo‘lgan o‘lchash xatoliklariga ahamiyat berish. Uchinchidan, tajriba natijalarini tahlil qilib, to‘g‘ri xulosa chiqarish. Bularning hammasi malakali muxandis-bakalavr tayyorlash imkonini beradi.

Fizikadan laboratoriya ishlarini zamonaviy jihoz va vositalar yordamida o‘tkazish har doim dolzarb masala bo‘lib qolmoqda. Bu esa laboratoriya qurilmalarini takomillashtirish, aniqlik darajasi yuqori bo‘lgan elektron qurilmalardan foydalanish, imkon darajasida har bir laboratoriya ishini bajarish orqali talabalar fizik jarayonlar va qonuniyatlar haqida to‘laroq ma'lumotlarga ega bo‘lishlarini taqazo etadi.

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetida fizika fanidan laboratoriya mashg‘ulotlarida foydalanishga tavsiya etilayotgan yangi ko‘p modulli laboratoriya qurilmalari stendi fizika fanining turli bo‘limlari bo‘yicha bir qancha fizikaviy jarayonlarni va qonuniyatlarni o‘rganishga mo‘ljallangan. Mazkur qurilmalarda laboratoriya ishini bajarish asosida talaba fizik jarayon, hodisalar, qonuniyatlar va ularni xarakterlaydigan fizik kattaliklar to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘ladilar.

Tekis tezlanuvchan aylanma harakat kinematikasi qonuniyatlarini Oberbek mayatnigi yordamida o‘rganishga mo‘ljallangan laboratoriya qurilmasida talabalar aylanma harakat qilayotgan jismning kinematik tavsiflari (aylanishlar sonining vaqtga bog‘liqligi, burchakli tezligi, burchakli tezlanishi va h.k.) ni aniqlashlari mumkin. Mazkur laboratoriya ishida o‘zgarmas kuch momenti ta'sirida aylanma

harakat qilayotgan jism va uning alohida qismlarining burchakli tezlanishi o‘zgarmay qolishi ko‘rsatib beriladi.

Qurilmada aylanishlar sonini o‘zgartirib borish imkoni mavjud bo‘lib, aylanishlarga ketgan vaqt elektron hisoblagichlar orqali o‘lchanadi, bunda optik datchiklar qo‘llanilganligi sababli o‘lchash aniqligi ortadi. Mayatnikda aylanma harakat qiluvchi jismning qismlarini aylanish markazidan turlicha masofada o‘rnatgan holda o‘lchashlarni olib borish imkoniyati yaratilgan.

Laboratoriya ishini bajarish davomida o‘lchash natijalarini tegishli jadvallarga yozish, hisoblashlarni amalga oshirish va olingan natijalar asosida grafiklar chizib, xulosalar chiqarish talab etiladi. Tajribadan olingan ma’lumotlar bilan nazariy ma’lumotlarning bir-biriga mos kelishi solishtiriladi.

Talabalar mazkur laboratoriya ishini bajarish orqali jismlar tekis tezlanuvchan aylanma harakat qilishi uchun qanday shartlar bajarilishi kerakligini, o‘zgarmas kuch momenti ta’sirida yuzaga keladigan jismlarning aylanma harakati kinematikasi qonuniyatlarini bilib oladilar, burchakli tezlik va burchakli tezlanish vektorlarining qanday yo‘nalganligini, chiziqli va burchakli kinematik tavsiflar orasidagi bog‘lanishlarni tahlil qiladilar va xulosa chiqaradilar.

FIZIKADANKO‘P MODULLI LABORATORIYA QURILMASIDA MAXWELL TAQSIMOTINI O‘RGANISH

Ochilova O.O., Abduraxmonov K.P., TATU

O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.Mirziyoyev o‘z ma’ruzalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratish va shu orqali mamlakat iqtisodiyotining raqobatdoshligini oshirish muhimligini bir necha bor ta’kidlagan. Ushbu texnologiyalarning rivojlanishida fizika muhim ro‘l o‘ynaydi. Keyingi vaqtlarda xalqaro integratsiya, yangi yo‘nalishlar va kashfiyotlar fizikani texnika oliy o‘quv yurtlarida o‘qitishni tubdan o‘zgartirish, uni o‘qitishga innovatsion yondashishni talab qilmoqda. Fizika fanini o‘qitishda talabalarga faqatgina nazariy bilim berish bilan chegaralanib qolmaslik kerak. Talabalar fizik jarayonlarni to‘liq tasavvur qila olishlari, keyinchalik olgan ko‘nikmalarini qo‘llay olishlari uchun, ular tajribalar ham bajarishlari kerak. Shu sababli, hozirgi kun talablariga javob bera oladigan ko‘p modulli laboratoriya qurilmalaridan foydalangan holda, fizika fanining har bir bo‘limiga mos keluvch laboratoriya ishlarini bajarish imkoniyati yaratilgan.

Ushbu maqolada Maxwell taqsimotini o‘rganish bo‘yicha laboratoriya ishi yoritib berilgan.

Klassik mexanika qonunlariga muvofiq harakatlanadigan ko‘plab zarrachalardan tashkil topgan fizikaviy tizimlarda muvozanat holatida zarrachalarning tezliklar bo‘yicha ma’lum bir statsionar taqsimoti o‘rnatiladi. Ushbu taqsimot statistik qonunga bo‘ysunishi Maxwell tomonidan ishlab chiqilgan. Zarralarning tezliklar bo‘yicha taqsimot qonunini chiqarishda Maxwell ideal gazning nazariy modelidan foydalandi, ya’ni u zarrachalar o‘rtasida o‘zaro ta’sir kuchlari yo‘q deb taxmin qildi. Real gazlar ideal gaz modeli orqali yaxshi tavsiflangan va shunga ko‘ra, agar ular etarli darajada siyrak bo‘lsa, Maxwell qonuniga bo‘ysunadi. Geliy, vodorod, azot, kislorod va hatto havo kabi ba’zi gazlar normal sharoitda, ya’ni xona haroratida va normal atmosfera bosimida xossalari jihatidan ideal gazdan kam farq qiladi.

Zarrachalarning tezliklar bo‘yicha Maxwell taqsimotiga bo‘ysinuvchi fizikaviy tizimga yana bir misol - bu termokatod tomonidan vakuumga chiqariladigan elektronlar tizimidir. Termokatoddan tashqaridagi elektron gaz deyarli har doim juda siyraklashgan bo‘lganligi sababli, elektronlar orasidagi Kulon o‘zaro ta’sir kuchlarini hisobga olinmaydi, bunday elektron gazlarni ideal gaz ko‘rinishda deb hisoblasa bo‘ladi. Xuddi shu narsani elektron gaz razryadi plazmasi to‘g’risida ham aytish mumkin.

Ushbu ishning maqsadi termokatod chiqaradigan elektronlarning tezliklar bo‘yichataqsimotini o‘rganish va olingan taqsimotni Maxwell taqsimoti bilan taqqoslashdir.

Ushbu ishda elektronlarning termoemissiya manbai elektron lampaning qizdirilgan katodihisoblanadi. Potentsial to‘siqni engib o‘tgan elektronlar katod-anod oralig’ida elektron bulutini hosil qiladi. Turli sabablarga ko‘ra, bu bo‘shliqning turli nuqtalaridagi elektronlarning konsentratsiyasi barqaror holatda ham har xil bo‘lishi mumkin. Shu bilan birga, intervalning istalgan nuqtasida zarrachalarning tezlik bo‘yicha taqsimoti Maxwell qonuniga bo‘ysunadi, bu v_x dan $v_x + dv_x$ gacha bo‘lgan oraliqda tezliklarixo‘qi bo‘yicha proektsiyalarga ega bo‘lgan,birlik hajimdagi elektronlar soni dn_{vx} qiymatni aniqlaydi:

$$dn_{v_x} = n\left(\frac{m}{2\pi kT}\right)^{1/2} \exp\left[-\frac{mv_x^2}{2kT}\right] dv_x, \qquad (1)$$

bu erda m - elektron massasi; k - Boltsman doimiysi; T – absolyut temperatura; n - elektronlarning konsentratsiyasi.

Termoelektronlarning tezliklar bo‘yicha taqsimoti eksperimental ravishda o‘rganish uchun ishlatiladigan asosiy usul bu to‘xtatuvchi maydon usulidir.

QURILMA TAVSIFI

Tajribalarni o‘tkazish uchun qurilma stol ustida joylashtirilgan blokdan iborat bo‘lib, uning sxematik ko‘rinishi 1 rasmda ko‘rsatilgan. Gorizontal panelda boshqaruv elementlari, vertikal panelda boshqarish va o‘lchash moslamalari joylashgan. Boshqaruv elementlariga quyidagilar kiradi: 1 "Сеть" tugmasi; 2, 3 tutqichlari "Давление", "Реверс" elektroprivodni boshqarish uchun (bu ishda foydalanilmaydi); 4tugmala boratoriya ishini tanlash uchun, 5tutqichlar "Накал лампы", 6 "Напряжение анода", 7 "Нагревнити" (ishlatilmaydi); 8, 9 kalitlar10, 11o‘lchash moslamalarining ishlash rejimlari. 12 lampochka tanlangan laboratoriya ishini ko‘rsatadi. Elektron lampa yoqish sxemasi 2-rasmda ko‘rsatilgan. O‘zgaruvchan rezistor ***R*** katodning cho‘g’lanma tokini sozlash, V_1 va ***A*** asboblar esa mos ravishda kuchlanish va cho‘g’lanma tokni o‘lchash uchun xizmat qiladi. To‘xtatuvchi kuchlanish manbai to‘xtatuvchi potentsiallar farqini V_2 voltmetr bilan o‘lchash imkonini beradi. Qurilmaning gorizontal panelida joylashgan 5 tutqich ***R*** rezistorni boshqarish va to‘xtatuvchi kuchlanishini boshqarish uchun 6 tutqich ishlatiladi



1-rasm. Laboratoriya qurilmasining tashqi ko‘rinishi.

Anod toki mikroammetr bilan o‘lchanadi. Ushbu qurilmada cho‘g’lanma kuchlanishi va tokni bitt aasbob 11 (PA2) tomonidan amalga oshiriladi (1-rasm), bu 8 tugmacha yordamida voltmetr (1-holat) yoki ampermetr (2-holat)) rejimiga o‘tkaziladi. To‘xtatuvchi kuchlanishi va anod toki raqamli moslama 10 (PA1) bilan o‘lchanadi, uning o‘zgarishi 9 tugmacha bilan amalga oshiriladi. 1-holatda, qurilma to‘xtatuvchi kuchlanishini, 2-holatida – lampaning anod tokini o‘lchaydi. PA1

moslamaning ostidagi o‘rta ustunidagi koeffisientlarni asbob ko‘rsatkichlariga ko‘paytirish kerak.



2- rasm. Qurilmaning sxemasi

Xulosa qilib, shuni aytish mumkinki fizika kursini izchil o‘rganish, boshqa fanlarda ham juda samarali bo‘lgan fikrlash, intuitsiya, mantiqiy usulni rivojlantiradi.Ushbu laboratoriya ishini bajarishda talabalarda qurilmada ishlash, sxemalarni o‘qish ko‘nikmasi rivojlanadi, bu esa yuqori kurslarda o‘tiladigan fanlar bilan integratsiyasini ta‘minla bberadi.

FIZIKADAN KO‘P MODULLI LABORATORIYA STENDI ORQALI MEXANIK TEBRANISHLARNI O‘RGANISH

Abduraxmonov K.P., Ismoilov Sh.X., TATU

Ushbu ishning maqsadi fizik mayatnik tebranishlarini Oberbek mayatnigidan foydalangan holda tajribada o‘rganish, tebranish chastotasini mayatnikning inersiya momentiga bog‘liqligini aniqlash, shuningdek mayatnik inersiya momentini qo‘shimcha yuklarsiz aniqlashdir.

Qo‘zg‘almas o‘q atrofida tebranayotgan har qanday qattiq jismni fizik mayatnik deb atash mumkin. Bizning holatimizda fizik mayatnikni assimmetrik Oberbek mayatnigu bajaradi, uning tebranish o‘qiga nisbatan inersiya momenti tayoq va baraban inersiya momenti hamda qo‘shimcha yuklarning inersiya momentlari yig‘indisidan iborat bo‘ladi. Tizimning tebranishlar tenglamasini yozish uchun 1-rasmni ko‘rib chiqamiz, buerda I – mayatnikning tebranishlar o‘qiga nisbatan inersiya momenti, θ – muvozanat holatdan og‘ish burchagi, M – mayatnikni muvozanat

holatiga qaytaradigan kuch momenti, $r_1 \div r_4$– mos ravishda 1 ÷ 4 – qo‘shimcha yuklar massa markazlaridan aylanish o‘qiga bo‘lgan masofa.



1- rasm. Fizik mayatnik

Mayatnikning tebranish tenglamasi quyidagidan iborat:

$$I\frac{d^2\theta}{dt^2} = -M\,. \tag{1}$$

M kuch moment barcha qo‘shimcha yuklarning og‘irlik kuchi momentlari yig‘indisidan iborat bo‘ladi. Agar 3-va 4-yuklar simmetrik joylashgan bo‘lsa, uni quyidagicha yozish mumkin:

$$M = mg(-r_1 + r_2)\sin\theta\,, \tag{2}$$

bu yerda m–bitta yukchaning massasi.

Kichik θ uchun (1) tenglamani quyidagicha yozish mumkin:

$$\frac{d^2\theta}{dt^2} + \frac{mg}{I}(r_2 - r_1)\theta = 0\,. \tag{3}$$

Ushbu tenglamaning yechimi – garmoniktebranishlardir.

$$\theta = \theta_0\cos\omega t\,, \tag{4}$$

bu erda θ_0 – burilishburchagining amplituda qiymati,

$$\omega = \sqrt{\frac{mg(r_2 - r_1)}{I}}\,. \tag{5}$$

Shu bilan birga, ushbutajribada amplituda o‘lchanmaydi, so‘nishlarning kichik qiymatlarida chastotaning $\omega = \sqrt{\frac{mg(r_2 - r_1)}{I}}$ qiymatidan og‘ishini e’tiborga olmasa ham bo‘ladi.Shunday qilib, (5) ifoda tebranish chastotasini mayatnik parametrlari bilan aniq bog‘laydi deb hisoblashimiz mumkin. Biz $r = r_3 = r_4$ bilan 3-va 4-qo‘shimcha yuklardan tebranish o‘qigacha bo‘lgan masofani belgilaymiz. Agar (5) ifodani qayta yuzib chiqsak quyidagi ifodani olamiz.

$$\omega^2 = \frac{mg(r_2 - r_1)}{I_0 + m(r_1^2 + r_2^2) + 2mr^2}, \qquad (6)$$

bu yerda I_0–mayatnikning qo‘shimcha yuklarsiz inersiya momenti.

$I_1 = I_0 + m(r_1^2 + r_2^2)$, $r_2 – r_1 = l$ belgilashlarni kiritib, (6) tenglamani T ga nisbatan yechsak quyidagi ifoda kelib chiqadi:

$$T^2 = \frac{4\pi^2 I_1}{mgl} + \frac{8\pi^2}{gl} r^2. \qquad (7)$$



2-rasm . Qurilma схемаси

Mayatnik va qo‘shimcha yuklarning massalari quyida keltirilgan va l ning qiymatini mos masofalarni o‘lchash orqali toppish taklif etiladi.

Eksperimental qurilma tavsifi.

Qurilma (2-rasm) 2 barabanga ulangan to‘rtta simmetrik joylashgan sterjenlardan 1 dan tashkil topgan Oberbek mayatnikidir. Har bir sterjenga erkin harakatlanishi mumkin bo‘lgan qo‘shimcha yuklar 3 o‘rnatilgan. Tebranish davrini aniqlash uchun elektron sekundomer ishlatiladi, unga signal optoelektronli juftlikdan 4 keladi. To‘liq tebranishlar vaqti raqamli displeyda 5 o‘qiladi. Birinchi raqam soniya ekanligini yodda tutish kerak. N tebranishlar soni 6 tugmasi yordamida o‘rnatiladi va sekundomer "Reset" tugmasi 7 bilan nolga tushiriladi.

“ЭЛЕКТРОМАГНИТ ТЎЛҚИНЛАР ВА УЛАРНИНГ БИОЛОГИК ОБЪЕКТЛАРГА ТАЪСИРИ” МАВЗУСИНИ ИННОВАЦИОН ТЕХНОЛОГИЯЛАР АСОСИДА ЁРИТИШ

Рахматуллаева М.Ф., Абдужамилов А.Т., ТАТУ,
Ҳарбий алоқа институти

Бугунги кунга келиб ижтимоий ҳаётнинг ҳар бир жабҳасида замонавий ахборот технологиялари мунтазам равишда кенг қўлланиб келинмоқда. Жумладан, таълим соҳаси ҳам бундан мустасно эмас. Таълим соҳасидаги экспериментал ва инновацион фаолият таълимни модернизация қилиш мақсадида амалга оширилиши, ҳамда янги таълим технологиялари ва ресурсларини ишлаб чиқишга, уларни синовдан ўтказишга ҳамда таълим жараёнига жорий этишга қаратилганлиги 2020 йил 24 сентябрдаги ЎРҚ-637-сонли Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида”ги қонунида ўз аксини топди.

Бундан ташқари, хорижий мамлакатларнинг илғор иш тажрибасини ўрганган Республикамиз олимлари томонидан тавсия этилган педагогик технологиялардан фойдаланган ҳолда таълим муассасаларида табиий фанларни ўқитиш жараёнида педагогик, ахборот-коммуникация технологиялари, электрон таълим ресурслари ва мультимедиа тақдимотларини қўллаш юзасидан тавсия яратиш лозимлиги алоҳида аҳамият касб этмоқда.

Таълим жараёнига тадбиқ этилаётган замонавий ахборот коммуникация технологиялари – интернет тармоғи, мультимедиа, флеш-технология, дастурлаш технологияси, амалий дастурлар мажмуаси, электрон дарсликларни мисол қилса бўлади.

Кузатиш ва изланишлардан маълумки, тебранишлар, уларнинг турлари, айниқса, электромагнит тебраниш ҳамда барча тўлқинлар қатори электромагнит тўлқинни ҳам оддий кўз билан кузатиб бўлмайди.

Олимлар таркибида кам электрон бўлган элементлар водород, аргон натрий таркибидаги ютилиш ҳамда чиқиш спектрларини кузатганлар. Ҳар бир тирик мавжудод: ўсимлик, ҳайвонот дунёси (ҳаттоки, хашоротлар ҳам) таркибига қараб электромагнит тўлқинларни турлича қабул қилади. Ёруғлик таркибидаги электромагнит тўлқинлар ижобий ва салбий бўлиши мумкин.

Электр занжирларида электромагнит тебранишларини ўрганиш шуни кўрсатдики, кучланиш ва ток кучининг ўзгариши, занжирнинг бир қисмидан иккинчисига жуда катта тезликда, яъни 300 000 км/с билан тарқалади. Бу тезлик ўтказгичдаги еркин электр зарядларнинг тартибли ҳаракат тезлигидан жуда кўп

марта зиёда. Электромагнит тебранишларнинг бир нуқтадан иккинчи нуқтага узатилиш механизмини фақатгина майдон тушунчасидан фойдаланиб тушунтириш мумкин бўлди.

$3x10^6$	$3x10^{10}$	$3x10^{14}$			$3x10^{18}$	
Радио тўлқин	Ультра қисқа	Инфра қизил	Кўринадиган Соҳа	Ультра бинафша	Рентген	Гамма нурлари



Тўлқин узунлиги 400 нм (бинафша) дан кичик бўлган (хавода) ёруғлик ультрабинафша (УБ) дейилади, ва тўлқин узунлиги 750 нм (қизил) дан узун бўлган ёруғлик инфрақизил (ИҚ) деб аталади. Гарчиинсонкўзи УБ ва ИҚ ни сезмаса хам, баъзи-бирфотографикфильмларвадетекторларунисезади. Расмдакўрсатилганидек призма камалакдаги7 хилрангниажратаолади.

Инфрақизил нурлардан техникада ва турмушда кенг фойдаланилади. Кечаси кўриш асбоблари ва камералари, жисмлар ва тананинг иссиқлик термографиясини олиш, нишонни иссиқлик нурланишига кўра топиб бориш, инфрақизил иситгичлар, бўялган сиртларни қуритиш, узоқ космик объектларни тадқиқ қилиш, молекулаларнинг спектрини ўрганиш, қурилмаларни масофадан туриб бошқариш (телевизор, магнитофон, кондиционер пултлари) ва шу кабиларда инфрақизил нурлардан фойдаланилади.

Ер сиртига етиб келадиган ултрабинафша нурларнинг миқдори атмосферадаги азоннинг концентрациясига, Қуёшнинг горизонтдан баландлигига, денгиз сатҳидан баландлигига, атмосферада сочилишига, ҳавонинг булутлилигига боғлиқ. Ултрбинафша нурлар инсон терисига таъсир етиб, уни қорайтиради. Кўпгина полимерларнинг ранги ўчади, ёрилади, баъзан тўла парчаланиб кетади. Ультрабинафша нурлардан кундалик турмушда ва техникада кенг фойдаланилади. Ультрабинафша нурлардан хоналарни дезинфикацилаш, қалбаки ҳужжат ва банкнотларни аниқлаш, сув, ҳаво ва турли юзаларни турли бактериялардан зарарсизлантириш, кимёвий реаксияларни жадаллаштириш, минералларни анализ қилиш, ҳашаротларни зарарсизлантиришда ва бошқаларда фойдаланилади.

FIZIKA FANINI O‘QITISHDA MUL’TIMEDIA VOSITALARI VA KOMP’YUTER DASTURLARIDAN FOYDALANGAN HOLDA DARS SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Jumaniyozov I.O., TATU

Jahondagi har qanday davlatda texnika, texnologiyalar hamda ishlab chiqarishning rivojlanishi va natijada yuksak iqtisodiy qudratga ega bo‘lishi shubhasiz, shu mamlakatda ta‘limni, ilm – fanni yuqori darajaga ko‘tarilishi va salohiyatli kadrlar tayyorlanishi bilan uzviy bog‘liqdir. Rivojlangan mamlakatlar tajribasidan ma‘lumki, ta‘limni, ilm – fanni rivojlantirish bilan bir qatorda yuqori salohiyatli, ishlab chiqarishga tez moslashuvchan kadrlar tayyorlash masalalariga katta e’tibor qaratiladi.

Mamlakatimizda ayniqsa, keyingi yillarda ta‘limga, yoshlarning bilim olishiga katta e’tibor qaratilmoqda. Birgina ta’lim tizimini rivojlantirishga oid 10 dan ortiq O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari va Qarorlari qabul qilindi. 2019 yil 8 – oktyabrda «O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to’g‘risida»gi farmoni e’lon qilindi. Respublika iqtisodiyotini rivojlantirish birinchi navbatda tayyorlanayotgan kadrlar sifatiga bog‘liq. Keyingi yillarda turli tarmoqlarda amalga oshirilayotgan islohotlar ushbu masalaning dolzarbligini yana birbor isbotladi.

Keyingi yillarda axborot texnologiyalarining rivojlanishi, dars mashg‘ulotlarini tashkil etishning muhim omili bo‘lib xizmat qilmoqda. Ta‘lim jarayonida mul’timedia vositalaridan va komp’yuter dasturlaridan foydalanish ta‘lim sifatini oshirish kafolatlaridan biridir.

Mul’timedia texnik vositalarini vazifalariga ko‘ra quyidagi turlarga bo‘lib o‘rganish mumkin.

Ma‘lumotlarni audio – (nutqli) kiritish va chiqarish qurilmalari;

Mikrafon, turli eshitish qurilmalari (kalonka, naushnik);

Ma‘lumotlarni ko‘rsatish – raqamli, tasvirva video axborotlarni foydalanuvchiga ko‘rsatuvchi qurilmalar (monitor, proyektor qurilmalari, video karta qurilmasi);

Video va grafik ma‘lumotlarni kiritish qurilmalari – raqamli video kamera, raqamli fotokamera, TV-tyuner, modem.

O‘quv jarayonida qo‘llanilayotgan zamonaviy mul‘timedia texnoloyilaridan biri interfaol elektron doska hisoblanadi. Ular oddiy markerli doskalar kabi ko‘rinishga ega bo‘lib, ularda yozilayotgan har bir matn, grafik, ko‘rinish, chizma, jadval kabilar, tez fursatlarda doska displeyida paydo bo‘ladi.

Elektron doskalarning ta‘limda asosiy afzalliklari quyidagilar:

• Auditoriyada talabalarni diqqat e’tiborini bir ob’ektga yo‘naltirish;

• Dars mavzusiga oid natijalardan nusxa olish, elektron pochta orqali jo‘natish, saqlash imkoniyatlarining mavjudligi;

• Dars jarayonida matn, tovush, animatsiya, grafiklardan birgalikda foydalanish imkoniyatining kengligi;

• Mavzuni tushuntirish jarayonida ma‘lumotlarni tahrirlash va elektron qalamdan foydalanishning mavjudligi.

Respublikamizdagi ta‘lim muassasalari o‘quv auditoriyalarida Activboard interfaol elektron doskalaridan keng foydalanib kelinmoqda. Activboard interfaol elektron doskalari konferensiya prezentatsiyalarini namoyish etish uchun mo‘ljallangan qulay texnika vositasi hisoblanadi. Activboard interfaol elektron doskalar auditoriya a’zolariga ma’lumotlarni yetkazish sifatini oshiradi. Activboard interfaol elektron doskalardan foydalanish auditoriyadagi har bir qatnashuvchining faol ishtirokiga imkon yaratadi. Elektron qalam orqali komp’yuterni sichqoncha kabi boshqarish mumkin. Activboard interfaol elektron doska Windows tizimining istalgan ilovasida ishlay oladi. Infraqizil po‘rtli panel’ yordamida faol ekranni auditoriyaning istalgan joyidan turib boshqarish mumkin. Ulardan keng foydalanilayotgan amaliy ishlardan biri komp’yuter dasturlari yordamida kuzatilishi qiyin bo‘lgan fizik jarayonlarni elektron darsliklar, animatsiyalar, virtual tajribalar va taqdimotlar asosida ko‘rgazmali tushuntirishdir.

Hozirgi kunda bunday dasturlarning bir qanchasi mavjuddir. Misol uchun Word, Exsel, Internet Explorer, Opera, Macromedia Flash Mx, Macromedia Authorware, Adobe Photoshop, Crocodile Physics, Electronics Workbench dasturlaridir.

Word dasturida matnli hujjatlarni yaratish va qayta ishlash, nusxa olish va chop etish; Exsel dasturida matnli va sonly ma’lumotlarni kiritish, oddiy jadvallar yaratish va qayta ishlash, nusxa olish, saqlash va chop etish; Internet Explorer, Opera va boshqa brauzerlardan foydalanib, internetdan zarur bo‘lgan ma‘lumotlarni qidirish va yuklab olish; Animatsiyon roliklar yaratish uchun Macromedia Flash Mx dasturlaridan foydalaniladi. Mul’timedia taqdimot ma’ruzalarini yaratishda Power Point va Macromedia Authorware dasturlaridan foydalaniladi. Elektron o‘quv adabiyotlarini yaratish davomida keng foydalaniladigan tahrirlovchi Adobe Photoshop dasturi orqali rasmlarni tahrirlash, sifatini oshirish uchun foydalaniladi.

Crocodile Physics dasturidan foydalanish fizik jarayonlarni modellashtirish va fizikaning mexanika, elektr, optika va to‘lqin hodisalariga oid tajribalarni kuzatish

imkonini beradi. Bu dastur fizik hodisalarni kuzatish, tajribalar o‘tkazish va turli murakkablik darajasidagi jarayonlarni modellashtirish imkonini beradi .

Fizika fanining elektromagnit jarayonlarini o‘rganuvchi qismi hisoblangan «Elektrvamagnetizm» bo‘limida tajriba ishlarini bajarishda Electronics Workbench dasturidan foydalanish elektrotexnik jarayonlarni tahlil etishni osonlashtiradi. Electronics Workbench dasturi sxematik modellashtirilgan sistema bo‘lib, analogli, raqamli va raqamli-analogli elektr sxemalarni modellashtirish va tahlil qilish imkonini beradi. Dastur bazasida keng tarqalgan elektron komponentlarning katta to‘plami mavjud. Komponentlar qiymatlarini kattaliklar to‘plamidan klavishlar yordamida o‘zgartirish mumkin. Electronics Workbench dasturida tajriba ishlarini bajarish vaqtni tejash imkonini berish bilan birgalikda, alohida joyga ehtiyoj tug‘dirmaydi. Electronics Workbench dasturida sxemalarnino to‘g‘ri yig‘ish asboblarning ishdan chiqishiga va tajriba o‘tkazuvchining hayotiga xavf tug‘dirmaydi.

Oliy ta‘limda ta‘lim sifatini talab darajasiga ko‘tarish uchun, bilimli va yuqori salohiyatli professor-o‘qituvchilardan tashqari, moddiy texnik baza bilan ta‘minlanganligi, zamonaviy axborot texnologiyalariga asoslangan innovatsiyon pedagogic texnologiyalar qo‘llanilishi, aniq va fundamental fanlarni rivojlantirishni ta‘minlaydigan o‘quv va ilmiy – tadqiqot laboratoriyalari tashkil etilganligi, ishlab chiqarish korxonalaridagi mavjud asbob uskunalar va jihozlar kabi, oily ta‘lim muassalarida ham ta‘minlangan bo‘lishi kerak.

Ta‘lim jarayonida talabaga berilayotgan ma‘lumotlarning salmog‘i emas, sifati muhum bo‘lishi kerak. Unda pedagogik texnologiyalarning eng so‘ngi yutuqlari, axborot texnologiyalarining mukammal variantlaridan foydalanish ko‘zda tutiladigan tizimga erishish maqsad–muddaomiz bo‘lishi lozim. Xususan, oily ta‘limda dars jarayoni bir tomonlama bo‘lmasligi, balki talaba faol ishtirokchiga aylanishi zarur.

Darslarni har tomonlama qiziqarli tashkil etish uchun moddiy-texnik bazaning ta‘minlanganligiga alohida e’tibor qaratilishi zarur. Zamonaviy axborot texnologiyalari bilan auditoriyalarni jihozlamasdan turib, ushbu ishlarni amalga oshirish qiyinchiliklarni tug‘diradi. Ta’lim sifatini moddiy texnik bazani tashkil etmasdan turib amalga oshirib bo‘lmaydi.

FIZIKADAN ONLAYN DARSLARDA ELEKTRON TA’LIM RESURSLARIDAN FOYDALANISH

Haydarov K.B., Xalilov S.S., TATU

Keyingi o’n yillik davomida yangi texnologiyalar sohasida ko’plab o’zgarishlar odatiy holga aylandi. O’quv jarayonlarini avtomatlashtirish uchun information tizimlar kiritildi. Bugungi kunda texnologiyalarning ta’lim sohasidagi o’rni va ahamiyati oshib bormoqda. O’quv tarmoqlari kengaydi. Maktablar, universitetlar, kutubxonalar va dunyoning kompyuter sistemasi ma’lumotlar bazasi o’rtasida cheklanmagan axborot almashinuvi yo’lga qo’yilgan. Zamonaviy texnologiyalar xoxlagan ta’lim sohasi bo’yicha ta’lim tajribalari yordamida foydalanish imkoniyatini beradi

Respublikamizda yangi ta’lim tizimiga o’tish munosabati bilan keng qamrovli islohotlar o’tkazilmoqda. Talabalar tafakkurini faollashtiruvchi, chuqurlashtiruvchi va ilmiy-o’quv axborot ko’lamini kengaytiruvchi zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini o’quvga joriy qilish amalga oshirilmoqda. Xususan, Universitetda ham fizika fani aniq fan bo’lganligi uchun dars o’tish jarayonida qonun, ta’rif, tayanch tushunchalar va xulosalarni ob`ektiv baholashda o’quv ilmiy axboro tuzatish jarayonini faol o’qituv texnologiyalari asosida talaba ongiga yetkazishda elektron doskadan samarali foydalanilmoqda. Fizika fanini o’qitishda yuqori samaradorlikni ta’minlashning muhum omili-ko’rgazmali namoyish eksperementlari, o’quv filmlari, o’quv plakatlari slaydlari va multimediyalaridan unumli foydalanishdir. Ma’ruza paytida nazariy bayon qilinayotgan har bir nazariya, qonun, fizikaviy hodisalar, hamda tushunchalar yaqqol namoyish qilinadigan mantiqiy nihoyasiga yetib talaba ongida mustaxkam o’rin oladi.

Ma’ruzalarni elektron doska (ED) yordamida o’tishda talabalarning fikrlash qobiliyatini faollashtirish, uzatilayotgan axborotni samarasini oshirish imkoniyatini fizikaning hamma bo’limlari bo’yicha o’quv filmlari, multimedialari, o’quv plakatlari slaydlari, elektron manbalar yaratish imkoniyatlari mavjud.

Bugungi kunda elektron doskada tayyorlangan qiziqarli ma’ruzalar laboratoriya ishlari elektron darslik sifatida internetga kiritilib ulardan hamma o‘quv muassasalarida ham foydalanish imkoniyati yaratilmoqda, ammo bu resurslarni yaratishda kompleks yondashishgina effekt berishi mumkin. Jumladan yaratilgan resurslar yoki tarmoqda mavjud resurslardan foydalanish didaktik maqsadlarga mos bo‘lmog‘i joizdir.

Masalan, ‘Smart Boord’ texnologiyasi asosidagi elektron doskada resurslardan quyidagicha amaliy tadbirlar bilan foydalanish mumkin:

1-topshiriq: Elektron doska kolleksiyasida va Internetda mavzuga oid resurssaytlarni toping va jamlang.

2-topshiriq: Elektron doska kolleksiyasida mavjud imkoniyatlari va Internetdan olingan resurslar instrumentariy yordamida tayyorlangan mavzuga oid chizmalar tablitsalar laboratoriya ishlari sxemalari va o'qituvchiga ko'rsatish.

3-topshiriq: Elektron doska yordamida hosil qilingan elektron material, taqdimot materiali yoki elektron resursni kolleksiyasida saqlash va axborotlar bazasiaga kiritish.

Biz mazkur didaktik yondashuv asosida umumiy fizika va nazariy mexanikadagi oid ba'zi mavzularni elektron doskada yoritish uchun kerak bo'ladigan yordamchi materiallar yaratdik va elektron doska kolleksiyasida saqlab qoydik. Labaratoriya ishlarini informatizatsiyalash jarayonida elektron doska va shaxsiy kompyuterda qo'llaniladigan Excel, Power Point, Flash kabi dasturiy ta'minot va resurslardan foydalandik. Bu resurslardan foydalanish amalda mavjud bo'lgan kompyuterlar bazasida bemalol, texnik qiyinchiliklarsiz, amalga oshirilish mumkin.

Mazkur asnoda tadbirlarni amalga oshirilish jamiyatni axborotlashtirish davrida pedagogik kadrlarni kasbiy faoliyatga tayyorlash hamda o'sib kelayotgan avlodni hayotga tayyorlash maqsadlarni muvofiq keladi, o'quv jarayonini jadallashtirish, ta'limni faollashtirish vazifa qilib qo'yadi.

MASOFAVIY TA‘LIMDA O‘QUV- JARAYONLARINI MOODLE PLATFORMASINING TO‘LA IMKONIYATLARIDAN FOYDALANISH

Xalilova N.S., Nasimova N.M., TATU

Hozirgi pandemiya sharoitida butun respublikamiz bo‘ylab ta'lim jarayonlari masofaviy ko‘rinishda tashkil etildi. Bu juda murakkab va mas'uliyatli vazifani bajarishda elektron o‘quv platformalari alohida o‘rin tutadi. Bugungi kunda dunyoda juda ham ko‘p elektron o‘quv platformalar mavjud. Odatda ikki xil bepul platformalar mavjud bo‘ladi. Birinchisi muayyan sayt mavjud bo‘lib, foydalanuvchilar unga a'zo bo‘lib ulanishadi va undan foydalanishlari mumkin bo‘ladi, ammo platformaning o‘zi boshqa yerdagi serverda turadi. Ikkinchi tur platform esa foydalanuvchi tomonidan yuklab olinadi, shaxsiy serverga o‘rnatiladi. Bunday platformalar "ochiq manbali ilovalar" deyiladi, ya'ni undan istalgan kishi Umumiy Jamoaviy Litsenziya (GNU General Public License (GPL)) ga amal qilgan holda foydalanishi mumkin. Aniqroq aytiladigan bo‘lsa, foydalanuvchi undan nusxa

olishi, koʻpaytirishi, tarqatishi va hatto undan daromad topish maqsadida foydalanishi mumkin, faqat uning patentiga ega boʻla olmaydi. Shunday platformalar orasida MOODLE platformasi oʻzining koʻp funksionalliligi, moslashuvchan interfeysga egaligi, turli oʻquv tizimlari (reyting, baho, kredit, modul) da ishlatish imkoniyati mavjudliligi va eng muhimi foydalanish mutlaqo tekin ekanligi bilan ajralib turadi. Shu sababli ham bugungi kunda bu platform dunyo boʻyicha eng koʻp foydalaniladigan oʻquv platformasi hisoblanadi. Jumladan, Oʻzbekistonda ham deyarli barcha Oliy ta'lim muassasalarida ushbu platformadan foydalanib onlayn oʻquv jarayonlari tashkil etilmoqda.

Ammo shu oʻrinda ta`kidlash lozimki, bugungi kunda juda koʻpgina oliy oʻquv yurtlarida MOODLE tizimining imkoniyatlaridan toʻla va toʻgʻri foydalanilmayapti. Jumladan, masofaviy ta'lim jarayonida video konferensiyalar tashkil etish uchun juda ko'p hollarda boshqa dasturlarda, xususan ZOOM dasturidan foydalanish uchramoqda. Vaholanki, MOODLE platformasining ichida ham talabalar bilan video - konferensiya tashkil etish imkoniyati mavjud. ZOOM dasturidan foydalanishning noqulay tomoni shundaki, u pullik dastur bo'lganligi sababli, har 40 minutda avtomatik oʻchib qoladi. Undan tashqari ZOOM da tashkil etilgan on-line darslarga talabalarning qatnashishini nazorat qilish uchun oʻqituvchi qatnashuvchilar roʻyxatini har safar yozib olishiga toʻgʻri keladi. MOODLE da video konferensiya tashkil etilganda esa ushbu muammolar vujudga kelmaydi. Undan tashqari konferensiya boʻladigan virtual xona adresi ham aniq boʻladi.

Ikkinchi masala talabalar bilan darsdan tashqari vaqtlarda oʻquv jarayonlariga doir suhbat va xabarlashishlar uchun ijtimoiy tarmoqlar, masalan, telegram, tarmogʻidan foydalanishmoqda. Vaholanki, MOODLE tizimida talabalar bilan aloqa qilish uchun bir qancha imkoniyatlar yaratib berilgan. Jumladan, chat xonasi, tizim ichida shaxsiy xat yozish imkoniyati, va turli masalalarni muhokama qilish uchun forum tashkil etilgan. Ayniqsa forum turli masalalarni talabalar bilan muhokama qilishda juda qulay hisoblaniladi. Chunki unda har bir masala boʻyicha alohida mavzu yaratib qoʻysa boʻladi. Telegram ijtimoiy tarmogʻida esa bunday imkoniyat yoʻqligi sababli, ma'lumotlar aralashib, kerakli masalani topish qiyinlashib ketadi.

Xulosa qilib aytganda, masofaviy oʻqitishda MOODLE platformasidan foydalanilganda uning toʻla imkoniyatlaridan foydalanilsa, ta'limni tashkil etish jarayoni yanada osonroq boʻlgan boʻlar edi. Ushbu plarformaning qoʻshimcha imkoniyatlari haqida http://www.docs.moodle.org saytidan ma'lumot olish mumkin.

VIRTUAL LABORATORIYA ISHLARI ORQALI ELEKTRON DIFRAKSIYASINI O‘RGANISH

Karimov X.N., TATU

Fan va texnikaning taraqqiy etishi natijasida ananaviy laboratoiya qurilmalarining 30-40 % o‘rnini virtual laboratoriya ishlari egallamoqda. Virtual laboratoriya ishlarining afzallik tomonlari bevosita qurilmalar yordamida bajarib bo‘lmaydigan ishlarni kompyuterda virtual amalga oshirish mumkin. Shunday ishlardan biri Elektron difraksiyasini Davisson-Jermer tajribasi orqali o‘rganish virtual laboratoriya ishi. Devission va Jermer o‘z tajribasida massaga va impulsga ega bo‘lgan elektronning to‘lqin xossalarini tushuntirib berdi.

De-Broyl g‘oyalariga asosan, elektronning yoki boshqa bir zarraning harakati to‘lqin jarayoni bilan bog‘liq bo‘lib uning to‘lqin uzunligi va chastotasi

(1) $$\lambda = \frac{2\pi\hbar}{p} = \frac{2\pi\hbar}{mv}$$ (2) $$\omega = \frac{E}{\hbar}$$



1-rasm

De-Broyl gipotezasi tez orada eksperemental ravishda tasdiqlandi. Devisson va Jermer kristal plastinkada sochilayotgan elektronlar dastasi difraksion manzara hosil qilishini kuzatdilar. Shu bilan birga Tomson hamda Tartakovskiy bir-biridan mustaqil ravishda elektron dasta oltin folga (zar)dan o‘tganda difraksion manzara hosil bo‘lishini kuzatdilar.

Tajriba quyidagacha amalga oshirilgan edi(1-rasm); Bir necha o‘n kilovoltli potensiallar farqi bilan tezlashtirilgan elektronlar dastasi yupga metal zardan o‘tib fotoplastinkaga tushgan. Elekton fotoplastinkaga tushganda unga foton kabi ta’sir ko‘rsatgan. Shunday usul bilan hosil qilingan oltin zardagi elektronogramma (2-a rasm) xuddi shunday sharoitda olingan alyuminiy rentgenogrammasi (2-b rasm) bilan taqqoslangan.



2-a-rasm



2-b-rasm

Ikkala manzarada ham bir xil natijalar chiqqan. Shtern va uning xodimlari difraksion hodisasini atom va molekulyar dastalarda ham kuzatilishini ko‘rsatdilar. De –Broyl to‘lqinlari mavjudligini yana bir bor isbotlagan.

Yuqorida bayon qilingan tajribalardan kelib chiqadigan natija shuki, ma’lum tezlikka va yo‘nalishga ega bo‘lgan mikrozarralar dastasi yassi to‘lqin beradigan difraksion manzaraga o‘xshash manzarani hosil qiladi.

Devisson va Jermer tajribasini nazaraiy jihatdan o‘zlashtirishda talabalarda bir qancha muammolar paydo bo‘ladi. Chunki bu jarayonni to‘g‘ridan-to‘g‘ri laboratoriya sharoitada ko‘rsatib yoki kuzatib bo‘lmaydi. Bu virtual laboratoriya ishini bajarish davomida talabalar De-Broyl gipotezasini eksperemental ravishda tasdiqlaydi. De-Broyl to‘lqinlari va elektron difraksiya haqida umumiy tushunchaga ega bo‘ladi.

ФИЗИКА ТАЪЛИМИДА ФАНЛАРАРО БОҒЛАНИШНИ ЎРГАНИШ

Маҳмадиёров А.З., ТАҚИ

Ҳозирги замон ишлаб чиқариши, унинг юқори даражада механизациялашуви, техник жараёнларни бошқариш ва назорат қилишнинг кенг миқёсда автоматлашуви, ахборот технологияларининг қўлланилиши мутахассислардан инженерлик-техник билимларни ишлаб чиқаришнинг илмий тамойилларини тушунишни, фикрлашнинг юқори даражада ривожланишини, ижодий қобилиятга эгаликни талаб этмоқда. Бу сифатларни бўлажак мутахассисларда таълим жараёнида:мактаб, ўрта-махсус ўқув юртлари ҳамда олий таълим муассасаларида ўқитиш даври давомида ривожлантирилмоғи лозим. Савол туғилади: қандай қилиб ўқув режасида вақти чегараланган ўрта умумтаълим, ўрта-махсус таълим ва олий таълимда бу мураккаб ва кўп қиррали масалаларни ҳал этиш мумкин?

Узоқ йиллар бу масалани алоҳида ўқув фани мазмунини, ўқитишнинг услублари ва турларини такомиллаштириш, ўқувжараёнида техник

воситалардан ва муаммоли таълимдан фойдаланиш йўли билан эришиш мумкин деб ҳисобланилган эди. Шу билан бирга мактаб, ўрта-махсус таълим ҳамда олий таълим амалиёти ва ўтказилган тадқиқотишлари юқорида кўрсатилган чораларни амалга ошириш зарурлигини, лекин уларнинг ўзи ўқитиш самарадорлигини ошириш ва таълим олдига қўйилган вазифаларни ҳал этиш учун етарли эмаслигини кўрсатди.

Юқорида келтирилган омилларнинг барчаси педагогика фаниолдига фанлараро боғланиш муаммосини долзарб муаммолардан бирисифатида илгари сурди.

Фанлараро боғланишни биз талабалар билимини илмийлик даражасини оширишнинг дидактик шарти сифатида, уларнинг илмий дунёқарашини шаклланиши, фикрлашининг, ижодий қобилиятининг ривожланишидаги, билимларни ўзлаштириш жараёнини оптималлаштиришдаги роли ва ниҳоят умумий ўқув жараёнини такомиллаштириш шарти сифатида қараб чиқамиз.

Фанлараро боғланишнинг аҳамиятини биз аввало олдинроқбошқа фанда ўрганилган жисмларнинг хусусиятлари, ҳодисалар важараёнлар, улар орасидаги алоқа ва муносабатларни очишда, ҳодисаларнинг ҳар тарафлама боғлиқлиги имкониятларини ўрнатишга доир чуқур ва ҳар томонлама ўрганилган билимларга таяниб бирор фанни ўрганишда талабалар билимининг илмийлик даражасини ошишида турли ўқув фанларини ўрганишда эгалланган билимларни тизимлаштирилиши ва умумлаштирилишида кўрамиз.

Фанлараро боғланишнинг ўрнатилиши илмий дунёқарашнинг шаклланишини таъминлайдики, унинг амалга оширилиши моддий оламнинг яхлитлиги, табиатдаги турли ҳодисаларнинг ўзаробоғлиқлигини ва ўзаро мувофиқлигини очиб бериш учун яхши шароит яратади.

Фанлараро боғланишнинг аҳамияти тўғрисида гапирганда унинг ҳаёт билан боғлиқлик таълимини таъминлашдаги ролини унутмасликлозим. Чунки замонавий ишлаб чиқаришдаги кўпгина техник жараёнлар фақат бир неча фан соҳаларидан олинган билимларни қўллаш асосида тушунарли бўлади. Демак, талабаларни ишлаб чиқариш тамойилларини назарияда ва амалиётда эгаллашга фанлараро боғланишни ўрнатиш орқали тайёрлаш мумкин.

Фанлараро боғланиш талабаларга қуйидаги табиий-илмийтушунчаларни: «материя», «ҳаракат», «модда», «майдон», «энергия»каби тушунчаларни, шунингдек, фундаментал табиий-илмий қонунлар (энергиянинг сақланиш қонуни, массани сақланиш қонуни, электр зарядининг сақланиш қонуни)ни юқори даражада ўзлаштирилишини таъминлашга имкон беради.

Фанлараро боғлиқликнинг талабаларни фикрлаш ва ижодий қобилиятларини ривожлантиришдаги аҳамияти каттадир. Фанлараро боғлиқликнинг таъминланиши талабалар онгида фанлар ўртасидаги ўзаро боғлиқликни вужудга келтиради, бу эса фикрлаш психологиясида жиддий ўзгаришларга олиб келади: фикрлаш тезлашади; эгилувчан бўлади, бу эса ижодий характердаги масалаларни ҳал қилишда жуда муҳимдир.

ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИДА МУЛЬТИМЕДИАЛИ ТАЪЛИМ ВОСИТАЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ

Базарбаев Б.Ж., ТАТУ

Ўзбекистон таълим тизимида амалга оширилаётган кенг қамровли ислоҳотлар таълим-тарбия сифатининг юқори даражада бўлишини таъминлашга қаратилган бўлиб, ушбу йўналишда муваффақиятни белгиловчи асосий омиллардан бири – таълим муассасалари раҳбар ва педагог кадрларининг замонавий билим, кўникма ва малакаларни эгаллаганлиги ҳамда таълимнинг инновацион ахборот-дидактик шаклларини илмий тадқиқ қилиш ҳисобланади.

Бу ўз ўрнида таълим тизимини тубдан ислоҳ қилишни тақозо этмоқда, чунки мукаммал таълим тизими республикамизнинг келажакдаги интеллектуал имкониятларини ва ривожланишини белгилаб берувчи ўқувчи-ёшларни ҳар томонлама ижодкор, мустақил фаолият юритадиган қилиб тарбиялашда ҳал қилувчи рол ўйнайди.

Бугун мамлакатимиз таълим тизимида инновацион технологияларга асосланган таълим-тарбия тизимини такомиллаштириш, унинг миллий заминини мустаҳкамлаш, ижтимоий фаол ва малакали рақобатбардош кадрлар тайёрлашни жаҳон андозалари даражасига чиқариш масалаларида тадқиқотлар олиб борилмоқда. Таълим соҳасидаги сифат ўзгаришлари ва юқори самарадорлик уларнинг жаҳон таълим талаблари билан мослиги ва педагогларнинг келгуси меҳнат фаолиятларида ўзлаштирган компетенциялари қай даражада амалиётга татбиқ қилинаётганлигига боғлиқ.

Таълим-тарбиядаги сифат ўзгаришлари ва юқори самарадорлик эса мазкур соҳага ижобий янгилик киритиш натижасида таълимда сифат ва самарадорлик таъминланиб, педагогик инновацион жараён вужудга келади.

Педагогик инновация – бўлажак мутахассисларни янгича шароитларда ишлашга тайёрловчи жараён бўлиб, у олдинги эгалланган билимлар асосида

таълимда сифат жиҳатидан ўзгаришлар қилиб, юқори самарадорликка эришишга янгича ёндашув қилишдан иборатдир.

Бугунги кунда таълим тизимидаги ислоҳотларнинг муаммолари педагог кадрлар салоҳияти билан боғлиқ. Ўрганиш ва таҳлиллар замонавий педагогнинг касбий компетентлиги, айниқса ахборот-технологиялари, таълимда илғор медиа мехнологиялардан фойдаланиш борасида бугунги кун талабларидан орқада қолаётганини кўрсатмоқда.

Замонавий ахборот технологиялари, шу жумладан мультимедия технологиялари талабаларга ноанъанавий ахборот манбаларидан фойдаланиш имкониятини беради. Ўқитиш сифатини яхшилайдиган воситалардан фойдаланган ҳолда ўқитишнинг принципиал янги шакллари ва усулларини амалга оширишга имкон беради.

Видео ўқув қўлланма ва видеодарсликларни аудиовизуал мультимедиа комплексининг энг самарали воситаларидан бири деб ҳисоблаш мумкин. “Аудиовизуал воситалар уларга вақт ва маконнинг таъсири йўқлиги ва уларнинг визуал оламга чексиз кириб бора олиш имконияти, ҳодисани, объектни, жараённи кўрсатиб бера олиши ёки уларга жуда реал даражада тақлид қила олиш имконияти туфайли замонавий олий таълим муассасаси учун энг мос восита эканлигини кўрсатиб берди”, – таъкидлайди Л.П.Прессман. Ўқув видеодарсларнинг экспресив ва дидактик имкониятлари доирасининг кенглиги уни талабаларга билим бериш жараёнига фаол таъсир кўрсатадиган, уни визуализация қилишнинг кўп қиррали воситаларидан бири сифатида таснифлашга имкон беради.

Видеодарслар ўқув материалини жонли қўллаб-қувватловчи тасвирлар тизими сифатида тақдим этишга имкон беради, бу эса ўрганилган материални ёдлаш ва ўзлаштиришни осонлаштиради. Бунда ўқув машғулотлари ҳар қандай қулай вақтда ва жойда амалга оширилиши мумкин, шу билан бирга талабада аудиторияда шахсий иштирок этиш ҳисси пайдо бўлади.

Шу кеча кундузда Олий таълим муассасаларида яратилаётган видеодарсларнинг ҳам мазмун жиҳатдан, ҳам техник-технологик томонлама сифатли бўлиши муҳим ўрин тутади. Сифатли видеодарсларни яратишга хар қачонгидан ҳам талаб ортган бугунги кунда олий таълим муассасаларида фаолият юритувчи профессор-ўқитувчиларга видеодарсларни тайёрлаш жараёнида эътибор қаратиш лозим бўлган ва видеонинг техник сифатига таъсир кўрсатувчи асосий омиллар ҳақида маълумот бериш, уларни керак бўлса медиакомпетентлик нуқтаи назаридан ТАТУ базасидаги Ўқув медиа марказида тезкор курслар ёки бутун бошли малака ошириш курслари сифатида қайта тайёрлаш, малакаларини ошириш зарур.

Видеодарслар асосида таълим беришнинг назарий ва амалий аҳамияти шундаки, агар талабаларга мутаҳассислик фанларини ўқитиш жараёнида медиа

технологиялардан, видеодарслардан фойдаланилса, бу талаба томонидан ўқув материалини ўзлаштириш даражасини ва мавзуни ўрганишига бўлган қизиқишни оширишга ёрдам беради ва шу сабабли билим сифатини оширади.

Таълимнинг инновацион электрон-дидактик шакллари, ҳусусан медиатаълим – таълим олувчининг қобилиятлари ва қизиқишларини ҳисобга олган ҳолда таълим мазмунини, таълим мақсадига мос равишда лойиҳалаш, педагогик, ахборот-коммуникацион услублар, шакллар ва ўқитиш усулларини татбиқ этишга йўналтирилган психологик, умумпедагогик, дидактик ва шахсий услубий тартиблар асосида амалга оширилувчи таълим берувчи ва таълим олувчи ўртасидаги ўзаро таъсир тизимидир.

Таълим жараёнида видеодарслик материалларини ишлаб чиқиш ва улардан фойдаланишга қўйиладиган дидактик ва услубий талаблар билан бир қаторда олий таълим муассасасида ўқитиш самарадорлигига таъсир қилувчи психологик талаблар мажмуини ҳам бажариш зарур. Истисносиз барча мультимедиа манбаларига қўйиладиган талаблар қаторига қуйидаги психологик талаблар киради:

– аввало ўқув материалини видеодарсда тақдим этиш, билиш жараёнининг оғзаки-мантиқий, ҳиссий-идрок этиш даражаларига мос келиши керак. Видеодарслари идрок этиш (биринчи навбатда визуал, шунингдек, эшитиш, ҳис қилиш), диққат (унинг барқарорлиги, концентрацияси, тарқалиши ва диққат доираси), визуализация (концептуал) каби когнитив психик жараёнларнинг ўзига хос хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда яратилиши ва фойдаланилиши керак.

– видеодарсларда материални тақдим этиш олий таълим муассасаси талабаларининг билимлари ва тилни билишини ҳисобга олган ҳолда яратилиши ва фойдаланилиши керак. Билимларнинг тақдимотини тингловчиларнинг маълум бир ёш гуруҳи тушуниши керак, аммо бу жуда оддий бўлмаслиги керак, чунки бу талабанинг дарсга нисбатан диққатининг пасайишига олиб келиши мумкин.

– ўқув видеодарслардан фойдаланиш олий таълим муассасаси талабаларида ҳам таълимий, ҳам мантиқий фикрлашни ривожлантиришга қаратилган бўлиши керак.

Камчиликларга қарамай, видеодарсликлар ўқув мақсадларида тобора кўпроқ фойдаланилмоқда, замонавий мультимедиа технологиялари юқори сифатли видеодарслар яратишга имкон беради. Мультимедиа технологияларидан фойдаланган ҳолда таълимни ташкил этиш шакллари талабаларни ўқув жараёнида фаол иштирок этишларига, мутахассислик фанларидан ўз билимларини яхшироқ намойиш этишларига олиб келади.

Хулоса қилиб шуни таъкидлаймизки, видеодарслар ёрдамида ўқитишнинг амалий тажрибасига асосланиб университетда айнан видеодарс шаклида

ўқитиш тартибига ўтишнинг афзалликлари унинг камчиликлариша қараганда кўплигини таъкидлаш лозим. Чунки улар самарадорлик жиҳатидан бошқа таълим шаклларидан, масалан веб-семинарлардан ва аудиториядаги анъанавий маърузалардан иқтисодий нуқтаи назардан олиб қараганда ҳам тежамкорроқдирлар.

ТАЪЛИМНИНГ ИШЛАБ ЧИҚАРИШ БИЛАН ИНТЕГРАЦИЯСИ

Базарбаев Б.Ж., Жолдасов Ш.Б., ТАТУ

Таълим ва ишлаб чиқаришнинг интеграцияси – бу ўзаро манфаатлар асосида таълим ва ишлаб чиқариш ташкилотларнинг имкониятларини биргаликда, ҳамкорликда фойдаланишдир. Энг аввало интеграция жараёнлари кадрлар тайёрлаш ва қайта тайёрлашда кенг қўлланилади ва ҳар ҳил йўналишларда ва шаклларда амалга оширилади. Ушбу йўналишдаги мавжуд тажрибани умумлаштириш, ўрганиш ва таҳлил қилиш интеграция жараёнининг барча иштирокчиларига катта фойда келтиради. Интеграция ОТМ да танланган мутахассислик бўйича талабани тайёрлашда таълим ва ишлаб чиқариш ташкилотларнинг ўзаро тўлдириб бирлашишни назарда тутади. Бугунги кунда бундай интеграциянинг ҳар ҳил шакллари бор: илмий-таълим-ишлаб чиқариш комплекслари, технопарк ва технополислар, талаба ва мутахассисларнинг ижодий жамоалари, “завод-втузлар” ва ҳокозо. Ушбу шакллар ҳам ҳар ҳил шароитлар ва конкрет таълим муассасасида ўз хусусиятларга эга.

Талабанинг ишлаб чиқариш амалиёти ОТМда ишлаб чиқариш ўртасидаги асосий буғин бўлиб қолмоқда.

Таълимнинг ҳозирги босқичида сифатни кўчайтириш мақсадида ўқиш ва амалиёт ўртасида муносабатларни мустаҳкамлашга қаратилган ҳуқуқий ва ташкилий чоралар кўрилмоқда. Ҳусусан, 2015 йили Ўзбекистон Республикаси Ахборот технологиялар ва коммуникацияларни ривожлантириш Вазирлиги томонидан “Вазирлик тизимидаги акциодорлик компаниялари, жамиятлари, корхонлари ва муассасалари ҳамда соҳадаги таълим муассасаларининг ўзаро ҳамкорлигини янада кўчайтириш тўғрисида”ги махсус № 335 буйруғи қабул қилинди. Буйруқнинг мақсади – ахбороттехнологиялар ва коммуникациялар соҳасида тизимнинг йирик корхоналари, таълим муассасалар ҳамда илмий-тадқиқот марказлари ўртасида ўзаро ҳамкорликни мустахкамлаш орқали илмий-тадқиқот ишлар ва инновацион фаолиятини ривожлантиришдир. Жумладан, буйрук билан 2016 йилда университетимиз, Тошкент шаҳридаги ИНХА университети ҳамда алоқа, ахборот ва компьютер технологиялари

коллежлари ўртасидаги ўзаро ҳамкорлик бўйича чора-тадбирлар режаси ҳамда Тошкент ахборот технологиялари университети ва унинг филиаллари ҳамда тизимидаги акциодорлик компаниялари, жамиятлари, корхонлари ва муассасаларининг ўзаро ҳамкорлик бўйича чора-тадбирлар режалари тасдиқланди.

Соҳа корхоналари томонидан университетимиз ва унинг филиаллари билан ўзаро ҳамкорлик қилишнинг ташкилий тадбирларирежалаштирилди. Унга кўра, Вазирлик тизимидаги корхона ва ташкилотлар томонидан ТАТУ ва унинг филиаллари билан биргаликда 2016 йилда таълим ва ишлаб чиқариш йўналишида илмий, ўқув-услубий ва талабаларнинг ўқув ва ишлаб чиқариш амалиётини ташкил қилиш ҳамда педагог кадрларнинг соҳа корхоналарида стажировка қилиш бўйича ўзаро ҳамкорлик қилиш шартномалари расмийлаштирилди. Шунингдек, соҳа корхоналарининг раҳбарлари ва мутахассислари иштирокида ТАТУ ва унинг филиалларида учрашувлар, кафедраларда машғулотлар ҳамда ТАТУ ва унинг филиаллари профессор-ўқитувчиларини соҳа корхоналарида амалий тажрибаларини ошириш режасини ишлаб чиқилди ва амалга оширилмоқда.

Ўқув жараёнига соҳа корхоналари ва ташкилотларидан амалиётчи-мутахассисларни жалб қилиш чоралари кўрилмоқда. Кенг кўламда битирув малакавий ишлар ва магистрлик диссертация мавзулари ва раҳбарлари рўйхати соҳа корхоналари билан ҳамкорликда шакллантирилмоқда, бунда соҳа корхоналари ва ташкилотлари томонидан БМИ ва МД мавзулари ҳамда уларга раҳбарлик қилувчи малакали мутахассислар жалб этилмоқда.

Таълимнинг ишлаб чиқариш билан интеграцияси борасидаги яна бир ташкилий шакли сифатида Вазирлик тизимидаги корхона ва ташкилотларда Тошкент ахборот технологиялари университети ва унинг филиаллари кафедраларини ташкил қилиш ва фаолиятини такомиллаштириш қайди этиш мумкин. Жумладан, “Электрон ҳукумат тизимини ривожлантириш маркази”да университетнинг “Ахборот технологиялари ва унинг дастурий таъминоти” кафедраси филиали, “Ахборот хавфсизлигини таъминлаш маркази”да университетнинг “Ахборот хавфсизлиги” кафедраси филиали, “РРТМ” ДУК қошида “Телерадиоэшиттириш тизимлари” кафедраси филиали, Ўзбекистон Миллий телерадиокомпанияси қошидаги Давлат телерадиоэшиттириш студияларида “Телерадиоэшиттириш тизимлари” кафедра филиали, Ўзбекистон Миллий телерадиокомпанияси қошидаги “Ўзмедиамарказ” ДУК, “Ўзбектелефильм” ДУК, “Ўзбеккино” ДУК, “Телестудия тизимлари ва иловалари” ҳамда “Аудиовизуал технологиялар” кафедраси кафедралари филиаллари, “Ўзбектелеком” АК “Телекоммуникация ва персонални ривожлантириш маркази” филиалида “Энергия таъминлаш тизимлари ҳамда электроника ва радиотехника” кафедра филиали, “Матбуот тарқатувчи” АКда

“АКТ соҳасида иқтисодиёт” кафедра филиали ташкил қилиш масалалари ўрганиб чиқилмоқда.

Алоҳида таъкидлаш лозимки, Тошкент ахборот технологиялар университети ҳорижий компаниялар билан ҳам алоқалар ўрнатган. Жумладан, бундай ҳамкорлик Huawei (КНР) компанияси билан ўзаро Меморандум асосида амалга оширилмоқда. Масалан, жорий йили Ўзбекистон Республикаси Ахборот технологиялар ва коммуникацияларни ривожлантириш Вазирлиги, Huawei (КНР) компанияси ва ТАТУ ҳамкорлигида “HCNA HNTD R&S (Huawei Certified Network Associate — Huawei Networking Technology and Device, Routing & Switching)” 24 кунлик ўқув курси ташкил этилди. Бунда “Тедекоммуникацион факультетининг 4 ўқитувчи ва 16 талабаси иштирок этди. Тренинг жараёнида эшитувчилар янги назарий билимлар олади ва тегишли модуллар бўйича амалий машғулотларда иштироқ этади. Ушбу дарслар келажакда телекоммуникация соҳасида инженер ва администраторларни тайёрлашга замин яратади.

Таълим сифатини янада ошириш мақсадида ТАТУнинг Телестудиялар тизимлари ва иловалари кафедраси Миллий телерадиокомпания билан ҳамкорликда “Телевидениеда энергия тежамкор технологиялар” атамасида лойиҳани амалга оширмоқда. Шунингдек, талабалар ўз ишлаб чиқариш ва дипломолди амалиётларини мамлакатимиз телестудияларида амалга оширади ва ўз йўналиши бўйича малакавий ишларини бажаради. Ҳусусан, ҳар йили 30% атрофидаги малакавий ишлар Миллий Телерадиокомпания қошидаги Медиамарказида бажарилади, қолган қисми эса вилоят ва шаҳар студиялари, шу жумладан, хусусий телестудияларда бажарилади. Шу билан бирга, МТРК мутахассислари иштирокида талабалар ўртасида ҳилма-ҳил малакавий танловлар ўтказилади.

Мисол учун, хар йилнинг 23-25 март кунлари Тошкент ахборот технологиялари университетининг “Телевизион технологиялар” факультетининг иқтидорли талабалари ўртасида “Менинг Ватаним, менинг шаҳрим, менинг университетим” фото ва видео ишланмалар кўрик танлови бўлиб ўтди. Мазкур танлов Ўзбекистон Республикаси Ахборот технологиялари ва коммуникацияларни ривожлантириш Вазирлигининг 2015 йил 25 декабрдаги 335-сон буйруғи билан амалга киритилган дастур доирасида ташкил этилди.

Фото ва видео ишланмалар кўрик танловини ўтказишдан асосий мақсад “Телевизион технологиялар” таълим йўналишида таҳсил олаётган талабаларнинг ижодий фаолиятини кенг рағбатлантириш, ўзаро тажрибалар алмашишга, касбий маҳоратларини янада мустаҳкамлашга кўмаклашишдан иборатдир. Танловда университетнинг талабалари томонидан тайёрланган 110 та фото ва 45 та видео ишланмалар намойиш этилади.

Таълим ва ишлаб чиқаришнинг интеграциясини бундан кейин ҳам янада ривожлантириш йўлида алоқалар ўрнатиш ишлари давом этмоқда.

МУТАҲАССИСЛИК ФАНЛАРИНИ ЎҚИТИШДА ПЕДАГОГИК КОМПЕТЕНТЛИК МАСАЛАЛАРИ

Базарбаев Б.Ж., Хусанов Ш.Т., ТАТУ

Мамлакатимизда таълим тизимини ислоҳ қилиш бўйича бир қатор давлат дастурлари амалга оширилмоқда. Бу ислоҳотлар “2017-2021 йилларда Ўзбекистонни ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси”га ҳамоҳанг равишда олиб борилмоқда. Мазкур ҳужжатнинг “Ижтимоий соҳани ривожлантириш” бандида таълим ва илм-фан ривожига алоҳида эътибор қаратилган бўлиб, юртимизда халқаро таълим стандартларини жорий этиш ва таълим сифатини танқидий-таҳлилий баҳолаш орқали олий таълим муассасаларида таълим сифатини ва самарадорлигини оширишга доир ҳаракатлар тизими белгиланган.

Бугунги кунда олий таълим муассасалари олдига ҳар томонлама билимли ва малакали, меҳнат бозорида рақобатбардош бўла оладиган, масъулиятли, ўз касбининг ҳақиқий маънодаги устаси бўлган, доимий касбий ўсишга уринадиган, ижтимоий ва профессионал фаолиятга ҳар томонлама тайёр бўлган, ўз мутахассислиги бўйича халқаро стандартлар даражасида самарали ишлашга қодирмиллий кадрларни тайёрлашдан вазифаси турибди.

Жамиятимиз ҳаётидаги ривожланиш ва ўзгаришлар билан боғлиқ ҳолда ёш мутахассислар ўз фаолиятларида қатор муаммоларга дуч келадилар. Бу муаммолар уларнинг олий таълим тизимида қанчалик самарали ва фойдали билим ва малака эгаллаганлари билан боғлиқ бўлади. Доимий ривожланиб борадиган соҳалар, масалан АКТ соҳасида, рақамли медиа ва телевизион технологиялар соҳасида фаолият юритувчиги ёш мутахассислар олдида айниқса янги талабларга, дунё стандартларига тезкор равишда мослашиш, замонавий меҳнат бозорида рақобатга дош бера олиш, ўз малакасини муттасил равишда ривожлантириб боришдек компетентликка оид бир қатор жиддий масалалар юзага келади.

Ҳар томонлама ривожланган,профессионал тайёргарлиги юқори бўлган компетентли кадрларни тайёрлаш учун аввало талабаларга билим берадиган педагог кадрларнинг ўзлариҳам компетентли бўлиши зарур.

Компетентлилик тушунчасини қисқа қилиб ўз соҳаси бўйича чуқур назарий билимга, амалий кўникма ва малакага эга бўлиш, ўз истеъдодини, билим ва тафаккурини намоён этиш, шахсий илмий ва ижодий салоҳиятини

юксалтириш, ўз касбининг аҳамиятини англаган ҳолда дунё меҳнат бозорида ўз ўрнини топишга интилиш дея таърифлашимиз мумкин.

Замонавий олий таълим тизимида фаолият юритадиган профессор-ўқитувчи ўз фанини ўқитишда нафақат компетентли бўлиши керак, балки энг замонавий ўқув, таълим усуллари ва технологияларини чуқур ўзлаштирган, улардан фаолияти жараёнида самарали ва мақсадли фойдалана оладиган бўлиши ҳам керак. Афсуски, бугунги кунда ватанимизнинг турли олий таълим масканларида ўз соҳасини чуқур билмайдиган, амалиётдаги ишлаб чиқариш жараёнлари ҳақида юзаки тасаввургагина эга бўлган, ўзи дарс жараёнида ўқитаётган техник ускуна ёки технологияни қандай ишлатишни билмайдиган, лекин бу ҳақда талабаларга бемалол дарс бериб юрган педагоглар ҳам борлиги жуда ачинарли ҳолат.

Бугунги кунда барча соҳаларда бўлгани каби педагогика соҳасида ҳам бир қатор муаммолар тўпланиб қолган. Тор йўналишдаги, айниқса кино ва телевидение, монтаж, махсус эффектлар, 2D ва 3D графика ва анимация, мусиқа, рангтасвир соҳалари бўйича мутаҳассислик фанларини ўқитиш учун ёш педагог кадрларнинг етишмаслиги ана шундай муаммоларнинг энг жиддийларидан бири деб ҳисоблашимиз мумкин.

Бугунги кунда ватанимиз олий таълим тизимида мавжуд бўлган малакали педагог кадрлар етишмовчилиги масаласининг юзага келишига комплекс муаммоли факторлар сабаб бўлган.

Айни кунларда энг оғриқли бўлиб турган масалалардан бири айрим ҳолларда муайян лавозимга компетенли бўлмаган шахсларнинг ушбу вазифаларга тайинланаётганлигидир. Бу профессор-ўқитувчи ёки раҳбар ҳодим бўлсин, соҳа ҳақида етарли билим ва малакага эга бўлмасдан туриб жуда масъулиятли лавозимларда фаолият юритмоқдалар.

Олий таълим масканларида нисбатан янги таълим йўналишлари бўйича ўқитиладиган мутаҳассислик фанларидан дарс беришда ушбу соҳани тушунмайдиган ўқитувчиларга ҳам дарслар ишониб топширилмоқда. Тўғри, бу муаммоларни бартараф этиш учун вақт керак. Қолаверса, янги ташкил этилган таълим йўналишлари бўйича, айниқса 3D графика, анимация, монтаж, операторлик, рақамли технологиялар каби фанлардан дарс берадиган педагоглар кўчада қалашиб ётгани йўқ.

Соҳа корхоналарида фаолият юритадиган етук мутахассисларни педагоглик фаолиятига жалб этишда ҳам муаммолар йиғилиб қолган. Бугунги кунда педагоглар олдига қўйилаётган вазифалар ва талаблар жуда кўпайиб кетган. Масалан, олий таълим тизимида фаолият юритадиган педагог ҳодим аввало илмий даражага эга бўлиши, илмий фаолиятбилан шуғулланиши, чет тилини ва ахборот технологияларини яхши ўзлаштирган бўлиши, таълим тизимидаги меъёрий ва ишчи ҳужжатларни юрита билиши, замонавий таълим

методлари ва технологияларини мукаммал билиш ва фаолиятида самарали қўллай билиши, энг асосийси педагоглик истеъдоди бўлиши зарур. Бу талабларга ҳамма ҳам мос келавермайди, қолаверса қўйилаётган талабларни кўрган соҳа мутаҳассиси бундай “бош оғриқлар”ни зиммасига олишдан воз кечиб қўяқолади. Натижада яна ўша биз “етарли билим ва малакага эга эмас” деб баҳолаган профессор-ўқитувчи сифатида ишга олинадилар.

Мутахассислик фанларидан дарсларни ҳар томонлама билимли ва айниқса шу соҳада бир неча йиллик амалий тажрибага, малакага эга бўлган, нима ҳақида, қандай технология ҳақида гапираётганини, унинг қандай ишлашини ва қай мақсадларда фойдаланилишини биладиган педагоглар дарс беришлари шарт. Талабаларга дарс давомида юзаки билим берадиган компетенциясиз ўқитувчилардан кечиш даври келди, назаримизда.

Юқорида санаб ўтганимиз тор соҳалар бўйича ҳам аслида етарлича назарий ва амалий билимларга, малакага ва педагоглик маҳоратига эга бўлган, ёш профессор-ўқитувчилар етарлича топилади.

Ватанимизда таълим тизимини ривожлантириш педагогларнинг касбий малакасини ошириш муаммосини назарий ривожлантириш ва амалий ҳал этиш билан чамбарчас боғлиқ экан,ҳар бир педагог кадр ўз-ўзини ҳар томонлама ривожлантиришга уриниши, ўз соҳасини нафақат назарий балки амалий томондан ҳам чуқур билишга интилмоғи, ўз соҳаси бўйича ишлаб чиқариш жараёни билан шуғулланиб туриши, ундаги ютуқ ва камчиликлар ҳақида билиш, билим беришнинг янги йўлларини ўзлаштираолиши керак.

Бу муаммоларни ҳал этиш учун аввало талабаларни ўқитиш жараёнларини бевосита ишлаб чиқариш билан имнтеграция қилиш, бўлғуси педагогларни магистратура босқичида ўқитишда фақат назария билан, балки бевосита ишлаб чиқариш билан боғлиқ амалий тадқиқотларга йўналтириш, ёш педагоглар доимий ўз устиларида ишлашлари учун ОТМ ҳузурида қисқа муддатли курслар ташкил қилиш, мотивация учун мастер-класслар ташкиллаштириш, малакаларини оширишлари учун шароит яратиб бериш ва буни улардан керак бўлса талаб қилиш керак, назаримизда.

OBYEKTLARNI KO'RISHDA FOYDALANILADIGAN VOSITALAR

Usmonov A.I., Tashmetov SH.E., TATU

Biz yashayotgan olam uch o'lchamli obyektlardan iborat. Matematikaning ko'plab yo'nalishlarining, jumladan geometriya va trigonometriya ham, taraqqiyoti, obyekt o'lchamini o'lchasg va ular o'rtasidagi masofa kabi oddiy g'oyalarni

konseptual tarzda tizimlashtirishga bo'lgan talabdan kelib chiqqan. Ko'pincha xaritalar, rasmlar va fotografiya kabi rasm yoki tasvirlarga bo'lgan fazoviy munosabatimizni tushunishni ko'rsatishga urinamiz. Shu tarzda kamera, mikroskop va teleskoplar kabi ko'plab fizik qurilmalarning taraqqiyoti obyektlar o'rtasidagi fazoviy munosabatlarni tasavvur qilishga bo'lgan intilish bilan bog'liq edi. Shuning uchun, tasvir hosil qilish fizikasi va matematikasi o'rtasida har doim fundamental aloqa bo'lgan. Ulardan birini kompyuter tasvirini tuzish jarayonida ishlatishimiz mumkin.

Ikki asosiy element, obyekt va tasvir vositasi, xoh matematik jarayon bo'lsin, xoh fizik, har qanday tasvir hosil qilish jarayonining bir qismi bo'lishi kerak. Obyekt fazoda har qanday tasvir hosil qilish jarayonidan va tasvirlash vositasidan erkin tarzda mavjud bo'ladi. Sintetik obyektlar ko'riladigan kompyuter grafikasida nuqtalar, chiziqlar va poligonlar kabi turli geometrik elementlarning fazoda joylashuvini aniqlashtirish orqali obyektlar hosil qilinadi. Ko'pchilik grafika tizimlarida fazoda joylashuvlar yoki burchak balandliklari majmuyi ko'pchilik obyektlarni aniqlash va chamalash uchun yetarli. Masalan, chiziq ikkita burchak uchi bilan aniqlanishi mumkin: poligon burchak balandliklarining tartiblangan ro'yxati orqali aniqlanadi; sfera uning markazi va doirasidagi har qanday nuqtani aniqlaydigan ikkita burchak uchi bilan aniqlanishi mumkin. CAD tizimining asosiy funksiyalaridan biri interfeysni ta'minlash bo'lib, bu, dunyoning sintetik modelini qurish uchun, foydalanuvchi ishini osonlashtiradi.



1-rasm. Kamera tizimi.

1-rasmda binoni kuzatayotgan kamera tizimi ko'rsatilgan. Ushbu o'rinda ham obyekt ham tasvir vositasi uch o'lchamli olamda mavjud. Biroq, proeksiya tekisligida aniqlangan, ular aniqlashtirgan tasvir ikki o'lchamli. Ikki o'lchamli tasvir hosil qilish uchun tasvir vositasining aniqlanishi bilan obyekt aniqlanishining uyg'unlashuv jarayoni tasvir hosil qilishning o'zagidir va bu batafsil o'rganib chiqiladi.

Tasvir hosil qilish yuqorida to'liq yoritilmadi. Masalan, yorug'lik eslatib o'tilmadi. Yorug'lik manbalari bo'lmasa, obyektlar qora bo'lib qoladi va tasvirda hech narsa ko'rinmaydi. Yorug'lik tasvirga qanday kirishi va obyektning yuza xususiyatlari effekti nimaligi ham ko'rsatilmadi.



2-rasm. Obyekt va yorug'lik manbasiga ega kamera tizimi.

Fizik tomonlama aniqroq yondashish uchun 2-rasmdagi sxemadan boshlaymiz. Rasmda oddiy fizik tasvirlash tizimi ko'rsatilgan. Yana fizik obyekt va tasvir vositasiga qaytamiz(kamera); endi ekranda yorug'lik manbasi mavjud. Manba yorug'ligi obyektning turli yuzalariga uriladi va qaytgan nurning bir ulushi linza orqali kameraga kiradi. Yoruglik va obyekt yuzasi o'rtasidagi o'zaro ta'sir detallari kameraga qancha yorug'lik kirganligini aniqlaydi.

Yorug'lik elektromagnit radiatsiyasining bir shaklidir. Klassik nuqtayi nazardan elektromagnit energiyasining ko'chish uzunligini to'lqin sifatida puxta o'rganamiz. Ushbu to'lqinlar o'zining to'lqin uzunliklari va chastotalari orqali tavsiflanadi. Elektromagnit diapazoni (3-rasm) radio to'lqinlarni, infraqizil nurlarni va ko'rish tizimimizda javob berishga sabab bo'ladigan qismni o'z ichiga oladi. 350 dan 780 nanometrgacha bo'lgan to'lqin uzunligiga ega ushbu ko'rish diapazoni (ko'rish) yorug'ligi deb ataladi. Berilgan yorug'lik manbasi turli to'lqin uzunliklarida nut tarqatadigan energiya orqali aniqlanadigan rangga ega. 520 atrofidagi diapazon o'rtasida to'lqin uzunliklari yashil ko'rinadi; 450 nmga yaqini ko'k; 650 ga yaqini qizil. Kamalakda qizil va yashil o'rtasidagi to'lqin uzunligida sariq rangni ko'ramiz va ko'kka nisbatan qisqaroq to'lqin uzunliklari binafsha rangni hosil qiladi.

Yorug'lik manbalari yo alohida chastotalar to'plami sifatida yoki doimiy tarzda nur taratishi mumkin. Masalan lazer bitta chastotada yorug'lik tarqatadi, cho'g'lanma lampa esa chastota doirasidan ko'proq energiya ajratadi. Kompyuter grafikasida mustasno tarzda alohida chastotalar alohida ranglar kabi ko'rinadi va yorug'likning fizik xususiyatlariga kamroq e'tibor qaratamiz.



3-rasm. Elektromagnit diapazoni

Buning o'rniga, yanada an'anaviy bo'lgan metodga amal qilamiz. Yorug'likning to'lqin xususiyati asosiy omil bo'lmagan shkalada va yetarlicha kuchli yorug'lik darajalari bilan ishlaganda ushbu metod samarali. Geometrik optik qurilmalar yorug'lik manbalarini yorug'lik energiyasining tarqatuvchisi sifatida modelini ishlab chiqadi, ulardan har biri doimiy kuchlanishga ega. Geometrik modellashtirilgan yorug'lik manbadan o'zaro ta'sirda bo'lgan obyektga - to'g'ri chiziqqa tomon o'tadi. Ideal nuqtadagi manba barcha yo'nalishlarda teng bo'lgan bitta yoki undan ortiq chastotalarda yagona joydan energiya ajratadi. Elektrolampochka kabi yanada murakkab manbalar bitta hududda tarqatuvchi yorug'lik sifatida va boshqasiga nisbatan bitta yo'nalishda ko'proq yorug'lik tarqatishi bilan tavsiflanadi.

ROLE OF MODERN MULTIPLICATION IN CHILD EDUCATION

Usmonov A.I., Tashmetov SH.E., TATU

Cartoon films are no coincidence loved by children of all ages. Bright, spectacular, figurative, on the one hand, and simple, unobtrusive, accessible on the other, they are close in their developmental, educational opportunities to a fairy tale, a game, lively human communication. Characters of animated films show the child a variety of ways to interact with the outside world.

They form the primary idea of good and evil in the baby, the standards of good and bad behavior. By comparing himself with his beloved heroes, the child has the opportunity to learn to perceive himself positively, to cope with difficulties, and to respect others. Thus, a cartoon is an effective means of raising a child.

One of the current trends is the study of the influence of modern cartoons on the personality of the child, on the formation of various images and ideas in children. Animation is seen as a means of education. This issue remains poorly understood in modern scientific society and is more of an everyday nature.

The purpose of this article is to study the role of modern animation in raising a child based on works and studies on this issue.

Olga Valerievna Kozachek in her article “Modern cartoons and children” under modern cartoons refers primarily to foreign works, which children prefer to a greater extent. Based on the opinions of D. V. Andryushchenko, N. E. Markova, I. Ya. Medvedeva, she listed several signs of a "harmful cartoon":

- the main characters of the cartoon are aggressive, they seek to harm others. The consequence of watching such a cartoon can be a child showing cruelty, ruthlessness, aggression in real life;

- the deviant behavior of the cartoon characters is not punished by anyone. As a result, the small viewer has an idea of the admissibility of such forms of behavior;

- demonstrates life-threatening behaviors of the child, which in reality are dangerous to repeat;

- forms of non-standard sex-role behavior are broadcast: male creatures behave as female representatives and vice versa;

- scenes of disrespect for people, animals, plants are common. Mocking mockery is shown, for example, over old age, weakness, helplessness, weakness;

- there are unsympathetic, and sometimes even ugly heroes.

D. Herbner and L. Gross attributed to animated films, as in general television, the unique ability to change fundamental ideas about the nature of social reality. It possesses this property due to the fact that it not only reflects the status quo, but also exaggerates many times the existing trends, television images seem real. Albert Bandura expressed the idea that television can compete with parents and teachers as a source of role models to follow. Studies have shown that the media are important in gender-role socialization, and an analysis of the information that comes to us through television channels has shown that television creates stereotyped, traditional images of men and women.

O. A. Voronin and N. I. Medvedev highlight a number of positive and negative points when watching cartoons:

- Cartoons are loved by children from early childhood, as they are bright and imaginative. Cartoon characters show the child various ways of dealing with the world. Standards of bad and good behavior, ideas about good and evil form in children a video;

- through comparison with favorite characters, the child learns to perceive himself positively, overcome his fears and difficulties, develop respect for others in himself;

- Children absorb information much more efficiently than adults. Watching a video, a child imagines pictures of the world and thereby begins to develop a personality in himself, adopting certain qualities of characters;

- the child perceives almost all the information in the form of images, from which his model of the world is then built. One of the most important is the female and male images.

Having analyzed the psychological and pedagogical literature on the problems of the development of the child's personality under the influence of the media, as well as modern animated films, we can conclude that the role of modern animation in the upbringing of the child is ambiguous. On the one hand, animated films form the standards of bad and good behavior, ideas about good and evil, the child learns to perceive himself positively, overcome his fears and difficulties, and respect others, i.e. Cartoon acts as one of the effective means of raising a child. On the other hand, modern cartoons are deprived of the moral and moral foundation that can beneficially influence the development of the child. Moral standards and values, images of femininity and masculinity are replaced by rudeness, cruelty, blurring the boundaries between "good" and "bad", between "possible" and "impossible". This dual position requires further, more thorough study.

Based on the results of the analysis of psychological and pedagogical literature on the role of modern animated films in raising children, a number of recommendations were developed for the selection of cartoons for parents and teachers working with this category.

In general terms, a number of proposed recommendations are as follows:

- determination of the main goals and objectives for the formation of certain representations and images of children;
- organization of leisure activities;
- control and monitoring of children watching certain cartoons;
- selection of animated films corresponding to the goals and objectives of image formation;
- joint viewing of cartoons with explanatory conversations and comments;
- consolidation of the demonstrated images in the family culture.

The article materials and recommendations will be useful to parents, teachers working with this category of children, and persons involved in this issue.

ПОЛОЖИТЕЛЬНЫЕ И ОТРИЦАТЕЛЬНЫЕ СТОРОНЫ ОНЛАЙН ОБУЧЕНИЯ

Мамадалиев А.И., Нарзуллаев О.М., ТУИТ

В настоящее время в Узбекистане стали широко использовать онлайн-систему обучения. На эту необходимость среагировали так же Национальная телерадиокомпания и Министерство народного образования, где вот уже восемь месяцев, исправно ведутся онлайн телеуроки. Многие страны даже приняли законы, где использование такой системы, не только в системе

образования, но и во многих отраслях народного хозяйства. К примеру Российская федерация на днях приняла закон, по работе «на удаленке». И в Узбекистане будет принят подобный закон.

Вернемся к системе онлайн образования, что можно предпринять, чтобы такая система образования имела положительные результаты. В социальных сетях появляются недоработтаные материалы, которые демонстрировались по телевидению по всей стране. Это еще говорит о несовершенстве образования, так как невозможно все школы и вузы обеспечить высокопрофессиональными преподавателями. Для повышения качества онлайн обучения можно привлечь различные отделы мониторинга и или анализа. Именно этим отделам нужно дать задание, провести анализ всех вузов, колледжей, школ. К примеру, можно провести анализ, где по каждому предмету, преподаваемые студентам, школьникам, слушателям и выяснить, какие вузы или даже преподаватели, больше всего добились успехов, чьи студенты стали по каким то направлениям, победителями международных олимпиад и конкурсов. Просмотреть все достигнутые успехи и если нужно провести отбор специальной комиссией. Конечно, можно создать комиссию по общим предметам, такие как математика, физика, биология, иностранные языки. И создать курс лекций или уроков, в цифровом формате, лучших преподавателей страны. Это очень актуально, в сезон пандемии и карантина в особенности. И по специальному каналу демонстрировать лекции, предметы, которые преподаются во всех вузах страны. Конечно, если есть узконаправленные специальности, их конечно туда не стоит привлекать. Есть такие курсы лекций, которые преподаются в одном вузе всей страны, такие как Ташкентский Театрально-художественный институт, Университет информационных технологий. В таких вузах не стоит такое применять, так как есть направления, в которых есть единицы специалистов, и число обучаемых не высок.

Есть еще такой вариант, решаемый на межгосударственном уровне, договориться с лучшими вузами мира, о представлении онлайн лекций и других занятий, конечно, система высшего образования во многих странах мира, это бизнес. И просто так, многие вузы не будут делиться своими методами обучения, не то что с другими странами, но даже и со своими.

Такими методами мы сможем более профессионально дать различную информацию школьникам и студентам. Не мудрено, что многие преподаватели имеют различные подходы к преподаванию, есть те, кто добросовестно проводит все возложенные часы. Но есть и другая сторона медали, нужная ли эта информация или она давно устарела или поменялись факты. Плюсом онлайн обучения, это то, что преподаватель из Ташкента или из Нукуса могут в онлайн режиме вести свои занятия.Студентам возможно предоставить лучших преподавателей страны. Если это наладить как систему, произойдет

естественный отбор, когда непрофессиональные учителя школ и преподаватели колледжей и вузов автоматически вынуждены будут уйти на другие направления деятельности, где они смогут полноценно приносить пользу для общества.

Какие же отрицательны стороны онлайн обучения? В первую очередь преподаватель не сможет полноценно обучать, так как только при живом общении он сможет отвечать на задаваемые вопросы, что немаловажно в любом учебном заведении. Не у всех есть возможность, организовать онлайн обучение, как проводят онлайн собрания руководители различных уровней, где они все видят друг друга, высокая организация и требования к участию в различных собраниях, семинарах или онлайн встречах. Не каждая школа или вуз сможет так организовать такую систему обучения. А существующая сейчас, обучение по телевизору, не имеет обратной связи. Проводимые в вузах онлайн уроки ограничены по времени, так как предложенная система просит пополнять ежемесячно большую сумму, на которую нецелесообразно ни для преподавателя и тем более для государства. Это утечка больших финансовых средств в виде гегабайт и живых денег. Потом при онлайн обучении преподавателю будет трудно оценивать способности ученика или студента. Оценки будут носить в большинстве случаев формальных характер. Сидя дома, ученик или учитель может пользоваться учебниками, интернетом и другими источниками. Но главный минус онлайн обучения, это не иметь возможности практических занятий. Это в первую очередь касается технических вузов. Не зря к примеру обучение по системе кредитов, практических занятий в два раза больше часов, чем лекционных. Тем более телевизионные технологии, это в первую очередь это практические занятия, где студенты непосредственно учатся тому, что они будут в будущем делать на рабочем месте.

В заключении хочется отметить, что у онлайн обучения больше плюсов для многих направлений, за исключением системы здравоохранения, военного направления, системы всех видов транспорта, сельского хозяйства и машиностроения. Там должно быть обучение только традиционным, при любых ситуациях.

ТЕЛЕВИЗИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В ПОДГОТОВКЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КАДРОВ

Мамадалиев А.И., ТУИТ

В современном мире, есть технологии, которые могут не меняться столетиями, а есть такие отрасли народного хозяйства, где технологии могут меняться каждый год. И к ним относятся телевизионные, которые в настоящее время являются одними из главных потребителей достижений науки и техники. Известно, что многие новшества в мире, произошли в военной сфере, от изобретения консервов, различных материалов, дистанционное управление, беспилотные летательные аппараты и многое другое, используются в телевизионных технологиях. А в современном телевидении как и в военных технологиях может все измениться за короткий промежуток времени. К примеру когда все телевизионные студии пользовались кинопленкой, внезапно появились видеомагнитофоны и магнитная лента вытеснила на телевидении кинопленку. Через короткий промежуток времени появляются ДВД диски, которые вытеснили магнитную ленту, еще за более короткий период времени появились электронные носители информации, которые вытеснили и диски. Тоже самое можно сказать во всех направлениях деятельности телевизионных студий, таких как звукозапись, цифровой монтаж, компьютерные технологии в создании различных эффектов, технологии в виртуальных студиях. Следовательно, при подготовке специалистов для телевидения, нужно учитывать эти тенденции, в первую очередь оперативно изменять дисциплины, форматы и содержание преподаваемых дисциплин по направлению телевизионные технологии. Есть предметы, которые могут не меняться десятилетиями, такие как изучение иностранных языков, математика, основы физики, биология, химия. Но все предметы, преподаваемые по телевизионным технологиям должны возобновляться в соответствии с изменениями форматов, технологий, направлений и даже в соответствии с политикой государства. Современное телевидение, это главный информационный источник, это рупор государства, это главный осветитель жизни народов мира, культуры, истории, новостей, технических новшеств, развлечения и много другого. И в настоящее время, является одним из главных участников в современном образовании. Значит, все, кто связан с телевизионными технологиями должны быть универсальными как в техническом, так и в духовном, творческом и даже в политическом плане.

Одной из главных проблем в подготовке кадров для телевидения, это в первую очередь набор случайных абитуриентов, которые хотят получить лишь

диплом, но не имеют интереса работы в дальнейшем на телевидении. Причина, и она немаловажна для молодого специалиста, маленькие должностные оклады на телевидении. Ему нужно строить семью, купить жилье, иметь достойную жизнь, имея высшее образование, на которое было потрачено не мало материальных средств. Поэтому большинство выпускников ищут высокооплачиваемые отрасли, частные фирмы, сферу торговли, различные силовые структуры.

Вторая причина, это профессорско-преподавательский состав. Есть преподаватели, которые преподают по книгам, выпущенные еще в 60-70 годах. Некомпетентность преподавателей, отказ от работы над собой, над своим самообразованием, не дает возможность студентам, получить полноценный курс обучения. Но в свою очередь преподавателям, из-за меняющихся тенденций, форм обучения, изменений предметов нет возможности концентрации обучения в одном направлении, издавать учебники, брошюры, книги по своему предмету. Необходимо установить на долгосрочный период предметы, которые будут необходимы во все времена существования любого телевидения. Это касается таких направлений, как операторское мастерство, основы монтажа, технологии освещения в кино и на телевидении, основы звукозаписи, цифровые технологии на телевидении, охрана труда на телевидении. Тогда, каждый преподаватель, закрепленный за предметом, будет стараться обновлять свой предмет новыми технологиями и информацией и следовательно издавать по своему предмету учебники.

Есть много отраслей, где в настоящее время применяются эти технологии. Можно сказать смело, что везде. В любых заведениях сейчас устанавливаются следящие камеры, их можно увидеть и в любой махалле, кругом на дорогах и на перекрестках, в концертных залах, в театрах, в архитектуре, в строительстве, в медицине используются вышеперечисленные предметы.

Подготовить специалистов по направлению Телевизионные технологии, в первую очередь нужно использовать сами технологии, которые используются на современном телевидении. К сожалению, три основных направления образования для телевидения, это факультеты журналистики, театрально-художественный институт и факультет Телевизионных технологий не имеют единой платформы подготовки кадров для телевидения. Можно с уверенностью сказать, что профессорско-преподавательский состав всех трех групп, могли бы положительно взаимодополнять друг друга. Точно так же можно отметить взаимосвязь между телевидением и кинематографией страны. Это положительно отразилось бы на взаимовыгодных отношениях. К примеру, совсем недавно, мы были свидетелями возрождения киностудии Узбекфильм. Великолепные здания, вспомогательные помещения, новая кинотехника. Но павильон хоть отремонтирован красочно и богато, но функции у кинопавильона

другие. Они не предназначены для приема гостей, там должно сниматься кино. Поэтому есть не мало недостатков, которые можно было избежать, воспользовавшись специалистами ТАТУ, следовательно, кооперация кинематографистов, телевизионщиков и специалистов из факультета Телевизионные технологии просто необходима. Построенный в ТАТУ Учебный центр изучили специалисты Японии, Кореи, Германии, которые высоко оценили большой павильон и все сопутствующие технические помещения Центра. Известно, что данный Учебный Медиацентр полностью разработан на факультете ТТ. Если бы при постройке павильона на киностудии Узбекфильм, учитывались бы все наши рекомендации, павильоны и дополнительные помещения были бы подготовлены более профессионально. В течении последних лет, почти весь технический персонал Национальной телерадиокомпании обучались заочно в нашем университете. То же самое нужно провести с техническим персоналом киностудий, театров, концертных залов, работников городского освещения. Современные цифровые технологии, уже вплотную сближают различные отрасли народного хозяйства. И без телевизионных технологий в настоящее время не обойтись.

ТЕЛЕВИДЕНИЕ И КИНЕМАТОГРАФИЯ, ГЛАВНЫЕ РУПОРЫ НАЦИОНАЛЬНОЙ ИДЕОЛОГИИ

Мамадалиев А.И., ТУИТ

Современный цифровой мир, мир Интернета, социальных сайтов и мировых противостояний различных политических идеологий, диктует то, что кардинально нужно изменить трактовку, в понятие национальной идеологии. У многих представление об этом слове отрицательное, это говорит о том, что образованность в этом направлении не высокое. Идеология существовала всегда, начиная с древних шаманов и до наших времен, когда нужно было древним общинам заморачивать головы в своих интересах или современному цивилизованному населению целенаправленно прививать свои политические, экономические, исторические, культурные догмы. В различные времена многие сильные мира сего, именно свою идеологию использовали в своих целях, не все эти цели были нужны народу, но они нужны были правителям или группировки, чтоб взять управление массами в свои руки, которые будут использоваться как оружие для исполнения конкретных идей. Чтоб созвать массы под свои знамёна, лидер должен иметь ораторское искусство, конкретную идеологию и внушить всем, что его идея самая лучшая для них.

Что можно сказать о современной идеологии? К примеру, одна из самых демократичных и сильнейших стран планеты Соединенные штаты Америки, имеют под собой сильнейшую идеологическую армию. Она состоит не только из политиков, журналистов, конгрессменов, но и из всех киностудий, из всех телеканалов, это большинство печатных изданий, радио, театры и конечно Интернет сайты. Как же проявляются различные идеологические направления, не зависимо какая партия стоит у руля государства. Так как ежегодно выделяются по программе «Миллий сериал» средства, на которые должны создаваться конкурентно способные с турецкими и корейскими сериалами. Отсутствие таких, приходится восполнять чужими. Это очень важный вопрос. Значит мы несем в народ не свою идеологию, не свою культуру, не свою историю и так далее. Если мы не хотим потерять свою самобытность, мы не должны жалеть ни сил, ни средств для достижения своих возложенных задач. И эта очень важная функция, возложена именно на телевидение и кинематографию. В настоящее время и на телевидении, и в киностудиях мало квалифицированных редакторов. Которые должны четко контролировать выпускаемые в эфир передачи, выпускаемы на экраны документальные и художественные фильмы. Из-за не хватки редакторов и специальных служб именно работающих на национальную идеологию, у нас у молодежи теряется патриотизм, парни не хотят идти на военную службу, не ведутся работы по идейному воспитанию молодежи ни в школах и даже в вузах. Как говорил руководитель страны на военных учениях в Кашкадарьинской области, если мы не будем кормить своих солдат, то нам придется кормить чужих. Это выражение имеет глубокий смысл. Поэтому уважение к армии, к служащему солдату и офицеру должно быть на самом высоком уровне. У нас очень мало передач про военную службу, мало кинофильмов про современных военных современников. Вот уже более 12 лет, как вышел фильм Джахонгира Касымова« 18-квадрат». Почему его нет в телевизионных эфирах? А новых фильмов на современную военную тему нет. Это тоже идеология. Чем больше ребят захотят служить, тем больше будет выбор, а значит в нашу армию больше попадут более одаренные, физически развитые парни. А чем сильнее наша армия, тем спокойнее мы будем себя чувствовать. Еще одна из самых трудно решаемых вопросов, в направлении идеологии, это кадры. Исходя из вышесказанного, телевидение, кинематография, газеты, журналы, издаваемые в нашей стране, должны нести в массы ту идеологию, которую ежедневно озвучивает руководитель страны. Информацию, проверенную редакторами, специалистами, информации соответствующую нашей истории, нашей культуре, взятые наши правительством курс в экономике, в политике. Верховенство закона, верховенство экономики над политикой, освещение истинных ценностей настоящей демократии, о свободе слова. Многие,

обеспечивает плавное управление и способна выдерживать большие нагрузки. Другим, не менее интересным изобретением, является система высокоскоростной видеосъёмки, разрабатываемая в одном из университетов Токио. Технология даёт возможность снимать видео со скоростью 20000 кадров в секунду, а затем воспроизводить снятый материал в замедленном режиме. Эта система позволяет следить за теми объектами, за которыми сложно или невозможно было бы уследить человеку. Ещё одна наиболее любопытная мульти-проекционная система, которая была представлена на международном кинофестивале, она использует технологию Screen X. Показываемый фильм был спроецирован на 3 экрана (центральный, правый, левый), можно сказать, что зрители, находящиеся в зале, были полностью окружены ими. Такой угол обзора позволяет погрузится в происходящие на экране события. Каждую сцену такого фильма обязательно нужно снимать три раза, для каждого экрана в отдельности. В 2015 году президент IMAX Джон Шрайнер рассказал о внедрении в кинозалы лазерных проекционных установок, которые будут обеспечивать большую чёткость показателей яркости и контрастности, кроме того, более широкую цветовую гамму. Эта компания разрабатывает этот продукт уже несколько лет. Ещё одной интересной технологией можно считать создание фильмов с помощью игровых движков. Индустрия видеоигр достаточно быстро приближается к кинематографу, и в скором времени мы станем свидетелями ещё большего их взаимодействия. Возможно такая технология даст возможность создавать и редактировать «живые сцены», что сможет частично или даже полностью изменить работу съёмочной группы и вернуть творческий процесс в эпоху цифровых эффектов. По мнению многих специалистов вся компьютерная графика, эффекты и текстуры будут накладываться в режиме реального времени прямо на съёмочной площадке. Съёмки такого кино станут полностью интерактивным процессом. Возможно это сократит численность съёмочной команды и бюджет новых картин.

Неоднозначной остаётся проблема оценки данного явления. Специалисты в области киноиндустрии разделились на два лагеря - тех, кто принимает данное влияние и считает это шагом в развитии, перспективным направлением, и тех, кто не принимает, оценивая его как деградацию. Остаётся отметить, что данная проблема борьбы консерваторов и новаторов типична для любого этапа культурной эволюции, в данном случае для культурной эволюции киноиндустрии.

MILLIY KADRLARNI TELEVIDENYEGA TAYORLASHDA ZAMONAVIY KOMPYUTER MAXSUS EFFEKTLARI VA ULARNI QO'LLASHDA AMALIY DASTURLAR TO'PLAMI

Saidov F.F., Joldasov Sh.B., Nurmuhamedova S.A., TATU

Elektronika va kibernetikaning rivojlanishi asosida va tasvirlarni qayta ishlashni kompyuter dasturlarida amalga oshirish natijasida yuzaga kelgan yangi vositalar, ularning keng tarqalishi tasviriy san'atda yangi bir yo'nalish – kompyuter grafikasining paydo bo'lishiga olib keldi. Bu esa sanoat va maishiy dizayn ko'rinishini o'zgarishiga olib keldi. “Kompyuter grafikasi” termini endlikda kino sanoatida “kompyuter maxsus effektlari” deb qo'llanilmoqda.

Texnologik rivojlanishning har bir yangi turi materiallar badiiy talqini uchun yangi imkoniyatlar yaratadi va ularning ijodiy rivojlanishini talab qiladi. Bu esa rejessyor yoki rassom uchun, ekranning badiiy ifodasi kompyuterlashtirish vositasi sifatida juda ham muhim hisoblanadiki, o'z navbatida bu oddiy masala emas va jiddiy o'rganishni talab etadi.

Kompyuter maxsus effektlarning paydo bo'lishi kino, musiqali kliplar va teleko'rsatuvlar uchun muhim o'zgarishlar davrini boshlab berdi. Bu esa mazkur sohalarda yangi imkoniyatlar bilan birga yangi muammolarni yuzaga keltirdi. Agar biz yangi texnika va texnologiyalardan samarali foydalanishni xoxlasak, ushbu muammo va imkoniyatlarni aniqlab olishimiz kerak bo'ladi.

Kompyuter maxsus effektlarida biz unutmasligimiz lozim bo'lgan jihalar kiritilgan: kompyuter animasiyasi va kompyuter grafikasi elementlari kinodagi tasvir sifatiga juda kuchli ta'sir ko'rsatadi, va, ehtimol shuning uchun ular tomoshabinlarga ma'qul bo'ladi. Maxsus effektlar o'z-o'zidan filmning tasviriy tarkibida zamonaviy yondashuv belgilari hisoblanadi, masalan, kompyuter animasiyasi yordamida yaratilgan «Ko'rinmas odam» filmi. Ushbu filmning tomoshabinlar ma'qul bo'lishini, rejissyor yaxshi ishlagani yoki ssenariy yaxshi yozilgani, va shuningdek kinoda shu vaqtgacha hech kim ko'rmagan maxsus effektlardan foydalanilgani bilan belgilash mumkin. Ushbu filmda eski effektlar takrorlanmaydi, ko'rinmas odam va boshqa qahramonlar o'rtasidagi nizo ishonarli ko'rinishda aks etgan.

Shuni ham aytish o'rinliki, kompyuter elementlari film yaratilishi davomida xarajatlarini kamaytiradi, va aynan shuning uchun yangi kino shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Mavjud binolar, kemalar, samolyotlar yoki boshqa transport vositalarining portlashi juda qimmatga tushadi. Shu sababli kinoijodkorlar eng yuqori effektlarga erishish uchun ko'proq maketlar va kompyuter texnologiyalariga murojaat qilishmoqda.

Yana bir muhim masala bor. Agarda kinoijodkorlar har doim kompyuter maxsus effektlardan foydalanishi va bugungi tomoshabinlar bunga asta-sekin ko'nikishadigan bo'lsa, u holda ko'pgina filmlar reallik hissini, ahamiyatini yo'qotishi mumkin. Bu xavf yanada oydinlashadi. Shu munosabat bilan, biz filmlarda chegara bilmas darajada kompyuter animasiyasi effektlaridan foydalana olmaysiz. Biz shunday vaqtda yashayapmizki, bugungi kunda ko'pgina filmlarni tomoshabin ko'rishi mumkin, ammo bunga ko'pchilik ishonishmaydi. Bu esa kino sanoatida kompyuter texnologiyalarining kirib kelishi bilan bog'liqdir. Kompyuter animasiyalari va maxsus effektlarsiz bugungi kunda kino, televidenie va reklamani mukammal tarzda olishning imkoni yo'q. Bunga erishish uchun kompyuter maxsus effektlarini berish va tasvirlar ustida ishlashga mo'ljallangan ko'plab dasturiy vositalar mavjud.

Uch o'lchovli animatsiyalar vujudga kelishi bilan 3D-paketlar ikki o'lchovli animatsiyalarni surib chiqardi. Ammo ikki o'lchovli animasiyalardan foydalanish etarli bo'lgan sohalar ham mavjudki, bunda ikki o'lchovli animatsiyalar yaratish dasturlari ishlatiladi. Xususan, Adobe Flash, Animator Pro va Animo kabi dasturlarda ko'plab multfilmlar va xarakatlanuvchi jarayonlar aks etgan vizual tasvirlar yaratilib kelinmoqda.

Uch o'lchamli animatsiya texnologik jihatdan qo'g'irchoqni yaratishga o'xshaydi: dastlab ob'ekt karkasi yaratiladi, unga materiallar qoplanadi, bularning barchasi yagona sahnaga birlashtiriladi, yorug'lik va kamera o'rnatiladi, so'ngra filmning kadrlar soni va predmetlar harakati beriladi. Nima sodir bo'lishini kamera yordamida ko'rish mumkin, bunda kameraning o'zi ham xarakatlanadi. Uch o'lchamli fazoda ob'ektlar harakati traektoriya bo'yicha, asosiy kadrlar va murakkab konstruksiyalar qismlarining harakatini bog'lovchi formulalar orqali beriladi. Kerakli harakat, yorug'lik va materiallar tanlab olingach, vizuallashtirish jarayoniga beriladi. Ma'lum vaqtdan ichida kompyuter barcha kerakli kadrlarni hisoblab chiqadi va bizga tayyor filmni taqdim etadi.

Uch o'lchovli modellashtirishga mo'ljallangan asosiy dasturlarning qisqacha tavsifi:

1. Autodesk 3D Studio Max – ancha keng tarqalgan, shuningdek grafik paketni o'zlashtirish nisbatan oson. Qo'shiladigan modul V-Ray real ob'ektlar va inter’erlarni yaratish imkonini beradi.

2. Autodesk Maya – boshqa dasturlar bilan taqqoslaganda bir qator afzalliklarga ega bo'lgan muhim grafik paket hisoblanadi. Unga qo'yidagilar tegishli: subdiv primitives yordamida modellashtirish, materiallar bilan qulay ishlash, modellashtirilgan ob'ektga turli effektlarni chizish imkoniyati, animatsiyalarning rivojlangan tizimi va b. Realistik inter’erlar, personajlar, shuningdek kinofilmlar va kompyuter o'yinlari sanoatida vizual effektlar yaratishda keng ishlatiladi.

3. Maxon Cinema 4D – qulay interfeysga ega bo'lgan nemis grafik paketi. Tezkor xotiraning kichik yuklanishida murakkab sahna uchun soyalarni hisoblash

bo'yicha o'zining noyob algoritmiga ega. Modul Body Paint 3D modelni bevosita ko'rinadigan ekranga bo'yash imkonini beradi.

4. NewTek LightWave 3D – juda ham qulay animatsion asboblar va yuqori sifatli renderingga ega bo'lgan grafik paket. Televizion formatda uch o'lchovli grafika yaratish uchun qulay.

МАСОФАВИЙ ТАЪЛИМ УЧУН ДИДАКТИК ВИДЕОМАТЕРИАЛЛАР ВА ВИДЕОДАРСЛАР ЯРАТИШ

Саттарова Ш.К., Хусанов Ш.Т., ТАТУ

Бугун мамлакатимиз таълим тизимида инновацион технологияларга асосланган таълим-тарбия тизимини такомиллаштириш, унинг миллий заминини мустаҳкамлаш долзарб масаладир.

Мультимедия технологиялари талабаларга ноанъанавий ахборот манбаларидан фойдаланиш имкониятини беради. Видео ўқув қўлланма ва видеодарсларни ҳам самарали воситалардан бири деб ҳисоблаш мумкин.

Видеодарслардан мавзуни ўрганишнинг исталган босқичида ва дарснинг исталган шаклида фойдаланиш мақсадга мувофиқдир. Ўқув материалини видеодарс шаклида тақдим этиш ўқув вақтини қисқартиради, талабага дарснинг назарий ва амалий қисмини кўриш, намойиш этилган материални тушуниш ва мустаҳкамлаш, аниқ амалий муаммони ечишга сарфланган вақтни баҳолаш имконини беради.

Мультимедиали ўқитиш технологиясини амалга ошириш учун аввало мультимедиали дидактик воситаларини ишлаб чиқиш зарур. Видеодарсларнингэса айнан мультимедиали дидактик восита сифатида ўқув жараёнидаги ўрни алоҳида аҳамиятга эга.

Дидактика (юнонча *didakticos*– профессор-ўқитувчи, ўқитиш билан боғлиқ нарса) таълим жараёнида таълим ва тарбия, билиш назариясини ривожлантирувчи педагогиканинг бир қисмидир.

Психологик-педагогик луғатга кўра “дидактик материал”талабанинг мустақил ишини ташкил этиш воситаси бўлиб, унга билимларни тўлиқ ўзлаштиришга, ўз-ўзини текшириш ва бошқариш имкониятини беради, амалий муаммоларни ҳал қилишда фойдаланадиган манбадир. Россиялик олим В.Б. Моисеев ўз илмий ишида “Дидактик материал” тоифасини турли фанлар учун ўқув қўлланмаларининг махсус тури сифатида белгилайди, улардан фойдаланиш талабаларнинг билим фаолиятини фаоллаштиришга, ўқиш вақтини тежашга ёрдам беради дея таърифлайди.

Дидактик материал - бу ўқув қўлланмаларининг махсус тури бўлиб, асосан, ахборот технологиялари асосида яратилган, талабаларга машғулот пайтида ёки мустақил ишлаш учун тарқатиладиган, намойиш этилгантаълимдааниқ дидактик муаммоларни ҳал қилишга қаратилган билимлардир.

В.П. Демкин ва В.М. Вымятниннинг фикрига кўра мультимедиа дидактик материали – бу ўқув жараёнининг барча таркибий қисмларини ўз ичига олган рақамли ва аналог шаклда тақдим этилган мантиқий боғлиқ тузилган дидактик бирликлар мажмуасидир. Умуман айтганда, мультимедиали дидактик материал (МДМ) – бу видео, компьютер графикаси ва махсус эффектлардан фойдаланган ҳолда тақдим этиладиган интерактив ўқув воситаларининг махсус тури, график ва матнли материалига эга видеофильмдир.“Видеодарс” тушунчаси эса – бу ўқитишнинг дидактик принципларига жавоб берадиган бирор мавзу бўйича ўқитиш воситаси сифатида яратилган видеофильмдир.

Видеодарсни қисмларга ажратиш ва дарсда ёрдамчи восита сифатида фойдаланиш мумкин. У одатда ўқув материалининг ўқув жараёнининг одатий форматида чекланиши ёки уни қабул қилиш имконияти бўлмаган ҳолларда қўлланилади. Масалан бугунги кундаги каби карантин, пандемия шароитида.

Видеодарс икки хил бўлиши мумкин:

1. Давомийлиги 5 дан 15 минутгача бўлган видеодарс.Бунда дастлаб назарий маълумот (одатда янги назарий материал, мавзу бўйича янги сўз бойлиги ва ҳ.к.) берилади, сўнгра мисоллар келтирилади. Ушбу видеода кўрилган ва эшитилган материалларнинг талаб томонидан ўзлаштирилишини бошқаришга қаратилган элементар вазифаларни келтириш мумкин.

2. Дарс давомида талабалар когнитив хусусиятга эга бўлган кичик мавзудаги видеофильмларни (бадиий ва ҳужжатли фильмлардан парчалар, илмий-маърифий дастурларни) томоша қиладилар ва мавзу бўйича назарий материални мустахкамлашга оид амалий ишва вазифаларини бажарадилар. Бу видеодарсларнинг барча турлари эмас. Шунингдек, видеодарс масофавий ўқитиш доирасида тўлақонли дарс вазифасини ўташи ҳам мумкин.

Масофавий ўқитиш – “бу талабалар ва профессор-ўқитувчиларнинг бир-бирлари билан масофадан туриб ўзаро алоқасидир. Бунда масофавий ўқитиш таълим жараёнига хос бўлган деярли барча таркибий қисмларни (усуллар, мақсадлар, ташкилий шакллар, таркиб ва кўпинча ўқитиш воситалари) акс эттиради ва ўқув жараёнининг интерактивлигини таъминлаш мақсадида ахборот технологияларининг аниқ воситалари билан амалга оширилади.

Видеодарсларни яратишда қуйидаги дидактик талаблар қўйилади:

1. Видео ўқув қўлланмаларидан фойдаланган ҳолда ўқув жараёни ўқув материалидаги таркибни тақдим этишнинг етарли даражада чуқурлиги, тўғрилиги ва илмий ишончлилиги.

2. Дарснинг барча учун очиқлиги ва қулайлиги. Материалнинг ҳаддан ташқари мураккаб ва ҳаддан ташқари оғир бўлишига йўл қўйиш мумкин эмас. Бунда ушбу материални ўзлаштириш ўқитилаётган талабалар учун чидаб бўлмас ҳолга келади.

3. Муаммолилик. Таълим муаммосини таъминлаш ўқув-билиш фаолиятининг ўзига хос хусусияти билан шартланади. Талаба ўқув муаммоли вазиятга дуч келганда, унинг ақлий фаолияти кучаяди.

4. Аниқлик. Ўқув материалининг аниқлиги ва тушунарли бўлиши талабалар томонидан унинг ўзлаштирилишини кучайтиради, чунки талабаларнинг идрок қилишнинг барча каналлари – визуал, механик, эшитиш ва ҳиссиётларга боғлиқ бўлган жараёндир.

5. Узлуксизлик ва изчиллик. Ўқув видеороликларидан фойдаланишда ўрганиш, ўрганилаётган мавзудаги талабалар томонидан маълум бир билим тизимини изчил ва тизимли равишда ўзлаштиришни таъминлаш демакдир.

6. Билимларнинг ўзлаштирилиши. Видеодарсда материални тақдим этишда асосий нарсага урғубериш, уларни тўғри жойлаштириш, қисқа вақт ичида талабаларнинг мавжуд билимларини янгилашга имкон бериш.

8. Мослашувчанлик. Бу видеодарснинг талабанинг индивидуал имкониятларига мослигини англатади.

Видеодарсларнинг ютуқли жиҳатлари:

1. Вақтни тежаш. Олдиндан тайёрланган видеодарс вақтини тежашга имкон беради ва шу билан дарс зичлигини оширади;

2. Визуаллик ва интерактивлик. Бу туфайли талабалар дарсда фаол ишлашади. Диққат ортади, материални тушуниш ва ёдлаш яхшиланади;

3. Олий таълим муассасасиўқув соатларидан ташқарида ўқув видеофильмни ёки видеодарсни турли лойиҳалар сифатида, тадқиқот ишлари ва бошқа ижодий ишларга ҳисоботсифатида яратиш мумкин;

5. Профессор-ўқитувчи материални дарс режасига мувофиқ қатъий равишда тақдим этади;

6. Дарс материали доимо аниқ мантиқий тузилишга эга бўлади.

Камчиликлари:

1. Сифатли видеодарсни яратиш учун ўқитувчи ахборот ва видеотехнологиялар боасида малака ва билимларига эга бўлиши керак;

2. Профессор-ўқитувчи ва талаба ўртасида жонли алоқанинг йўқлиги, видеодарс намойишида руҳий муносабат ва қайта алоқа қисман йўқолади;

3. Видеодарсни яратишгакўп вақт ва меҳнат, маблағсарфланади;

4. Хатолар аниқланганда видеодарсни қайта ишлаш зарурати;

Хулоса қилиш мумкинки, камчиликларга қарамай, видеодарслардан тобора кўпроқ фойдаланилмоқда, замонавий мультимедиа технологиялари юқори сифатли видеодарслар яратишга имкон беради. Мультимедиали таълимни

ташкил этиш талабаларнингўқув жараёнида пассив кузатувчи эмас, балки фаол иштирокчи сифатида қатнашишга, компьютер технологиялари соҳасидаги ўз билимларини янада оширишларига олиб келади.

ВИДЕОДАРСЛАРНИНГ ТЕХНИК СИФАТИНИ ТАЪМИНЛАШ

Хусанов Ш.Т., ТАТУ

Бугунги кунда дунёда хукм сураётган оғир эпидемиологик вазият шароитида ватанимизда ҳам мавжуд шароитдан келиб чиқиб масофавий таълим платформаларидан, видеодарслардан фойдаланишни сифатли йўлга қўйиш масаласи долзарблик касб этмоқда. Видеодарслардан мавзуни ўрганишнинг исталган босқичида ва дарснинг исталган шаклида фойдаланиш мақсадга мувофиқдир. Ўқув материалини видеодарс шаклида тақдим этиш ўқув вақтини қисқартиради. Видеодарсларни ўрганиш талабага дарснинг назарий ва амалий қисмини кўриш, шу билан бирга унинг ҳақиқий жараёнини кузатиш, шу билан бирга намойиш этилган материални тушуниш ва мустаҳкамлаш имконини беради.

Яратилаётган видеодарсларнинг ҳам мазмун жиҳатдан, ҳам техник-технологик томонлама сифатли бўлиши ҳам муҳим аҳамиятга эга.Фотосуратнинг ёки видеотасвирнинг сифатли чиқиши кўплаб факторларга боғлиқ. Видеотасвирнинг техни нуқтаи назардан сифатли чиқишига аввало ёруғлик, оптик ускуналар, фон, тасвирга олиш усули, видеокамеранинг тасвир олиш сифати, тасвир ўлчамлари таъсир кўрсатади.

Ёруғликсиз экран санъатларини, фото ва видеотасвирни ҳосил бўлиш жараёнини тасаввур этиш мушкул. Чунки, фототасвир ҳам, видеотасвир ҳам айнан ёруғлик воситасида ёруғлик таъсирчан қатламда ҳосил бўлади.

Албатта, фильмни суратга олишда қандайдир сунъий ёритиш талаб қилинмайдиган ҳолатлар кўп. Аммо бу асосан қуёшли об-ҳаво шароитида, кундузи очиқ ҳавода тасвирга олиш учун қўлланилади. Бундай шароитда, ҳатто ўртача оптик ва матрицали кўрсаткичга эга камера ҳам яхши ишлашга қодир. Аммо табиий ёруғлик етарли бўлмаган ҳолда бино ичида, масалан аудиторияда видеодарсларни ёзиб олиш жараёнида сунъий ёруғликдан фойдаланишга тўғри келади. Бу ҳолда минимал вариант – бу камеранинг ёнидан ёки устидан махсус LED лампалар асоида яратилган кичик умумий ёритиш воситасини қўйишдир. Бундай ёруғликнинг афзалликлари унинг ихчамлигидадир. Камера устидаги ёруғлик манбаи видео ёзиб олиш жараёнига халақит бермайди, ишлашни осонлаштиради. Шунинг учун, ушбу воситадан аудиторияда у ёқдан бу ёққа юриб амалий ишларнинг бажарилишини кўрсатиб беришда фойдаланиш осон.

Камчилиги – бир нуқтадан ёритиш ёруғликнинг табиий тақсимланишига йўл қўймайди ва кадр табиий кўринмаслиги мумкин.

Агар вазият имкон берса, стационар ёритиш ускуналаридан фойдаланиш яхши натижалар беради. Бунда иккита ёки учта алоҳида ёруғлик манбалари қўлланилади. Улар объектни ҳар томондан тенг равишда ёритиб туриши мумкин. Бунинг учун софтбокслар деб номланган махсус нурни юмшатувчи элементга эга бўлган ёритиш қурилмаларидан фойдаланилади.

Кўп одамлар ёруғликдан фойдаланишдан қўрқишади, чунки улар хато қилиб қўйишдан, экранда хунук кўринишдан қўрқишади. Бошқалар эса видеодарсларни ёзишда ёритишни кераксиз нарса, бунинг учун жуда кўп ускуналар ва куч керак деб ўйлашади. Ўқитувчи ўз меҳнатини қадрласа, юқори сифатли видеодарс яратишни истаса ёритишга алоҳида эътибор бериши керак.

Бироқ, объектни ҳаддан ташқари кучли ёритилиши ҳам матрицанинг ҳаддан ташқари ёришиб кетишига, тасвирнинг тиниқлигини йўқолишига олиб келади.

Ёруғликдан фойдаланиш аслида объектнинг ташқи кўринишига, видеодарсдаги айрим нарсаларгаалоҳида эътиборни жалб қилиш учун ҳам керак. Бу дегани, биз нафақат чироқларни қаерга қўйишимиз ҳақида, балки шу чироқлардан қандай ёруғлик олишимиз ва буларнинг барчаси бизнинг тасвирларимиз сифатига қандай таъсир қилишини ҳам ўйлашимиз керак.

Ёритишни ёки ёруғликни муваффақиятли ишлатиш учун биз унинг баъзи хусусиятлари ҳақида тасаввурга эга бўлишимиз керак:

• Ёруғлик интенсивлиги тасвир сифатига бевосита таъсир қилади.

• Ёруғлик сифати, унинг кескин йўналганлигини ёки майинлиги тасвирдан олидагина таассуротга кучли таъсир қилади.

• Ёруғлик тасвирнинг контрастлилик даражасига таъсир қилади.

• Нурнинг объектга қайси томондан ва қандай баландликдан йўналиши объектнинг экрандаги кўринишига таъсир қилади.

• Ёруғлик манбасининг ранг ҳарорати ранг сифатига таъсир қилади.

Ёруғлик хусусиятларини, уни бошқаришни билиш доимо юқори сифатли тасвирларни яратишга ёрдам беради.

Юқори сифатли тасвирларни суратга олиш учун объектдан акс этган ёруғлик миқдори етарли даражада кучли бўлиши талаб этилади. Агар ёруғлик жуда оз бўлса, тасвир қорайган бўлади, кўп бўлса ҳамма нарса ҳаддан ташқари ёркин, тасвирдаги нарсалар кўринмайдиган даражада сифатсиз бўлади. Ёруғликнинг кучига камеранинг экранчаси орқали ҳам баҳо бериш мумкин.

Табиийки, оқ деворларга эга бўлган хонада тасвирга олиш қоронғу хонага қараганда камроқ ёруғликни талаб қилади. Шуни унутмаслик керакки, видеокамеранинг ёруғликни компенсация қилиш функциясиёруғлик

етишмаслигини қисман бартараф этиши мумкин. Лекин бу ҳолда видеотасвирдарақамли шовқинлар, хиралашиш келиб чиқиши мумкин.

Видеонинг сифатида оптик воситалар, объективларнинг ўрни ҳам катта. Албатта, объектив қанчалик яхши эканлиги ҳам муҳимдир. Объективлар диафрагма, тасвирни катталаштириш даражаси ва бошқа кўрсаткичлар билан фарқ қилади. Нотўғри танланган объектив видео тасвирга олиш сифатини сезиларли даражада пасайтириши мумкин, шунинг учун видеодарсларни видеога ёзишда ёки веб-камераларни танлашда имкон борича сифатли оптик элементларга эга бўлганларини танлашга ҳаракат қилиш керак.

Тасвирни қандай ракурсдан олиш жуда муҳимдир. Профессионал операторлар баъзан керакли нуқтани топиш учун соатлаб вақт сарфлашади. Чунки энг ифодали ракурсни топа олиш бу ҳақиқий истеъдоддир.

Видеодарсларга қўйиладиган техник ва технологик талабларга қуйидагилар киради:

1) ҳар қандай видеодарс мантиқий тузилган сценарийга асосланган бўлиши керак, у барча ўрганилган ёки ўрганилаётган атамалар, объектлар ва бошқаларни тўлиқ, сифатли ва тушунарли акс эттириши керак;

2) қулайташувчилар (CD, DVD, USB флеш-хотиралар ва бошқа ташқи ташувчиларда) ёки локал/глобал тармоқ режимида ишлаши лозим;

3) уларни яратишда юқори сифатли овоз ёзиш ускуналари ва видеокамералардан фойдаланиш шарт;

4) визуал эффектлардан фойдаланиш ҳам фойдадан ҳоли бўлмайди;

5) кадрларда матн ва товуш синхронлаштирилган бўлиши шарт, лекин видеодарснинг баъзи босқичларда бу нарса фарқ қилиши мумкин.

Видеодарснинг тузилиши аудиториядаги дарсидан бир оз фарқ қилади, лекин умуман олганда асосий босқичлар сақланиб қолади ва бир-бири билан боғланади. Видеодарсини яратишда оғзаки ва тасвирий деб аташ мумкин бўлган аралаш усулдан фойдаланиш мақсадга мувофиқдир.

Видеодарсларда тескари алоқанинг аҳамияти ҳам катта. Масалан YouTube тизимига юкланган видеодарсларни талабалар пайдо бўладиган саволлар бўйича профессор-ўқитувчи билан маслаҳатлашишлари мумкин.

Хулоса қилиб шуни айтиш лозимки, бугунги пандемия шароитида масофавий таълимга, мультимедиали дарсларни, видеодарсларни яратишга талаб янада кўпроқ ошди. Бу ҳол кўпгина профессор-ўқитувчиларнинг мультимедия технологиялари, шу жумладан видеотехнологиялар борасидаги билимлари етарли эмаслигини яққол кўрсатиб қўйди. Бугунги кунда таълим тизимидаги ислоҳотларнинг муаммолари педагог кадрлар салоҳияти билан боғлиқ экан педагоглар ўзларининг медиакомпетентлигини ошириш борасида ишлашлари, ўз билим ва малакаларини оширишга интилишлари зарур.

МУТАХАССИСЛИК ФАНЛАРИНИ ЎҚИТИШДА ВИДЕОДАРСЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ АҲАМИЯТИ

Хусанов Ш.Т., ТАТУ

Инсоният тараққиётининг замонавий босқичи умуминсоний ахборотлаштиришга ўтиш ва инсон ҳаётининг турли соҳаларида компьютер технологияларини жорий этиш билан боғлиқ. Ахборот даври келиши билан таълим соҳасида ҳам туб ўзгаришлар юз бермоқда. Бугунги кунда бутун дунёда ҳукм сураётган мураккаб эпидемиологик вазият ўқув жараёнида, шу жумладан мутахассислик фанларини ўқитишда ҳам ахборот технологияларидан фойдаланиш, ҳусусан масофадан ўқиш имконини берувчи видеодарслардан фойдаланиш муаммосини долзарб қилиб қўйди.

Мутахассислик фанларини олий таълим муассасаси талабаларига ўқитиш жараёнида мультимедиа ва ундан фойдаланишнинг назарий манбалари аввало Ўзбекистон республикаси президентининг2017 йил 20 апрелдаги “Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-2909-сонли қарорида ўз аксини топган.

Бугунги кунда хорижда масофавий таълимдан шахсий режа асосида уйдан туриб, университет томонидан тайёрланган видеодарслардан фойдаланиш, ишлаб чиқаришдан ажралмаган ҳолда таълим олиш, қўшимча тарзда бошқа йўналишларда таълим олиш тажрибаси кенг татбиқ қилинмоқда. Юртимиз таълим муассасаларида жорий қилинаётган ахборот-коммуникация технологиялари инфратузилмаси ҳам келажакда бу каби имкониятлардан фойдаланишга хизмат қилади.

Видеодарсларни яратиш жараёни бевосита мультимедиа технологиялари билан боғлиқ. Мультимедиа – бу янги ахборот технологияларининг нисбатан ёш тармоғи ҳисобланади. “Мультимедиа” сўзининг сўзма-сўз таржимаси “кўп муҳит” (*мульти* - кўп, *медиа* - "атроф-муҳит") деган маънони англатади. Ушбу атама инсонга бир вақтнинг ўзида бир нечта ахборот оқими орқали таъсир қилишни англатади. Бундай ҳолда, қоида тариқасида, инсонга фаол роль берилади.

Мультимедиядан илмий ва ўқув мақсадларида профессор-ўқитувчилар томонидан ўқув, таълим жараёни жараёнида уларнинг мақсад ва вазифаларидан келиб чиққан ҳолда мультимедиа маҳсулотини ишлаб чиқишйўналишида фаол қўлланилади:

Мультимедиа турларига қуйидагилар киради:

Чизиқли мультимедиа - бу турли хил мультимедиа элементларини тақдим этишнинг энг оддий шакли бўлиб, фойдаланувчи мультимедия элементларидан фақат пассив равишда фойдаланиши мумкин, яъни фақат

кўриши мумкин ва мультимедиа элементларини кўриш кетма-кетлиги аввалдан белгиланган сценарий асосида бўлади.

Чизиқли бўлмаган (интерактив) мультимедиа - бу фойдаланувчига диалог режимида элементларни танлаш ва бошқариш имконияти берилган мультимедиа элементлари тўпламини, масалан турли хил онлайн курслар ва масофавий тестларни тақдим этиш шаклидир.

Гипермедиа (*Hypermedia, H-media*) - интерфаол мультимедиа. Унда фойдаланувчига кетма-кет танлаши мумкин бўлган мультимедиа элементлари тузилмаси тақдим этилади, яъни бу гиперматн тушунчасининг маълумотлар ёзиш тузилмаларини ташкил қилишнинг мультимедиа турлари даражасигача кенгайиши демакдир.

Livevideo – "Ҳақиқий/жонли видео" реал вақтда ишлаш қобилияти жиҳатидан мультимедиа тизимининг ўзига хос хусусиятидир.

Ўзбекистонда бугунги кундаги шароит олий таълим муассасаси битирувчилари келажакда меҳнат бозорида рақобатбардош бўлиши кераклигини кўрсатмоқда. Бунинг учун олий таълим муассасаси нафақат битирувчини муайян билимларни бериш, балки ташаббускорлик, ижодий фикрлаш қобилияти ва ностандарт ечимларни топиш каби шахсий фазилатларини ҳам шакллантириши зарур. Мутахассислик фанларини ўқитишда профессор-ўқитувчиларнинг дарсга тайёргарлик жараёнида ўқитишнинг Ўзбекистон республикасининг Давлат Таълим Стандартининг талабларига жавоб берадиган шакллари ва усулларини танлашлари керак. Бу усуллардан бири бу мультимедиа технологияларидан, талабаларга мустақил билим олиш имкониятини яратадиган видеодарслардан фойдаланишдир.

Келинг, талабаларга мутахассислик фанларини ўқитишда видеодарслардан фойдаланишни батафсил кўриб чиқамиз. Таълим жараёнида видеодарсларни қўллашнинг асосий мақсадларидан бири бу таълим самарадорлигини оширишдир. Шунинг учун фанларни ўқитиш жараёнида профессор-ўқитувчи мультимедиа технологиялари ёрдамида қуйидаги вазифаларни ҳал қилади:

1) ўқув маълумотларини тақдим этиш шаклларинингэнг мақбул, самарадор усул ва воситаларини аниқлаш ва қўллаш;

2) ўқув материалининг талабага тушунарлик даражасини ошириш;

3) талабалар билан тезкор тескари алоқа ўрнатишга имкон яратиш;

4) ўрганилаётган материалга нисбатан талабаларда ақлий-эмоционал муносабат ҳосил қила билиш;

5) жараёнининг индивидуаллик, умумийлик тамойилларини таъминлаш.

Шунга асосланиб, видеодарсларни ўқув жараёнида, хусусан, мутахассислик фанларини ўқитишда қўллашнинг қуйидаги афзалликларини таъкидлашимиз мумкин:

1) яхлит ўқув муҳитини яратиш имконияти;

2) ўрганилаётган материалнинг барчага тушунарлилигини ошириш;
3) ўрганишга ижодий ёндашувни фаоллаштириш;
4) ўрганилаётган мавзу тўғрисида тўлиқроқ тушунчани шакллантириш;
5) турли хил ўқитиш воситаларидан аралаш ҳолда фойдаланиш;
6) ўрганиш учун қўшимча мотивация яратилиши;
7) ахборотни қабул қилиш тезлигини оширилиши;

Видеодарслардан мавзуни ўрганишнинг исталган босқичида ва дарснинг исталган шаклида фойдаланиш мақсадга мувофиқдир. Ўқув материалини видеодарс шаклида тақдим этиш ўқув вақтини қисқартиради. Видеодарсларни ўрганиш талабага дарснинг назарий ва амалий қисмини кўриш, шу билан бирга унинг ҳақиқий жараёнини кузатиш, шу билан бирга намойиш этилган материални тушуниш ва мустаҳкамлаш, аниқ амалий муаммони ечишга сарфланган вақтни баҳолаш имконини беради.

Олий таълим муассасасиида ўқув жараёнини ахборотлаштиришнинг асосий мақсади энг янги интеллектуал ахборот технологиялари, ахборот тармоқларидан фойдаланиш, ахборот-коммуникация ўқув қўлланмаларини умумий ўқув жараёнига жорий этиш, замонавий дастурий таъминот билан жиҳозлаш асосида ягона ахборот маконини яратишдир. Албатта, натижага эришиш учун кўплаб профессор-ўқитувчилар ахборот технологияларидан фойдаланган ҳолда сифатли ўқув қўлланмаларни, видеодарсларни яратишлари зарур бўлади.

ТЕЛЕВИЗИОН ТЕХНОЛОГИЯЛАР СОҲАСИДА МАЛАКАЛИ КАДРЛАРНИ ТАЙЁРЛАШДА ЎҚУВ МЕДИА-МАРКАЗНИНГ РОЛИ

Жолдасов Ш.Б., ТАТУ

Телевизион технологиялар йўналишидаги кадрлар малакасига, шу жумладан бакалаврларнинг касбий фаолияти, унинг объектлари ва таёргарлик даражасига қўйиладиган касбий талабларга эътибор қаратадиган бўлсак, кўриниб турибдики мазкур йўналишнинг таълим сифатини оширишда ахборот-коммуникация технологияларидан фойдаланиш хусусиятларини тўлиқ онглаш лозим. Бу йўналишдаги мутахассиларни тайёрлашда нафақат одатда барча ОТМ ларда фойдаланадиган ахборот-коммуникация технологияларидан, бунда махсус телевизион технологиялар таркибига кирувчи асбоб-ускуналаридан ҳам фойдаланиш лозим. Ўз навбатида, телевизион технологиялар ахборот-коммуникация технологиялари таркибига киради. Шунинг учун ҳам, Телевизион технологиялар йўналиши бўйича таълим сифатини оширишдаги

ахборот-коммуникация технологияларидан фойдаланишнинг ўзига хос хусусиятлари мавжуд.

Кўриниб турибдики, мазкур йўналишда мутахассис тайёрлаш учун ОТМда тегишли моддий-техника базаси бўлмаса, таълим сифати ҳақида гапирмаса ҳам бўлади.

Таъкидлаш лозимки, Телевизион технологиялар йўналиши бўйича давлат стандартига тўла мувофиқ мутахассисларни тайёрлаш масалалари ТАТУ раҳбарияти ва профессор-ўқитувчилар таркибининг диққат марказида бўлмоқда. Жумладан, ҳозирги даврда "Телевизион технологиялар" факультетнинг "Телестудия тизимлари ва иловалари" кафедраси қошида "Ўқув телестудия" лойиҳаси амалга оширилмоқда. Лойиҳанинг мақсад ва вазифалари талабалар учун замонавий студия асбоб-ускуналарида амалиёт машғулотларни ўтказишга зарур шароитлар яратиш, олий тоифали мутахассислар тайёрлаш ва замонавий видео-фото тасвирга олиш ва ёритиш кўрилмаларни ўқув жараёнида фойдаланишнинг сифат даражасини кўтариш ва илмий тадқиқотлар олиб бориш, профессор – ўқитувчилар таркибининг илмий ва педагогика фаолияти бўйича кўникмаларини кўчайтириш ҳамда катта илмий ходимларнинг илмий изланишларига шарт-шароитлар яратиш, талабаларнинг лаборатория, курс ва мустақил ишларини олиб боришидан иборатдир.

Лойиҳанинг бажарилиши мақсадида тендер асосида 100 млн. сўмга тегишли асбоб-ускуналар сотиб олинди.

Ўқитувчилар томонидан "Кинооператорлик маҳорати", "Кинотелекомпозиция", "Тасвирга олиш махорати", "Кўп камераларда тасвирга олиш", "Рақамли фотография асослари", "Ёритишни режалаштириш", "Ёритишни бошқариш", "Ёритиш ускуналари ва технологиялари" фанлари бўйича тегишли ўқув ва ишчи дастурлари ва лаборатор машғулотлар, курс ва мустақил ишлар бўйича ўқув-услубий қўлланмалар ишлаб чиқилди, ва улар асосида дарслар ўтилмоқда. Шунингдек, лабораторияда битирув малакавий ишлар бажарилмоқда.

Шу билан бирга, бугунги кунда Телевизион технологиялар факультетида 600 нафарга яқин талабалар таҳсил олмоқда. Албатта факультетдаги мавжуд моддий-техника база етарли эмас эди. Мазкур холатдан келиб чиқиб, бугунги кунда "Телевизион технологиялар" факультетида JICA (Япон ҳалқаро ҳамкорлик Агентлиги) билан биргаликда Ўқув Медиамарказини ташкил этиш бўйича лойиҳа амалга оширилди. Ўқув Медиамарказини ташкил этиш мақсади – кино ва телевидениенинг замонавий асбоб-ускуналарида ишлаш учун "Телевизион технологиялар" факультети талабаларининг амалиёт ишларига шарт-шароитлар яратиш, дунёнинг илғор мамлакатлари тажрибасидан келиб чиқиб, теле –радиоиндустрияда фойдаланаетган замонавий технологияларни юқори даражада сифатли бошқаришни урганишдир. Таъкидлаш лозимки,

Ўзбекистон Миллий телерадиокомпаниясида фойдаланаётган асбоб-ускуналар Япониянинг компанияларида ишлаб чиқарилган ва бу холат лойиҳани JICA билан хамкорликда бажарилишининг асосий омили бўлди. Албатта ушбу лойиҳа Ахборот технологиялари ва коммуникацияларини ривожлантириш вазирлиги бошчилигида МТРКнинг кўллаб-куватланиши асосида амалга оширилмоқда. Лойиҳанинг амалга оширилиши, энг аввало, телевизион технологиялар йўналишидаги мутахассисларнинг қасбий тайёргарлиги сифатини янги погонага кўтариш, амалиёт машғулотларни замонавий асбоб-ускуналарда ўтказиш ҳамда тегишли мутахассисликлар бўйича назарий билимлар билан биргаликда малакавий кўникмаларни мукаммал ўзлаштиришга хизмат қилади.

Шунингдек, лойиҳада тасвирга олиш асослари, композиция, ёритиш, монтаж, кино-теле-видео ва аудио технологиялар бўйича амалий машғулот дарсларини ўтказиш, “Телевизион технологиялар” таълим йўналиши (“Аудиовизуал технологиялар” ва “Телестудия тизимлари ва иловалари” мутахассисликлар) бўйича талабалар учун ўқув дастурларини яратиш, шунингдек, тасвирга олиш, ёритиш, монтаж этиш, овоз бериш, эфффектлар бўйича илмий тадқиқотлар олиб бориш ҳамда тегишли медиамаҳсулотларни ишлаб чиқиш вазифалари белгиланган. Шу билан бирга Ўқув Медиамарказининг фаолияти битирув малакавий ишларни тайёрлаш сифатини янги босқичга кўтаради.

Сифатли кадрлар тайёрлашда таълимнинг фан ва ишлаб чиқариш билан ўзвийлиги бугунги куннинг долзарб омилига айланиши шубхасиз. Айтиш лозимки, ахборот жамияти талаблари ҳам таълим, фан ва ишлаб чиқариш ўртасидаги интеграцион ўзаро харакатланиш боғитини кўчайтирмоқда. Таълим, фан ва ишлаб чиқариш ўртасидаги интеграцион шаклларнинг ривожланиши ва алоқаларининг кўчайиши тизимли ахборот жараёнларнинг урнатилишига олиб келаяпти. “Таълим- фан - ишлаб чиқариш” тизимининг янги интеграцион шакллари (инженерлик марказлари, бизнес-инкубаторлар, технопарклар, технополислар ва ҳ.) ўз мақсадлари, вазифалари ҳамда ўз ичида маълум ижтимоий муносабатлар тизими мавжуд бўлган комплекслилиги билан ажралиб туради.

РАҚАМЛИ ЖАМИЯТДА ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИ ПЕДАГОГ КАДРЛАРИ КРЕАТИВЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ТЕНДЕНЦИЯЛАРИ

Позилова Ш.Х., ТАТУ

Креативлик тенденция сифатида белгиланади муаммоларни хал килишда, бошкалар билан мулокотда ва бошкаларда фойдали бўлиши мумкин бўлган ғоялар, алтернативалар ёки имкониятларни яратиш. Бошкача айтганда, айтиш мумкин бунда креативлик хар кандай янги нарсаларни яратиш ёки кучайтириш қобилиятидир. Гарчи янгилик креативликда алохида ахамиятга эга бўлса-да креатив одам эски буюмларни ўрнига янги шаклларда такдим килиши мумкин хар кандай янги объектни ихтиро қилишдир.

Креативлик назариялари: - Таълимда креативлик мухим жихат эканлигини исботламокда. Унинг максади - болаларнинг ижодий хусусиятларини ривожлантириш.

Бернард ва Франклин С. Шаунжнинг бир неча психологик изланишларидан кейин креативликнинг куйидаги тамойилларини келтирганлар:

1. Психоаналитик назария:

Психоаналитик назария креативликка бирламчи жараёнлар натижасида келиб чиқадиган жараён дея таъкидлайди. Креативлик - бу хар хаёлотнинг ҳаракатлантирувчи кучи алоҳида хаёл истакнинг бажарилишини ўз ичига олади ва уни яхшилайди.

Фрейд бадиий ижодда психоаналитик тизимни ишлаб чикади. У билан уйғунлаштириш учун учта нарса зарур деб хисоблайди:

- ✓ хаёт кийинчиликлари
- ✓ кизикишнинг кучлилиги. Одам ташвиш.
- ✓ Провокацион махсулот

2. Ассоциатив назария:

Юкори креативлик ва паст ижодкорлик ўртасида фарклар бўлган белгиланган ўлчовлар бўйича хисобланган. Рибот исмли психолог ўзаро муносабат ва креативликни кўшиш ишларини олиб борди.

Реботалсо тушунтиришича, агар инсон бирлашмалар туза олса мавжуд элементлар ўртасида, факрни тушуна олса янги нарса ярата олади.

Ушбу назария ижодий фикрлашга шаклланиш сифатида ёндашади.

3. Тушуниш назарияси:

Гесталт издошлари ижодкорликни янги фикр ёки тушунча сифатида белгилайдилар бу тўсатдан одамнинг онгига киради. Онгли ўрганиш - бу муаммонинг ечимини тўсатдан амалга ошириш.

Гесталтнинг сўзларига кўра, "ижодий фикр асосий фикрни ўзгартиришни ўз ичига олади. Бу янги тасаввур туфайли юзага келади.

4. Тўпланиш назарияси:

Ушбу назария юзасидан бошка тадқиқотчиларнинг нуқтаи назари турлича. Тўпланишнинг маъноси одамнинг хусусиятларини англатади. Булар тўпланишларлар индивидуал фаркларга эга.

"Креативлик" ва "креатив педагог» тушунчалари хакида гап борар экан, креативлик - педагогик ижодкорлик асосида акс эттирилган шахснинг фазилатлари ва ижодий фазилатларини ривожланишига тўсқинлик қилувчи омилларни таъкидлайди. Глобаллашув жараёнида ахборотнинг ҳажми жуда кенг ва улар орасида ҳар ким ўз эхтиёжига қараб қабул қилади. Бундан ташкари, ҳозирги вақтда эътиборни жалб килиш учун оммавий ахборот воситаларида турли хил психологик шакллар ва усуллардан фойдаланилмокда. Шу сабабли, маълумотни узатишда унинг шакли ва уни етказиш усулларига катта эътибор берилади, лекин маълумот унинг мазмунига кўра унчалик мукаммал эмас. "Қобилиятли" ахборот тарқатувчилар ижтимоий ёндашувлар манфаатларини, турли ёшдаги одамларнинг ахборот тақдим этишга бўлган эҳтиёжларини эътиборга олади.



Мамлакатдаги билим олувчиларнинг аксарияти ёшлардир ва уларда ахборот билан ишлаш, уларда яратилиш ва ижтимоий ривожланиш туйғуларини ривожлантириш маданиятини шакллантиришимиз керак. Ўқув жараёни талабаларнинг эҳтиёжлари ва қизиқишларига креатив ёндашиш асосида ташкил этилиши лозим. Ўқитувчилар ўқув жараёнини ижодий ёндашув асосида ташкил қилганда, талабалар билимларни қизиқиш ва муваффаққият билан осонликча эгаллайдилар.

Инсоннинг ижоди унинг фикрлаши, ҳис-туйғулари, алоқалари ва турли хил фаолиятларида намоён бўлади. Креативлик инсонни ва унинг ўзига хос хусусиятларини тавсифлайди. Креативлик - бу очилмаган жараён бўлиб, "ижод" сўзида ифодаланган куйидаги маънолар мавжуд:

- Муаммо ёки илмий тахминни ифодалаш;
- Тахминни бошқариш ва уни ўзгартириш;
- Муаммони бартараф этиш натижаларини таҳлил қилиш орқали;
- Муаммони билим ва амалий фаолият орқали ҳал этиш.

Креативликнинг асосий ўзига хос хусусиятлари қуйидагилардан иборат.

- ижодий йўналиш;
- мантиқий фикрлаш (эрудиция);
- бой тасаввур;
- ўз ижодини ифода этиш;
- акс эттириш қобилияти;
- тажриба ва билим асосида қарорлар қабул қилиш маҳоратига эга бўлиш.

Ҳозирги кунда шахснинг икки асосий хусусиятлари, шахснинг ҳаётий тажрибаси, шахсий хусусиятлари ва креатив фикрлаши ва унинг натижалари асосида шахснинг ижодини аниқлаш тажрибаси чет элда шаклланган. Ушбу тажрибага кўра, шахснинг креативлиги, юқорида айтиб ўтилган шахсий фаолиятнинг хусусиятларини ўз ичига олган синовлар асосида шаклланади.

TA’LIMDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI

Delov T.E., TATU

Axborot texnologiyalarini rivojlantirish so‘nggi yillarda zamonaviy jamiyatning ustuvor vazifasidir. Zamonaviy sharoitda o‘quv jarayoni yangi axborot komplekslari va tizimlari bilan doimiy ravishda o‘zaro aloqada bo‘lib, bu ta’lim tizimiga yangi usul va yondashuvlarni joriy etishga imkon beradi.

Shubhasiz, axborot texnologiyalarining rivojlanishi oliy ma'lumot tizimida informatika sohasidagi so‘nggi yutuqlardan amaliy foydalanish uchun yangi imkoniyatlarni o‘rganishni talab qiladi. Boshqa har qanday innovatsion jarayon singari ta’lim muhitida yangi axborot texnologiyalarini joriy etish pedagogik sohada o‘zgarishlar kiritmoqda. Ta’limni axborotlashtirish jarayoni o‘qituvchining ishi uchun ham, o‘quvchini tayyorlash uchun ham qulay sharoitlarni yaratishga qaratilgan. Ushbu jarayonda o‘qituvchi va talabaning o‘zaro munosabatlariga alohida e'tibor beriladi. Ta’lim tizimiga kiritilgan yangi texnologiyalar, kelajakdagi mutaxassisning salohiyatini yo‘naltirish va ro‘yobga chiqarishda yangi yondashuvlar tufayli imkoniyat yaratadi. Talaba shaxsini rivojlantirish, ham o‘quv, ham kasbiy vazifalarni hal qilish strategiyasini ishlab chiqish ko‘nikma va malakalarini shakllantirish eng muhim vazifalardan biridir. Yangi texnologiyalar talabalarning ijodiy fikrlash darajasini oshirishga yordam beradi. Yangi imkoniyatlar orqali talaba oldiga qo‘yilgan vazifani hal qilishga ko‘proq intiladi.

Ta’lim tizimiga yangi axborot texnologiyalarini joriy etish va yangi axborot tizimlarini rivojlantirish jahon ilm-fanining jadal rivojlanish omiliga aylandi. Axborot texnologiyalari oliy o‘quv yurtlarining o‘quv-uslubiy majmualari va dasturlarida o‘z aksini topishi kerak bo‘lgan zamonaviy dunyoda oliy ta’lim tizimini axborotlashtirishning ahamiyatini anglash muhimdir. Mutaxassislarni qayta tayyorlash tizimiga va ta’lim tizimida ishlaydigan mutaxassislarning malakasini oshirish dasturlariga e'tibor qaratish lozim. Avvalo biz o‘qituvchilar haqida gapiramiz. Zamonaviy texnologiyalarni qo‘llashda o‘qituvchining tushunchasi u o‘quv jarayonining aniq vaziyatlarida zarurdir. Ta’lim tizimini axborotlashtirishning ikkita asosiy yo‘nalishi mavjud. Birinchi yo‘nalish boshqarilmaydigan axborotlashtirishga mos keladi. Boshqaruvsiz axborotlashtirish o‘qituvchining tashabbusi bilan amalga oshiriladi. Bunday axborotlashtirish o‘qituvchining fikriga ko‘ra o‘quv jarayonining eng dolzarb jihatlarini takomillashtirishga qaratilgan. Boshqa yo‘nalish ta’lim tizimini boshqariladigan axborotlashtirishga ta'sir qiladi.

Axborotlashtirishning ushbu turi moddiy resurslar bilan ta'minlanadi va umumiy printsiplarga muvofiq kontseptsiya va dasturga ega.

Ta’lim tizimida axborot texnologiyalaridan foydalanish ularni qo‘llashning turli yo‘nalishlariga ega bo‘lishi mumkin. Shunday qilib, o‘qituvchining rivojlanishining hozirgi bosqichida o‘quv jarayonining deyarli barcha bosqichlarida yangi texnologiyalardan foydalanish imkoniyati mavjud. Axborot texnologiyalari nazariy materiallarni tayyorlashda, intizomni axborot-uslubiy ta'minotini ishlab chiqishda, darslar uchun ko‘rsatma materiallarni ishlab chiqishda, talabalarni imtihon qilishda, o‘rganish taraqqiyoti statistikasini to‘plash va tahlil qilishda ishlatilishi mumkin. Ta’limni axborotlashtirishning asosiy elementlari sifatida uchta komponentni ajratish kerak:

-Informatsion texnologiya;

-ushbu texnologiyalardan foydalanishga imkon beruvchi dasturiy ta'minot;

- texnologiyalari amalda qo‘llaniladigan apparat.

So‘nggi yillarda eng istiqbolli va tez rivojlanayotgan texnologiyalardan biri bu masofadan o‘qitish texnologiyasi. Masofadan o‘qitish ta’lim xizmatlari majmuini aks ettiradi. Ushbu texnologiya bo‘yicha ta’lim xizmatlari ixtisoslashtirilgan ta’lim muhiti yordamida amalga oshiriladi. Bunday ta’lim muhitining tuzilishi axborot texnologiyalari va ma'lumotlarni uzatish vositalari, dasturiy ta'minot va tashkiliy-uslubiy ta'minot tomonidan amalga oshiriladi. Masofaviy o‘qitish talaba va o‘qituvchi o‘rtasida ularning bevosita uchrashuvisiz interaktiv muloqotni amalga oshirishga imkon beradi. Tanlangan dastur bo‘yicha ma'lum bir bilim massivini mustaqil ravishda rivojlantirish imkoniyati mavjud. Masofaviy o‘qitish texnologiyasi o‘quvchida maxsus ta’lim usullari va texnologiyalari tufayli mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan. Intellektual faoliyatni rag'batlantirish va yangi ko‘nikmalar va bilimlarni olish uchun yuqori motivatsiyani ta'minlash o‘quv jarayonining aniq maqsadlarini belgilash va unga talabani jalb qilish tufayli erishiladi. Masofaviy ta’lim tizimidagi maxsus yondashuv ta’lim samaradorligini beradi. Talabalar uchun materiallar har bir ta’lim mavzusi bo‘yicha tizimlashtirilgan bilimlarni olish imkonini beradigan tuzilgan shaklda taqdim etiladi. Masofaviy ta’lim tizimidagi asosiy muammo talabani o‘quv jarayoniga jalb qilishdan iborat. Masofaviy o‘qitish texnologiyasi zamonaviy telekommunikatsiya muhitiga mos keladigan ta’lim usullari va usullari bilan qurilganligi aniq. Shu munosabat bilan o‘quv jarayonida taqdim etiladigan ma'lumotni talabani passiv iste'molchidan emas, balki ushbu jarayonning faol ishtirokchisidan iborat qilish muammosi mavjud. So‘nggi yillarda masofaviy o‘qitishning "gamifikatsiyasi" kontseptsiyasi tufayli sezilarli rivojlanish bo‘ldi. Ushbu kontseptsiya jamiyat hayotining turli sohalarida o‘yin

mexanizmlaridan, haqiqiy, o‘yindan tashqari vazifalar va muammolarni hal qilish tamoyillari va vositalaridan foydalanishga asoslangan. Shu bilan birga, ushbu texnologiyani qo‘llashda o‘quvchilarni o‘quv jarayoniga jalb qilish tizimini yaratish muammosi yotadi. O‘qishning rasmiy o‘yin jihatlariga haddan tashqari ishtiyoq o‘rganilayotgan fanning materiallarini ishlab chiqishga salbiy ta'sir ko‘rsatishi mumkin. Ilgari ko‘rib chiqilgan texnologiyalardan tashqari, o‘rganishda ishlatiladigan boshqa zamonaviy texnologiyalar ham mavjud. Konferentsiya aloqasi texnologiyasini isbotlangan zamonaviy axborot texnologiyalariga yo‘naltirish zarur. Ta’lim jarayonida konferentsiya aloqasi texnologiyasi katta imkoniyatlarga ega; ushbu texnologiyani qo‘llash ta’lim jarayonida yuzaga keladigan bir qator vazifalarni hal qilishga imkon beradi. Videokonferentsiya orqali masofadan turib mashg'ulotlar o‘tkazish imkoniyati mavjud, shu bilan o‘qituvchiga yoki mutaxassisga o‘qitilganlar bilan shaxsiy uchrashuvga bormaslik imkoniyati beriladi.

Ta’lim jarayonida jamoaviy ijodkorlik va o‘zaro munosabatlarning ixtisoslashgan muhitini yaratish ham yanada rivojlanishni taqozo etadi. Mavjud texnologiyalar, shu jumladan MediaWiki texnologiyalari zamonaviy ta’lim tizimida etarli darajada samarali foydalanilmayapti. Kollektiv ta’lim ko‘p o‘lchovli modellarni yaratish orqali chuqur bilim olishning yangi imkoniyatlarini ochib beradi. Internetning so‘nggi rivojlanish tendentsiyalari asosida zamonaviy texnik vositalar va zamonaviy dasturiy ta'minot yordamida ixtisoslashtirilgan loyihalardagi ishlarda jamoaviy ishtirok etish uchun katta imkoniyatlar mavjud.

Ta’lim jarayonida mobil texnologiyalar va mobil vositalardan foydalanishga alohida e'tibor qaratish lozim. Mobil qurilmalar va mobil dasturlarning rivojlanishi bilan talabalar yangi ta’lim shakllaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lmoqdalar. Ta’lim jarayoni yanada jozibali, qulayroq bo‘ladi. Joylashuvidan qat'i nazar, mobil texnologiyalardan foydalanish mavjudligi muhim afzalliklarni beradi. Mobil vositalar va mobil texnologiyalar materialni idrok etishni kengaytirishga yordam beradi, o‘quvchining xotirasini faollashtiradi va muloqot qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Xalqaro hamkorlik va hamkorlik sohasida ta’limni rivojlantirish istiqbolli yo‘nalishdir. Ta’lim tizimini rivojlantirish, tajribani o‘rganish, ilmiy tadqiqotlar sohasidagi o‘zaro aloqalarni yangi aloqa texnologiyalari orqali amalga oshirish mumkin.

Xulosa. Ta’limni axborotlashtirishning asosiy muammosi bu jarayonni amalga oshirishda tizim yondashuvining etishmasligi. Ko‘pgina hollarda axborot texnologiyalari o‘z tashabbusi bilan oliy o‘quv yurtlarida qo‘llaniladi. Axborot texnologiyalari o‘qituvchilaridan o‘quv jarayonida foydalanish samaradorligi sezilarli darajada farq qiladi. Ta’lim muassasalarini jihozlash texnologik yutuqlar vositalari

ham har xil. Ta’lim muassasasida ishlatiladigan dasturiy ta'minot va dasturiy ta'minotning sifati har doim ham yuqori darajada emas. Ro‘yxatdagi muammolar majmuasi umuman ta’lim tizimiga va uning keyingi rivojlanish shartlariga ta'sir qiladi. Shunga qaramay, axborot texnologiyalarining ta’lim tizimida foydalanish samaradorligi aniq. Axborot texnologiyalari o‘quv jarayoniga tatbiq etilishi bilan nafaqat o‘rganish jarayonining intensivligini oshirishga, balki o‘quvchilarning bilim sifatini oshirishga ham muvaffaq bo‘ldi.

RAQAMLI TA’LIM MUHITIDA O‘QITUVCHINING RAQAMLI KOMPETENTSIYALARINI RIVOJLANTIRISH

Hamrayeva G.R., Abdusamatova Sh.X., TATU

